

Osmonlar Va Yerlar Haqida So'z

Habarda keltiribdilarki, Oллоh subhanahu va taolo hamma narsadan ilgari bir gavharni yaratdi. Bu gavharga haybat nazari bilan qaragan edi, u erib ketdi. Erib suv bo'lgan gavhardan yerni yaratdi. Suv ustiga tushgach, u ko'piklandi. U ko'pikdan tutun ko'tarildi, u tutundan ko'kni yaratdi. Ul suv Oллоh taoloning haybatidan qaynab ko'piklandi. Ul ko'pikdan Ka'baning o'rnicha yerni yaratdi. Shundan keyin osmonlarni yaratishga kirishda. (Oyat) "So'ng osmon tomonga yuzlandi va ularni yetti qavat osmon qilib yaratdi". Osmonlarni yaratib bo'lgandan keyin avvalda yaratilgan yerni mashriqdan mag'ribgacha yozib tekisladi. (Oyat)B "Va yerni undan keyin to'shadi".

Bu yerlar va osmonlar bir qavat edi, qudrati bilan osmonni yerdan ayirdi, har qaysilari yetti qavatdan bo'ldi. (Oyat) "Oллоh shunday zotki, u yetti osmonni yaratibdur va yerlardan ham shunchani". Bu yetti yer ustida suvlar yaratildi. U yerlarni ushlab termoq uchun tog'larni ular ustiga qoziq qilib yaratdi.

Oллоh taolo butun olamni olti kunda yaratdi. (Oyat) "Badahqiq, Biz osmonlarni, yerni va ularning o'rtalaridagi bor narsalarni olti kunda yaratdik". Habarda keltirilishicha, yakshanba kuni osmonlarni yaratdi, dushanba kuni oyni, quyoshni, yulduzlarni yaratib, falak ichida turgizdi, seshanba kuni qush-qumirsqalarni, farishtalarni yaratdi, chorshanba kuni suvlarni yaratdi, shamollarni, bulutlarni chaqirdi, daraxtlarni, o't-o'lanlarni undirdi, rizq-nasibalarni ulashdi, payshanba kuni jannat, do'zaxni, rahmat va azob farishtalarini, hurlarni yaratdi, juma kuni Odamni yaratdi, shanba kuni hech narsa yaratmadi. Bu hamma narsalarni va yana minglab narsalarni ko'z ochib yumguncha yaratguvchi qudrati bor edi. Shuning uchun olti kunda yaratdiki, bunda bandalariga ta'lim bor edi: "Men qodir bo'lsam-da shoshilib qilmasman", degan. Rasululloh dedi:B "Shoshilish shaytonning ishi va shoshilmaslik Rahmonning ishidur".

Osmonlarning Sifati

Ilk qavat osmon yashil zumraddandir, uni Rafiq derlar. Farishtalari dovon suratida, ulug'larning oti Ismoildir. Ikkinchi qavat osmon kumushdandir, uni Ruq'a derlar. Farishtalari burgut su'ratida, ulug'larning oti Raqobildir. Uchinchi qavat osmon yoqutdandir, uni Qaydam derlar. Farishtalari sigir suratida, ulug'laorning oti Ko'kboildir. To'rtinchi qavat osmon oq injudandir, uni Mo'un derlar. Farishtalari ot suratida, ulug'larining oti Nubyoyildir. Beshinchi qavat osmon oltindandir, uni Ratqo derlar. Farishtalari hur suratida, ulug'larining oti Siftboildir. Oltinchi qavat osmon sariq yoqutdandir, uni Aribo derlar. Farishtalari odamiy suratida, ulug'larining oti Nurboildir.

Yerlarning Sifati

Ilk qavat yerni Ramko derlar. Aqim otlig' shamol ustida yetmish ming xalqada turar. Har bir xalqani yetmish ming farishtalar tutib turarlar. Ikkinchi qavat yerni Julza derlar. Uning ichida do'zax chayonlari bordir, ul chayonlar tuyalarga teng kelar, nayzalari quduq sifatlidir. Har bir olti yuz oltmish bo'yin, har bo'ynida olti yuz oltmish bosh, har boshida olti yuz oltmish zaharli olma bordir. Ulardan biri bu dunyoga cho'kib qolsa, olam ahlining brachasi halok bo'lg'ay. Uchinchi qavat yerni Arqa derlar. Uning ichida har biri Kof tog'idan ham kattaroq bo'lgan urumlar bordir. To'rtinchi qavat yerni Harna derlar. Uning ichida do'zax ilonlari bordir. Har bir ilonning ming tishi bor, har bir tishi xurmo daraxtidek, har bir tishi ostida og'u bilan to'la o'n sakkiz olma bordir. Beshinchi qavat yerni Malso derlar. Uning ichi do'zax toshlariga to'ladir. Oltinchi qavat yerni Sijjin derlar. Uning ichida do'zaxiyalarning jonlari turadir. Yetti qavat yerni Ajibo derlar. Iblis shunda turar. Har yilda bir chiqar va yana qaytib kirar. Har bir kunning uzunligi besh yuz yilga tengdir.

Farishtalar, Jinlar Va Odamlarning Yaratilishi Haqida So'z

Oллоh taolo farishtalarni o'tning yorug'ligidan, parilarni esa o'tning alangasidan yaratdi. Ularning asllari bo'lsa hamki, uch narsa bilan farqlanadilar. Buri shuki, farishtalar nurdan, parilar alangadan bino bo'lgandilar. Ikkinchisi shuki, farishtalar malak deb, parilar esa jin deb ataldi. Uchinchisi shuki, farishtalarning makoni osmonda, jinlarniki esa yerda bo'ladi.

Habarda kelishicha, Oллоh taolo jahannam ichida ikkita mahluq yaratdi: biri erkak arslon suratida, oti Jablit, ikkinchisi esa urg'ochibo'ri suratida - oti Tablit. Jablitning quyrug'i dumi ilonga o'xshash, Tablitning quyrug'i chayonga o'xshash. Oллоhning farmoni bilan ikkovining quyruqlari do'zax ichiga tushdi. Bunga qadar do'zax ichida na ilon va na chayon bor edi. Jabroil alayhissalomga farmon bo'ldiki, Tablitni nikoh qilib Jablitga bergin, deb. Hamma muhluqotlar ichida eng birinchi nikoh shu edi, ungacha nikoh bo'lmagandi. Jablit bilan Jablit qo'shilgach, egizak nasllar: bir o'g'il, bir qiz tug'ila boshladi. Jablit tug'ilgan qizlarni birga tug'ilgan o'qillarga berar edi. Yettinchi farzand ko'rganda o'g'luga Xoris deb nom berdi. U g'oyat makkor bo'ldi. Jablit u bilan birga tug'ilgan qizni Xorisga berayin degnada Oллоhdan farmon bo'ldiki: "Bundan buyon birga tug'ilganlarni nikohlamagin. Oldin tug'ilgan o'g'ilga keyin tug'ilgan qizni bergin!"B Jablit Xoris bilan tug'ilgan qizni boshqa o'g'luga berdi. Bundan Xoris o'pkalab, boshqa qizni olishga unamadi. Do'zaxning holi bir burchagida o'tirib, ibodatga mashg'ul bo'ldi. Ko'p yillar ibodat qilgach, tangri uni oltincha qavat yerga chiqardi. Unda ham ko'p ibodat qilgan edi, beshinchi qavat yerga chiqardi. Bunda ham ziyoda ibodatga mashg'ul bo'lgandi, bu dunyoga chiqardi. Bu dunyoda ham chandon ibodat qildiki, Mashriqdan Mag'ribga qadar Xoris sajda qilmagan bir qarich yer ham qolmadi. Shundan keyin Oллоh taolo uni osmonga chiqardi. Unda ham ziyoda toatlar qilgani bois ikkinchi osmonga chiqardi. Shu tariqa yettinchi osmonga ham chiqdi. So'ngra, Jannatga kirgizgandi, u yerda farishtalarga ustod bo'ldi. Shunda Xoris otini o'zgartirib, Azozil deb atadilar. U istasa jannatga kirar, istasa osmonga chiqardi. Onadan tug'ilgandan keyin uch ming yil o'tgandi. (Oyat)B "Eslagin, ey Muhammad, ul vaqtiki Parvardigoring farishtalarga dedi: Sajda qilinglar Odamga! Bas sajda qildilar hammalari, ammo iblis sajda qilmadi". Bu iblis Azozil edi. Aytishlaricha, Azozil Jonn urug'idan edi.

Shundan keyin yer yuzida o'tgan Jonn otlig' mahluq yaratildi. (Oyat) "Va undan ilgari jinlarni yaratdik Biz esib turgan o'tdan".

Rivoyatlarga ko'ra, ular dunyoda yetmish ming yil turdilar. Oллоhga gunohkor bo'lgach, ular ketkazildi. O'rinlariga Jon ibn al-Jon otlig' haloyiq keldi. O'n zakkiz ming yil umr ko'rdilar. Ular ham osiylik qilgach, o'rinlari farishtalarga berildi. Farishtalar yetmish ming yil turdilar. Azozil ular bilan birga edi. Dunyoga ko'ngil bog'ladilar, bu Oллоhga xush kelmadi: "Mendan boshqaga ko'ngil berdingiz, sizlarni ketkazurman, keyin xalq yaratib, bu mulkni ularga berarman", deb xitob qildi. (Oyat) "Albatta Men yer yuzida xalifa, "o'rin bosar" yaratmoqchiman".

Yana bir habarda aytilishicha, Oллоh taolo dunyoni yaratgandan so'ng yer mulkini qushlarga berdi. Yetti ming yil qushlar ihtiyorida bo'ldi. Undan keyin Jin ibn al-Jonga berdi, ular ham yetti ming yil umrguzaronlik qildilar. Gunoh, shariatga xilof ko'p ishlarni qilganlarki, qon to'kkanlari uchun yer yuzi tasarrufini ulardan olib, farishtalarga berdi. Yetti ming yil bo'lgandan keyin ulardan

ham olar vaqt yetgach, Olloh taolo: "Men yer yuziga halifa yaraturman", deb xitob qildi. Farishtalar bu xitobni eshitgach, g'amgin bo'ldilar va "Ilohi, yer yuzida gunohkorlar va qon to'kuvchilarni yaraturmisan? Yer mulkin biz tasbih va tahlil aytuvchilardan olib, ularga berurmisan?", dedilar. Xitob qildi: B "Men bilurman, sizlar bilmassiz".

Savol: Farishtalar odam farzandlarini ko'rmagandilar va ularning fasod ishlar qilganlarini va qon to'kkanlarini qaerdan bildilar? Javob: Darhaqiqat, ular Odamlarni ko'rmagandilar, ammo Jin ibn-Jonni ko'rgan, gunohkorliklarini bilgan edila va shunga qiyosan so'z aytgandilar. Olloh taoloning "Sizlar bilmagan narsalarni men bilaman", deyishiga sabab shuki, birinchidan - Ollohning ushbu kalomiga ko'ra u zot aytadiki: "Muhammad mustafi alayhissalom odam farzandlaridan bo'ladi. Bu jahonni, oy, quyosh va barcha narsalarni uning suyakligi uchun yaratdim. Kim mening do'stim ekanligini o'zim bilurman, sizlar bilmassizlar". Ikkinchidan - Olloh taolo shunday debdur: B "Men bilamanki sizlarning ibodatlarinigiz (ujb) o'ziga bino qo'yish bilan aralashgan va ularning gunoh ishlari uzr bilan aralashgan. Uzrli gunoh mening nazdimda ujblik gunohdan mahbubroqdir".

#### Odam Alayhissalom Qissasi

Payg'ambar alayhissalom dedilar: "Kimda-kim dunyo ajoyibotlarini ko'rmoqchi bo'lsa, Odam alayhissalom qissasiga qarasin". Olloh subhanahu va taolo odamni yaratishlikka ahd qildi va Jabroil alayhissalomga amr qildi: "Borgil, yer yuzidan bir hovuch tuproq keltirgil!" B Jabroil kelib tuproq olmoqchi bo'lgandi, yer ont berdi: "Mendan tuproq olmangiz!" deb. Hazrat Jabroil yerga rahmi kelib, tuproq olmadi. Hazrat Isrofilni yubordi, unga ham ont berdi va u ham tuproq olmadi. Keyin hazrat Makoilni jo'natdi, yer unga ham ont berdi, u ham tuproq olmadi. Shundan keyin hazrat Azroilga farmon bo'ldi. Yer unga ham ont berdi. Azroil aytdi: "Olloh taoloning buyrug'i sening otingdan azizroq turadi". So'ng yer yuzidan bir hovuch tuproq oldi. Ollohdan xitob keldi: B "Ey Azroil, qattiq ko'ngilli ekansan. Shunday taqdir qildimki, hamma tiriklarning jonini senga oldiraman".

U tuproqda oq, qora, chuchuk, achchiq, sariq, yashil, qizil, ko'k, qattiq, yumshoq, toza, nopok, totli va totlig'siz - hammasining suvi bor edi. Shul sababdan odam farzandlari bir-biriga o'xshamaslar, kimi puku, kimi nopok, kimi betobu kimi sog'lom, kimi qorayu kimi oq, kim sarig'u kimi qizil, kim esligu kimi aqlsiz, kimi chuchuk so'zliyu kimi achchiq so'zli, kimi qattiq ko'ngilliyu kimi yumshoq ko'ngillidirlar. Azroil u tuproqni Makka va Toif orasidagi Daxno nomli yerga qo'ydi. U tuproq ustiga qirq yil yomg'ir yog'di, o'ttiz to'qqiz yil qayg'u-alam yomg'iri, bir yil esa sevinch yomg'iri yog'di. Shu boisdan Odamga sevinchdan ko'ra qayg'u ko'proq bo'ldi. Olloh taolo qirq yildan keyin qudrat qo'li bilan odam suratini barpo qildi. Odamning boshi toif taravga oyog'i Makka tarafga qaragan edi. Buning hikmati toifning Makkadan ulug'ligini ko'rsatish uchun emas, balki odam o'rnidan tursa yuza Makkaga qarasin, deganlikdan shunday qilidi. Shariatda shunga monand mas'ala bor: bizning mashablardan qachon biron-bir bemor odam yotib namoz o'qimoqchi bo'lsa oyog'ini qibla tarafga uzatur. Shuning uchunki, qachon u namoz ichida sihat topguday bo'lsa va o'rnidan tursa yuzi qiblagga qaragan bo'lg'ay.

Odamni tuproqdan yaratmoqlikning nima hikmati bor edi? qachon Olloh taolo odamni yarataman, deb hitob qilganida barcha narsalar bosh ko'tarib: "Odamni bizdan yaratgil", deb ta'mia qildilar. Tog': "Men quvvatlikman", dedi. Dengiz: "Men haybatlikman", dedi. Oltin: "Men azizman", dedi. Osmon: "Men yuksakman", dedi. Hamma narsalar o'zlarini baland olib gap aytdilar. Yer esa tavozu' qilib, hokisolik bilan: "Men hammadan zaifman, oyoq ostidaman, menda quvonadigan narsa yo'q", dedi. Shunda xitob keldi: B "Men Odamni yerdan yaraturman" va Odamni tuproqdan yaratdi.

Habarda aytadilarki, bir kuni Iblis yetmish ming farishta bilan Odam jasadi yoniga osmondan tushib keldi, ikkala qo'li bilan Odamning qorniga urib ko'rdiki, ichi kovak ekan. Farishtalarga aytdi: "Buni yo'ldan chiqarish o'ng'ay ekan". Yana dediki: "Agar Olloh buning ustidan sizlarga erk bersa ne qilgaysizlar?" Hamalari: "Bo'yin sungaymiz", dedilar. Iblis aytdi: (Oyat) "Hudo nomiga qasamyod etamanki, agar Olloh uni mening ustimdan hukumron qilib qo'ysa, men unga bo'ysunmagayman va agar meni uning ustidan hukumron qilib qo'ysa, uni o'ldirgayman". Va shu ondayoq kofir bo'ldi. (Oyat) B "Va u kofirlardan edi".

Yana qirq yildan keyin Odamning jonig'a farmon bo'ldi: "Odamning taniga kirgin!" B deb. Jon Odamning boshi ustida turib qoldi, kirgani unamadi-da "Men oliyman, bu tubanga qanday kirayin", dedi. Shunda Jabroil alayhissalom keldi, unga B "Ey aziz jon, Olloh nomi bilan kirgil!" dedi. Jon Olloh nomini eshitgan hamon kirdi.

Yana bir rivoyatda keladiki, Jon Odamning boshiga kirib, ikki yuz yil turib qoldi. Undan keyin ko'ziga kirgan edi, ko'zlari ochildi. O'z yuzini ko'rdiki, qora tuproqdan yaralmish. Olloh o'z qudratini ko'rsatish uchun ko'zni yaratgandi. So'ngra burunga kelganda bir aksa urdi. Jabroilga xitob keldi: "Odamning burnidan chiqqan nafasni omonat saqlagil!" B Undan og'ziga keldi, shunda aytdiki: "Al-hamdu li-llahi robbil olamin". Olloh yorlaqadi: B "Parvardigoring senga rahmat qilsin, Men seni shuning uchun yaratdim". Shundan keyin jon ko'ksiga keldi. Shu yerda turmoqchi bo'lgandi, tura olmadi. Shu asnoda Olloh taolo: (Oyat) "Va inson shoshiladurgan bir mahluq qilib yaratildi", dedi. Shundan so'ng qorniga kelgandi, taom istadi. Jon jasad ichida yoyila boshladi, suyaklar, go'sht, teri, tomir kabilan hosil bo'ldi, tebrana boshladi.

Odamning terisi bag'oyat ko'rklki edi. Kundan-kun tiniqlasha boshladi. Qachonki illatlar hosil bo'la boshlaganda, teri suyuldi. O'sha terining belgisi barmoqlar uchida qoldi, u tirnoqlarga aylandi.

Savol: Jonning birida osonlikda qaror topgani va chiqar chog'ida qiyinchilik bilan chiqarida ne hikmat bor?

Javob: Buning koirasi shulki, kirar paytda u Olloh taoloning "Robbing rahmati bilan kirgin", degan xitobini eshitib, o'ng'aygina kirgandi, chiqarda esa "Yana rahmat sevinchini eshitmaguncha chiqmasman", deyarkan. Ko'rmasmisan, kimning baxti bor bo'lsa, (Oyat) B "Sizlarga va'da qilingan jannat bashorat bo'lsin!" degan bashoratni eshitib, o'ng'aygina chiqadi, Kim badbaxt bo'lsa joni qattig'lik bilan chiqadi. Bundan Ollohning o'zi asrasin.

Odami safiy alayhissalom o'sha holda yetti kun o'tirdilar. Shundan keyin Olloh taolo qizil oltindan yaratilgan gavhar bilan bezak berilgan bir taxt tushurdi. Unga ajoyib sarupolar kiydirdi, boshiga oltin toj o'rnatdi. Uni taxt ustiga o'tkazdi. Yetti yuz ming farishtalar Olloh taoloning farmoni bilan kelib, Odamning tengrasida saflandilar. U taxt "Masjid ul-Xaram" B bilan barobar kelardi. Taxt ustiga bir kursi qo'yildi. U Ka'ba bilan barobar edi. O'n yig'och (tahminan 9 km keladigan masofa birligi) lik yer B "Xaram" deb ataldi.

Olloh taolo Odamni butun ko'rkliklar bilan bezatdi. Tishlaridan nur balqirdi, ko'zlari nurga monand, Muhammad mustafoning nuri Odamning yuzida to'lin oy yanglig' balqib turardi. Odam ul nurning ravshanligini ko'rib, "bu nurni bir ko'rsam", deb istak bildirdi. Ollohning farmoni bilan u nur Odamning o'ng yanog'iga, undan yelkasiga, undan qo'lga indi. Nur qo'lida ko'tarila borib, shahodat barmog'ining uchida to'xtadi. Odam bu barmog'ini yuqoriga ko'tarib, uning ko'rkini ko'rib tong qoldi-da: B "Laa ilaha illalohu Muhammadur rasululloh", dedi. Avval barmoqni ko'tarib, shahoda kalimasini aytmoq Odam farzandlariga shundan sunnat bo'lib qoldi.

Farishtalar Odamni osmonga olib chiqdilar. Jabroil alayhissalom bir ot keltirdi. U mushk-anbardan yaratilgandi. Odam unga

mind. Jabroil alayhissalom tizginini tutdi. Hazrat Mekoil o'ngida, hazrat Isrofil so'lida yurib, osmonlarni kezdi. Farishtalar yo'liqanida Odam ularga: "Assalomu alayka yo maloikatallohu!" deb salom qilar edi. Bunga javoban farishtalar: "Alaykumus-salomu va rahmatullohi va barokatuhu!" der edilar. Olloh taolo xitob qildi: B "Bu sening saloming bo'lur va yana sening o'g'lonlarning qiyomatga qadar salomlari bo'lur!"

Odamni jannatga kiritganlarida u yerdagi ne'matlarni, hurlarni, qasrlarni tomosha qilib yurib, o'ziga o'xshagan mahluqotga ko'zi tushmagach, ko'ngli to'lmadi. Shunda Olloh taolo Odamni uyquga cho'mdirdi. Uzoq davom etgan uyqu orasida Olloh taolo Odamning chap biqini qobirg'asidan Havvoni yaratdi.

Savol: Havvoni Odamning uyqusi ichida yaramoqligiga sabab nimadir?

Javob: Odam bedor bo'lsa joni og'rirdi, shu bois Havvoni dushman tutib qolishi mumkin edi. Agar o'zidan yaratilganini bilmasa, uni sevmagay edi. Olloh taolo Havvoni egri suyakdan yaratdi, shu tufayli xalq orasida: "Ayollar egri suyakdan turar, uni to'g'itrayman deb sindirib qo'yish mumkin", degan matal yuradi. Odamda Havvoni o'zidan yaratilganini ko'rib, uning muhabbati ko'ngliga jo bo'ldi. Havvo g'oyat ko'rklik edi.

Habarda kelishicha, Olloh taolo husnni yuz ulush qildi, uning to'qson to'qqizini Havvoga berdi. Qolgan bir ulushini o'n qismga bo'lib, to'qqizini Yusuf alayhissalomga va qolganlarini bashariyatga berdi. Odam Havvoni o'ziga o'xshaganligini ko'rib, ko'nglida rag'bat uyg'ondi va "Menga yaqinroq kelgil!" B deya chorladi. Havvo aytdi: B "Meni istasang o'zing kelgil!" Odam o'rnidan turdi, Havvoning qoshiga keldi. Agar u bir soat sabr qilganda edi, Havvoning o'zi kelar edi. Shu tariqa erna xotinlar qoshiga bormoqligi sunnat bo'lib qoldi. Ammo qachon jannatga kirsalar xotinlar erlari qoshiga keladilar.

Odam Havvoga tegingan edi, Jabroil alayhissalom to'xtatdi: "Ey Odam, Havvo senikidir, lekin nikoh qilmaguncha ravo bo'lmas". Olloh taolo o'zining pok zoti ila Odam va Havvo nikohiga xutba qildi.

U xutba bu turur: "Hamd-mening maqtovim, mening ismim-Olloh, rahmon - mening hazinalarim kaliti, rahim - gunohkorlarimning gunohini kechish kalti, ulug'lik - mening libosim, buyuklik - mening to'nim, azizlik va sahiylik - mening go'zalligim, go'zallik va ulug'lik - mening martabam, insonlarning hammasi - mening qullarim va cho'rilarim, anbiyolar va payg'ambarlar - mening elchilarim va tanlagan bandalarimdir. Muhammad - mening habibim va payg'ambarim, uning ummatlari - ummatlarning yaxshisidir va mening sevgan do'stlarimdir. Men, badahqiq narsalarni juft yaratdim, toki bu bilan mening birligimiga isbot topsinlar. Shohid bo'linglar, mening farishtalarim va mening arshimni ko'tarib turguvchilar va mening osmonimdan sokinlar - Men, batahqiq, juftladim cho'rim Havvoni qudratimning san'ati bo'lgan va yaratishimning ajoyiboti bo'lgan Odamga. Menga tasbeh aytish (Subhanalloh deyish) va tahlil aytish (La ilaha illalloh deyish) va odam bolalarining namoz o'qishi mahur qilindi. Ey Odam, jannatimga kir va mevalarimdan tanovul qil. Mana bu daraxtga yaqinlashmanglar. Salom bo'lsin har ikkalanglarga va mening rahmatim ham bo'lsin. Odamlarning parvardigori bo'lgan Ollohga shukur".

Habarda kelurki, Odamdan so'radilar: "Nega Odam atalding?" B Javob berdilar: "Shuning uchunki, men bir odim yer tuprog'idan yaratildim". Havvoga savol qildilar: "Ne uchun Havvo atalding?" Javob berdilar: B "Tirik jondan yaratildim".

Yana ba'zilar aytadilarki, Odam tuproqdan yaratildim, tuproq turgan sayin ko'rki bo'lar. Havvo esa etdan yaratildi, et turgan sari sasir. Shu tufayli xotinlar qarisa, ko'rki yo'qotur.

Odam va Havvo nikohlanganlaridan keyin xitob keldi: "Ey Odam, jufting Bilan jannatga kirgil, ne'matlardan yenglar. Ammo manna bu daraxtga yaqinlashmanglar zolimlardan bo'lgaysizlar". Bu daraxt - bug'doy daraxti edi.

Ammo Havvon yer yuzida yaratildimi yo jannatda, bu xususida ulamolar orasida ixtilof bor.

Azozil jannatda erkli edi, jamiki farishtalarga ilm o'rgatar edi. Bir kuni ko'rdilarki, "Lavhul Mahfuz" da farishtalardan biri mal'un bo'ladi, deb yozig'lig' ekan. Farishtalar bundan behad qo'rqdilar, Azozilga kelib: B "Sen ustozmisan, biz g'oyat qo'rqayapmizki, bizni duo qilg'il, Olloh taolo bizni la'natdan asrasin".

Azozil duo qildi, farishtalar "Omin" B dedilar. Olloh taolo uning duosi Bilan farishtalarni asradi, o'zi esa la'natga uchradi. Farmon keldi: "Odamni nurdan yasalgan taxt ustiga o'tkazib, yelkalariga ko'tarib, jannatni kezsinar!" Bunga sabab shu Ediki, Odam hali yaratilmasdan ilgari farishtalar: "Odam farzandlari fasod ishlarni qilgaylar, qon to'kkaylar", deb g'iybat qilgandilar. "Biz bir qancha tasbehtaqdis lozim bo'lsa aytarmiz", deb o'zlarini yuqori oldilar. Ularning bu so'zlari Ollohga xush kelmadi. Hukm qildiki: B "Odamni g'iybat qildingiz, savoblaringiz bekor bo'ldi. Ul savoblar sizlardan olinib, Odam farzandariga berildi. O'sha g'iybatning jazosi shudur. Bu kun hamma frishtalar boring, Odam taxtini bo'ynigizga ko'tarib, hizmatini bajo keltiring!"

Undan keyin Olloh taolo Odamga "Ismlar ilmi" ni o'rgatdi. So'ng jamiki narsalarni farishtalarga ko'rsatib: "Agar sizlar rostgo'y bo'lsangiz bu narsalarning otini menga aytib bering", dedi. Farishtalar ojiz bo'lib: "Parvardigoro, Sen pokdursan, Sen o'rgatgandan boshqa hech bir ilmimiz yo'qdir, o'zgasini bilmasmiz", dedilar. Odamga farmon bo'ldi: "Ey Odam, bularga anavi narsalarning nomlarini aytib bergil!" Odam ularning nomlarini aytib berdi: "Bu daraxt, bu tosh, bu suv . . ." Hamma narsalarning nomini jamiki tillar Bilan bayon qildi. Shunda: "Ey farishtalar, sizlarga aytmadimi, Men bilganni sizlar bilmaysizlar", degan xitobi keldi, B "Endi sizlarga ma'lum bo'ldiki, Odam olimdir, sizlar obidsizlar. Mening nazdimda ming obiddan bir olim afzaldir. Qayda obid bo'lsa, olimga hizmat qilmog'i kerak. U mahdum bo'lsin, sizlar hodim bo'ling, u masjid bo'lsin, sizlar sojid (sajda qiluvchi) bo'ling, Odamga sajda qiling!" Jumla farishtalar sajda qildilar. Yolg'iz Azozil sajda qilmadi, bo'ysunmadi, ulug'sindi, kofirlardan bo'ldi. Qachon farishtalar sajda qilgach, ko'rdilarki, Iblis sajda qilmadan turardi. Shukur, dedilar va sevinganlaridan yana bir sajda keltirdilar. (Bu kun namozda ikki sajda qilmoqlik boisi shundadir).

Habarda kelishicha, Odam jannat ichida yarim kun qoldi. U jahonning bir kuni bu dunyoning hisobida besh yuz yil bo'lur. Tuproqdan yaratilgandan keyin to jannatga borguncha ming ikki yuz qirq yil fursat o'tgandi.

Azozil sajda qilmagandan so'ng: "Ne uchun sajda qimassan?" B degan xitob qildi. Iblis: "Men undan ortiqman. Meni o'tdan yaratding, uni esa qor tuproqdan yaratding", dedi. Bu da'voni qilgandan so'ng Azozil otini ko'tardilar, Iblis degan nom berdilar. Iblisning ma'nosi B "noumid" deganidir. Iblisi la'in o'tni tuproqdan ortiq, dedi. Bilmadiki, tuproq o'tdan ortiq turishligini. Bunga dalil shuki, o't o'g'ridir, unga qanday narsani bersalar yo'q qilur, qaytib bermas. Ammo tuproqqa bir hovuch bersangiz, o'nni yuz qilib qaytarur. Iblis o'tga quvondi, bu bois o'tga qaytadigan bo'ldi. Odam Ollohga quvondi, shuning uchun tangriga qaytadigan bo'ldi. Kim nimadan quvonar bo'lsa, o'shanga qaytadigan bo'ldi.

Iblis: "Iloho, yuz ming yil ibodat qildim, mnga uning evazini bergil!".

"Ne tilarsan?" degan xitob keldi.

Iblis qiyoma kuniga qadar yashashlik uchun uzoq umr tiladi: "Ey Parvardigorim, ular tiriladigan kunga qadar menga muhlat Ber!". Mufasssirlar ayturlar, u badbaxt Ollohga hiyla qilmoqchi bo'ldi va qiyomat kuniga qadar umr tiladi. Maqsadi shu Ediki, o'liklar tiriladigan kungacha hayot bo'lsam menga boshqa o'lim bo'lmaydi, deb umid qilgandi. Olloh uning sirini bildi va: "Albatta, sen



muhlat berilganlardandirsan, to ma'lum vaqtning kunigacha", deb javob berdi. Unga o'zi tilagan kungacha emas, ma'lum kungacha umr berildi.

Yana bir mo'v B'tabar tafsirda keladiki, Iblis o'yladi: "Bu kun tangri farishtalari kuchlidir, ular bilan bellashishga qudratim yetmas. Agar o'liklar tiriladigan kungacha umr berilsa, ungacha Jabroil, Isrofil, Azroil va boshqa farishtalarning hammasi o'lsalar, tangri yolg'iz qoladi, shunda u Bilan jang qilgayman", deb.

Savol: "Iblis ma'lum bo'lgandan so'ng jannatga kirmoqlikka qanday yo'l topdi?"

Javob: "Olohning Odam farzandlari ustidan senga nusrat berdim", degan farmonidir. Yana bir tasdiq Rasul alayhissalomning: "B "Qon odamlarning tanida qanday yursa, shayton ham shunday yurar", deganlaridir.

Savol: "Odam va Havvoni bug'doy daraxtidan qaytarmoqning ne hikmati bor edi?"

Javob: Oloho taolo Odamni yaratmasdan ilgari: "Men yer yuzida xalifa (o'rinbosar) yaratmoqchiman", deganidir. Bug'doydan yesalar, bu ularning jannatdan chiqmoqliklariga sabab bo'lishi taqdir etilgandi. Yana bir javob shuki, Oloho taolo dunyoda odamzotning taomi bug'doy bo'lishini taqdir qilgandi, shu bois xitob qildi: "B "Jannatning hamma ne'matlaridan yegil, bug'doy yemagil!" deb.

Savol: "Jannatga kiritilmoqlikda ne hikmat bor edi?B "

Javob: "Jannatga kiritgan kunda bashariyat Odamning pushtikamarida edi".

Savol: mo'minlar o'z o'rinlarini ko'rishlik uchun jannatga kirdilar, lekin Odamning pushtikamarida mo'minlar Bilan birga kofirlar ham bor edi-ku? Ularning kirmog'ida nima hikmat bor?

Javob: Mo'minlar o'z o'rinlarini ko'rsinlar, dunyoga kelganlarida jannatga qaytish umidida ibodatni ko'p qilsinlar deb, kofirlar esa do'zaxga borganlarida jannatda ko'rgan ne'matlar uchun ko'proq hasrat cheksinlar deb behishtga kiritilganlar. Jannatga kiritilmoqlikning Yana bir hikmati shuki, Oloho taolo azalda (Oyat) "Albatta Oloho taolo mo'minlardan jonlarni va mollarni ularga jannat berib sotib oldi", degan hukm qilgan edi. Shariatda ko'rilmagan narsa Bilan savdolashmoq ravo bo'lmigani uchun ham jannatni ko'rsatgandir. Bu savdoda sotgan ham, olgan ham Oloho taolodir, uning dalili Muhammad Mustafo alayhissalomdir. Ulamolar ixtilof qildilarki, Odamning zurriyotini qay joyidan pushtikamaridan chiqardi, deb. Ba'zilar jannatga kirguncha, ba'zilar jannatda, ba'zilar jannatdan chiqqandan keyin dedilar.

Oloho taolo Odam farzandlarini uning pushtikamaridan chumoliga o'xshagan kichik bir odamlar suratida chiqardi, ularning oqillari ham, mo'minlari va kofirlari ham bor edi. Olohndan xitob keldi: "Men sizlarning Parvardigoringiz emasmanmi?" B Hammalri: "ori, Parvardigoringimizsan", deb javob berdilar. Odam ularni ko'rgach: "Iloho, bular kimlardir?" dedi. Xitob keldi: "Bular sening to qiyomatga qadar dunyoga keladigan farzandlaringdir". Odam ularning ko'pligini ko'rib: "Iloho, bular yer yuziga qanday qilib siqqaylar?" dedi. Xitob keldi: "Ey Odam, to'rt ulush qilurman. Bular ulushi otalar pushtikamarida, bir ulushi onalar qornida, bir ulushi yer yuzida, bir ulushi yer qo'ynida bo'ladi". Odam ularga qarab, birovni ko'r, birovni oqsoq ko'r, birovni og'riq, birovni esa nimjon ko'r: Ilohi, bularni ne uchun birdek yaratmading? Xitob keldi: "Ey Odam, jannatni yaratdim, unga kirguvchilarni ham bino qildim. Do'zaxni yaratdim, unga tushguvchilarni ham bino qildim. Agar ko'rlarni yaratmasam edi, ko'zlilar shukur qilmas edilar, bemaorni yaratdim, sog'lar shukur qilsinlar deb". Ularning bir qanchasini jannatning o'ng tomoniga, bir qanchasini esa do'zaxning so'l tomoniga turg'azdi va xitob qildi: "Anna ular jannatda va Men parvo qilmayman, ana ular do'zaxda va Men parvo qilmayman".

Va Yana bir rivoyatda keladiki, ularning hammasini dunyoga chiqardi va "Dunyoni ko'rib keling", dedi. Keldilar, dunyoni ko'rdilar, unda qoldilar, ozrog'i qaytib keldilar. Xitob keldi: "Qolganlaring qani?" Dedilar: "Dunyoni ko'rdilar, ko'ngillari dunyoni tiladi, unda qoldilar". Farmon bo'ldi: "Jannatga boring, uni nima ekanini ko'ring!" Bordilar, ko'rdilar, ko'plari jannatda qoldilar. Xitob keldi: "Boshqalaring qani?" Dedilar: "Iloho, ular jannatni istadilar, unda qoldilar". Dedilarki, dunyoda qolganlari kofirlar edi, jannatda qolganlari mo'minlar edi, jannatda qolmay qaytib kelganlari Olohning xos qullari edi. Xitob keldi: "Dunyoga ko'ngil bermadingiz, jannatda qolmadingiz, endi nimani istaysiz?" Dedilar: "Iloho, bizga Dune kerakmas, jannat kerakmas, Sen keraksan". Xitob keldi: "Kimki meni tilasa, xazinam ichidagi qaysi balo ulug'roq bo'lsa, o'shani ularga berurman". Dedilar: "Ul baloni berganingda biz Bilan birga bo'lurmisan?". Dedi: "Bo'lurman". Dedilar: "Iloho, balo yetganda Sen biz Bilan birga bo'lsang, har qancha balo bersang ham qabul qilgaymiz". (Hadis) Rasul alayhissalom dedilar: "Darhaqiqat, baloning eng qattig'i payg'ambarlarga kelur, undan so'ng avliyolarga kelur va undan keyin tartib bilan. . ."

Habarda kelurki, Shayx Shubliy dunyodan o'tgandan keyin uni tushda ko'rib "Holing qanday?" B Deya so'rabdilar. Javob beribdiki: "Meni Dafn qilganlaringdan keyin Munkar-Nakr alayhissalomlar kelishdi Tangring Kim?" Deya so'roqqa tutdilar. Ularga javob aytdim: "Mening Tangrim otamiz Odamni jannat ichida nurdan yasalgan taxt ustiga o'tkazdirgan, osmon farishtalarini otamizga sajda qildirgan zotdir. Jabroil, Mekoil, Isrofil, Azroil alayhissalomlar ham ular Bilan birga edilar. Sizlar sajda qildingiz, men esa hamma qarindoshlarim Bilan tomosha qilib turgan edim". Shunda ular bir-birlariga qarab: "Bu hammaning nomidan so'zlar, o'zining so'zini so'zlamas, ketaylik", dedilar. Agar ular ikkalasining qanday qochganini ko'rsang edi. Agar Yana Biroz to'xtaganlaringda edi, ularni tutib: "Sizning Tangringiz Kim? deb so'ragan bo'lardim. Qancha javob bersalar ham hujjat Bilan ularni tindirmas edim".

Yana maqsadga kelamiz. Iblis mal'un bo'lgach, jannatdan quvildi va u yerga Kira olmaydigan bo'ldi. Ko'ngliga Odam va Havvoga nisbatan adovati to'lib-toshdi. Ularni vasvasa Bilan jannatdan chiqarishlikka niyat qildi.

O'sha paytda ilon tuyaga o'xshagan chiroylik suratlik edi, qizil, yashil va turli bezaklar Bilan ziynatlangan qanotlari bor edi. Havvo ilonning chiroyiga mahliyo bo'lib, u Bilan so'zlashib turardi. Iblis bundan habar topib, ilondan "Meni jannatga olib kirgil, Havvo Bilan so'zlashmayish", deb iltimos qildi. Ilon qo'rqib, ko'nmedi. Iblis: "Og'zingni ochgil, men kirayin", dedi. Ilon og'zini ochdi, Iblis uning tili ostiga yashirindi, jannatga kirdi.

Ilon Oam va Havvo taxti qarshisiga kelib to'xtadi, uning tili tagidan Iblis so'zladi. Odam uning so'zlariga e'tibor bermgandi, Havvoga yuzlandi. Xotinlar ko'ngli yumshoq bo'ladi deb o'ylagandi-da. Havvoga qarab dedi: "Tangri sizlarni nima uchun bug'doy daraxtidan qaytarganini bilarmisan? " B Havvo dedi: "Bilmasman". Iblis dedi: "Shuning uchun qaytardiki, Kim daraxtdan meva yesa, u jannatda mangu qolur, o'lim ko'rmas". (Oyat) B "Ey Odam, senga mevasini yesa abadiy qoladigan daraxtni v afoniy bo'lmaydigan podishohlikni ko'rsataymi?"

Havvoning bu so'zlarga ko'ngli moyil bo'ldi, o'rnidan turib o'n qadam qo'yib bordi-da bir butoq sindirdi. Uni Odamga keltirib: "Bu butog' totli ekan, men yegandim hech nima qilmadi, sen ham yegil", dedi. Odam o'sha chog'da ahdni unutdi, ul luqmani og'ziga soldi, chaynadi, bo'g'ziga kelganda ahdi yodiga keldi. Yutmoqqa ham, tashqariga chiqarmoqqa ham ojiz bo'ldi, o'tib ketmasin Deya bo'g'zini qo'li bilan mahkam tutdi. U luqma bo'g'zida yumaloqlanib turib qoldi. Shu sababdan erkaklar bo'g'zida yumaloq

bor, ayollarda esa yo'q. Bux orlik sodir bo'lgach, boshlaridan toji ketdi.

Hikmat. Yahyo ibn Maoz al-Roziy aytadi: "Hajga yo'l oldim. Kimsasiz saxro ichida tun qorog'usida borayotib bir ovoz eshitdim. Ovozni qidirdim, shunda tikanlar orasida cholni ko'rdim, yomon yig'lab turardi. "Nima bo'ldi, nimaga yig'layapsan?" deya so'radim. Dediki: Nimaga ham yig'lamayinki, farishtalarga muallim edim, jannatda erkin edim, yeru osmonda ko'plab ibodatlar qildim, ohiri la'natga duchor bo'ldim". Bildimki Iblis edi. Unga dedim: "Nechuk aqalli bittagina sajda qilmading?" Dedi: "Menga sajda qil, dedi qilmadim, Odamga bug'doy yema, dedi, yedi. Azob ikkimizga barobar bo'lishi kerak edi. Odamni kechirdi, uzrini qabul qildi, meni kechirmadi, sharmanda qildi". (Oyat) "U takabbur qildi va kofirlardan bo'ldi". Undan so'radim: "Odamni kechirib, seni kechirmaslikda nima hikmat bor?" Javob berdi: "Avvalda Odam xususida inoyat bor edi, uni uzr etdi. Mening haqimda inoyat yo'q edi, meni uzrimni qaytardi". (Oyat)B "Azalda bo'lgan inoyat kifoya qilur", deb bejiz aytilmagandir. Hikmat. Havvo bug'doy mevasini yeganda, udaraxt yig'ladi, undan qonga o'xshash narsa oqdi. Bu illat Havvoda zohir bo'ldi va hayz to qiyomatga qadar ayollarga meros qoldi.

Savol: Hayzning muddati o'n kun bo'ldi, bining hikmati nimada?

Javob: Bug'doy olgani borib kelgunda o'n qadam qo'ydi, shuning uchun o'n kun bo'ldi.

Savol: Ko'pi o'n kun, ozi uch kun bo'lganligining hikmati nimada?

Javob: Gunoh uch narsa Bilan hosil bo'ldi: oyoq bilan bordi, qo'l bilan tutdi, og'iz bilan yedi. Shuning uchun ozi uch kun bo'ldi.

Savol: Istihoza nimadir?

Javob: Odam va Havvoning tavbalari qabul bo'lguncha yig'lagan ko'z yoshlari hayz bo'ldi. Tavbadan keyin yig'lagandagi ko'z yoshlari istihoza bo'ldi.

Savol: Nifos nimadir?

Javob: Havvo bug'doy mevasini olib kelguncha qirq marta nafas oldi, har bir nafas uchun bir kundan iflos bo'ldi.

Yana maqsadga kelaylik. Odam va Havvo horlikka uchraganlarida boshlaridan tojlari, ustlaridan kiyimlari tushib, yalang qoldilar. Qo'llar bilan avratlarini to'sganlaricha daraxtdan daraxtga yugirib, yaproq tiladilar. Qaysi daraxtga bormasinlar yaproq bermadi. Odam yugirib borayotganda jiyda daraxti nayzasi Bilan sochini tutdi. "Qayga borursan? Qo'ymasman! Agar qo'yib yuborsam, Hudoga osiy bo'lurman", dedi. Shu sababdan odamlar daraxt ekkanlarida jydani suvdan uzoqqa ekdilar, suvsiz qolsin deb. Hikmat. Hamma daraxtlar ichida o't bor. Daraxt suv ichmasa o'sha o't uni quritar. Olloh taolo jiydani qurib qolmasin, deb o'tini ketgazgandir.

Hukm keldi: "Ey Odam, Mendan qocharsanmu?"B Dedi: "Iloho, andisha qilib Sendan Senga qocharman". Jabroil Odamning qo'lidan ushlab, Olloh huzuriga keltirdi. Farmon bo'ldi: "Ey Odam, seni tuproqdan yaratdimmi, ma'rifat Bilan mukofotladimmi, chiroyli surat bilan bezadimmi, jannatga kiritdimmi, ne'matlar bilan siyladimmi, Havvoni senga juft qildimmi, bug'doy daraxti mevasini yemagan dedimmi, shayton sizga dushman deb aytmadimmi? Nechuk bug'doy yeding?" Dedi: "Iloho, ul hukmni Kim qildi-yu ul qazoni kim yaratdi?" Farmon keldi: "Men yuritdim men qazo qildim. Ammo mening qazom, hukmim, taqdirim g'ayb turar, buyrug'im, farmonim esa ochiq turar. Zohirni ko'rib nega g'oybga yuzlanding?" Dedi: "Iloho, shunday hukm qilding, qazo yuritding, meni kechirgil, yorlaqagil". Farmon keldi:B "Seni yorlaqadim, sendan keyin keladigan farzandlaring ham shunday iqror bo'lsalar, ularni ham yorlaqagayman. Endi jannatdan chiqqil", dedi.

Habarda kelurki, anjir daraxti Odam va Havvoga besh yaproq berdi, ular andomlarini yopib chiqdilar. Tong otgandan keyin o'sha besh yaproqning birini kiyik yedi, ifor (mushk) bo'ldi. Birini sigir yedi, anbar bo'ldi. Birini arii yedi, asal bo'ldi. Birini qurt yedi, ipak bo'ldi. Birini Odam yerga ekdi, yung bo'ldi. Qiyomatga qadar farzandlariga kafan bo'ldi.

Nukta. Olloh taolo Odamga yaproq berganligi uchun anjir daraxtini jazoladi. Ma'lumki, barcha yeguliklar uch turli bo'ladi: birining tashi yeyilur - olma, nok kabi, birining ichi yeyilur - yong'oq, bodom singari, birining tashi-yu yeyilmas ichi yeyilur - qovun, tarvuz kabi. Ammo anjirning tashi ham yeyilur, ichi ham yeyilur.

Odamga, Havvoga, Iblisga, tovusga, ilonga jannatdan chiqing, degant farmon bo'ldi. Odam va Havvo (Oyat) "Ey Parvardigorimiz, biz o'z-o'zimizga zulm qildik va agar Sen bizni gunohimizni kechmasang va bizga arhming kelmasa, unda ziyon tortguvchilardan bo'lib qolamiz", deya iltijo-yalvorish bilan yig'lab chiqdilar.

Odam Hindistondagi Anjalus degan yerdagi Sarandib tog'iga tushdi. Havvo Jida tog'iga tushdi. Iblis Basraga tushdi, shu bois isfaxonliklar baxil bo'lur. Odam va Havvo yalang'och g'oldilar, Iblis mal'un bo'ldi, Ilonning chiroyli surati aynidi, qornini sudrab yurguvchi, achchiq tuproq yeguvchi bo'ldi. Odam tushgan joyida behad xo'ng yig'ladi, yuz yig'och (tahminan 9 km keladigan masofa borligi)lik yerda uning ko'z yoshidan daraxtlar undi, jilg'a va buloqlar ko'z ochdi. Odamning yoshi tomgan yerda o't-o'lan, achchiq-chuchuk dorivorlar undi. Havvoning ko'z yoshi tomgan yerda qalampirmunchoq, sunbul, xinr, o'sma o'sdi. Ular qiyomatgacha Odam farzandlariga meros bo'lib qoldi.

Bir vaqt Iblis yer yuzidagi qush-qumrsqalarni yig'ib dedi: "Yer yuziga bir jonzot keldiki, u sizlarni urug'-aymog'ingiz Bilan qirib tashlaydi, hammalairng bir bo'lib o'ldiringlar, bo'lmasa omon qolmagaysizlar".

Hammalari yig'ilib keldilar. Eng avvalo sicha (qush nomi) kelib, Odamning boshiga qo'nib, sochini yula boshladi. Shuning uchun Odam avlodlari sichani tutib, patlarini yulib, pishiradilar. Odam qush-qumrchqalarni ko'rib, qo'rqib ketdi. Shunda farmon bo'ldi: "Ey Odam, ulardan biri huzuringga kelganda boshini silagil!" Odam itning boshini siladi. It yuizini qush-qumrqalarga qaratib, hammasini qopdi. O'sha kundan boshlab it Odam avlodlari bilan birga qoldi. Boshqa hayvonlar bilan dushman bo'ldi.

Yana farmon bo'ldi: "Ey Odam, poklanish mavridi keldi, sen Makkaga borgil, Mening uchun bir uy bino qilgil". Dedi:B "Iloho, u yerning qayda turishini bilmasan". Olloh taolo bir qushni yo'l boshlovchi qildi. Uning oti arab tilida Axyol erdi, turkchasiga esa ko'k qarg'a. U uchib boradi, Odam uning ortidan yurib boraverardi.

Payg'ambar alayhissalom aytdiki: "Olti qo'shni o'ldirmang, biri ko'k qarg'i-Odamga yo'l boshlovchi bo'lgani uchun, ikkinchisi chumoli - Sulaymon alahissalomga o'g'it bergani uchun, uchinchisi qaldirg'och - "Xashr" surasining ohirini o'qigani uchun va yana ba'zilarning aytishicha,B "Bayt ul-Muqaddas" mag'lub bo'lishida qismatiga yig'lagani uchun, to'rtinchi sassiqpopshak - Sulaymon alayhissalomga elchi bo'lgani uchun, beshinchisi suv baqasi - Namrud o'tiga suv keltirgani uchun, oltinchi asalari - undan odamzotga shifo bo'lgan asal uchun.

Odam Makkaga kelib bir uy bino etdi va uning atrofini tavof etdi. Odamning bu hizmati Ollohga maqbul bo'ldi, gunohini kechirdi. Qachonki, Nuh to'foni bo'lganida Olloh taoloning farmoni bilan Jabroil u binoni o'rnidan ko'tarib, to'rtinchi qavat osmonga olib chiqdi.

Odam Havvoning qo'lidan tutib, Yana Hindistonga qaytib bordi. Olloh taolo ularga sakkizta qo'y yubordi. Ularning yettitasi sovliq, biri qo'chqor edi. Havvo u qo'y larning yungini yigirdi, Odam undan mato tikdi, ikkovlari uni kiyim qildilar. Shu boisdan

ham yer yuzida qo'ydan qutlug'roq Biron-bir boshqa jonivor yo'q, deydilar. Payg'ambar alayhissalom ham ayurki: "Bir qo'y barokat, ikki qo'y ikki barokat, uch qo'y ganj".

Odamning qorni behad ochqadi. Jabroil Olloh farmoni Bilan jannatdan ikkisigir keltirdi, biri qizil, biri qora. Yana jabroil jannatdan uch uvun bug'doy keltirib, uch xissa qildi: "Ikkisi senga biri Havvoga", dedi. Har bir uvun yuz ming idishda edi. Sigirlar jannatdan chiqqanlarida behad yig'ladilar, ko'zlari yoshidan qo'noq undi, tahoratlarining avvlgi sinishidan no'xat, keyingisidan yusmuq (dukkakli ekin) undi. Jabroil uch uvun bug'doydan uch hissa ajratdi, uning ikki hissasini Odam, bir hissasini Havvo yerga qadadilar. Odamning sepganidan bug'doy, Havvoning sepganidan arpa undi.

Odam bug'doydan ulush olganda so'radi: "Yeyinmi?" B Jabroil aytdi: "Yo'q ekkil". Ekdi, dedi: "Yeyinmi?" Aytdi: "O'rgil". O'rdi, dedi: "Yeyinmi?" Aytdi: "Yanchgil". Yanchdi, dedi: "Yeyinmi?" Aytdi: "Tozalagil". Tozaladi, dedi: "Yeyinmi?" Aytdi: "Tortgil". Tortdi, dedi: "Yeyinmi?" Aytdi: "Qorgil" Qordi, dedi: "Yeyinmi?" Aytdi: "Pishirgil". Dedi: "Yeyinmi?" Shunda farmon keldi: B "Ey Odam, kunduzning ikki qismi bordir, bir qismi o'tdi, biri qoldi. Kun botguncha sabr qilgil. Bir kun ro'za tutgil (U kun - ashuro kuni edi). Men sen Bilan bir ish qilayin, toki bu ishdan Men hushnud bo'layin, gunohingni yorlaqayin, jannatga kirgizayin".

Odam ul taomni yemoqqa chog'langanida Jabroil keldi v aul taomni uch hissaga bo'ldi, ikkisini Odamga, birini Havvoga berdi (Erga ikki hissa, xotinga bir hissa berishlik taomili shundan qalgandir). Odam o'z ulushini to'la yedi. Havvo esa yarmini yeb, yarmini qoldirdi. Shunda Jabroil dedi: "Ey Odam, sening yeganing kabi Havvo ham tugal yeganida edi, farzandlaring qiyomatga qadar qahatchilik ko'rmagan edilar".

Ul taomni yegach, Odamning qorni og'ridi. Shunda jabroil Odamning qo'lidan tutib, sahroga yetakladi, Odam bo'shanib oldi, undan badbo'y hid keldi. "Ey Jabroil, bu nimadir?", dedi. Jabroil: B "U sening gunohing yomonligidir", dedi. Shundan keyin Jabroil qo'lini Odam boshiga urgandi, Odamning bo'yi yetmish qari (ya'ni, qo'l uchidan tirsakkacha bo'lgan o'lchov birligi) qisqardi, undan oldin Odamning bo'yi osmonga tegar edi.

Odam Bilan Havvo yerga tushganlaridan keyin ikki yuz yil ayriqliqda yashadilar. Odam ikki yuz yil yig'ladi, shundan keyin ular arofat tog'ida qovushdilar. Shundan keyin (Oyat) "Unga (ya'ni xotunga) yengil bir yuk paydo bo'ldi". Qachonki, (Oyat) "O'sha yuk ya'ni haml" og'irlashganda har ikkalalari Ollohg'a yobordilar".

Shu orada Iblis Havvo qoshiga keldi va "Qorningda nima bor?" B dedi. Havvo "Bilmayman", dedi. Iblis dedi: "Qorningda sigir, buzoq bo'lgay". Bu so'zdan Havvo ko'p qayg'uga botdi. Shunda Iblis Yana gap boshladi: "Men pokiza, solih kishiman, Olloh taolo huzurida hurmatim va izzatim bor. Duo qilsam qorningdagi farzanding senday pokiza shaklda tug'ilguvsidir, shunda unga mening otimni qo'yasanmi?" Havvo dedi: "Sening oting nimadir?" Dedi: B "Mening otim Horisdir". U farzanda tug'ilganda ismi Xoris ataldi, lekin bola ko'p yashamadi.

Sha'biy raziallohu anhu rivoyat qiladilarki, payg'ambar alayhissalom vafot etganlarida Ali karamollohu vajhahu muborak jasadlarini taxta ustiga olib, yuvmoqchi bo'lganida havoda (Oyat) "Ey Ali, Muhammadni yuvmanglar, chunki u pok va poklangandir", degan ovoz keldi. Ali ayurki: "Shundaymikan deb fikrim o'zgardi, undan so'radim, sen kimsan, payqambarni yuvmoqlikni man' qilursan, yuvmoqlik Muhammadning sunnati turadi-ku!" Shunda Yana g'oyibdan ovoz keldi: "Ey Ali, u so'zlagan Iblisdir, Muhammadga hasad qilur, sen yuvgil!" Ali uni ezgu duo qildi: "Olloh senga ko'p yaxshi mukofot bersin". So'radi: "Sen kimsan?" Dedi: B "Men Xizrman. Muhammadning janozasini o'qimoqlikka keldim".

Habarda kelurki, Havvo yetmish qorin bir o'qil va bir qiz egiz tug'di. Undan keyin Qobil urug'i yetti ming er-xotun, Qobil urug'i esa qirq ming er-xotun, Xobul urug'i esa qirq ming er-xotin bo'ldi. Odam har yili qurbonliq qilardi, qaysi qurbonligi qabul bo'lsa, osmondan bir o't kelib uni kuydirardi, qabil bo'lmasa qo'ydirmasdi.

Odam go'sht yemoqlikni istadi. Farmon bo'ldi: "Borgil, qush ovlagil!" B Shunda u bir qirg'ovul va bir burgutni tutid. Ularni bo'g'izladi, o'tga tutdi, qirg'ovul pishdi-yu, burgut pishmadi. Odamning g'azabi keldi, burgutni o'tga ko'mgandi, tamoman kuyib ketdi. Odam qayg'uga botdi, chunki qirg'ovulni Havvoga, burgutni esa o'ziga mo'ljalagandi. Jabroil keldi va dedi: B "Ey Odam, qayg'urmagil, bu qushning o'rniga boshqa qush bergay. Bu qush senga va farzanlaringga qiyomatga qadar harom bo'ldi". Shundan beri Odam qurbonlik qilur, o't kelib kuydirar edi. Undan keyingi barcha payg'ambarlar shariatda ham qurbonliklarini o'tga kuydirmaklik ravo edi. Payg'ambarimiz Muhammad mustafo kelganda qurbonlikni o'tda kuydirmaklik harom qilindi, yemaklik esa halol bo'ldi.

Foyda: Bu dunyoda mo'minlarning kuydirmaklik harom qilindi, zero Olloh oxiratda mo'minlarning tanini do'zax o'tiga harom qilsa ne ajab?!

Dedilarki, Odam qo'sh qo'shib, buqday yanchayotgan chog'da sigirni bir urdi. Shunda u yuzini Odamga burib: "Ey Odam, meni nega urasan? Kim gunoh qilsa o'shani urginda!" B dedi. Odam sigirni Kim so'zlatganini bildi: B "Vo darig'o, ilgarilari farishtalarning sajda qilur edilar, endi esa bu sigir men bilan so'z talashur", dedi-da ko'p yig'ladi.

Odam Safiy alayhissalom qissasi shu yerda nihoyasiga yetdi.

### Qobil Va Hobil Qissasi

Bu qissa shunday boshlanar. Odamning so'nggi tug'ilgan farzanlaridan biri bo'lgan o'g'li Abdumug'is deb ataldi, qizi esa Amat -ul Mug'isa deb. Bu ikkovlari anchagina farzand ko'rdilarki, Odamning urug'ini qirq ming band (lug'atda band so'zi o'n ming kishi demakdir)ga yetdi.

Qachonki, Qobil tug'ilganida u bilan birga tavallud topgan qiz chiroyli edi, Iqlimo deb ataldi. Ikki yil keyin Hobil tuqildi. U Bilan birga tug'ilgan qiz esa g'oyatda hunuk edi, uni Abudo derdilar.

Odam o'z shariatiga ko'ra Qobilning egizagini Hobilgan bermoqchi bo'ldi, Hobil Bilan egizdosh qizni esa Qobilga. Bu niyat Qobilga hush kelmadi.

- O'zim bilan tug'ilgan qizni olaman, - dedi Qobil.

- Shari'atda bunday bo'lmaydi, - dedi Odam.

- Agar bu qiz menga qarindosh bo'lsa, unisi ham qarindosh emasmi? - deya talashdi Qobil.

- Unday bo'lsa ikkalangizlar qurbonlik qiling, qaysingizni qurbonligingiz qabul bo'lsa, Iqlimoni o'sha olsin, - dedi Odam.

Hobil qo'y boqar edi, katta semiz qo'yni keltirib oyoqlarini bog'ladi-da, qurbonlik qo'yadigan joyga qo'ydi. Osmondan o't tushib, Hobilning qurbonligini kuydirdi, Qobilnikiga esa tegmadi. Shunda Iblis keldi-da, Qobilga gezlay boshladi:

- Hobilning qurbonligi shul bois qabul bo'ldiki, uning Olloh taolo huzurida izzat va yaqinligi bor. Otang Odam ham uni yaxshi ko'rar. Yana otangni bir tilagi borki, yerning halifaligini Hobilga bermoqchidir.



- Men Hobilni o'ldirayin. Qiz ham, halifalik ham menga qolsin, - dedi Qobil g'azabga kelib.

Qobil Hobilni o'ldirmoqlikka ahd qildi-yu, ammo uni qanday qilib o'ldirishlikni bilmas edi. Bir kuni biyobonda o'tirganida Iblisni ko'rdi. U odam qiyofasida kelgandi, qo'lida bir qush bor edi. Iblis qushni tosh ustiga qo'yib, boshqa bir tosh Bilan uni majag'ladi. Qobil buni ko'rib, o'rganib oldi. So'ngra Qobil Hobilning oldiga keldi.

- Men seni o'ldirarman, - dedi Qobil.

- Men sen Bilan olishmasman, Olloh taolodan qo'rqaman, - dedi Hobil.

Bu paytda Hobil qum ustida yotib, uxlamoqda edi. Qobil bir tosh bilan urib o'ldirdi. Qiyomatga qadar odam o'ldirmoq, qon to'kmoq Qobilning qilmishidan meros qoldi. Habarda kelishicha, payg'ambarimiz Muhammad Mustafu alayhissalom dedilarki: "Kimki bir yaxsha odatni chiqarsa, unga o'sha odatning savobi bo'lur va to qiyomat kunigacha shu odatga amal qilganlarning ham savobi unga bo'lur. Kimki bir yomon odatni chiqarsa, unga o'sha odatning gunohi bo'lur va shuningdek to qiyomatga qadar o'sha yomon odatga amal qilganlarning ham gunohi o'sha odamga bo'lur".

Qobil Hobilni o'ldirganida yigirma yoshda edi. U Hobilning jasadini bir qopga solib, orqasiga ko'tarib oldi. Shu holatda bir necha fursat yurdi. Shunda tangri farmoni Bilan ikki qarg'a keldi, bir-biri bilan urishdi va biri boshqasini o'ldirdi. Tirik qolgan qarg'a tumshug'i Bilan yerni kavlab, o'lik qarg'ani ko'mdi. Qobil bu holni ko'rgach o'kindi:

- Meni shu qarg'achalik aqlim yo'q ekan, - deb.

Olloh taolo bu holda Muhammad alayhissalomga habar berdiki: (Oyat) "Biz bani Isroilga shuni hukm qilib berdik, kimki biror odamni o'ldirmagan yoki biror fasod ish qilmagan bir tirk jonni o'ldirsa, u go'yo tamom odamlarni o'ldirgan bo'lur. Kimki bir jonni o'limdan saqlab qolsa, u go'yo hamma odamlarni o'limdan saqlab qolgan bo'lur". Ulamolarning aytishlaricha: B "Qobilning o'kinchi Hobilni o'ldirib qo'ygani uchun emasdi, agar o'ldirgani uchun o'kinganda tavba qilgan bo'lardi. U o'likni qaerga yo'qotishni bilmagani uchun, orqalab yuraverib holdan toygani uchun o'kingandi".

Qachon Odam Hajga bormoqchi bo'lganida Hobilni "Men kelguncha saqlagil!" deb ko'kka topshirganda, qabul qilmadi. Yerga topshirdi, qabul qilmadi. Tog'lar ham qabul qilmadilar. Qobil qabul qilgandi, lekin omonatga hiyonat qildi, o'ldirdi.

Qobil ukasini o'ldirganida kechayu-kunduz yer qimirladi. Hobilning qoni yerga suvdek singib ketdi. Odam Hajdan qaytib kelganida hamma farzandlari qarshi oldilar, lekin Hobil ko'rinmadi.

- Hobil qani, - so'radi u.

- Hobilning qo'ylari mening ekinzorimga kirib ketgandi, undan uyalib kela olmadi, - dedi Qobil.

- Sen shunday deysanu, ammo Hobilning qoni yerda ingranib yotar, - dedi Odam.

- U o'ldi, - dedi Qobil.

- Hobilning qoni to'kilgan yerga Tangri la'nati bo'lsin, bu kun u qonni tashqariga chiqarmasa, - dedi Odam.

Yer qonni tashqariga chiqardi. O'sha kundan beri qon yerga singimaydigan bo'ldi. U joydan tikan bilan yulg'un unib chiqdi.

Buyobondagi qush-qurtlar "Qarindoshlarda mehr-shafqat qolmadi", deganlaricha tog'larga qochib keldilar. Odam Bilan Havvo juda ko'p yig'ladilar, aziyat tutdilar.

Rivoyat qilinurki, Qobil hobilni o'ldirgach, Iblis kelib unga gap ketdi:

- Olloh taolo nima uchun qurbonlig'ini qabul qilmadi? Negaki sen olovga topinmaysan, hamr (aroq) ichmaysan, ovoz chiqarib yig'lamaysan.

Shundan keyin Qobli hamr ichdi, butga topindi, o'tga sig'indi, ovoz chiqarib yig'lay boshladi. Odam bu ishlardan ogoh bo'lib, Qobilni bu yo'ldan qaytarmoqlik uchun qirq ming kishini yubordi. Ular kelib Qobilni ko'rdilar, uning yig'ilarini eshitdilar, hammalari dindan qaytib murtad bo'ldilar, u Bilan birga qoldilar. Yuqoridagi mas'iyatlar (gunoh ishlar) hammasi Qobildan meros bo'lib qiyomatga qadar qoldi. Qiyomat kuni o'blganda Olloh jahannamiylarni do'zaxga kiritrsa, ular azoblarni ko'rib Olloh taologa yolborarlar: (Oyat) "Ey Parvardigorimiz, jinlardan va inslardan bizlarni adashtirganlarni ko'rsatgil, biz ularni qadamlarimiz ostiga olaylik, toki ular eng past va xorlanganlardan bo'lsinlar".

Izoh: jin va insdan murod shuki, biri Iblis, biri Qobildir.

Shu paytda xitob kelgay:

- Ey Iblis, jahannamiylar seni qo'rmuqni istaydilar.

- Men ham ularni tilarman, - degay Iblis.

Olloh taolo do'zah ichida bir minbar bino qilgan. Iblis u minbarga chiqar va shunday der: (Oyat) "Albatta, men bundan ilgari menga sherig qilgan narsalaringizdan bezorman". Jahannamiylar boshqa javob ayta olmadilar, hammalari noumid bo'ldilar.

Aytishlaricha, Qobil o'z ukasini o'ldirgach Iqlimoning qo'lidan tutib, Yaman viloyatiga bordi - olovda topina boshladi. Qobil urug'ining aksariyati fasod qildi, hamr ichdi, olovga sig'indi, ovoz chiqarib yig'ladi vash u ishlari jaddiga halok bo'ldilar.

Yana bir habarda aytilurki, Odam Olloh taolodan "Yer mening hukmimga bo'ysunsa", deb tiladi. Yerga farmon bo'ldi: B "Odam nimani buyursa shuni qilgil!" deb. Odam:

- Ey Yer, tutgil! - dedi. Yer Qobilni to'pig'igacha yutdi. Qobil qo'rqib ketdi va dedi:

- Ey ota, rahm qilgil!

- Sen birodaringga rahm qilmading, endi men senga qanday rahm qilayin, - dedi Odam. Yana buyurdi:

- Ey Yer, yutgil! Yer Qobilni tizzasigacha yutdi. O'gil yana yolvordi:

- Ey ota, sen jannatda gunoh qilding, yolvorganding Hudo kechirdi. So'ragil meni ham kechirsin!

- Men bug'doy yegandim, sen qon to'kding, bu gunohni qandayin kechirsin, - dedi Odam va Yana buyurdi:

- Ey yer, yutgil! Yer Qobilni beligacha yutdi. Shunda Qobil:

- Ey ota, sen Ollohning yuz ming rahmati bor, deb aytar eding. Uning to'qson to'qqizini hamma odamlarga mo'minlarga berardi, bir qismini hamma jonzotlarga beradi, der eding. Tilagil, o'sha ulujdan menga ham ravo ko'rsin!

- Sen jigaringga rahm qilmading, ul rahmatdan senga ulush yo'q, - dedi Odam va Yana buyurdi:

- Ey Yer, yutgil! Yer Qobilni bo'g'zigacha yutdi. Shunda Qobil Odamdan umidini uzib, Olloh tarafga yuzlandi:

- Iloho, Otamdan eshitdim seni Rahmon va Rahim sifatilik ikki oting bor. Rahmonlik sifatining meni bu azobdan qutqargil! Agar qutqarmasang Rahmon otingdan kechgil!

- Ey Qobil, Men ko'plarni azobdan qutqargayman. Rahmon otimdan kechmayman!

Shundan keyin yerga farmon bo'ldi: "Qobilni qo'ygil!" Yer Ollohni farmoni Bilan Qobilni bo'shatdi. So'ngra bir farishta kelib, Olloh farmoni Qobilning oyog'idan tutib, Mag'ribdan Mashriqqa qadar yetti marta sudradi, Qobil halok bo'ldi.

Shis Alayhissalom Qissasi

Qobildan keyin bir yuz o'ttiz yil o'tgach, Shis tug'ildi. Shis sarboniy tilida "Hibatullosh" deganidir, ya'ni tangrining tuhfasidir. OllohB "Hobilni oldim, uning o'rniga Shisni berdim", dedi. Muhammad alayhissalomning nuri Odam manglayidan Havvoning arhmiga berdi. Shis tug'ilgach, u nur Shisning manglayiga keldi. Odam Shisni g'oyat yaxshi ko'rardi.

Xitob keldi: "Ey Shis, bu nur eng suyuqlik do'stim Muhammad mustafoning nuridir. Farzandlaringga vasiyat qilginki, ular o'z juftlarini nikoh birla olsinlar, sevgi bilan qovushmasinlar!".

Oллоh taolo Odamga ming hunarni o'rgatgandi. Shisga esa hamma kasblardan deb bo'zchilik hunarini o'rgatdi. Toki, u uy ichida soyada ishlasin, degan maqsad bor edi. Bu taqdir boshqa qarindoshlariga hush kelmadi:

- Shis uyda o'tirib ish qilar, biz bo'lsa qishin-yozin biyobonda zahmat chekarmiz. Bizga ham bo'zchilikni o'rgating, - dedilar.

- Bu so'zni eshitib Odam duo qildi:

- Iloho, bo'zchilikni bilan ko'nglidan chiqargil!

Oллоh taolo bular ko'ngliga bo'zchilikka nisbatan dushmanlik soldi. Yana demishlarki, bo'zchilikning barakati bo'lmas. Shuning uchunki, bo'zchilar Zamzam qudug'iga bavl qilganlar. Yana demishlarki, qilar ishlari yulib olinarli bo'lgani uchun ham barokatsizdir.

Shunday hikoyat qildilar: Bir odam Rasul layhissalomning qoshiga keldi va dedi:

- Yo Rasululloh, mening mol-dunyoim behad ko'payib ketdiki, bundan ko'p aziyat chekurman, kamaysin deb shu harakat qilurman, kamaymas, birovg'a bermoqlikka ko'nglim bo'lmas, nima qilayin?

- Borgil, yulg'un shohidan tayoq ishlatgil, - dedi Rasululloh. Shunday qilgandi, moli tugab ado bo'ldi.

Yana demishlarki, Bibi Maryam rahiollohu anhu juhidlardan qochayotgan chog'da bo'zchilardan yo'l so'ragandi, ular yomon yo'lga solib yubordilar. Tikanzorga borib qolgan ona ularni qarq'adi.

Yana demishlarki, bo'zchilar Bibi Maryamni cho'qur suvga boshladilar. "Suvdan o'tayotgandan badanini ko'ramiz", degan umidda edilar. Maryam duo qildi: Iloho, ishlaridan barokatni ketgazgin!

Yana demishlarki, Solih alayhissalomning tuyasini bo'zchilar o'ldirgandi.

Habarda keladiki, bo'zchilik ezgu kasb turar. (Hadis) "Qanday yaxshi hunar to'quvchilik xotin-qiz ummatlarimga va qanday yaxshi tikuchilik er ummatlarimga, agar ularda yolg'onchilik bo'lmasa erdi".

Yana demishlarki, bo'zchilikda olti hislat bor: ikk naf'i borki hayrlidir, ikkisi mar dva tanti bo'lur, uchinchisi g'ariblar do'sti bo'lur, to'rtinchisi kichik ko'ngil bo'lurlar, beshinchisi o'ligu tirik ularga muhtoj bo'lar, oltinchisi omadli bo'lurlar.

Yana demishlarki, Balh diyorida bir pokiza zohid olim bor edi. Shayh Shaqiq rahmatullohi alayh bu bo'zchini eshitib, uni ko'rgani bordi. Olim shayhni qarshi oldi.

- Ey shayx, kelishing biz uchun quvonchli bo'ldi, - dedi olim.

- Nima sabadan? - so'radi shayh.

- Sening kelishing ollohni irodasi edi. Shu bois u sevinchli bo'ldi, - dedi bo'zchi olim.

- Shayh Shaqiq bo'zchining uyiga kirganida bir asbobni ko'rди.

- Bu nima? - Deya so'rad shayh.

- Tirikchilik vositasi erur, -\* dedi bo'zchi.

- Bu nimadir?

- Bu hidoyat iplaridir - dedi bo'zchi.

- Bu bo'z nimadurki, uni yerga yozib qo'yibsan? - deya yana so'radi.

- Bu tirikligim asosi turur.

- Bu qanday qamishdir?

- U bilan o'zimni dunyodan uzoqlashtiraman.

- Bu qanday qushdir?

- U mening toatim va yaxshiliklarimdir.

- Bu panja-tirnoq nimadir?

- U ixlosdur, u bilan ammalarimni berkitarman.

- Bu eshikda turgan tuya nimadur?

- U kecha-kunduzdir.

- Bu qo'lingdagi yassi yooch nimadir?

- U havf ham umiddir. Doimo havfda turarman va hamisha umidvordurman.

- Bu ishni necha yildan beri qilarsan?

- O'ttiz yil bo'ldi.

- Bu ishingni aslo qo'ymagil, u seni jannatga olib boruvsidir, - dedi Shayh Shaqiq rahmatullohi alayhi. Habarda kelurki, Odam safiying umri ming yilga va'dalik edi. Miyoq kunida bir qavmni ko'rди, ularning boshlarida nur jilva qilardi.

- Yo Rabb, bular Kim? - deb so'radi Odam safiy.

- Bular sening farzandlaring orasidan chiquvchi payg'ambarlardir.

- Iloho, bu Kim? - dedi ular orasidan birini ko'rsatib, chunki uning nuri barchasidan ortiq edi.

- Payg'ambar Dovud alayhissalomdir.

- Iloho, buning yoshi nechaga borar?

- Oltmish yil.

- Hudoyo, buning umrini orttirgil, - deb duo qildi.

- Taqdiri azalda qaldam shunday yozgandir.

- Iloho, mening umrim ming yildir, uning qirq yilini Dovudga berdim, - dedi Odam.

Farmon bo'ldi, bu so'zni xatga bitdilar. Qachonki Odamning umri tugagach, Azroil jon olgani kelganida u: "Shoshmagil, umrimning hali qirq yili bordir", dedi. Chunki Odam u gapni yodidan chiqargandi. Shunda Azroil: "Bu qirq yilni Dovudga bag'shlading", dedi farishtalar bunga guvohlik berdilar. Odam dunyodan rixlat qildi. Undan yetti yil keyin Havvo vafot edi. Jabroil Odamga jannatdan kafan keltirdi. Shisga "Otangni yuvgil!" dedi. Shis uni yuvdi, kafanga o'radi. Keyin Jabroilga qarab, "Namoz o'qigil!" degandli uB "Namozni sen o'qigil, halifa (o'rinbosar) sensan!" dedi. Sababi ortiq bo'lsin Deya to'rt takbir bilan namoz o'qidi. Shundan keyin kafan o'ramoq, namoz o'qimoq, go'rga ko'mmoq qiyomatga qadar sunnat bo'lib qoldi.



Odam alayhissalomdan keyin qirq besh yil o'tgach Shis alayhissalomga payg'ambarlik tegdi. Ikki yuz yetmish yil odamlarni da'vat qildi va shundan keyin u ham vafot etdi.

Habarda kelurki, Shisdan keyin odamlar butga topinadigan bo'ldilar. Shariat so'zini aytguvchi qolmadi, odamlar dindan qaytdilar. Hammalri johil bo'lib, Hudoga ibodat qilishni yoddan chiqardilar. Kunlardan birida masjidga Odam suratini yo'ndilar va unga topina boshladilar. Har Kim o'z holicha but yasab oldi: kimdir yog'ochdan, kimdir toshdan, kimdir oltindan, yana kimdir kumushdan. Uch yuz yil shu taxlidda kun kechirdilar. Shundan so'ng Olloh taolo Idris alayhissalomni payg'ambar qilib yubordi.

#### Idris Alayhissalom Qissalari

Ziyoda dars o'qiganlikdan otini Ahnud derdilar. Hayot chog'ida eng birinch bo'lib kiyim tikib kiygan inson u edi. Har gal igna sanchishda tasbih aytur ediki, u barcha odamlarning toati qancha bo'lsa, shunchalik ibodat qilmoqqa bel bog'lanagdi. Jamiki fparishtalar uning toatini ko'rib, lol qoldilar.

Farishtalardan biri Idrisni ko'rishlikni qo'msar edi. Olamlarning aytishlaricha, u jon oluvchi farishta (Azroil alayhissalom) edi. Olloh taolodan izn so'radi. Kelib, Idrisni ko'rdi, Idris ro'za edi. Og'iz ochar vaqt bo'lgach, jannatdan nasiba keldi.

- Kela, taom yegil! - dedi Idris.

- Yemasman, - dedi u. Idris uning farishta ekanligini bilmadi, u to'rt kun birga tursa hamki, taom yemadi.

- Yur dalaga chiqaylik, ko'ngling ochilisin, -dedi Idris. Tashqariga chiqdilar, bir ekin ekdilar.

- Bu ekindan yeylik, - dedi farishta.

- Olloh haqqi, halol taomga chorladim, kelmadim. Nega meni haromga chorlaysan? -

Undan yuz o'girdilar. Bir uzumzorga keldilar.

- Uzum olib yeylik, bo'lmasa, -dedi farishta. Idris ro'yhushlik bermadi, undan nari ketdilar. Bir suruv qo'yga duch keldilar. Farishta Yana boyagi so'zni aytdi, Idris ham o'sha javobni so'zladi. Shunda bildiki, sherigi odam emas edi.

- Sen odammisan, yo farishta? -dedi Idris.

- Farishtaman, seni qo'msar edim, Olloh seni ko'rgani izn berdi.

- Bu karomatning hurmatidan meni o'zing Bilan osmonga olib chiqqan, ajoyibotlarni ko'rayin, toatim yanada ortsin, -dedi Idris.

- Bu ishga erkim yo'qdir, Ollohdan izn so'rayin, - dedi farishta. Ruksat berildi, to'rtinchi osmonga chiqdilar. Azroilni u yerda ko'rib:

- Ey jon oluvchi farishta, jon bermaklik achchiqligini eshitganman, jonimni olgil jon bemoqlik achchig'ini ko'rib, toatimni Yana ham oshirayin, - dedi.

- Bu ish mening ixtiyorimda emas, Ollohdan izn so'rayin, - dedi u. Ruksat bo'lgach, Idrisning jonini oldilar. Azroil jonni olgach, Olloh taologa yolvordi va tazarru bilan:

- Mening muhabbatim uchun Idrisni tiriltirgin! - dedi. Olloh taolo qudrati Bilan Idrisni tiriltirdi va Idris Azroilga dedi:

- Meni do'zaxga kiritgil, qo'rqinchli og'ir azoblarni ko'rayin.

- Bu ish mening ixtiyorimda emas, - dedi Azroil va Ollohdan izn so'radi. Idris do'zaxga kirdi, uning uqubatlarini ko'rdi.

- Endi meni jannatga kiritsang, uning ne'matlarini ko'rsam, - dedi Idris.

- Bu ish mening ixtiyorimda emas, - dedi Azroil va Ollohdan Yana izn so'radi. Ruksat bo'lgach, jannat eshigiga keldilar.

- Kirgil, shart shuki, qaytib chiqqil! - dedi Azroil. Idris bunga ko'ndi, jannatga kirdi, ne'matlarini ko'rgach, qaytib chiqishga unamadi. Shartga zid bo'lmasin, deb hiyla ishlatdi. Oyog'idagi kovushini bir daraxt ostiga qo'ydi, keyin chiqdi. So'ngra:

"Kovushimni unutibman-ku" deb oh urdi. Faryod qilib, yana jannatga qaytib kirdi. Azroil bir soat indamadi, ikki soat indamadi, keyin chorlagandi, chiqmadi.

- Nega chiqmayapsan? - dedi Azroil.

- Chiqdim, shartni bajardim, endi ikkinchi bor chiqmasman, - dedi Idris. Shunda Yana bir farishta kelib:

- Ey Idris, hali jannatga kiradigan vaqt bo'lgani yo'q, - dedi.

- Menga vaqt bo'ldi, shuning uchunki, (Oyat) "Har bir tirik jon o'lim mazasini totib ko'rguvchidir", deyilganiga muvofiq men o'lim topdim va (Oyat) "Sizlarning har bittalaringiz, albatta, uning labiga kelguvchidirsizlar", deyilganiga ko'ra kirdim. Yana farmon borki, (Oyat)B "Ular ul yerdan chiqarilmaslar", hukmiga ko'ra endi bu yerdan chiqmasman, - dedi Idris.

Shunda jannat osmondan bir ovoz eshitildi: (Oyat) "Mening bandam to'g'ri aytadi, qo'yinglar uni, Mening marhamatim Bilan jannatga dohil bo'lsin!"

Hozir Idris jannatda turar. Olimlar aytadilarki, "Idris to'rtinchi osmonda turar". Yana habarda kelishicha, to'rt payg'ambar hanuz tirikdir. Ikkisi (Iso va Idris) - osmonda, ikkisi (Xizir va Ilyos) - yerdalar. Ammo bu to'rtovidan uchtasi o'lgay, Idris esa o'lmagay. Shuning uchunki, bir marta o'ldi, jannatda qoldi, to qiyomat kunigacha u yerda bo'lur.

Yana aytishlaricha, jannat xalqiga o'lim yo'qdir, do'zax xalqiga ham. Shu bilan birgaularga boshqa tusga kirish va dahshatlar bo'lar. Yana Olloh bilguvchiroqdir.

Qobilning ko'zi ojiz o'g'li bor edi. Ul o'g'lining ham bir o'g'li bor edi. U ham ko'r edi. Otasi bilan yetaklashib yurib, Qobilga duch kelishdi.

- Shu odam mening amakimni o'ldirgan, -dedi bola otasiga Qobilni ko'rsatib. Ko'r o'g'il tosh olib, Qobilni urib o'ldirdi.

- Nega otangni o'ldirding? - dedi bolasi shunda va bir tosh olib u ham otasini urib o'ldirdi.

- Ilohi, biz Odamni yaratmasingdan ilgari aytganmidik "Odam farzandlari ham Jin ibn al-Jin qavmi kabi qon to'kadilar", deb - dedilar farishtalar bu holni ko'rgach.

- Odam farzandlarini malomat qilmangalar. Sizlar ham yer yuzida yashaganlaringda edi, ularga yaratilgan narsalar sizlarda ham bo'lganida edi, bunday demagan bo'lardingiz! - degan farmon bo'ldi. Va yana farmon bo'ldiki, "Ey farishtalar, sizlarning qaysilaringiz olimroq va zohidroq bo'lsa, o'shani keltiring!"

Uch farishtani tanladilar: birini Uzzo derdilar, birini esa Uzoyo Yana birini Axosil deb atardilar. Olloh taolo ulardan shaxvatni paydo qildi va ulardan birini shaxvatdan holi etib avvalgi holiga qaytardi. Ikkisini esa yerda qoldirdi. "Dunyoga boring, menga toat qiling, gunohdan qoching, odamlar orasida adolat Bilan hukm qiling, zulm qilmang, zino qilmang, qon to'kmang, aroq ichman, hiyonat qilmang! Kunduzlari shu ish Bilan mashg'ul bo'ling, kechasi osmonga chiqing! Tong otguncha menga ibodat qiling!" Ularning qo'llarida uzuklari bor edi.

Bir kuni bir Xotin eri bilan tortishib qolib, er-xotin Uzzoning oldiga keldilar. U Xotin chiroyli edi, unga ko'zi tushgan Uzzoda ayolga nisbatan mayl uyg'ondi.

- Ey xotin, sen adashgansan, men bilan birga bo'lsang, sening istagingga hukm qilaman, - dedi Uzzo. Xotin rozi bo'ldi, Eri bundan ogoh bo'lib, bu yerdan ketdilarva Uzoyoning oldiga bordilar. U ham yuqoridagiday istak qildi. Xotin rozi bo'ldi. Hilvat joyga keldilar.

- Uch ishdan birini qilsangiz, sizga bo'ysunarman, - dedi Xotin hilvatga kelgach, farishtalarga shart qo'yib. - Shartim shuki, Yo erimni o'ldirasiz, yo aroq ichasiz, yo butga sajda qilib, qo'lingizdagi uzukni menga berasiz.

Har ikki farishta mulohazaga berildi: "Hammasi gunoh ishlar, uzukni berar bo'lsak osmonga chiqa olamaymiz, odam o'ldirishdan ulug' gunoh yo'q, aroq ichishda gunoh ozroq", deb kelishdilar-da aroq ichdilar. Mast bo'ldilaro, ayolning erini o'ldirdilar, zino qildilar, Xotin esa uzukni olib qo'ydi, uzuk tufayli osmonga ko'tarildi. Farishtalarga farmon bo'ldi, ular xotinni urdilar, pokiza bo'ldi. Ayolning ismi arab tilida Zahro edi, forsiycha Nohid, ibriycha Biduxit, turkiycha Saqit edi.

Farishtalarga amr bo'ldi, osmonning qopqog'ini ochdilar. Alarga deyildiki: "Olim va zohidlarinigizga bir boqing!" B Hammalari tavba qildilar: B "Iloho, Sen bizdan bilguvchiroqdiansan!"

Uzzo va Uzoyo kayflari tarqagach ko'rdilarki, qo'llari qonli edi, o'zlari zino qilgandilar, aroq ichgandilar, uzuklari qo'llaridan g'oyib bo'lgandi. Ular o'kindilar, yig'ladilar:

- Endi Ollohning oldida yuzimiz shuvut bo'ldi. Parvardigorimiz bizni besh narsadan qaytargandi, ammo biz qon to'kdik, zilm qildik, zino qildik, aroq ichdik, hamma ta'qiqni buzdik, -dedilar. So'ngra Odam farzandlariga iztihfor qila boshladilar. Shungacha ular istig'for aytmagandilar.

- Biz hali osmonda ekanimizda bir bandaning ibodatlarini osmonga chiqargandi. Hamma yer xalqining ibodatlarini uning toati oldida lol edi. U Kim bo'lg'uvsidir? - deb savol qildilar ular. Farishtalar uning Idris ekanini anglagach oldiga bordilar.

- Bizni shafolat qilgil, Olloh gunohimizni kechirsin! - deb iltijo qildilar. Idris duo qildi. Farmon keldi: "Ey Idris, ulardan so'ragil, dunyo azobini ixtiyor qilarmisiz yo oxirat azobinimi?"

Idris bu so'zni bayon qilgach, ular: "Ey Idris, qaysi birini ixtiyor qilaylik, aytib bergil?" B dedilar. Shunda Idris: B "Oxirat azobi abadiydir, Dune azobini tanlang!" dedi. Ular dunyo azobini ixtiyor etdilar. Shunda Jabroil alayhissalom ularni Bobil qudug'iga olib keldi. Qil bilan tovonlaridan osdi va peshin namozidan keyin to kechquringi shafaq g'oyib bo'lguncha qiynay boshladi.

Ba'zilar aytadilarki, tong otguncha ertagi qiynoqlarga hozirlik ko'rardilar. Quduq ichida tovonlaridan osilgan holatda ko'rildi. Yer yuzidagi jamiki, iflos va badbo'y narsalar tutun bo'lib burinlariga kirardi. Yana bir rivoyatda aytilishicha, Ibrohim an-Nafafiy peshin namozini kechroq o'qir edi. Sababini so'raganlarida "Ularga azob yengilroq", bo'lsin deb shunday qilarman, deya javob berdi.

Yana deydilarki, bir yil davomida ularning zino qilgan vaqti kirdi deguncha birj odu o'rgatuvchi kimsa tun qorong'usida u yerda turib olib, farishtalar nomidan so'z so'zlardi. Ular "Buni o'rganmoqlik osondir, uni ishlatish esa kufr ishdir", der edilar. Bunga rozi bo'lmasa aytardilarki: B "Biyobonga chiqqin-da, ko'rganlaringni aytgil!" Biyobonga borib, so'zladilar, og'izlaridan bir oq kabutar uchib chiqardi. So'ngra bo'lgan hodisani qaytib kelib so'zlab berardilar.

- Oq kabutar sening imoning edi, sen undan ayrilding, endi sehr joduni o'rganarsan, dedilar ular bunga izoh berarkan.

Ma'lum bo'ladiki, Kim sehr-joduni o'rgansa, yana uning yordamida amallarni qilsa, Olloh taologa kofir bo'lar ekan. Shundan keyin ulardan bu quduqqa keyinchalik Yusuv (a) tashlanadi, farishtalik ismlarik yetkazilib, Xorut va Morut degan ismni berdilar.

#### Nuh Nabiy Alayhissalom Qissasi

Nuh nabiy ibn Malik ibn Idrisdir. Onasining oti Shamxo binti Anursh edi. Nuhdan Odamga qadar o'n ota o'tdilar, hammalari musulmon bo'lgandilar. Asl ismi Yashkir edi, ko'p nola chekib yig'laganlari uchun nuh deb ataldi. Aytishlaricha, uning nolalariga sabab shu edi:

Kunlardan bir kun Iblis dedi:

- Ey Nuh, menga sherik qilding. Agar sheriklarim, qo'ldoshlarim, askarlarim yig'ilib kelsa, bu yerga sig'mas edilar.

- Sherik qilganim nimadir? - so'radi Nuh.

- Sen duo qilganding, qavming halok bo'ldi. Hammalari jahannam ichra menga qo'ldosh bo'ldilar. Sabr qilganingda ba'zilar imon keltirardi, shu afzal edi, - dedi Iblis.

- Ey koshik, koshki sabr qilgan bo'lganimda ba'zilar musulmon bo'lardi, menga bunday ta'na tegmas edi, - Deya Nuh tunu kun nola qildi.

Hikoyat qilarlarki, Nuh alayhissalom Mashriqdan Mag'ribga barcha haloyiqqa payg'ambar edi. Bir qari (qo'l uchidan tirsakka bo'lgan o'lchov birligi) ham yer odamlardan holi emas edi. Bir keksaning o'rnicha yerdan uch yuz botmon bug'doy unardi, yuz botmon bug'doy esa bir yillik ochuqa bo'lardi. Yana Mashriqdan Mag'ribga qadar uylarning tomlari bir-biriga tutash Ediki, tomma-tom yuyursa bo'lardi. Yer yuzida ziroat qiladigan yer qolmagach, yilqilarga tuproq ortib, baland tog'lar ustiga yoyib dehqonlik qilardilar.

Hikoyatda kelurki, Mashriqdan Mag'ribgacha qaysi joga bo'lmasin tayoq tashlansa odamlarning boshiga tushardi. Nuh zamonidagichalik obodonlik qiyomatga qadar bo'lmas. O'sha paytda Ollohni bir deb biluvchilar bo'lmadi.

Aytishlaricha, bir qancha vaqt o'tgach, Jabroil alayhissalom payg'ambarlik olib kelganida Nuh aytdi:

- Olam juda kengdir, kofirlar bo'lsa haddan ziyod. Men qaerga borib, Ollohning birligini bildirayin?

- Ey Nuh, aytnoq sendan, eshitmoq mendan! Degani xitob keldi.

Shundan so'ng Nuh iymonga dvat qildi:

- Ollohning yagonaligiga iymon keklitiring, mening payg'ambarlarimga iqror bo'ling! - Bu da'vatni shamol Mashriqdan Mag'ribga qadar eltid.

Kofirlar Nuhni ura boshladilar. Shu qadar urdilarki, suyaklari sindi, siniq suyaklari teri ichidan behad darajada qaqshardi, chidash qiyin edi. Yotsa, kechasi bilan Olloh taolo unga shifo berur edi. Kun sayin Jabroil alayhissalom kelib: "Ey Nuh, borgil, kofirlarga aytgilki "La ilaha illallohu Nuhun rasulillohi" desinlar!" deb farmon keltirardi. U borib aytardi, ular bo'lsa urardilar.

Ilohi tunu kun sening farmoningni yetkazdim, tinglamadilar. Ochiq aytdim, eshitmadilar, mahfiy aytdim, qabul qilmadilar (Oyat) "Ey Parvardigorim, men qavmimni kecha-yu kunduz da'vt qildim, lekin mening chaqirishim ularning nafratlarinigina ziyoda qildi", -dedi Nuh.

Ellik kam ming yil da'vt qildi, sakson kishi iymon keltirib, musulmon bo'ldilar, yarmi erkaklar va yarmi xotinlar edi. Ulardan boshqa hech Kim musulmon bo'lmadi. Kun sayin mashaqqatlari ziyoda bo'ldi. Nuhning xotini ham kofir edi.

Bir kuni bir qariya o'g'lini yetaklab, Nuhning qoshiga keldi. Qariya Nuhning yuziga tupurdi, haqorat qildi va o'g'luga vasiyat qildi:

- Bu Nuh telbadir. Otaralimiz buni so'zlarini eshitmadilar. Bugun men qanday ishni qilgan bo'lsam, bundan keyin sen ham shunday ishni qilgaysan.

Uning so'zini eshitib, qilmishini ko'rib, Nuhning umidi uzildi, ko'ngli og'ridi, duo qildi: "parvardigoro, yer yuzida birorta kofirni qoldirmagin". Shundan so'ng Olloh taolo qirq yilgacha yomg'ir yog'dirmadi, yerdan o'simlik undirmadi, ayollar farzand tug'madilar, chorva hayvonlari halok bo'ldi, buloq va jilg'alar quridi.

Habarlarda keladiki, Avj ibn Unuq to'fonda halok bo'lmagandi. Negaki, u daryolardan emasdi. Dayyor - xotinlik, uy-joylik deganidir. Avjning esa uyi ham, xotini ham yo'q edi. Dengizlarning narigi yog'ida turardi, to'fon suvi uning tizzasiga ham kelmagandi.

Oradan vaqt o'tib Nuhga xitob keldi:

- Duoingni ijobit qildim. Borgil chinor daraxti ekkil!

Nuh daraxt ekdi, qirq yilda uch daraxt yetildi. Daraxtni kesdi-yu, uni kerakli joyga keltira olmadi. Shunda Avjni chorladilaro, u daraxtni sudrab keltirdi. Jabroil Nuhga ta'lim berdi, daraxtni bolta Bilan chopdilar. O'rdakning suv ustida yurganini ko'rsatib, o'rgatdilar, unga o'xshatib kema yo'na boshladilar. Kofirlar buni ko'rib mashara qilar edilar: (Oyat)

- "Sen payg'ambar eding, endi duradgor bo'lib qolding!" Buni nima qilmoqchisan o'zi?!

- Kema qilyapman, unga minib, suv ustida suzarman, dedi Nuh ularning so'rog'iga javoban.

- Egar yo'narsanmu, avval eshak olgil! - deb yana kuldilar. (Oyat) "Qachon uning yonidan qavmning raislari o'tsa, uni masxara qilar edilar".

- Nuh dedi: "Oyat" B "Agar sizlar bizni masxara qilsalaringiz, bizlar ham sizlar kabi masxara qilamiz. Juda ham tezda bilasizlar (Kim haq ekanligini)".

- To'fon va'dasi qachon bo'lur? - so'radi Nuh.

- Qachonki, tandiring ichidan suv chiqsa, balki azob kelgan turur, - degan xitob keldi.

Nuhning to'rt o'g'li bor edi: Som, Xom, Yofas va Kan'on ismlik. Uch o'g'li musulmon edi, Kan'on esa kofir edi.

Kema yo'ndilar - bo'yi uch yuz qari, eni ikki yuz qari edi. Ba'zilarning aytishlaricha, kema uzunligi ming ikki yuz qari, balanligi olti yuz qari, eni ham olti yuz qari edi (qari - bir tirsak uzunligicha). Bir yuz yigirma to'rt ming temir bog'lar qildilar. Har bir bog'ning ustida bir payg'ambarning oti bitilgandi. Iblis "Muhammad rasululloh" kalimasi bitilgan bog'ni o'g'irladi.

Nuh qancha qidirsam ham topolmadi. Jabroil kelib habar qildi, so'ngra "Bog'ni Nuhga bergil!" B desa, B "Olmadim!" deb qasam ichdi. Jabroilning achchig'i kelib, kema yog'ochini olib boshiga bir urgandi, boshi-ko'zi qonga bo'yaldi. Qo'rqqanidan bog'ni topib berdi.

Kema bitdi, u uch qavat edi (birinchi qavatida chorva hayvonlari, ikkinchisida Nuh qavmi Bilan, uchuinchisida qushu qurtlar joy olgandi). Kema birgach, Nuhning kofir xotini non pishirayotgan chog'da tandir ichidan suv chiqdi. U kelib Nuhga habar qildi. Nuh o'sha sakson kishi Bilan kemaga chiqdi. Shunda farmon keldi: (Oyat) "Mindir kemaga har xil jonivorlardan bir er va bir urg'ochisini va ahlingni ham. Yana o'g'lonlaringni ham chiqargil!"

- Iloho, uchadigan, chopqir jonivorlarni qanday qilib tutayin, - dedi Nuh.

Shundan so'ng olloh qudrati Bilan suv yuziga hamma jonivorlar yig'ildi, har biridan bir erkak, bir urg'ochini tutib, kemaga chiqardilar. O'g'li Kan'onni ham kemaga chiqarmoqchi bo'lgandi, yorlig' keldi: "Chiqarmagil, u kofirdir!"

- Iloho, ahlingni chiqargil, deb aytgan eding-ku? -so'radi Nuh.

- U sening ahlingdan emas! - degan xitob keldi.

- Ey kan'on, musulmon bo'lgil, kemaga kirgil, to'fon suvi halok qilg'usidir, - dedi Nuh.

- Men baland tog'larga sig'inarman, Tog'lar meni suvdan qutqargay, - dedi Kan'on.

- Bugun Ollohdan boshqa azobdan saqlaguvchi hech kim yo'qdir, - dedi Nuh. - Hudoning rahmatiga sazovor bo'lgan odamgina omon qoladi.

Shu paytda suv keldi, halok qilgudek bo'lib, Kan'on tog' tepasiga qarab qochdi. Suv ko'tarila borib oyog'iga yetdi. Kan'anning bir o'g'li bor edi, suvdan qutilmoqchi bo'lib, uni oyog'i ostiga olib ustiga chiqdi, bolasi o'ldi, sal o'tmay o'zi ham halok bo'ldi, imonsiz ketdi.

Aytishlaricha, kemaga eng avval qaldirg'och kirdi, eng keyinida kirgan jonivor eshak bo'ldi. Eshakni sudradilar, sira kemaga kirmadi, negaki shayton uning dumidan tortib turgandi.

- Shayton mingan bo'lsa hamki kirgil! - dedi nuh.

Yana aytishlaricha, Nuh taysallanib turgan eshakka qarab: "Kirgil, ey mal'un!" degan edi, Iblis maol'un eshakning dumidan ushlagan holda kemaga chiqdi. Shaytonni kema ichida ko'rgan Nuh:

Sen kimning farmoni bilan kemaga chiqding? -\*dedi.

Sening so'zing, sening farmoning Bilan chiqdim, - dedi Shayton.

Seni kirgil, deb qachon aytdim? - taajublendi Nuh.

"Kirgil, ey mal'un!" deding, mal'un mendirman, eshak emas, - dedi Iblis.

Molik ibn Sulaymon al-Xaraviy rahmatullohi alayh aytarki, Nuh payg'ambar ilon va chayonni "Sizdan odamga zarar tegar", deb kemaga chiqarmadi. Shunda ular:

Kimki sening otingni aytsa, unga zarar tegdirmaymiz, - dedilar.

Deydilarki, Kim ilon va chayondan qo'rqa (Oyat) "Salom bo'lsin Nuh payg'ambarga ahli odam ichida. Albatta, biz yaxshi amal qilguvchilarni Yana shundoq mukofotlaymiz, Haqiqatda u bizning mo'min bandalarimizdan edi", oyatini o'qib yotsin.

Iloho, arslon sigir bilan, bo'ri qo'y bilan, mushuk kabutar bilan dushmanlig'ini bilarman, ularni nima qilayin, - dedi Nuh.

Hamma narsalarni chiqarib bo'lgach farmon keldi:

Odamning suyaklarini keltirgil, kemaga chiqargil, unga azob suvi tegmasin!

Hazrat Odamning jasadini keltrib kemaga qo'ydilar. Kemaning br tarafida erkaklar, bir tarafida esa ayollar joy olgandilar, Odamning jasadi ular orasida parda bo'ldi.

Yana bir rivoyatda Judi tog'iga qo'ydilar derlar, ammo eti va terisi Sarandibda, suyaklari Jiduda turar.

Qachonki suv kema qirg'og'iga kelganda Nuh necha bor urindi, lekin kema yurmadi. Shunja Jabroil aytdiki: "Ey Nuh, to'rt joyga to'rt ko'zni nomlab joylashtirgin!"

Shunday qilganda kema yurdi. Aytishlaricha bir ko'zni Otik, ikkinchisini Umar, uchinchisini Usmon, to'rtinchisini Ali deb nomlagandi. (Oyat) "U kema suzar edi ko'z oldimizda, toki mukofot bo'lsin yolg'onchisan deyilgan odamga (ya'ni Nuh



payg'ambarga)".

Nuh alayhissalom Iroqdan chiqib Makkaga bordi, Ka'batullohni yetti bor tavof qildi. Undan Mag'ribga, so'ngra Mashriqqa bordi. Rajab oyining uchinchi kuni kemaga chiqdi, olti oy kemada suzdi.

To'fon chog'i qirq kecha-kunduz yog'n yog'di, yerdan ham suv chiqdi. (Oyat) "Osmon eshiklarini quyib oqadigan suvga ochib tashladik va yerda chashmalarni oqizib qo'ydik".

Aytadilarki, Nuhga payg'ambarlik kelganda yuz yoshda edi. To'qqiz yuz ellik yil odamlarni da'vat qildi. Yana bir rivoyatda to'fongacha to'rt yuz yoshda edi, undan keyin uch yuz ellik yil umr ko'rdi, deydilar. Hammasi ming yetti yuz yil bo'ladi.

Aytadilarki, qirq kecha-kunduz yog'in yog'di, har bir qatrasini tegirmon toshidek kelardi. Dunyoning eng baland tog'ini ustiga ham qirq qari suv bosdi. Kemadagi sakson kishidan tashqari yer yuzida birorta ham odam qolmadi, hammasi o'tdi.

Habar kelarki, ilgari uch narsa yo'q edi, ular kemada, dengiz ustida paydo bo'ldi: biri mushuk, ikkinchisi sichqon paydo bo'lib kemani teshdi, uchinchisi to'ng'iz. Farmon bo'ldi, Nuh arslonning boshini siladi, burnidan ikkita mushuk chiqdi va u sichqonni yedi.

Yana aytadilarki, sichqon kemani teshganda odamlarda suvga g'arq bo'lish qo'rqinchi uyg'ondi, suv ichida esa sira teshikni berkitib bo'lmadi.

Shunda Nuh aytadiki:

Kimki bu teshikni berkitsa, nima tilagi bo'lsa bergayman.

Men teshikni berkitayin, suv kirish to'xtagach, kemadagi suvlarni chiqarib tashlangan, - dedi ilon so'ng so'radi, - menga nima berarsan?

Nima istaysan? - dedi Nuh.

Qaysi go'sht totli bo'lsa, o'shani bergil, - dedi Ilon.

Nuh qabul qildi, Ilon suvga kirib teshikni berkitdi, o'sha joyda kulcha bo'lib yotdi, suv kirishi to'xtadi. Kema ichidagi suvni tashqariga chiqarib tashladilar, g'arq bo'lish qo'rqinchi barham topdi.

Kemadan chiqqanlaridan keyin ilon kelib, Nuhdan va'da qilingan go'shtni talab qildi.

- Hamma jonivorlar kemadan chiqdi, tarqalib ketdilar, go'shtni qanday toparmiz? - dedi Nuh. Ilon ko'p siqildi, shunda Nuh chivinga amr qildi:

- Borgil, yer yuzidagi go'shtlarni totib ko'rgil, totlisini ilonga bermiz.

Chivin ketdi, ammo ancha hayallab qoldi. Ilon esa tiqilinch qilardi. Nuh hijolatda qolgandi, qaldirg'ochni chivinni topib kelish uchun jo'natdi.

- Nega kech qolding?- dedi Qaldirg'och, Chivinni qidirib topgach.

- Yer yuzi keng ekan, shu bois kech qoldim, - dedi Chivin.

- Go'shtlarni totib ko'rdingmi? Qaysi go'sht totlik ekan? - so'radi Qaldirg'och.

- Hamma go'shtlarning eng totlisi odamlarning go'shti ekan, - dedi Chivin.

- O'sha go'shtning mazasi hali-yam og'zimdagi turgandir. Og'zingni ochgin, men ham bir hidlayin, - dedi Qaldirg'och. Og'zini ochgandi Qaldirg'och uni hidlamoqchi bo'lib, tumshug'i bilan Chivinning tilini kesib oldi. O'shal kundan beri Chivin tilsiz qoldi.

Ikkovlari Nuh payg'ambarga keldilar. Chivin harchand harakat qilsada so'zlayolmas edi. Uning so'ziga hech Kim tushuna olmasdi.

- Unga nima bo'ldi, nechuk so'zlayolmas? - deb so'radi Qaldirg'ochdan.

- Men Bilan so'zlashganda baqaning go'shti shirin ekan, deb aytgandi. Kech qolganidan hijolatda bo'lib, so'zlayolmay qoldi, - dedi Qaldirg'och.

Nuh alayhissalom baqa go'shtini ilonga berdi. Agar qaldirg'och o'sha kunda shunchalik ezgulik qilmaganda edi, bugun biz hamma odamlar ilonga yem bo'lardik.

Yana maqsadga kelamiz: Nuh alayhissalom kemadagilarga aytgan edi:

- Juftlaringizga yaqinlashmang, bolalar tug'ilsa, kemaga sig'may g'olurmiz, - deb.

Hech kim juftiga qovushmas edi. Ammo mushuk ko'rdiki, it jufti Bilan qovushdi. Kelib Nuhga aytgandi, lekin It tondi. Bundan mushukning achchig'i chiqdi, hijolatlik bo'ldi. Bir qancha vaqt o'tgach, Mushuk Yana ko'rdiki, It jufti bilan qovushayotgandi.

- Iloho, bu It sening payg'ambaringga yolg'on so'zlaydi, aybdan tonardi. Qudrating bilan uni shu holda tutgil, men borib Nuhga habar qilayinki, u kelib ko'zi bilan ko'rsin, - deya Mushuk Ollohga munajat etdi.

Olloh uning duosini ijobat qildi, It to Nuh kelib ko'rguncha o'sha holda qoldi, juda uyatli bo'ldi. Bugunga qadar bu ish Itga meros bo'lib qoldi. It ham duo qildi:

- Meni Nuhga uyatlig' qildi. Hudoyo, buni ham rasvo qilg'il!

Olloh taolo Itning tilagini ravo qilmadi. Ammo mushuklar qachonki juftlariga hojati tushsa, shu qadar ovoz chiqaradilarki, hamma jonzodlar habardor bo'lar. Bundan ma'lum bo'ladiki, Kim birovning aybini ochsa, o'zi ham o'shanday aybga muhtalo bo'lg'uvsidir.

Kemada odamlar va jonzotlarning axlatlari ko'payib ketdiki, bu behad tashvish tug'dirdi. Farmon bo'ldiki: "Nuh layhissalom urg'ochi tuyaning orqasini silasin!" B Silagan edi, tuya dumini qimirlatdi va orqasidan to'ng'iz chiqdi. U hamma najosatlarni yedi. B "Bu kun to'ng'iz go'shtining harom bo'lmog'iga sabab o'shadir", deydilar.

Olti oy o'tgach avjga farmon bo'ldi:

- Kemani sudragil!

Kemaning quyrug'idan tutib sudramoqlikka biror kimsaning quvvati yetmas edi. Avjni shu sabadan ham Olloh taolo halok etmadi.

Shundan keyin farmon bo'ldi: (Oyat) Va hukm Ilohi tomonidan aytilniki, "Ey yer, suvingni yut!" B va B "Ey osmon, yog'ishingni to'xtat!" Osmon yog'ishdan to'xtadi, suvlar yer yuzidan quridi. Ma'lumki, yer yumaloqdir, atrofida tog'lar turar. Suv to'rt tarafdan Kof tog'iga kelib to'xtadi, keyin pastlay boshladi. Yerning atrofii muhit daryosi bo'ldi. Muhitdan muhitga ulangan suvlar dengiz bo'ldi. Yer yuzasidagi tog'lar, chuqurlar, ko'llar hammasi to'fon suvi Bilan buzilib, izdan chiqdi. Dengizlar suvi achib, sasib odamlar o'lib ketdilar.

Tog'larga xitob keldi:

- Men Nuhning kemasini tog'larda turgizgayman!

Hamma tog'lar bosh ko'tardilar, zora kema bizda turgay, deya. Judiy tog'i hamma tog'lardan past edi. U hokisorlik Bilan "Menga buk aromat qaydan ham tegishli bo'lsin", deya o'zini past tutdi. Olloh taolo uni ihtiyor etdi, kema unda turmoq uchun pastlay boshladi.

- yer yuzida qancha miqdorda suv qoldi, yerning qancha miqdori ochildi? Buning habarini menga kim keltiradi? - dedi Nuh

alayhissalom.

- Men borayin, - dedi qoraqarg'a.

- Unga Kim kafillik bergay? - dedi Nuh.

Erkak tovuq kafil bo'ldi, Qarg'a yo'lga tushdi. Ko'rsaki, yerning betida o'liklar ko'p ekan, uni yemakka andarmon bo'lib, kech qoldi. Ho'roz vaqt bo'lganini Qarg'aga bildirmoq uchun kemanding tomiga chiqib, qanot qoqib chorlay boshladi. Qarg'a esa kelavermadi. Nuh alayhissalom Ho'rozni ushlab qoldi. Shu bois tovuqlar uchmaydigan bo'lib qoldilar, odamlar Bilan birga qoldilar. Aytadilarki, kafolatning boshi malomatdir, o'rtasi o'kinchdir, oxiri esa tovondir. Kim ishonmasa, sinab ko'rsin. Nuh alayhissalom Qarg'ani duo qildi, Olloh taolo uni ijobat qildi. Qarg'aning umri qattiq mashaqqatda, havotirda oxir bo'lar, chunki u yo'ldan qaytmishda o'ngu so'lga boqqani uchun.

Nuh alayhissalm kabutarni jo'natdi:

- Tezda habar keltirgil! - dedi

Yo'lga tushdi. Borib ko'rsa, yer ko'rindi, u soyga qo'nganda oyog'i balchiq bo'ldi. Shu zahotiyiq qaytib kelib, oyog'idagi balchiqni ko'rsatdi.

O'sha balchiq oyog'ida tuklarga aylandi. Shu bois oyog'i tukliklar uning naslidan bo'lar. Yana bir rivoyatda, Kabutar suvi qurigan joyga qo'nganda suv sassiq bo'lgani uchun, oyog'i qizil bo'ldi, derlar.

Kabutar qaytishda zaytun daraxtining yaprog'ini tumshug'iga olib kelib, Nuhga ko'rgazgach, payg'ambar uni ezgu duo qildi:

- Odamlar senga mehribon bo'lib, uylaridan joy bersinlar!

- Yana bir iltimosim bor, - dedi Kabutar. Nuh duo qildi, Olloh taolo ijobat etdi.

(Oyat) "Ey Nuh, biz tomondan bo'lgan salomatlik ila tush!" B degan farmon bo'ldi. Nuh qirq er va qirq Xotin bilan kemadan tushdi va Shom viloyatida dengiz bo'yida bir qishloq qurdilar. UniB "Qaryat ul-samonina" deb atadilar. Olti oy suv ichda turganlarida shamol kelmagandi. To'satdan shamol keldiki, bu ularga yoqmadi, kasal bo'ldilar. Oqibatda hammalari o'lib, yetti kishigana qoldilar. Nuhning o'zi uch o'g'li va uch kelinidan boshqa biror kishi qolmadi. Bugun kelib odamlarning yovuzlari, yaxshilari, mo'minlari, kofirlari - hammasi Nuhning arzandalaridan bo'lar. Kata o'g'lini Som, o'rtanchasini Hom, uchinchisini Yofas der edilar. Bir kuni Nuh uxlayotgandi, shamol kelib etagini ko'tardi. Shunda uning uyat joyi ochilib qoldi. Uni ko'rgan Hom kuldi, Som esa uni malomat qildi, Yofas kelib to'ni Bilan yopib qo'ydi. Olloh taolo bu shimlikning yomonligi tufayli Homning pushtikamaridagi urug'larini qora qildi. Uyalganidan xotining qo'lidan tutib, dengiz qirg'og'ida qamishdan uy qilib, yashay boshladi. Shunday qilib, hindular, habashlar, zangilar - hammasi uning urug'idan bo'ldilar.

Arablar va Ajamlarning otasi Som bo'ldi. Homni Hindistonga (hindular yurti demoqchi), Somni arab va ajam viloyatlarigat jo'natdi. Yofas esa Turkiston viloyatlariga keldi. Hamma turkiy xalqlar uning urug'idan tarqaldi. Shu boisdan turklar aziz va mukarra mbo'ldilar. Bu so'zlar Abu Ishoq Nishopuriy jam qilgan "Qissasi al-anbiyo"da bitilgandir. Boshqa olamlarning aytishlaricha, Ya'jun va Ma'jun ham Yofas urug'idan chiqar. Ka'b rivoyatiga ko'ra, Odamoto uxlayotgan chog'da tush ko'radi. Nutfa yerga tomib, tuproqqa qorishadi. Olloh taolo undan Ya'jun va Ma'juni yaratdi. Shu bois bizlarga ota tarafdan bog'lanib, qarindosh bo'lar. Havvo ona tarafdan bog'lanmas, o'gay bo'larlar. Abdulloh ibn Abbos (Olloh undan rozi bo'lsin):B "Odam farzandlari o'n hissadir, uning to'qqiz hissasi Ya'jun va Ma'jun, bir hissasi jamiki odamlardir", degan.

HIKOYAT. Nuhning bir qizi bor edi. Bir odam so'radi, bermoqchi bo'ldi. Yaan birov so'rab kelgandi, unga ham bermoqni ihtiyor qildi. Tag'in birov so'radi, unga ham berishga rozi bo'ldi. To'rtinchi birov ham so'rab keldi, uni ham ko'ngli tiladi. Hammalri qizni olib ketgani bir vaqtda kelib qoldilar, shunda Nuh alayhissalom qayg'uiga botdi. Uyida bir qanjiq iti va urg'ochi eshagi bor edi. Ollohning qudrati Bilan ikkalasi ham qizlarga aylandilar. Parvardigor jannatdan bir hurni chiqardi. Ularning hammalri bir xil suratlik Ediki, u o'z qizi qaysiligini ham taniy olmay qoldi.

Oradan bir qancha vaqt o'tib, u qizlarini ko'rgani keldi.

- Jufting bilan qanday yashayapsizlar? - dedi bir kuyoviga.

- Yaxshi yashayapmiz, ammo bir aybi bor - hech narsa yemas va ichmas, - dedi kuyovi. Nuh bildiki bu hur ekan.

- Jufting Bilan qandaysizlar? - dedi ikkinchi kuyovi oldiga kelib.

- Qanjiqqa o'xshab ketarkan, - dedi kuyovi. Bildiki bui t ekan.

- Jufting Bilan muhosalarining qalay? - deb so'radi uchinchi kuyovidan.

- Yeydi, ichadi, eshakday cho'zil yotgani yotgan, - dedi kuyovi. U bildiki bu eshak ekan.

- Jufting Bilan qanday yasharsizlar? - so'radi to'rtinchi kuyovidan.

- Men undan behad hursandman, u payg'ambarzodalardan ekan, - dedi kuyovi. Nuh alayhissalom u o'zining qizi ekanligini bildi va olib borgan hodyasini unga sovg'a qildi.

Habarda kelarki, Nuhning umri oxirlab qolgach, bir kuni Jabroil alayhissalom keldi va unga:

- Ey Nuh, payg'ambarlar ichida sening umring uzunroq bo'ldi. Dunyoni qanday tasavvur etding?

- Dunyoni ikki eshikli saroydek bildim. Bir eshikdan kirib, ikkinchisidan chiqarman, - dedi Nuh.

Aytishlaricha, Nuhga yuz yoshlarida payg'ambarlik keldi. Ellik yili kam ming yili odamlarni da'vat qildi. To'fondan keyin uch yuz ellik yil yashadi. Yana aytadilarki, Odamatodan to'fonga qadar ikki ming ikki yuz yil vaqt o'tgandi. Shundan keyin Nuh vafot etdi. Odamlar uch yuz yil Nuhning hariyatiga amal qildilar. So'ngra hammalari kofir bo'ldilar, shariatni bayon qilguvchi qolmadi. Uch yuz yildan keyin odamlarga Hud payg'ambari yuborildi.

Avj Ibn Unuq Qissasi

Unuq Odanning qizi bo'lib, Avj uning o'g'li edi. Bo'yi nihoyatda uzun edi. To'fonda gshu boisdan ham haolk bo'lmadiki, suv uning tizzasigacha chiqdi xolos. U tog'lar ustiga o'tirib, dengizga qo'lini tiqib, baliq ushlardi va uni quyoshga tutib, pishirib yeyardi.

Hamiyatlik edi, behad sadoqatli edi. Katta yoshli xotin va bir qizni oldi. Qizni baland bir toshning ustiga, odamlar ko'rmaydigan joyga qo'ydi. Qiz ulg'aygach u bir joyga ketdi. Qiz tog'ning bir chetiga kelagida, ko'zi bir yigitga tushdi, unga oshiq bo'ldi. Yigit ham unga ko'ngil qo'ydi. Qovushmoqlikka imkon topmadilar. Yigit bir bo'ringning oldigma kelib dardini aytdi:

- Bir usta topib, o'zing sig'adigan sandiq yo'ndirgin, og'zini berkitsin, sen unga kirib olgin, - deb maslahat berdi bo'ri.

Haligi odam sandiqni olib kelib, tog' tagiga qo'ydi. Bo'ri ham sandiq yonida o'tirdi. Avj kelganida bo'ri yig'laganicha unga peshvoz chiqdi.

- Ey o'g'lim, sandiq ichida omonatim bor, uni senga qoldirayin, boshqalarga ishonmasman, - dedi.

Avj sandiqni olib xotini yoniga qo'ydi-da, Yana bir joyga ketdi. Xotin sandiqning qulfini ochib, yigitni chiqarib oldi. Bir necha

kun birga bo'ldilar. Avj qaytib kelib ko'rsaki, bir kimsa yerga tupirmish.

- Buni kim qildi, - deya so'radi u.

- Men tupurdim, - dedi xotini.

- Yana bir tupirgin-chi! - dedi Avj. Xotini tupurganda unga o'xshamadi.

- Hozir seni haqiqat gapdan boshqa gap qutqarmas, - dedi Avj jahli chiqib. Xotin qo'rqqanidan rostini aytdi. Avj yigitni sandiqdan chiqardi, xotini yoniga qo'yib, bo'rini topib keldi. Yerga urib o'ldirdi, ustidan yozildi, bo'ri najosat ostida qoldi. Rivoyat qilishlaricha, u qaysi eldian o'pkalasa, bir oyog'ini qishloqning u chetiga, bir oyog'ini bu chetiga qo'yarkan-da, qishloqning tepasiga yozilib, hamma odamlarni najosati ostida halok qilarkan.

HIKOYAT. Avj Muso alayhissalom davrigacha tirik yurgan edi. Musoning lashkari ko'rdiki, Avj to'rt yig'och (bir yig'och taxminat 9 km keladigan masofa birligi) joyni band qilib turardi. Bir payt lashkar Bilan barobar keladigan bir tog'ni boshi ustiga dast ko'tardi-yu odamlar ustiga bostirib qo'ymoqchi bo'ldi. Shunda Olloh taolo sassiqpopishakka ilhom berdiki, u kelib Avjning boshi ustidan u tog'ni teshib qo'ygandi, tog' uning bo'yniga halqa bo'lib qoldi. U Muso Bilan urusha olmadi. Shunda Musoga "Urgil!" degan farmon bo'ldi. Musoning bo'yi o'n ikki qari (tirsak) edi, tayog'ining uzunligi ham shuncha edi. Muso Yana o'n ikki qari balandga sakrab, tayog'i bilan urgandi, Avjning oshg'iga tegdi va yerga quladi. Musoning qavmi uni yancha-yancha o'ldirdilar.

#### Hud Alayhissalom Qissasi

Hud ibn Abdulloh ibn Riyoh ibn al-Julud ibn Od ibn Avaz ibn Iram ibn Som ibn Nuh alayhisallom deb atalar. Deydilarki, arablardan besh payg'ambar chiqqandir: Hud, Solih, Shis, Ismoil va Muhammad alayhissalomlar.

Od - ba'zilarning aytishicha malikalarning oti, ba'zilarning fikricha qavmning nomi, yana ba'zilarning uqtirishicha elning nomi va yana birovlarining ta'kidlashicha otalarining otidir. Od ibn Avaz ibn Iram ibn Som ibn Nuh alayhissalomning qavmlari Ahqof degan joyda (izoh - hozirgi Yaman Bilan Ummon o'rtalig'ida) yashab o'tganlar. Hud ularni iymonga, islomga da'vat etdi. Qavmlari esa "Sen bizni tangrilarimizdan ayirgani keldingmi?" B Deya sarkashlik qildilar. Ular baland bo'yli edilar: to'rt yuz qari balandlikda novcha bo'lib, balandga sakrab oyoqlari bilan tepinsalar, tizzalarigacha yerga kirardilar. Ular quvvatlariga va bo'ylariga hamohang butlar yasadilar. Kuchlariga mag'rurlanib, B "Bizdan quvvatlik Kim bor?" dedilar. Uch yuz qari balandlikdagi butlarni oltin va kumushdan barpo etgan.

Hud ularga (Oyat)

- Ey qavmim, Ollohga topinglar. Sizlarga undan boshqa biror hudo yo'qdir, -dedi. Lekin ular buni qabul qilmadilar va sarkashlik Bilan dedilar:

- Agar rostgo'y bo'lsang azobni keltirgin, ko'raylik.

- Azobning kelishligini Olloh bilguvchidir, - dedi Hud. - Men sizlarga johil qavm ekanligingizni ko'rmoqdaman.

Bu qavm boshqalarga qaraganda maqtanchoq va kekkayganroq bo'lardilar. Ular tog'larni qo'pordilar, baland-baland saroylar bino qildilar. Zaif va past bo'yli odamlarni masxara qildilar. Shuning uchun odiylar deb ataldilarki, arab tilida u o'ta noshukr demakdir. Bular boshqa odamlardan Yana besh narsa bilan ortiqroq edilar: quvvat, qomat, ne'mat, muhlat va ma'sviyat edi ular.

- Ollohdan qo'rqing, unga tavba qiling! Yo'qsa, sizlarni halok qilg'uvsidir, dedi Hud.

- Seni tangring bizlarni qanday yo'l Bilan halok qilgay, - dedilar.

- U sizlarni shamol Bilan halok qilgay, -dedi Hud va uning so'zlari zoe bo'lmadi. U qirq yetti yil da'vat qildi, lekin tinglamadilar.

- Biz sening so'zlaring Bilan tangrilarimizdan qaytasmiz, - dedilar. So'ngra to'planib, kengash tuzdilar:

- Bizning ustimizga shamol kelarmish, buning tadbirini tuzaylik, deya egnilariga sovutlar, boshlariga dubulg'alar kiydilar, farzandlarini va mol-hollarini tog'lar orasiga yashirdilar. Ularning bir odati bor ediki, qachon biron bir qayg'uqa muftalo bo'lsalar, Makkaga odam yuborib, qurbonlik qilar va tilaklarini so'rar edilar. Atoqli kishilardan uch kishini - Mozid ibn Sa'd, Luqmon ibn Od (bu Luqmoni Hakim emas). Qayn ibn Umarni ajratdilar. Uchovlon Makkaga yetib kelgach, Muoviya degan badavlat vat anti qarindoshlarinikiga qo'noq bo'ldilar.

Hud payg'ambarning duosi bilan Olloh taolo ularga uch yil davomida yomg'ir yubormadi, qurg'oqchilikdan ojiz bo'ldilar.

Uchchovlari qurbonlik qilib, yomg'ir so'rash uchun kelgandilar, ammo buni yoddan chiqargandilar. Muoviya bundan achchiqlandi va hizmatkorlariga "Sizlarning ichkilikbozlik Bilan bo'lib, yog'in so'rab kelganlaringizni unutingiz, fursatingiz o'tib ketmoqda", deb aytishlikning tayinladi. Xizmatkorlar bu so'zlarni she'rga soli bayta berdilar, buni eshitgan mehmonlar uylarini sog'indilar, Ka'baga kelib qurbonlik qildilar.

- Ey bori Hudoy, agar Hudning aytganlari rost bo'lsa, unda bizlarni suvga serob qilgil!

Shunda Olloh taolo uch xil: oq, qizil, qora bulutlarni chaqirdi.

- Ey Qayl, bu bulutlardan birini tanlagin, - degan ovoz eshitildi. Qayd bulutlarga boqdi: "Oq bulutda hech narsa yo'q, qizilida nima borligini bilmasman, qora bulut yog'inlik bo'lsa kerak", deb o'yladi-da, qora bulutni tanladi. Ammo qora bulut azaob buluti edi.

- Qorasini, ya'ni kulni ihtiyor etding. Odamning birorta ham qavmini qoldirmassan! - degan ovozni eshitdilar.

- Iloho, men ularning diniga bo'ysunmas edim, o'z diningda sobit qilgin! - dedi Mazit ibn Sa'd.

- Iloho, menga uzun umr bergin! - dedi Luqmon ibn Od.

- Qancha umr tilaysan? - degan ovoz eshitildi.

- Karkas (ya'ni o'limtiklar Bilan kun ko'ruvchi yirtqich qush) umri kerakdir, - dedi.

Har bir karkas uch yuz yil umr ko'rar edi. Luqmon bir karkas bolasini trabiyalay boshladi. U o'lgach yana yettitasini tarbiya qila boshladi. U Lubid degan qaldig'ochga dardini dasturxon qildi. Luqmon dediki:

- Qachon o'limim yaqinlashganda seni tog' tepasiga eltarmen va karsaklar orasiga qo'yarman, ular bilan birga uchib ketarsan! Vaqti kelib hamma qushlar uchib ketdilar, ammo Lubid uchib ketmadi. O'sha yerda Luqmon birla jon berdi.

O'sha qora bulutga yetmish ming xalqa urilgan edi. Har bir xalqa yetmish ikki farishtaning qo'lida edi. Buni ilk bor bir kampir ko'rdi. Oti Miz edi. Shu bois, yetti tun, sakkiz kunlarni "Ayyomi ajuz" deralar.

Jabroil Olloh farmoni Bilan shamolni tasarruf qilgan farishta:

- Shamol eshigini ochgil! - dedi.

- Qancha ochayin? - so'radi farishta.

- Sigir burnidan chiqqunchalik ochgil! - dedi Jabroil.

- Buncha miqdorda ochadigan bo'lsam yer yuzida tuproqlaru tog'lar, daraxtlari dengizlar qolmagay, - dedi farishta.

- Bir kichik uzukning ko'zicha ochgil! - dedi Jabroil. Unga ham boyagidan javob bo'ldi. Shunda:

14 Kitoblar Olami | Sever.UZ | Uzsmart.UZ



- Shunda ignaning teshigicha ochgil! - dedi Jabroil. Ochgan edi, dunyoni shamol bosdi. (Oyat) "Va ammo Od (qavmi) bo'lsa, ular nihoyatda tez esadigan sovuq shamol bilan halok qilindilar".

Hudnimng atrofiga bir chiziq tortildi. Shu bois shamol unga zahmat yetkazmadi. Sal fursatda yetib kelgan shamol: "Hudning yeli bizni tebrata boshladi", dedilar. Qavmi chuqurliklarga yashirindilar. Ammo shamol ularni har joyda bo'lsa quvib yetdi. Avval sovutlarini yechib oldi, so'ngra etlarini yulib, quruq suyaklarini qoldirdi. Bir qismlari tog' o'ngirlariga kirib yashirindilar. Shamol ul joylarga ham kirib, tortib chiqardi, uylari tomlariga urib halok qildi. So'ngra suyaklarini chuqurliklarga surib borib, ko'mib tashladi. Ustlariga tuproq bostirdi.

Xalxon ismli bir polvon kimsa bor edi. U "Shamolning yo'lini berktiayin, hammalrini azobdan qutqarayin", deb keldi-\*da tirsagini toshga tirab, ikki qo'li bilan shamol yo'lini tutmoqchi bo'ldi, ko'ksini yelga tutdi va baland ovozdab "Xalxon ismli bahodirdan boshqa hech Kim qolmadi", dedi. Shamol uni tosh bilan birga ko'tardi-da, havoga olib chiqib, toshga urib halok qildi. Shamol chorshanba kuni kelgan edi. Yetti kecha-yu sakkiz kunduz betinim esdi. Chorshanba kuni oqshom paytiga kelib tindi. Hud alayhissalom ungirdan chiqib, qavmlari ustiga keldi. Qavmlari tuproq ostida tiriklar kabi yig'lar va ingrar edilar. Ularning ovovzlarini eshitib, "Bu falonchi, bu esa falonchi", deyardi. Ollohning habar berishicha (Oyat)B "Ular go'yo xurmo daraxtining ichi kovak to'nkalariga o'xshardi". Od qavmi qirq kungacha tuproq ostida ingradilar, qiynaldilar.

#### Solih Alayhissalom Qissasi

Asl ismlari - Solih ibn Ubay ibn Asaf ibn Fosih ibn Hom ibn Samud ibn Od ibn Eram ibn Som ibn Nuh alayhissalomdir. Od va Samud - ikki shoxlar edi. Som ibn Nuhning o'g'lonlari bo'lgan bu ikkiovidan ko'plab zurriyodlar qoldi. Ular Od qabilasi, Samud qabilasi deb atalardilar. Hud qavmi Od qabilasining avvli, Samud qavmi esa ohiridir. Od xalqi Samud xalqidan ko'proq edi. Samudliklar ham Odliklar singari baland bo'ylik edi. Som va Od qavmi Hijoz orasidagi Jahd degan joyda istiqomat qilganlar. Tog'lar toshlarni yo'nib, uylar qurgandilar. Kata bir tog'ning ostida ularning suvi bor edi. Hammalari butlarga siqindilar. Olloh taolo Solihni ularga yubordi. (Oyat) "Va Saum qabilasiga ularning birodarlari Solihni yubordik". Solih ularning qavmidan edi va ularni musulmonlikka undadi, butga topinmaslikka da'vat etdi.

Ey Solih, biz seni dimizga kirar deb umid qilgandik. Endi bo'lsa otalarimiz dinini qo'yib, boshqa dinga kirishga undamoqdasan. (Oyat) "Sen avvalda bizning oramizda umid qilingan kishi eding". Oyo, sen bizni ota-bobolarimiz ibodat qilib kelgan narsaga ibodat qilishimizdan qaytarmoqchisan? Va albatta, bizlar seni da'vat qilib, targ'ib etayotgan din haqida qattiq shakdamiz.

Vahab ibn al-Yamaniy qissalarida rivoyat qilinishicha, Nuh xalqi to'fonda halok bo'lgandan keyin Nuhning uch o'g'ligina qoldi, xolos. Nuh alayhissalom o'g'illariga vasiyat qilib, jahonning o'rtasini Somga, Mashriqni Yofasga, Mag'ribni Homga bergandi. Aytishlaricha, turklar Yofas urug'idan, boshqalar esa Som urug'idandir. Som urug'iga mansub bo'lgan Samud qavmi Hijoz yerlarida o'rnatilgan. Ularning har bir qabilasining o'z podishohi bor edi. Samud qavmi Makkaga ixlos qo'ygandi. Makkada muoviya ibn Bakr degan uch yuz ming askari bo'lgan shoh hukm yuritiradi.

Hijoz yerlaridagi podishohlar yig'ilishib kengash qurdilar: "Dushmanlardan bizlarni himoya etuvchi bir podishoh kerak". Xanda' ibn Umar degan odamni o'zlari podishoh qildilar. Shoh o'z hukmronligini o'rnatgach, o'ziga bir butni yasattirdi. Bu butning ko'zlari yoqutdan, o'zi esa qizil oltindan edi. Butning to'rt tarafa qaragan to'rt yuzi bo'lib, biri odam chsuratida, biri arslon suratida, biri qush suratida, biri ot suratida edi. Bu but uchun balandligi yuz tirsak, eni yuz tirsak bo'lgan bir uy barpo qildirdi, devoru tomlari aqaqdan edi. Bu uyga yuz eshik qurdirdi, ichiga bir taxt o'rnatdi, uni qizil oltin va gavharlar bilan bezatdi, oyoqlarini aqiq, zumdar va billurdan ziynatladi. Butni turfa xil kiyimlar bilan orastalab, bu taxt ustiga o'rnatirdi, unga sajda qildilar. So'ngra barcha qabilalarga odam yuborib, hamma podishohlarni o'z a'yonlari bilan yig'dirdi.

Bu mening tangrim bo'ladi, unga sajda qilinglar, - dedi yig'ilganlarga. Podishohlar binoning yuz eshigidan kirib, butga sajda qildilar. Shu Pallada ilgariroq butning og'ziga kirib olgan bir kimsa "Men sizlardan hushnudman", deb ovoz qildi. Bundan barchalari shod bo'lib, sajdadan bosh ko'tarishdi.

"Har yili bir marta bunga kelib sajda qilinglar", -dedi Xanda' ibn Umar amirona ohangda.

Uydan chiqib muhokama chog'ida "Bizning tangrimizning yuzi bundoq edi, bizniki undoq edi", degan yo'sinda so'z talashdilar, so'ngra bir-birlari bilan urushdilar. To'qnashub chog'ida yetmish ming kishi halok bo'ldi. Buning habarini eshitgan Xanda' ibn Umar yetib keldi-da:B "Hech bir dushman qilmaydigan ishni qildingizki, bunga o'zlaringiz aybdorsiz", -dedi.

"Ey podishoh, bizga bunday janjalga soluvchi tangrining keragi yo'q. Boshqa tangri tutuamizki, u bizni janjallashtirmaydigan bo'lsin", - dedilar unga javoban.

So'ngra Qarra' degan toqqa odam jo'natdilar, unga but yasashlik uchun tosh topishligini buyurdilar. Iblis alayhil-la'na undan oldinroq toqqa kelib turdi, chiroyli bir oq toshni kesib tayyorlab qo'ydi. Odamlar ham kelib ko'rdilar, olib borib bir but yasadilar. Boshi oltindan, ko'zlari yoqutdan, tishlari injudan bo'lgan bu butning uzunligi qirq tirsak edi. Anvoiy kiyimlar kiydirib, oldingi butning o'rniga, o'sha taxt ustiga o'rnatirdilar va ibn Abxar deb atadilar.

- Ey podishoh, bir olamni tayin qilki, bu butga xodimlik qilsin, -dedilar. Xanda'ning ko'zi Qosir ibn Ubaydo ismli kishiga tushdi.

- Manavi odam bu ishga yaraydimi, -deb so'radi shoh.

Rozi bo'ldilar va Qosurni bu butga hodim qildilar. U qirq yil butning xizmatida bo'ldi. Bir kuni Iblis farishtalardan eshitdiki, "Qosur urug'idan Solih otlig' bir payg'ambar chiqqay, bu kofirlar uning qo'lida halok bo'lgay", deb. Qavmning kata-kichigi butning oldiga yig'ilgan chog'ida Iblis alayhil-la'na kelib butning og'ziga kirdi-da qattiq ovoz bilan shunday dedi:

- Ey mening qullarim, bu Qosur mening xizmatimga yaramaydi, uni zindonga soling!

Qosurni zindonga soldilar va o'rniga boshqa birovni butga hodim qildilar. Qosur zindonda qirq yil qolib ketdi. Qirq yildan so'ng Jabroilga farmon bo'ldi: "Qosurni zindondan chiqargil!", - deb. Jabroil qanoti bilan urib, zindonni ikkiga bo'lib tashladi vaB "Ey Qosur, zindondan chiqqil!" dedi.

- Abxarga qirq yil xizmat qildim, qirq yil zindonda qoldim. Endi qutildim, bu yerdan ketayin, - Deya ko'nglidan o'tkazdi va o'rnidan turib, zindonni tark etdi.

Tog' tomonga yo'l oldi. Tog' ichida bir o'ngiriga yo'liqdi. Behad toliqqanidan, ungirga kirdi-yu uyquga cho'mdi. Qirq yil muttasil uxladi, bu payda Olloh taolo uni bir farishtaga saqlatdi.

Qosurning Zaum degan xotini bor edi. Ular bir qancha yil birga yashadilar. Eri boshiga tushgan kechmishlar tufayli aqlidan ozdi, u ko'chalarda yugurgilab, erini chorlab yurardi. O'zi juda hunuk edi, odamlar unga rahm-shavqat ko'rsatardilar.

Bir kuni uyiga qarq'a suraaidagi bir qush keldi:

- Ey Zaum, Qorusni ko'rishga istaging bo'lsa orqamdan yurgil! Dedi.

Zaum orqasidan bordi. Ular o'sha ungirga keldilar.

- Eringni chiqargil! - dedi qush.

Zaum baland ovoz bilan Qorusni chaqirdi. Shunda ungir ochildi, Qosur javob berdi iva "Kirgil!" dedi. Zaum ungirga kirib, Qosurni ko'rdi.

- Ey Qosur, shuncha yildan beri bu yerda ekansan, nega meni yo'qlamading?

- Axbar zindonidan qutilganimdan keyin bir kecha bu yerda yotdim, - dedi Qosur.

- Bir yuz yigirma yildurki, sen mendan g'oyibsan, - dedi Zaum.g'

Bu so'zlarni eshitgach, Qosurning ayoliga ko'ngli moyil bo'ldi, qovushdilar, Zaum Solih payg'ambarga homilador bo'ldi, shul soatdayoq Qosur o'ldi. Zaum behad qayg'uga botdi.

- Ungirdan chiqqil! -dedi qush. Zaum chiqqani hamon ungir g'oyib bo'ldi.

- Ey Zaum, qorningdagi farzandni kimdan orttirding, deb so'rasalar, taniqlik istasalar, ularni bu ungirga olib kelgin. Tangri taolo ularning bu shariddan seni qutqargay, -dedi qush.

- Sen qanday qushdiansan? -dedi Zaum.

- Men qarq'aman.

- Boshing nega oqardi?

- Qobilning Hobilni o'ldirmog'iga men sababchi bo'ldim.

- Tumshug'ing nechuk sarig'dir?

- Jannatdagi za'farondan yegandim.

- Oyoqlaring nega yashildir?

- Ming yil jannatning Tubo daraxtiga qo'nib turdim.

- Bir kun do'zax ustidan uchib o'tgandim, olovining issig'i shu holga soldi, - dedi qush va ko'zdan g'oyib bo'ldi.

Zaum uyiga keldi. To'qqiz oydan keyin, muharram oyining dushanba kuni kechasi Solih payg'ambar onadan tavallud topdilar. Onasi uni yo'rgaklab o'z yurtiga olib bordi.

- Bu bolani qaerdan topding? - so'radi podishoh. Zaum voqeani bayon qildi, shoh tingladi.

- Ey shohim, gaplarimga ishonmasang, yurgil, senga ko'rsatayin, - dedi Zaum.

Podishoh Zaum bilan birga o'sha ungirga bordi, ayol baland ovoz bilan Qosurni chaqira boshladi. Ungir ochilib, ikkovlari ichkariga kirdilar. Oллоh taolo o'z qudrati bilan Qosurni tiriltirdi.

- Ey Xadna', bu mening o'g'limdir, - dedi Qosur va keyin yana o'ldi, hok-tuproq bo'ldi.

- Men buni ko'zlarim bilan ko'rdim, ishonдим, ammo boshqalar bunga ishonmaydilar. Shul sababdan bolani mening eshigimga qo'ygil. Odamlar kelib uni asrab olishlikka so'raydilar. Shunda sen ham borib asrab olgil, - dedi podishoh.

Zaum shunday qildi. Solihni asrab oldi. Solih o'n ikki yoshga yetganda chiroyi kamolga yetdi. Kim uni ko'rsa mahliyo bo'lar edi. Solih onasining qo'ylarini asrardi.

Kunlarning birida Muoviya ibn Bakr Makkadan uch ming kishilik qo'shin tortib keldi, Hijozni taslim etdi. Ertasi kuni Solih Muoviyani ko'rmoq uchun yo'liga chiqdi. Maqsadi dushmani qaytarmoq edi. Solih dushman lashkarini tutib, har qaysini har tarafga irg'itardi. Shunda bir gala otliqlar kelib, uni tutmoqchi bo'ldilar. Shunda Solih qattiq na'ra tortdiki, Jabroil, Azroil, Mekoil farishtalar ham unga jo'r bo'ldilar, bu dahshatdan dushman lashkarining yuragi yorilib o'ldi.

Bu voqeani podishohga yetkazdilar. U otlanib kelib, ajoyibotni ko'rgach, Solihni otga mindirdi, egniga sapolar kiydirdi, boshidagi oltin tojni uning boshiga qo'ydi. Dunyoda ilk bor o'z kiyimni yechib, birovga kiydirgan shah Xanda' ibn Umar edi. Qo'shiniga farmon keldiki, "Qachon podishoh bir joyga bosa, Solih ham birga bo'lsin, unga ham shohona salomlar berilsin", deb.

Bir kuni Solih uyining eshigi oldida o'tirardi. Jabroil alayhissalom chiroyli yigit suratida uning oldiga keldi. Salom berdi. Solih uni tanimadi.

- Ey Solih, uya kirgil! - dedi Jabroil va uya kirgach unga payg'ambarlik kelganini bildirdi. - Borgil podishohga aytgilki, "U Oллоh bittadir, Solih uning payg'ambaridir", deb aytgin.

- Egnimdagi xatolar kiyimini yechgil, - dedi Solih. Yechib oldi, bir ko'ylak kiydirdi, Solih payg'ambar to'lgunicha shu kiyimda bo'ldi.

- Ey kofir, Oллоhdan boshqa iloh yo'qdir, Solih uning payg'ambaridir, deb aytgil, - dedi u podishohning qoshiga kelib.

- Ey Solih, bizning senga qilgan ezguligimizga shunday javob qilursanmi? - dedi podishoh. Solih javob aytmoqchi bo'lgandi, Jabroil unamadi, - tur o'rningdan, yurtdan chiqib ketgil.

Solih yurtdan chiqdi, yetti yig'och (tahminan 9 km. Bo'lgan masofa birligi)lik yo'l yurib Qar' tog'iga keldi. Unda farishtalarni ko'rdi.

- Ey Solih, bunda bir uy bino qilgil! - dedi ular, o'zlari ham unga ko'mak berdilar. Bir uy barpo bo'ldi: uzunligi uch yuz tirsak, eni qirq tirsak. O'ng yonidan yerlar ochdirildi, so'l yonidan daraxtlar ektirildi. Oltin va kumushlar bilan ziynatlangan bir qandil yasadilar, uning yorug'ligidan quyosh uyalardi. Ertasi kuni qavmi kelib, u binoni ko'rdilar, lol qoldilar. Solih payg'ambar kunduzlari qavmini imonga da'vat etar, tunda bu uya kelar edi. Ammo bu elda uch yuz kishidan ortiq musulmon bo'lmadi.

- Hudoyo, bulardan umidim uzildi, - dedi Solih.

- Ey Solih, bular uch yuz yildirki, kofirlikka cho'mganlar, - dedi Jabroil. - Bir yenchu kun ichida bular o'zgarib qolmaydilar.

- Ey qavmim, mening bir kishida ishim bor, - dedi shunda solih payg'ambar va bosh olib chiqdi.

Qar' tog'iga borib, bir mehrob qildi-da, ibodatga mashg'ul bo'ldi, sajdaga bosh qo'ydi. Oллоh taolo uni uyg'uga cho'mdirdi, u qirq yil uyg'uda bo'ldi. Imonga kelgan uch yuz musulmon vafot etdilar. Yer yuzida "la' ilaha illalloh" deguvchi qolmadi. Uyqudan uyg'ongan Solih payg'ambar ularning barchalarini o'lik holda ko'rdi.

Solih alayhissalom to'rt yil Samud xalqi orasida yurdi, ularni imonga undadi, azobdan qo'riqtdi, jannat hushxabarini berdi, ezgu o'gitlar aytdi, ammo qabul qilmadilar. "Solihni o'zimizdan umidsiz qilamiz", deb kengashdilar. Ular yanaB "Solih bizdan hasab va nasabda ulug'roqdir, uni o'ldirib bo'lmayd. Shunday bir yumush buyuraylikki, shu ishni qilolmay hijolat bo'lib, o'zi ketgay" deya mulohaza qildilar.

- Ey Solih, sen bizga nima demoqchisan? - deyishdi ular.

- Oллоh taoloning yagonaligiga ishoning. Sizni yaratgan, ne'matlar ato etgan Udir, - dedi Solih. - Od xalqi ishonmadi - ne baloga yo'liqmadi, Hud qavmi imon keltirmadi - boshiga qanday balolar kelmadi.

- Ey Solih, bizni otalarimiz sig'ingan ilohdan qaytarib, boshqa hudo bilan qo'rqitmoqchimisiz? Agar so'zing rost bo'lsa, bizga bir

mo'v' Ejjiza ko'rsat, - dedi qavmi.

- Qanday mo'v' Ejjizani istaysiz? - dedi Solih.

- Iydgohimizga chiqaylik, sen o'z tangringdan so'ragin, biz ham o'z tangrimizdan so'raymiz, qay birining qudrati zo'rligini ko'raylik, - deyishdi ular.

Ertasi kuni hammalri iydgohga chiqdilar, Solih ham bordi.

Ularning oldilari bir maysa ham unmagan tog' bor edi.

- Shu tog'dan bizga bir qizil tuklik tuya chiqargil. Bizning qo'limizda bo'talasin, bizga sut bersin, biz uni ichaylik, - deyishdi.

O'sha tog'da Qayna degan o'zan bor edi, suvlari o'sha yerdan kelardi. Bu qavmning bobolari bir kuni o'zandagi bir toshdan sado eshitdiki, "Samud xalqi bu toshdan halok bo'lg'usi", degan.

- Ushbu toshdan bir tuya chiqargil, tuki qizil, tili qora, bo'yni uzun, o'rkachi tuklik, yelini yetilgan bo'lsin, - deb o'sha toshga ishora qildilar.

- Hudoyo, mendan nima istayotganlarini o'zing bilib turibsan, - Deya duo qildi Solih alayhissalom.

- Ey Solih, sening qavming bu mo'v' Ejjizani talab qilishini bilardik. Biz uni shu toshning ichida saqlab turibmiz, - degan farmon keldi.

Solih alayhissalom duo qildilar. Tosh tebrana boshladi. Bir payt tosh ichidan huddi o'zlari talab qilganlaridek tuya chiqdi, biroz o'tmay bo'taladi va tuya bo'tasi Bilan o'tlay boshladi.

- Sen juda yomon sehrgar ekansan, - deb imon keltirmadilar. Ba'zilarigina imon keltirdilar, xolos.

Qavmning bir qudug'i bor edi. Tuya bo'tasi Bilan kelib quduqdagi suvning borini ichib qo'ydi, shu kuni qavm suvsiz qoldi.

- Bu tuya bizga kerakmas, - dedilar bundan achchiqlanib.

- Bularning orasida nabat qilgin: suv bir kun tuyaga bo'lsin, bir kun qavmingga! - degan farmon bo'ldi.

Uni qabul qildilar.

- Farmon shulki, tuyaga tegmang, urmang, qiynamang, o'ldirmang. Bu ishlardan birini qilsangiz, sizlarga azob kelgay!

Buni ham qabul qildilar. Tuya ularning orasida o'ttiz yil turdi. Qavmning navbati bo'lgan kuni tuya bo'tasi bilan tog'larda o'tlar edi.

Tuyaning navbati kelgan kuni quduq suvi tepasigacha ko'tarilar, tuya bo'tasi Bilan suvlardi, suv yana o'rniga tushardi. Ular tuyani sog'ib idishlarini to'ldirib olardilar, negaki uning suti bir ming yetti honadonning hammasiga yetardi. Ammo qo'ylari va qoramollari tuyani ko'rib hurkar, undan cho'chib o'tlamas edilar. Qavm bu tuyani yoqtirmay qoldi.

- Biz bu tuyani o'ldirmaguncha undan qutila olmaymiz, - deb fikr qildilar.

Rivoyat qiladilarki, Solishh alayhissalom shunday degandi: "Orangizdan qizil yuzlik, sariq sochlik, chaqir ko'zlik bir kimsa bu tuyani o'ldirgay". Qavm shunday sifatlik bolalar tug'ilsa, onasiga bildirmay o'ldirib tashlardi. Shunday sifatlik to'qqizta bola tug'ildi, barchasini o'ldirdilar.

Yana bir Solih aytgan sifatlik bir bola tuildi, ammo u qavm ulug'larining farzandi edi. Hammalari yig'ilib, bolani o'ldirgani keldilar.

- Bu so'z g'irt yolg'ondir. Solih sizni laqillatayotibdi, - dedi bolaning otasi.

Qavmning so'zi o'tmadi, bola o'lmay qoldi. Ul bolani Qazor deb atadilar, otasining ismi Solif edi.

- Odam farzandlarining orasida bundan hosiyatsiz va shumroq kimsa yo'qdir, - dedi Solih bola yigirma yoshga kirganda.

Rivoyatda kelishicha, ular to'qqiz kishi edilar, hammalari bo'zchi edi. Yo'l boshchilar Qazor ibn Solif hamda Mastah ibn Dahr edi.

Aytishlaricha, ular Bilan ikkita iflos ayollar ham bor edi: biri Abira otlik, birisi Suduq ismlik. Abira kambir edi, ammo uning ikkita chiroylik qizlari bor edi: biri Qazor ibn Solif, biri Musdi' otlik. Ikkiovi har ikki xotinni yaxshi ko'rardi.

Bir kecha ular to'plandilar. Taom tiladilar.

- Bugun tuyaning navbati kuni. Suvimiz yo'q, shu tufayli taom tayyorlay olmadik, - dedi Suduq.

- Kuchimiz yetganda edi shu tuyani gumdon qilar Edik. Afsuski, oramizda erkaklar yo'q, mardlar bo'lganda edi bu tuyani o'ldirardi, - dedi Abira.

- Bu tuyani men o'ldirsam, nima berarsan? - dedi Qazor ibn solif.

- Men o'zimni senga bag'ishlagayman, - dedi Suduq va asta yuzini ocha boshladiki, uni behad ko'rkliligidan Qazor unga oshiq bo'ldi.

- Men bu qizlarimdan birini senga bergayman, - dedi Abira Musdi'ga qarab.

So'ngra aroq keltirdilar, ikkovini mast qildilar. Qo'ldoshlarga sovg'alar berdilar. Ikkovi tuya keladigan yo'lning bo'yida pisib o'tirdilar. Tuya kelgani hamono Qazor oldidan chiqdi-da, qilich Bilan bo'ksasini chopib tashladi. Tuya yiqilib tushdi. Musdi' esa o'q Bilan boshini nishonga oldi. Yiqilib yotgan tuyani Qazor ibn Solif so'nggi zarba Bilan o'ldirdi. To'rt tomondan odamlar yetib keldilar, tuyani pora-pora qilib, go'shtini homtalash qildilar. Qazor esa bo'tani o'ldirmoqqa chog'landi, ammo bo'ta tog' tomonga qochib ketdi, uch bora qattiq bo'kirdi-da, onasi chiqqan tog' ichiga kirib g'oyib bo'ldi. Solih alayhissalom yetib kelganda tuyani gumdon qilgandilar.

- Bo'ta qani? - deb so'radi Solih haloyiqdan.

- Uch bora bo'kirdi-da g'oyib bo'ldi, - dedilar.

- Uch marta baqiriqning boisi shulki, bu uch alomatning belgisidir. Uch kundan keyin azob kelgusidir, - dedi Solih

- U azobning alomati nimadir? - deyishdi.

- Birinchi kuni yuzlaringiz sarg'ayadi, ikkinchi kuni qizaradi, uchunchi kuni esa qorayadi. Bu azobning yetib kelganidan dalolatdir, - dedi.

Solihni bu gaplarini eshitgandan keyin tuyani o'ldirganlar Yana g'azablandilar.

- Tuyani o'zimiz o'ldirdikmi, endi azob yetmadan burun Solihni ham o'zimiz o'ldiramiz. Agar rozi bo'lsa, bizlardan oldin o'lib ketadi, yolg'on bo'lsa undan qutilganimiz qoladi, - deyishdi yovuz kimsalar.

Yovuzlar shu kecha Solihni poylab, bir toshni ostida pisib yotdilar. Ollohning farmoni Bilan u tosh yemirilib, hammasining ustidan bosib tushdi, halok qildi. (Oyat) "Ular o'zlari bilganlaricha bir nav makr qildilar va Bizlar ham unga qarshi tadbir qildik va ular buni sezmas edilar".

Yana bir rivoyatda shunday deyiladi: Solihni o'ldirishga chog'alnib kechasi uning eshigida poylab yotganlrida Olloh taolo farishtalarni tushurdi va ular tosh Bilan urib, hammalarini haolok qildilar. Ertasiga ular qaytmagach, Samud xalqi Solihga "Ularni sen o'ldirgansan", deb da'vo qildilar.

Ertasi kuni ko'rdilarki, hammalarining yuzlari sarg'aymish. Bildilar, azob yaqinlashmoqda. Shunda "Solihni o'ldiraylik", deya istay



boshladilar. Solih ulardan qochdi. U saqil ismli abul vahhob laqabli kimsaning uyiga keldi, u Solihni yashirdi. Necha bor qidirib keldilar, aytmadi. Shundan keyin ular "Solihni bizga topib Bering!" deya solih alayhissalomga yaqin bo'lgan kishilarni ura boshladilar. Shunda Misra' ibn Xaaram degan kimsa "U Abul Vahhobning uyidadir", deb aytib beradi. Abul Vahhobning oldiga borib "Solih sening uyingda ekan", dedilar. U hamB "Solih shu yerda, ammo men uni sizlarga bermayman", degandi umidsiz bo'lib qaytib ketdilar.

Ertasi kuni yuzlari qizardi, uchinchi kuniga o'tib qoraydi. Yakshanba kuni edi, imon keltirganlar Solihning oldiga keldilar.

Payg'ambar ular birga Falastinga bordi. Ularning ham yuzlari qorayib ketgandi. Barchalari o'zlariga go'r qazidilar, kafanlar kiyib, qazilgan lahadlarga kirib o'tirdilar.

Oллоh taolo Jabroilga farmon berdi, u tuya o'ldirilgan joyga kelib, bir nara' tortdi, dahshatli qichqiriqdan hamma qavmning yuragi yorilib o'ldi va do'zaxga tushdi. Yolg'izgina Zurayta degan xizmatkor OMON qoldi. U ham tashqaridagilarga habar bergani borib, suv so'radi-da, suvni ichib bo'liboq o'ldi. Solih ulardan ko'ngil uzdi.

- Hudoyo, menga imon bergil, bir ezgu ko'ngilli qulni topayin, ko'nglimdagi munglarimni unga aytib, yuragimni yozayin, - dedi Solih.

- Borgil! - degan farmon bo'ldi.

Solih biron kimsa qidrib, jahon kezdi. Yura-yuar bir kishini topdi, u namoz o'qib turgan edi. Unga kelib, salom berdi, hol so'radi.

- Bir dengiz qirg'og'ida kofir va yo'lsiz xalq bor edi. Oллоh taolo hammasini dengizga g'arq qildi, yolg'iz men qoldim, enda haq taologa shukr qilurman, - dedi ul kishi.

U yerdan ketib, dengiz qig'og'idagi bir shaharga bordi. Ikki aka-ukadan boshqa hamma xolqi kofir edi. Bu ikki musulmon birodarlar, hunarlari evaziga kun ko'rar, topganlarining o'zlaridan ortganlarini darvishlarga berar edilar. Solih ularning oldiga keldi vash u payt qattiq ovozni eshitdi.

- Bu nimadir? - dedi Solishh.

- Bu yerda bir katta ajdaho bor, oqshom payti dengizdan chiqib, bir odam yeyar, -dedilar.

- Uni o'ldirsam, haloyiq menga nipma bera oladi? - dedi Solih. Ikala birodar bu gapni shahar xalqiga aytdi.

- Shahar xalqi "Agar ilonni o'ldirsa, unga yarim davlatimizni beramiz", dedilar, - deya habar olib keldi birov.

Solih o'rnidan turib, ikki rakaat namoz o'qidi, so'ng duo qildi. U ilon yorilib o'ldi. Shahar xalqi yarim davlatlarini keltirib

berganlarida Solih uni olmadi, birodarlarga berdi, ular olmagach, xalqning o'ziga qaytardi. Boshini sajdaga qo'yib, yaragnaga shukr qildi.

- Senga topingan uch kishini bildim, - dedi solih.

- Ey Solih, yer yuzida mening shunday qullarim borki, jahonni ularning qo'lida tuttururman, - degan farmon keldi.

Deydilarki, Solih qavmidan yetmish kishi imonli bo'ldi. Huddi Hud qavmi kabi bo'ldilar. Qachonki, Jabroil Solih qavmiga nido qilganida hammalari o'ldilar. Ayoqlarining ostidan o't chiqib ketgandi, hammasini kuydirgandi. (Oyat) "Haqiqatda biz ularga bir na'ra yubordik va ular molxonada hayvonlar oyog'i ostida qolib bosilgan hashakdek bo'lib qoldilar".

Aytadilarki, arablarning bir odati bor: sahroda tuya va qo'yga qo'ton qilganlarida uning ichga quduq o'tlarini to'shaydilar. Bu

hashaklar hayvonlar tuyoqlari ostida qiymalanur. Oллоh taolo Samud qavmini ham anna shu hashaklarga o'xshatayotir.

Abdulloh ibn Abbos (Oллоh undan rozi bo'lsin) rivoyat qilurki, Haq taolo ikki xalqni bir azob bilan halak qilmadi. Ammo solih va Shuayb qavmlarini o't Bilan azobladi. O't Solih xalqining oyoqlari ostidan chiqqan bo'lsa, Shuayb qavmiga osmondan tushdi.

Shundan keyin solih alayhissalom Shom viloyatiga borib o'rnashdi va u yerda o'n sakkiz yil (Yana bir rivoyatdi qirq yil) yashadi.

Solih alayhissalomdan keyin to Ibrohim alayhissalomga qadar hech bir payg'ambar kelmadi.

#### Ibrohim Alayhissalom Va Namrud Alayhil-La'na Qissasi

Shariflari - Ibrohim ibn Torix ibn soruh ibn Arg'us, ibn Folih ibn obir ibn Solih ibn Artus ibn Som ibn Nuh alayhissalomdurlar.

Yana Ibrohim va abraham ham derlar. Har ikkisi ham durustdir, ya'ni Abun rahimun - oqko'ngil, mehribon ota deganidir. U

Namrud ibn Kavs ibn Kan'on ibn Nuh zamonida yashagandi. Namrud butun dunyoga hukmronlik qilardi. Aytishlaricha, butun

dunyoga to'rt kishi hukmronlik qildiki, bularning ikkisi musulmon va ikkisi kofir edi. Musulmon hukmdorlar - Sulaymon

alayhissalom va Zulqarnayn, kofir hukmdorlar esa Namrud va Buxtnasr edi.

Namrud tush ko'rdi. Tushida bir qo'chqor kelib, uning taxtini suzib, yiqitar edi. Tong otgach, munajjimlarni, tush ta'burchilarini, kohinlarni yig'dirdi va ulardan tush ta'birini so'radi.

- Bu yil bir o'g'il bola tug'ilar, sening mulking uning qo'lida halokatga yuz tutar, - deb ta'bir qildilar.

Namrud buni eshitgach, hamma homilador ayollarni yig'ib, qaysi Xotin o'g'il tug'sa bolasini o'ldirar, qiz tug'sa tirik qoldirardi.

Namrudning bir buttarosh maslahatchisi bo'lardi. Ota Torix edi, butlarga behad qattiq topingani uchun Ozar ham derdilar.

Ozarining xotini Ibrohimga homilador bo'lgandi, uni odamlardan yashirdilar. Oy-kuni yetganda ovloq yerga kirib, o'g'il tug'di, uni

Ibrohim deb atadilar. Ammo Namruddan qo'rqib, chaqaloqni tog' ungriga eltib tashladilar, unga hayvon suti Bera boshladilar.

- Ko'z oldimda o'ldirganlarini ko'rmayin, toki qushlar yeb ketsin, deb fikr qildilar.

Oллоh taolo Jabroilni yubordi. Kelib Ibrohimning barmog'ini og'ziga suqib qo'ydi, Oллоh qudrati Bilan barmoq ichida sut paydo

bo'ldi, chaqaloq shu sutni emardi. Boshqa bolalar oy sayin ulg'aysalar, Ibrohim kun sayin ulg'ayardi. Yetti yoshga kirganda otasi borib, uyiga olib keldi.

- Men yo'qdan bor bo'ldim. Mening tangrim kimdir? - dedi u bir kun onasi bilan suhbatda.

- Menman, - dedi onasi.

- Sening tangring kimdir? - dedi u.

- Otang, - dedi onasi.

- Qanday qilib? - so'radi u.

- Shuning uchunki, u mendan yuqoriroq, - dedi onasi.

- Otamning tangrisi kimdir? - dedi u.

- Namrud, - dedi onasi.

- Qanaqasiga? - dedi u.

- Shuning uchunki, u otangdan ulug'roq, -dedi onasi.

- Namrudning tangrisi kimdir? - dedi u.

- Jim, unday demagil! - deb qattiq tegdi onasi.

Ona bu gapni otasiga yetkazgandi:

- Uni bu yerdan yo'qotgil, yana toqqa qo'yib kelgil! - dedi ota.

Onasi Ibrohimni Yana ungirga olib borib tashladi. Ibrohim o'yladi: "Meni yaratgan tangrim bunday sohibsiz, bo'ysinuvchisiz bo'lmas. Kinga topinish kerak, qanday topinish kerak, bilmasman". Shunday o'ylar girdobida kun chiqdi. Ungirdan chiqdi. Zuxro yulduzini ko'rdi, juda yorug' edi. "Mening tangrim shumikan?" degan hayolga bordi. (Oyat) "Keyin, kech kirib qorong'u tushganida yulduzni ko'rdi va manna bu mening parvardigorim" dedi. Zuxro yulduzi botganda esa "Tuqqan, botgan, ergashuvchi narsa tangrilikka yaramaydi, bundaylarni sevmayman", degan fikrga keldi. (Oyat)B "Shunga o'xshash narsa mening Parvardigorim bo'ladimi?" dedi.

Sal o'tmay oy chiqdi, u yulduzdan ham yorug'roq edi. "Mening tangrim shumikan?"B deya o'yladi. Oy botgach "Bu ham chiqar va botar ekan. (Oyat)B "Agar parvardigorim meni to'g'ri yo'lga boshlamasa, u holda men, albatta, gumrohlardan o'lib qolaman".

U kechani o'y bilan o'tkazdi. Tong otgach "Qorong'i ketdi, olam yorishdi, kun chiqdi, u yulduzdan ham, oydan ham yorug'roq ekan. Tangrim shumikin, bu hammasidan ulug'roq ekan", degan hayolga bordi. (Oyat) "Quyoshni chiqib kelayotganini ko'rganda, "manna mening robbim, bu kattaroq ekan", dedi".

Quyosh qiyomga kelgunga qadar shu hayolda turdi. Kun pastlay boshlagach, "Men botib ketguvchi narsani sevmasman. Bunday odamlardan yiroqman", dedi. (Oyat)B "Albatta, men sizlar Hudoga sherik qilayotgan narsalaringizdan bezorman".

- Bularg topinmasang, kimga sig'inarsan axir? - deyishdi.

- (Oyat) "Men yer va osmonlarni yaratgan zot tomoniga yuzimni taslim bo'lgan holimda burdim", - dedi.

Bir kuni onasi oldiga keldi. Otasining oldiga kirsam, u but tarashlayotganda, Ibrohimga "Bu butni bozorga olib sotib kelgil", dedi. Ibrohim butning bo'yniga arqon bog'lab, suvga solib, tuproqqa bulab, bozorga olib bordi-daB "Ko'rmaydigan, eshitmaydigan, odamga nafi tegmaydigan shu narsani Kim sotib oladi?" de bayta berdi.

Kunlarning birida bir butni bozorga olib ketayotib yozilmoqchi bo'ldi. Butni yerga qo'yib, hojatini ushatib kelguncha, bir tulki kelib u butning ustiga siyib, bulg'ab ketibdi. Shunda buni ko'rgan Ibrohim behad sevindi va "Boshiga tulki siyib ketgan narsa parvardigormi?! To'g'ri yo'ldan adashtiradigan va Ollohga sherik qilinadigan narsalarning hammasidan bezorman.B ?olib va yagona Ollohga imon keltirdim", deya nido qildi.

Otasi Ibrohim alayhissalomni yetti yil butga soqchi qilib qo'ydi. Ibrohim butga topinganlarga: "Bularga nima uchun sig'inasiz?" deb aynataverdi. Otasiga aytgandilar, u Ibrohimni ma'lomat qildi.

- Ey ota, bu ko'rmaydigan, eshitmaydigan narsaga nima uchun topinarsan? Menga ilm berildi, ammo senga berilmadi. So'zimni eshitgil, seni to'g'ri yo'lga boshlayin, - dedi. (Oyat) "Ey otaginam, haqiqatdan menga ilmdan senga kelmagan narsa keldi, shuning uchun menga ergashgin".B "Ey otaginam, shaytonga ibodat qilmang, haqiqatda shayton Rahmon otli hudoga osiydir".

- Ey Ibrohim, sen mening butlarimga sig'inmaysanmi? Bu ishingdan qaytmasang, men sendan bezman. (Oyat) "Agar sen bizning xudolarimizni haqorat qilishdan to'xtamasang, seni toshbo'ron qilib o'ldiraman, mendan abad-ul abad uzoq bo'l", - dedi Ibrohim.

- Ey ota, shaytonga qul bo'lmagin. (Oyat) "Salom bo'lsin senga. Men Parvardigorimdan sening uchun mag'firat tilayman.

Haqiqatda u menga ko'p mehribondir", - dedi Ibrohim.

Ibrohim alayhissalom shahardan saxro tomonga chiqib ketdi. Olloh taolo hizmatida bo'ldi. Otasi o'lgach, butlar nazorat otasining qarindoshi bo'lgan Hozarga qoldi. U Lut payg'ambarining otasi edi.

- Har oyda bir marta mening bu butlar bilan ishim bor, - deb aytar edi Ibrohim. (Oyat) "Hudo nomi bilan qasamyod qilamanki, sizlar orqa o'girib ketganlaringizdan keyin butlaringizni ilojini qilaman".

Shu asnoda ularning hayitlari bo'ldi. Ular turli taomlar keltirib, butlarning oldiga qo'yar, so'ngra iydgohga chiqib, kun yarmida qaytib kelgach, "Butlarimizning barokati tegdi", deya bu taomlarni uylariga olib ketar, ahli oilasi bilan tanovvul qilar edilar. Bu gall ham shunday bo'ldi.

- Biz bilan birga chiqqil, - deyishda Ibrohimga.

- Men yulduzlar ilmiga qaragndim, menga bemorlik kelayotir, chiqolmayman, - dedi Ibrohim.

Ular yulduzlar ilmiga e'tiqod qilar, uning ko'rsatmalriga turmushlarida amal qilar edilar. Shu tufayli Ibrohimni ko'p qistamadilar. Hamma ketgach, Ibrohim bir bolta olib, butxonaga kirdi. Butlarning boshi, qo'lini parcha-parcha qildi, sindirdi. Butlarning eng kattasi oldiga keldi-da, boltani uning qo'lga osib qo'ydi. So'ng butga qarab: "Oldingizdagi taomni nega yemaysiz?"B -deya kinoya qildi. -B "Nega so'zlamaysiz?" Yana itob qildi.

Kun oqqanda kofirlar qaytib keldilar. Ko'rsalar, butlarning birini bosh kesilgan, birini qo'li, oyog'i singan. Odamlari Bilan butxonaga kirgan Namrud so'radi:

- Bizning tangrilarimizni kim bunday holatga soldi?

- Ibrohim degan bir yigit bor, bu ishni undan boshqa hech kim qilmaydi, - deyishdi.

FOYDA. Namrud kofir bo'lsa hamki, Ibrohimga nisbatan achchiq so'z aytmadi, hukm etmadi. Shu bois uning mulki davlatiga zavol tegmadi. Aytishlaricha: "Adl qilgan kofir Bilan mulk boqiy qolar, ammo zulm qilgan mo'min Bilan mulk boqiy qolmas". Namrud kofir bo'lgani Bilan assoq so'z demadi.

- Odamlar yig'ilsin. Ularning ko'z oldida guvohlik bersin, - deb farmon berdi. (Bugun ham yolg'on so'z Bilan bir kimsa ustidan hukm qilganlar Namruddan ham battar bo'larlar).

- Bizning tangrimizni sen shu ahvolga soldingmi?-deya savol qildilar Ibrohimni keltirgach.

- Bu mayda butlarni anavi katta but chopib tashladi. Ishonmasanglar, butchalarning o'zlaridan so'ranglar, agar so'zlay olsalar, - dedi Ibrohim.

- Bu butlar so'zlay olmaydi, qandoq qilib ham so'rarmiz, - deyishdi ular.

- Sizlar Ollohni qo'yib, siz uchun biror narsada nafi tegmaydigan va zarari ham yo'q narsaga ibodat qilasizlarmi?-dedi Ibrohim alayhissalom.

Ular bildilarki, bu ishni Ibrohimdan boshqa hech Kim qilmagan. Uni qiynamoqlikka kengashdilar. Ibrohimga payg'ambarlik keldi.

- Yolg'iz tangriga sig'ining, butga topinmang, meni tangrimning elchisi deb biling, - dedi u odamlarni to'g'ri yo'lga chorlab.

- Bizni otalarimizning dinidan chiqarib, boshqa dinga chaqirurmisan? - dedilar.

- Otalarimiz bari botil dinga sig'inar edilar. Men sizlarni to'g'ri yo'lga da'vat qilarman, -dedi Ibrohim.

Aytadilarki, o'sha paytda hamma xalqlar ochlikka duchor bo'lgandilar. Oziq-ovqat topilishi qiyin edi. Namrud odamlarga ovqat tarqatdi. Bir kuni Ibrohim taom olgani Namrudning oldiga keldi.

- Menga sajda qilsang, taom beraman, dedi Namrud.
- Men shunday tangriga sajda qilurmanki, ul zot o'likni tiriltirar, tirikni o'ldirar, - dedi Ibrohim.
- Men ham shunday qila olurman, -dedi Namrud.
- Qanday qilib, -dedi Ibrohim.

Shunda Namrud zindondan ikki maxbusni chiqardi, birini o'ldirdi, birini esa qoldirdi.

- Mana o'likni tiriltirdim, tirikni esa o'ldirdim, - dedi Namrud.

Ibrohim bildiki, bu kofir ahmoq ekan:

- Mahbusni o'ldirmay qoldirish tiriltirish emas, - dedi u. Ammo Ibrohim unga "O'ldirganingni tiriltirgin!" desa bo'lardiyu, ahmoq kofir Bilan tortishishni ep ko'rmadi. Uni bir so'z Bilan unini o'chirishni istadi.

- Mening tangrim shunday zotki, u har kuni Mashriqdan chiqarguvchi. Sen bir kungina quyoshni mag'ribdan chiqarginchi! - dedi Namrudga. Ibrohimdan bu so'zni eshitgan ko'pgina kofirlar ko'ngillarida "Bu butlar botil tururlar, ulardan hech qanday naf yo'q, Ibrohim to'g'ri aytar, yo'lsizlarmiz", degan fikr o'ta boshladi.

Namrud alayhil-la'na odamlarning ko'nglidan kechganini bilib, "Mendan tonib, Ibrohimga ergashib ketsalar-a", -degan o'ydan qo'rqib ketdi.

- Buni ushlang, o'tga tashlang, tangringizga madad bering! - dedi Namrud. Ibrohimni o'tga otishgat kelishdilar.

- Ey Ibrohim, "Meni tangrimning o'tli do'zaxi bor, olov Bilan azob beradi", der eding. Men bugun seni olov Bilan qiynayin, kim qutqarar ekan, bir ko'rayin, -dedi Namrud.

Hamma qo'shinni safarbar etib, to'rt oy mobaynida o'tin yig'ildi. U o'tinni qaysi ulovga ortsalar ko'tarmadi. Tuyaga ortdilar, o'rnidan qo'zg'almadi. Eshak va ot ham qabul qilmadi. Xachirga yuklagandilar, qabul qildi. Buni ko'rgan Ibrohim xachirni la'natladi. Shu boisdan xachir nasli ko'paymaydigan bo'ldi. Bugungi kunda xachirga yuk ortsalar, urmaguncha yo so'kmaguncha yurmas. Tul kampirlar Namrud bizdan hushnud bo'lsin deb, tunlari uxlamasdan charx yinirib, kunduzi bozorda sotib, pulga o'tin olar edilar.

Aytishlaricha, bir yig'ochlik (taxminat 9 km) yerni o'tin bilan to'ldirdilar. Atrofini teri Bilan to'sdilar. Tuyalarda gugurt suvi keltirdilar. Shundan keyingina o't yoqtilar. O'n kecha-kunduz olov yonib, kuchlandi. Olovning balandligi ularning o'lchovida yigirma qari (tirsak) edi. Ibrohim alayhissalomni ikki yildan beri og'ir kishanlarga bog'langan holda uy ichiga qamab qo'ygan edilar. O'tning yoqilganiga o'n kun bo'lganda "boring, Ibrohimni endi o'tga oting!" degan farmon berildi.

Olov keltirib o't yoqqan Ibrohimning ota qarindoshi Hozar (Lut payg'ambarining otasi) edi. Qaldirg'och tumshug'ida suv keltirib, olovga quyur edi.

- Ey qaldirg'och sening tumshug'ingdagi suv bu o'tga qanday ham ta'sir qilsin, - dedi Ibrohim shunda va uni ezgu duo qildi.

Chumchuq esa kelib o'tni qanoti Bilan urardi, shu bois uni la'natladi, qirq kecha-kunduz o'tda kuydi.

Olov shu darajada balandladiki, kishi to'rt yig'och yerdan yaqinlasha olmaydigan bo'ldi. Qay bir qush havoda uchsa qanotlari kuyib tushar edi. Namrud temi rva misdan bir mikora qurdirdi, uning ustiga chiqib olovga qaragach:

- Ibrohimni qanday qilib o'tga otamiz? -deya hayolga cho'mdi. Shunda Shayton kelib palaxmon yasamoqlikni o'rgatdi. Ungacha dunyoda bunday qurol yo'q edi. Ibrohimning qo'l va oyoqlari yetmish botmonli temir halqa Bilan palaxmonga bog'ladilar.

- Ey Ibrohim, qo'rqmaysanmi? - deb so'radilar shunda.

- Kimiki qalbidan Ollohning o'ti bo'lsa, qanday qilib odamlarning o'tidan qo'rqsin, -\* dedi Ibrohim.

- Tangringdan so'ragil, seni qutqarsin, -dedilar.

- Mening nimamni qutqarsin? - dedi u.

- Nafsingni, -dedilar.

- Nafsning ishi yovuzlik, gunohkorlikdir. Gunohkorlik o'tga mahkumdir, - dedi u.

- Bo'lmasa joningni so'ragil, - dedilar.

- Jon omonat turur. Uning ishi yaratganiga qaytishdir, - dedi u.

- Unday bo'lsa ko'nglingni so'rgali, -dedilar.

- Ko'ngil tangrining mulkidir. U qanday istasa, shunday holga solguvchidir, - dedi u.

Shundan so'ng palaxmonga joyladilar. Qanchadan-qancha odamlar palahmonni tortmoqchi bo'ldilar, ammo kuchlari yetmadi. Chunki palaxmonni farishtalar bosib turar edilar. Shayton bildiki, farishtalar palaxmonni bosib turardilar. Shunda u bir pokiza kishi qiyofasida kelib kofirlarga:

- Bu ish qo'lingizdan kelmaydi. Ammo buning bir hiylasi bor. Buzuq xotinlarni olib kelinglar. Erkaklar ular Bilan fohisha ishni qilsin. Shunda palaxmon otiladi, - dedi.

Shunday ish tutgandilar palaxmon otildi. Ibrohimni havoga qarab otdilar.

Savol: Shayton palaxmon qilmoqlikni qaerdan bildi?

Javob: U palaxmonni do'zaxda ko'rgan edi. Gunohkorlarni do'zaxda palaxmon Bilan otardilar, ularga chuqur cho'gga kelib tushardilar. Bu cho'gning azobi do'zax azobidan yetmish hissa qattiqroq edi.

Habarlarda kelishicha, Rasul alayhissalom dedilar: "Mening ummatlarimdan olti toifa odamlarni qiyomat kunida shu cho'gga tashlagaylar. Birisi - sultonlar majlisida ularni "bu kishi shunday omadli zot" deganni, ikkinchi - yetimlarning moliga zulm bilan egalik qilib olganni, uchinchi - zolimlar ishini bitirib berganni, to'rtinchi - otasi va onasiga yomon so'z so'zlaganlarni, beshinchi - nopok ish qiluvchi xotinchalish, xunasalarni, oltinchi - molini hudo yo'lidan qizg'anib, boshqa yo'lga sarflaganlarni". Bundan bizlarni Ollohning o'zi asrasin.

Qachonki, Ibrohim alayhissalomni palaxmondan havo otganlarida u: (Oyat) "Bizga Ollohning o'zi yetarlidir va u qanday yaxshi kafildir. Bas, u qandog' ham yaxshi ega va qandoq ham yaxshi madadkoridir", dedi. Bu holni ko'rgach, yetti qavat osmon farishtalarining barchasi faryod chekdilar.

- Ilohi, bu kunda butun yer yuzida seni bir va bor degan yolg'iz Ibrohimning o'zidir. Uni nechun o'tga otarsan? Hudoyo, do'stlaringga mehribonliging shunday bo'larmi? - dedi farishtalar Olloh taologa.

- Ey farishtalar, sizlar ta'sir etmay turing. Bu ishda meni sizlar bilmaydigan bir sirim bor, - degan xitob keldi.

Shu paytda Jabroil alayhissalom yetib keldi.

- Ey Ibrohim, hech hojating bormi? - dedi u zot.

FOYDA: Agar hojatim yo'q desa, hojatsizman degan bo'lardi, lekin qul hojatsiz bo'lmaydi.

- Hojatim boru, ammo senga emas, - dedi Ibrohim.



- Menga hojating bo'lmasa, Oллоhga bordir, aytgil, - dedi u zot.

- Ey Jabroil, mening tilagimni uning o'zi bilar, menga shuning o'zi kifoya, hojat tilmakning hojati yo'q, - dedi Ibrohim va Oллоh taologa ko'ngil bog'ladi. Shu onda:

- Ey olov, Ibrohim uning sovuq va salomat bo'lgil! - degan xitob keldi.

Ulamolarning aytishlaricha, sovuq "B bo'lgil deb, "salomat" bo'lgin demasa edi, o't sovug'i Bilan Ibrohimni halok qilgay edi. Qiyomatga qadar odamlar hech qachon o'tga pishgan taomni ko'rmas edilar. Yana aytishlaricha, Ibrohining ko'ksidagi Oллоh muhabbatining o'ti Namrud o'ti Bilan bellashdi va Namrud o'tini kuydira boshladi. Shunda muhabbat o'tiga sovugil, Ibrohini salomat saqlagil, demasa edi, u o't na Namrudning o'zini va na uning o'tini salomat qo'ymasdi, hammasini kuydirar edi.

Yana farmon keldi: "Ey Jabroil, bandamga yordam berish uchun tezda yetib borgil!"

Jabroil yetib bordi va o'zi Bilan birga jannatdan bir jaynamoz olib keldi va bu jaynamozni olovni o'rtasiga to'shadi, Ibrohim alayhissalom unga o'tirdi. So'ngra jaynamoz ustiga namoz o'qishga tutindi. O't faqat Ibrohim alayhissalomning qo'l-oyoqlari bog'langan ipini kuyirdi.

IZOH: boshqa manbalarda keltirishicha, Ibrohim alayhissalomni o'tga otishga hozirlik ko'rilyotgan paytda suvlarga muakkil bo'lgan farishta kelib:

- Ey Ibrohim, barcha suvlar ihtiyori mening qo'limdadir. Agar hoxlasang, buyurman suvlar o'tni o'chirur, -dedi.

Shamolga muakkil bo'lgan farishta:

- Ey Ibrohim, agar hoxlasang, shamolga amr eturman, butun o'tni o'chirib yo'qotur, -dedi.

- Sizlarning yordamingizga muhtoj emasman, - dedi Ibrohim alayhissalom ularga va boshini yuqori ko'tarib duo qildi: -

Parvardigoro, Sen yagonasan, Ahmadsan, mendan boshqa Senga ibodat qiladigan kimsa yo'qligini o'zing bilursan! (Izohlar tarjimon tomonidan boshqa manbalardan olingan).

Aytishlaricha, Namrud vaziriga buyurdi:

- Minoraga chiqib, Ibrohimni ko'rgil, qanday kuyayotgan ekan, kul bo'lib ulgurganmikan - yo'qmi!

- Ey egam, bu olovning ichida dunyoning tog'lari kuyib kul bo'ladi-yu Ibrohim omon qolarmidi! - dedi vazir va minoraga chiqib ketdi. Keyin minoradan turib shunday xqitob qildi: - Ey egam, uchov o'tiribdi, orqa o'ngida yigirma ming masofa turli xil yoz chechaklari ochilmish, chashmalar oqib turmish, xurmo daraxti unmesh.

Bu gaplarni eshitgan Namrud taajubga tushdi, o'z ko'zim Bilan ko'rayin, deb minoraga chiqdi. Bu manzarani ko'rgach:

- Ey Ibrohim, sen yolg'iz eding-ku, bular kimlar bo'ldi? - deb so'radi.

Ey Namrud, biri menman, suratimni o'zgartirdim, Ibrohimga sening Muakkil - vakil qilingan, tasarruf qiluvchi.

Ahmoqligingdan uzr aytarman, - dedi olov Oллоh taolo farmoni bilan tilga kirib.

- Ey Ibrohim, ul kimsani yonigga kim tushirdi? - dedi namrud.

- Oллоh taolo meni asramoq uchun tushurdi, Namrudning endi unga qarshi qanday yarog'i bor bo'lsin, - dedi Ibrohim alayhissalom.

Bu gaplarni eshitib Namrud behad qo'rquvga tushdi. Qayg'uga tushgan yer ham yetti kun titrab, zilzila bo'ldi. Namrud donishmandlarni, hakimlarni to'pladi.

- Bu qanday zilzila bo'ldi? - deb so'radi ulardan.

- Olovning issig'ligidan yer ham tebranmoqda, - dedilar unga.

- Unday bo'lsa, olovni so'ndiring! - dedi Namrud.

Suv tashib, olovga quya boshladilar. Barcha haloyiq Ibrohimning ahvolini ko'raylik, Deya tamoshoga keldilar. Oллоh farmoni Bilan shabada kelib, kullarni odamlarning yuzlariga urdi, haloyiq barchasi qaytib ketdi.

Oqshom tushgach, Ibrohim o'tdan chiqib, uyga bordi.

Aytishlaricha, Namrudning o'n ikki ming ombori bor edi. Ularning to'rt mingi unga to'la edi, ularni qimmatchilik bo'lsa sotarmiz, deb g'amlab qo'ygandi. Ibrohim alayhissalom duo qildi: ul yurtdagi daryo o'zanlari, tog' ungirllari unga to'ldi. Ibrohim alayhissalom "Keling, un oling!" deya chorladi. Hamma yurtda to'kinchilik bo'ldi. Namrudning qo'lga qarovchi odam qolmadi.

Bir kuni Ibrohim alayhissalom Namrudning oldiga keldi.

- Yagona Oллоhdan boshqa iloh yo'q, ey Ibrohim sen uning payg'ambarisan deb aytgil! - dedi unga.

- Fursat bergil, o'ylab ko'rayin, - dedi Namrud.

Fursat berildi. Namrud o'ylab, o'ziga kengashib ko'rdi.

- Men Ibrohim bilan yarashurman, siz nima dersiz, - deya kengash soldi.

Beklariv a maslahatchilari o'yga tolidilar. "Agar Ibrohim Bilan yarashsa, u podishoh ustidan ham, bizning ustimizdan ham hukumron bo'lib oladi, oqibatda bizning izzatimiz, hurmatimiz qolmaydi, Ibrohimga qul bo'lamiz", degan fikrga keldilar va shunday javob berdilar.

- Shuncha yildan beri xudoman deding, endi qulman deysanmi? Ibrohimga qul bo'lib, bizlarni ham unga qul qilursanmi?

- Mening u tufayli ko'rgan ishlarim ulug' ishlardir, uning tangrisi bilan yarashmoq kerak, - dedi Namrud.

- Uni nega o't kuydirmaganini bilmasmisan? Shuning uchunki, bizning ota-bobolarimiz olovga topinur edilar, Ibrohim ham bizning urug'imizdandir. O't bizning urug'imizni kuydirmas, - dedi unga Hozar.

FOYDA: Xachir o'tin keltirgani uchun urug'i kesildi. Chumchuq cho'p tashigani uchun hamma odamlar uni tutib, patini yulib, o'tga pishirib yeydilar.

Arilar o'tni yelpib turgandi, g'avg'o va to'palon hayot kechirurlar. Qaldirg'och esa suv tashida, omon bo'ldi. Qaldirg'ochning suvi bilan o't o'chmadi, ammo do'stligi oshkor bo'ldi, qiyomatga qadar ezgu nom oldi.

- Biz Ibrohimdan qanday qilib qutilamiz? - so'radi Namrud Hozardan yana.

- Bu tunda bir chuqur qazinglar, ul chuqurda tutun hrosil qilmasiz.

Bu tutun Bilan dushmanimizni halok qilamiz, - dedi Hozar bunga javoban.

- Qancha mol kerak bo'lsa olgil, bu ishni o'zing bitirgil! - dedi Namrud.

Hozar xalqni yo'g'di, katta olov yoqilgan joyda chuqur qazimoqlikka boshladi. Tubi tor, og'zi keng bo'lgan bu chuqurni somon va iflos narsalar Bilan to'ldirdilar. Hamma haloyiq tomoshaga to'plandi, Hozar olov keltirib, somonga tutashtirdi. Shunda Oллоh farmoni Bilan shamol keldi, o'sha o'tning ichidan bir kesakni keltirib, Hozarning boshiga urdi, Hozar yiqildi va kuya boshladi.

Shunda haloyiq:

- Ey Hozar, o't bizni kuydirmas demabmiding! - deya malomat qildi.

Hozarning so'zlashga holi bo'lmadi. Ko'p o'tmay kuyib, kulga aylandi. Yana shamol kelib, Namrud yoqqan o'tdan kul keltirdi va

haloyiqning chidan o'tin tashiganlarning ko'ziga tiqildi, hamalari ko'r bo'ldi, sog' qolganlari qochib qolishdi.

Bir muddat o'tib, Sora raziallohu anho Ibrohim alayhissalomning qoshiga keldi. Sora Hozarning qizi edi. Ba'zilarning aytishlaricha, - u Namrud xizmatidagi bir ulug' bekning qizi bo'lgan ekan.

- Ey Ibrohim, sening Hudoying o'ta kuchli ekan, mendan bezor blo'maydimi? - smo'radi sora.

- Seni ezgu yo'lga solgay, joyingni jannatdan qilgay, - dedi Ibrohim.

- Ey Ibrohim, men bir shart bilan musulmon bo'olaman, - dedi Sora, u juda ko'hlik edi, - meni nikohingga olsang.

- Meni molim yo'q, - dedi Ibrohim, - senga qalin berolmayman.

- Mening qalanim shuki, - dedi Sora, - sha'riy barchsa ishlarda men nima desam shuni qilarsan.

Soraning iltimosini Ibrohim alayhissalom qabul qildi.

RIVOYATda keladiki, Namrud munoradan turib ko'rganda, Ibrohim atrofida chechaklar ochilgan edi. Olov qizil, yashil, sariq chechaklarga aylangandi. O't ichidan jilg'a chiqib, xurmon daraxti ungan edi.

- Ey Ibrohim, o't seni kuydirmaydimi? - deya taajub qildi Namrud.

- Yo'q, - dedi u.

- Bu o'tni sening uchun Kim sovutdi, - so'radi yana namrud.

- Kim o'tga kiritgan bo'lsa, o'sha sovutdi, - dedi u.

- Unda sening tangring yaxshi tangri ekan, - dedi Namrud.

So'ng uning ko'nglida musulmon bo'lishga mayl uyg'ondi. Saroydagilar bu hoxishga unamadilar, Ibrohimni tutun Bilan holk qilamiz, degan qarorga keldilar.

Ularning bu niyatlarini Lut alayhissalom Ibrohim alayhissalomga yetkazdi. Ikkovlari tunda shahardan qochib chiqdilar. Namrud yo'llarga soqchilar qo'ygandi. Ulrga ibroniy tilda so'zlovchi qanday odam yo'liqsa, tutishlikka fparmon bergandi. O'sh tunda Olloh farmoni Bilan hamma tillar uyqash ketdi, tillar buzildi. Aytishlaricha, 72 xil til hosil bo'ldi. Xom urug'i hindulariga 18 til tegdi, Som urug'iga mansub arab va ajamlar ham 18 tilga ega bo'ldi, Yosaf avlodi bo'lgan turklar 36 til egasi bo'ldi.

Ibrohim va Lut alayhissalomlar soqchilarning oldidan o'tdilar.

- Kimsizlar? - so'radi soqchilar.

- Biz Ibrohim va Lut ikkovimiz bo'lamiz, - deyishdi.

- Biz ularni poylab turibmizku, - deyishdi soqchilar o'pkalanib, - Sizlar bizni masharalab Ibrohim Bilan Lutimiz deysizlar-a!

Olloh taolo ularni asradi. Ular boshqa viloyatga borib o'rngashdilar. Namrudning g'azabi bosilgach, Ollohjan farmon bo'ldi:

"Ey Ibrohim! Borgil! Namrudni imonga undagil!"

Shundan so'ng Ibrohim alayhissalom Namrudning oldiga keldi.

- Ey Namrud, butga sig'inmagil, Ollohga iymon keltirgil! Ollohni bir degil, meni Uning payg'ambari deb bilgil! - da'vat qildi Ibrohim alayhissalom.

- Mendan ham boshqa tangri bormi? - so'radi namrud.

- Bor, - dedi Ibrohim alayhissalom.

- U kimdir? - dedi Namrud.

- U seni yaratgan, senga mulk-davlat bergan, yer va osmon tangrisidir! - dedi Ibrohim alayhissalom.

- Men u bilan teng ekanman, u bilan bir jang qilayin! - dedi Namrud va jang hozirlini ko'ra boshladi.

Namrudning Osmonga Uchgani

Namrud Ibrohimning tangrisi Bilan jangga astoydil hozirdana boshladi, Yirtqich qushlarning bolalarini tarbiyalay boshladi. Ular ulg'aygandan keyin bir sandiq yasattirdi: ikki qopqoqlik - biri ostida, biri ustida. Uning ustiga to'rtta, ostiga ham to'rtta ustun o'rnatdilar. Ustki usutnga yirtqich qushlarni bog'ladi. Namrud egniga sovud kiyib, yashiq to'la o'q solib, xizmatkori Bilan birga sandiq ichiga kirdi. Ustun ichiga bog'langan go'shtlarni ko'rgan och-nahor qushlar unga talpindilar, sandiq him ular Bilan birga havoga ko'tarilid.

Bir kecha-kunduz uchgach, xizmatkoriga buyurdi:

- Ustki qopqoqni ochgil, nima ko'vrinarkan?

- O'sha-o'sha holni ko'rarman, - dedi u ustki qopqoqni ocharkan.

- Ostki qopqoqni osgil, nima ko'rinarkin? - buyurdi yana Namrud.

- Yer yuzining hammasini bir parchadek ko'rarman, - dedi xizmatkor.

Yana bir kecha-kunduz uchdilar.

- Ustki qopqoqni ochgilsh, nima ko'rinadir? - so'radi namrud.

- Osmon ilgar qanday ko'rinsa, shunday ko'rinur, - dedi xizmatkor.

- Ostki qopqoqni ochgil, ne ko'rinadir?

- Yer avval qanday ko'ringan bo'lsa o'shanday, dedi.

Hali yetmabmiz, deya yana bir kecha-kunduz uchdilar.

- Tepa qapqoqni ochib qarachi, nima ko'rinadir? - buyurdi Namrud.

- Hamma yoq tuman ichida qolibdi, dedi xizmatkor. - Hech nima ko'rinmaydir.

So'ngra pastki qopqoqni ochdi.

- Pastda ham tumandan bo'lak narsa ko'rinmas, dedi xizmatkor.

- Endi yetib kelibmiz, dedi namrud va osmonga qarata o'q otdi.

Shunda Jaboil alayhissalomga farmon bo'ldi.

- O'qni olib baliqqa sanchgin-da, qonga belab sandiqqa tashla! (Baliqning bo'g'izlanmasligiga sabab shunda deydilar).

Qonga belgan o'q Namrudga qaytib kelgach:

- Osmon tangrisini o'ldirdim! - deb o'yladi va go'sht bo'laklarini yuqori ustundan olib pastki ustunga bog'ladi. Olloh dedi: (Oyat)

"Ular yomon makrlarni qilib ko'rdilarva ularning yomon tadbirlari Hudo qoshida edi".

Aytishlaricha, Namrud qavmida yuz ming odam Ibrohim payg'ambarga hayrixox edi. Namrud osmondan tushgach, "Ko'k tangrisini o'ldirdim", deya qonli o'qni ko'rsatgach, bu so'zga ishonib yana kofir bo'lib ketdilar. (Oyat)B "U Olloh hoxlagan odamini gumroh qilib qo'yadi va xohlagan odamini to'g'ri yo'lga solib qo'yadi".

Ibrohim alayhissalomga farmon bo'ldi: "Borgil! Namrudga aytgil! Jang qilishga mayli bo'lsa, qo'shin hozirlasin!" Ibrohim

alayhissalom bu farmonni Namrudga yetkazdi. Shundan keyin Namrud yurtlariga kishi yuborib qo'shin to'plashga kirishdi. Sonisanog'i yo'q qo'shin yig'ildi. Ular boshdan-oyoq sovut kiygandi. Olloh taolodan chivinlar qo'shiniga farmon bo'ldi. Shunchalik ko'p chivinlar chiqib keldiki, osmonni qorong'ulik qopladi. Ular namrud qo'shinlariga yopishib, ularni kiyimlarini, etlarini, otlarining eti-yu suyaklarigacha yeb bitirdilar.

Namrud la'in saroyiga qarab qochib qoldi. Saroyga kirib hamma eshiklari tuynuklarni berkitib oldi. Olloh taolo bir zaif va oqsoq chivinga ilhom berdi. U teshikdan kirib kelib, Namrudning nog'iga qo'ndi, u yerini chaqib, qon so'rgach, og'zi atrofida aylanib, so'ng burniga kirdi, miyasiga yetganda uni yeya boshladi. Qirq kungacha Namrudning miyasini chivin yeb turdi.

Ka'b ul-Axborning rivoyaticha, Olloh taolo Namrud la'inga to'rt yuz yil podishohlik berd iva chivin to'rt yuz yil miyasini yemirdi. Namrudning oldiga Kim kirsang unga avval shapaloq bilan, unda ham tinmasa ensasiga musht bilan urushni buyuradi edi.

HIKMAT. Namrudga berilgan azoblar shuning uchun ediki, u to'rt yuz yil tangrilikni da'vo qildi va odamlarni o'ziga sajda qildirdi. Shuni unutmangki, ensalariga mushtlar yegan kimsa qanday qilib tangrilikka yarasin.

Bu choralar Bilan og'riqlar to'g'tamadi. To'qmoqlar Bilan urdira boshladi, ammo bundan ham og'riq bosilmadi, holdan ketaverdi. Nihoyat bir pahlavon xizmatchisiga to'qmoq urish navbati keldi.

- Men borib, hammani bu balodan qutqarayin! - leli-da ertasi kuni saroyga kelib, to'qmoq bilan namrudning boshiga chunonam soldiki, boshi yorildi, u chivin kabutar suratida uchib chiqdi.

Shundan keyin Jabroil layhissalom qanotlari Bilan u saroyni ko'tarib yerga bir urgandi, osti ustiga chiqib ketdi. Namrud do'zaxga borib tushdi. Uning o'rniga Zul-arsh nomli podishoh taxtga o'tirdi.

#### Ibrohim Alayhissalom Va Zul-Arsh Podshoh Qissalari

Ibrohim alayhissalom Namrud o'lgach, uning hamma omborlaridagi va hazinalaridagi oltin-kumushlarni, mollarni darvishlarga sadaqa qilib berdi. Ibrohim va Lut alayhissalomlar bu yurtdan chiqib ketdilar. Sora raziallohu anho va Yana ikki musulmon birga edilar.

- Iloho, qancha yuraylik? - deya munajat qildi Ibrohim alayhissalom.

- Qay tarafni ko'ngil tilasa, o'sha yerga boringlar! - degan farmon bo'ldi.

Zul-ar podshoh yosh yigit edi. Shu bois ayollarga behad ko'nglida moyillik bor edi. U qayorda ko'rkam Xotin bo'lsa o'ziga keltirardi. Yo'llarga sochqilar qo'yib o'tgan-ketganing mulkidan o'ndan birini olib qolardi. O'n besh kishidan iborat soqchilar Ibrohim alayhissalom hamrohlariga yo'liqdilar.

Ushr barmoqliklarini talab qildilar.

- Bizda ushr (o'ndan bir) bergudek molimiz yo'q, - dedi Ibrohim alayhissalom. Yigitlamriz bor, istasangiz ularni oling.

- Agar o'nta bo'lganda birini olgan bo'lardik, to'qqiztadan bizga hech nima tegmas, - dedilar. Sandiqlaring ichida nima bor? Oching, ko'raylik.

Sandiqda Sora bor edi. Payg'ambar alayhissalomdan hajisda aytiladiki: "Yo'l to'sib, odamlardan narsa undirib qoluvchilardan yomon mahluq yo'qdir". Qancha harakat qilmasinlar, iiloji bo'lmadi, noiloj sandiqni ochdilar. Sorani ko'rdilar, behad go'zal edi.

- Bizning podshohimiz bunaqa ayollarni istaydi. Sen buni qayoqqa olib ketmoqchi bo'lding? - deb Ibrohim alayhissalomni va hamrohlarini shaharga qaytardilar. Bu habarni podshohga yetkazgandilar, u hali Sorani ko'rmayoq ko'nglida rag'bat uyg'ondi. Va vaziriga buyurdi:

- Ul qochoq kimsani oldimga keltir!

Vazir borib, Ibrohim alayhissalomni podshoh huzuriga olib keldi.

Podshoh uni yoniga chorladi.

- Isming nimadir? - so'radi podshoh.

- Otim Abdulloh, dedi Ibrohim alayhissalom (Ollohning qulidemoqchi).

- Sandig'ingda nima bor? - so'radi podshoh.

- Qarindoshim bordir, - dedi Ibrohim alayhissalom qo'rqib ketganidan. Negaki, xotinim desa o'zini o'ldirib qo'yishlaridan cho'chigandi. (Oyat) "Haqiqatda hamma mo'minlar bir\*birlariga birodardiralar".

- Ey Abdulloh, men Misr podshohiman, mol-dunyoim behisob, qarindoshingni menga bersang, seni o'z mulkimda eng yaxshi do'st qilurman, - dedi Zul-arsh.

Ibrohim alayhissalom qayg'uga botdi, boshi quyi egildi.

- Ey Abdulloh, nega indamaysan? - so'rad yana podshoh.

- Qarindoshim balog'atga yetgan qizdir, undan maslahat so'ramoq joiz dedi Ibrohim alayhissalom va o'rnidan turib, Sora qoshiga keldi. Podshoh tilagini unga yetkazdi.

Senga ne bo'ldi, nega qayg'uliksan?

- Ey Ibrohim, nega to'g'risini aytmay, meni ham, o'zingni ham baloga giriftor qilding.

Bir muncha fursat o'tgach, podshoh betoqatlanib, vazirni ikki yuzta odam Bilan jo'natdi:

- Borgil, o'sha odamni singlisi bilan meni oldimga keltirgil!

Ibrohimni Sora Bilan birga keltirdilar. Sora boshiga kattagina yopinchiq o'ragan holda kirdi. Podshoh Ibrohimga tahti yonidan joy ko'rsatdi.

Sora ham Ibrohim yoniga o'tirdi.

- Ey Abdulloh, mening mol-mulkimni hisobi yo'q, istasang yarmisini senga beraman.

- Qarindoshim shu yerdadi, o'zi so'zlasin, - dedi Ibrohim alayhissalom.

- Mening mingta xizmatkorim bor, hammasini senga berayin, ular o'pkasi to'lib, yig'ladi, so'zlay olamdi. Shunda podshoh achchig' chiqdi: - Ey Abdulloh, sendan uyalib so'zlamayotir! - dedi Ibrohimni qo'lidan ushlab tashqariga chiqardi.

Podshoh Soraga har qancha so'z qotsa hamki, javob bermadi, ikki qo'li Bilan yuzini to'sganicha yig'lar edi. Podshoh taqati toq bo'lib, Soraning yoniga keldi, yuzini ochay Deya qo'lini cho'zgandi, shu on Ibrohim alayhissalom duo qildi:

- Ilohi, bu kofirga qudratingni ko'rsatgil!

Podshohning ikki qo'li bo'ynigacha quridi. Shunda u:

- Ey Sora, duo qil, qo'llarim joyiga qaytsin, seni ozod qilaman!

Duo qildi, ikki qo'li joyiga keldi. Yana qasd qilgandi, tag'in qo'li quridi. Bu hol uch bor takrorlandi. Shunda zilzila turdi, yer tebrana boshladi.



- Sendan menga tekkan bu balolar nimani bildirur? - so'radi podshoh.  
- Yo'q, mendan emas, ular seni kofirliging va menga nisbatan kuch ishlatganing tufayli yuz berdi, - dedi Sora.  
- Men senga kuch ishlatmaldim-ku?! - dedi podshoh.  
- Sen menga emas, balki Ollohning payg'ambariga kuch ishlatding!  
- Qaysi payg'ambariga zo'rlik qilibman?  
- Ibrohim alayhissalomga! Qaysiki namrud uning qo'lida halok bo'lgandir!  
- Men Ibrohimni ko'rganib yo'qki, unga qanday qilib kuch ishlatayin?  
- Ibrohim mening erim bo'ladi, sen uni mendan ayirding, bu ranj balolar senga shu tufayli tegdi.  
- U seni qarindoshim, dedi, agar xotinim deganda edi tegmasdim.  
- Seni zulming, kofirliging, qudrating vajidan aytolmadim, agar xotinim deganida o'ldirgan bo'larding!  
- Men hech kimdan kuch bilan narsa olmasman, - dedi podshoh va vaziriga buyurdi: - Borgil, buning erini keltirgil!  
Ibrohim alayhissalomni olib kelgach, podshoh o'rnidan turib, uning oyog'iga bosh urdi:  
- Sen o'sha, namrud uning qo'lida halok bo'lgan Ibrohimisan?  
- Ha, o'shaman!  
- Tangringni sifatini bildirgil!  
- Mening tangrim yetti qat osmonni va yetti qat yerning yaratuvchisi, barchadan buyuk quvvativa barchadan ulug' qudrati bordir. Uning sherigi, qo'ldoshi, teng-to'shi, o'rtog'i yo'qdir. U tug'magan va tug'ilmagandir. Mahluqlarga U har bir narsaga qodirdir! " - dedi Ibrohim alayhissalom.  
- Men yetmish yildirki, Zuhro yulduziga topinarman. Endi bo'lsa shunday fikrga keldimki, bu yuksak osmonlarni ustunsiz ushlab turgan, qaro yerni suv ustida tutib turgan, yulduzlarni chaqirib, Yana botirib turgan, kunduz o'rniga kechanik yeltirgan - bu sening tangringmi? Mening qo'limni va bo'ynimni qurtigan ham sening tangringmi? Unda men nima qilayin? - dedi podshoh.  
Jabroil farmon keltirdi: "Zul-arshga aytgilki, hamma mol-dunyosini, oltin-kumushini senga bersin. Men qo'lini tuzatgayman!"  
Bu farmonni Ibrohim alayhissalom podshohga yetkazdi. Zul-arshning Hojar ismli cho'risi bor edi. U Mag'rib podshohining qizi edi, Solih alayhissalomning urug'ildan edi. Uning otasini o'ldirib o'zini bu yerga keltirgan edilar. U barcha xizmatkorlar sardori edi. Podshoh mol-dunyosi va hazinalar turgan kaltini Ibrohim alayhissalomga berdi. Shunda Ibrohim alayhissalom duo qilgandi, podshohning qo'li va bo'yni o'z holiga qaytdi. Zul-arsh darhol imon keltirdi: (Oyat) "Guvohlik bermanki, bir Ollohdan o'zga biror ma'bud yo'q va Yana guvohlik bermanki, albatta sen, ey Ibrohim, Hudoning elchisidirsan".  
- Ey podshoh, menga bergan mol-dunyoingni qabul qildim, ularni yana o'zingga bag'ishladim, - dedi Ibrohim alayhissalom. Hojar esa hamma boyliklarni yana qaytarib qabul qilib oldi. Ibrohim alayhissalom shundan so'ng yetti kun bu yurtda turib qoldi, imon va islomni o'rgatdi. Sakkizinchi kun Jabroil alayhissalom farmon keltirdi:  
"Ey Ibrohim, bu yer senga bo'lmas, bundan ketgil!"  
- Menga farmon keldi, - dedi Ibrohim alayhissalom.  
- Men bilan birga turgil. Senga Misr podshohligini berayin, o'zim qul bo'layin, dedi podshoh.  
- Menga dunyo mol-mulki keakmas, - dedi Ibrohim alayhissalom.  
- Hazinadan bir toj bilan yuz ming oltin keltirgil! - deya Hojarga buyruq qildi. Keltirdilar. Ibrohim alayhissalom taraddudlandi.  
- Bularni qabul qilgil! - dedi podshoh.  
Jabroil alayhissalom ham "Qabul qilgil!" dedilar. Bularning ustiga Yana yuz ming tuya, yuz ming qo'y, to'rt yuz xizmatkorni ham qo'shdilar.  
- Ey Sora, bu toj Misrning yetti yillik xirojiga tengdir. Bu senga munosibdir, - dedi podshoh. Jabroil alayhissalom Ibrohim alayhissalomga "Soraga aytgil qabul qilsin!" dedilar.  
- Mana bu to'rt yuz xizmatkor podshohlik joriyalaridir, senga berdim, dedi podshoh.  
- Men Olloh taoloning bir cho'risi bo'lsam, menga xizmatkorlar ne xo'jat, - dedi Sora. - Ammo yolg'iz Hojarning o'zini bersang bo'ldi.  
- Podshoh buyurdi, o'n ming oltin, yana min7g qo'y, ikki yuz tuya, ikki yuz sigir keltirdilar. Ularni Hojar Bilan birga qo'shib berdilar. Dabroil alayhissalom Ibrohimga dedi: "Ey Ibrohim, aytgil, qabul qilsin!"  
Sora qabul qildi. Shundan keyin Ibrohim alayhissalom mol - mulkni olib, Sora bilan birgalikda Axzon viloyatiga bordilar. Qaysi joyga tushsalar bir yig'och joyda yilqi qoasi ko'rinar edi. Boshqa joyga bordilar. U yerda ham yilqi qorasi ko'rindi.  
- Shu yerda tushamiz, - dedi Ibrohim alayhissalom Lutga. Tushdilar, o'tov tikdilar. Ibrohim alayhissalom bir quduq qazdirdi, totli suv chiqdi. Narigi tomondagilar o'ylashdi: "Bu odam yilqilari Bilan o'tlog'imizni quritmoqda, ularni haydab yuboraylik, qudug'i ham bizga qolsin".  
Shunday Deya so'zlashib turgandilar Zul-arsh askarlari bilan Misrga borayotib bu yerda tushdi. Uch kishi borib Ibrohim alayhissalomni podshohning oldiga olib keldilar. Podshoh Ibrohim alayhissalomni ko'rib, dast o'rnidan turdi. Ibrohim alayhissalom qo'li bilan "O'tirg'il!" degan ishora qildi. Podshoh joyiga o'tirdi. Haligi kishilar podshohga shikoyat qildilar:  
- Bu tunu-kun yilqi-mollari bilan o'tlog'imiz va suvlog'imizni quritmoqda, buyuring bu yerdan ketsin!  
- Sen nima deysan, - dedi podshoh Ibrohim alayhissalomga.  
- Men g'aribni ketgin desalar ketayin, - dedi Ibrohim alayhissalom.  
- Siz uchun men bir hukm aytsam bo'larm? - so'radi podshoh.  
- Bo'ladi, - dedilar.  
- Sizlar o'nta qo'y keltiring, pishirsinlar, yeylik. Keyin Ibrohim o'n qo'y keltirsin, pishirsinlar, yeylik. Qaysingizni taomingiz bilan to'yamiz bilaylik, so'ngra o'lgan qo'ylarni tiriltirasizlar. Kim bu shartlarimizni bajarsa, bu yer-suv o'shangan bo'lsin! - dedi podshoh.  
Haligi kishilar qayg'uga botdilar. O'nta oriq qo'yni keltirib bo'g'izladilar, pishirib, podshoh oldiga kiritdilar. Podshoh askarlari Bilan bo'lishganda bir parchadan tegdi. Shundan keyin Ibrohim alayhissalom o'z taomini keltirdi. Uch ming kishi yedi, to'ydi, yana ortib qoldi. Ibrohim alayhissalom o'rnidan turdi-da, qo'ylarning terisini to'plab duo qilgandi, hamma qo'ylar tirildi. Podshoh yer-suvni Ibrohim alayhissalomga hukm qildi. Haligi kishilar bundan hasadga berildilar va tunda bir itni o'ldirib, quduqqa tashladilar.  
- Ketamiz, - dedi Ibrohim alayhissalom bu ahvolni ko'rgach, Lut payg'ambariga qarab.  
Ibrohim alayhissalomning o'n ikki suruvi bor edi. Har bir suruvida bir oltin zotli iti bor edi. Muqaddas yerlarga to'rt yig'ochlik masofa qolganida to'xtadilar, o'sha yerga o'rnashdilar.

Men qarib qoldim, sening xizmatingga kuchim qolmadi. Sen meni deb ko'p mashaqqatlar tortding. Hajarni senga bag'ishladim, u seniki bo'lsin, dedi Sora kunlarning birida Ibrohim alayhissalomga. Shunday qilib Hojar Ibrohim alayhissalomniki bo'ldi.

### Ismoil Layhissalom Qissasi

Sora raziallohu anho to'qson yoshga kirdi hamki, farzandi bo'lmadi. Ibrohim alayhissalom peshonasida Muhmmad alayhissalomning nurlari sobit edi. U ayoliga "Bu nur sendan bo'ladigan o'g'longa nasib etgay", deya va'da qilgandi. Biroq Ibrohim alayhissalom Hojarga qovushganlarida bu nur Hojarning vujudiga o'tdiki, buni ko'rgan Soraning g'azabi keldi. Buurning saodatidan bebahra qolganidan qattiq rashki kelib, Ibrohim alayhissalomning yoqasidan oldi va erining yoqasidan olgan ayollardan birinchisi bo'ldi, negaki Odam alayhissalomdan buyon bunday noshoysta ish bo'lmagandi.

- Ey Ibrohim, Soraga aytgil sabr qilsin! - dedi Jabroil alayhissalom.

- Qandoq sabr qilayinki, sakson yil men shu umid bilan yashar edim. Ushbu kun va'dalaring menga nasib bo'lmay, nurning saodati xizmatkor-cho'rimga tegdi, - dedi Sora bu gapni eshitib.

Chu lahzadan boshlab Ibrohim alayhissalom Bilan Sora o'rtasiga sovuqlik tushdi. Jahl ustida Sora "Hojarning uch a'zosini mayib qilgayman!" Deya qasam ichdi. Kunlarning birida Hojarning qulog'i, burnini kesmoqqa qasd qilganda Hojar faryod chekadi.

Shunda Jabroilga farmon bo'ldi, u jannatdan ikki oltin isirg'a olib keldi. Hojarning qulog'iga o'tkazgandilar yanada ko'rkamroq bo'ldi. Xatna qilgandilar eriga yanada sevimliroq bo'ldi. Avratlarini xatna qilmoqlik Hojardan meros bo'lib qoldi.

Rivoyatda kelishicha, Ismoil Hojardan tug'ildi. Yana boshqa rivoyatlarda kelishicha, Hojarning oy-kuni yaqinlashganda Sora tag'in toqat qila olmay qoldi.

- Hojarni ko'zimdan nari qilgin, uni ko'rmayin, - dedi Sora. Shunda Jabroil alayhissalom habart keltirdi:

- Olib borgil.

Ibrohim alayhissalom ikki tuya keltirib, biriga Hojarni mindirdi, biriga esa o'zi mindi. Yo'lga otlanganlarida Sora Ibrohim alayhissalomga shunday dedi:

- Uch ishni qilmoqlig'ingni so'rayman. Biri shuki, Hojarni odam yashamaydigan joyda qoldirgil. Ikkinchisi, tuyadan tushmagil. Uchinchisi, kechasi to'xtamagil.

Ibrohim alayhissalom bu uch ishga va'da berib, Muqaddas tuproqdan yo'lga tushdi. Bu yerdan makkaga qadar bir oylik yo'l edi. Olloh taolo yerning tomirini tortdiki, bu yo'lni bir kunda bosib o'tdilar. Odamsiz, giyohsiz, suvsiz bir yerda qo'ndilar. (Oyat) "... Albatta men joylashtirdim avlodlarimning ba'zisini hech narsa o'smaydigan vodiya, Sening hurmatli uying yaqinida". Darhaqiqat, u paytda hali Maka yo'q edi. Ibrohim alayhissalom Hojarni qo'yib, iziga qaytdi. Birmuncha oziq va ichimlik suv qo'yib ketdi. Bir necha kun o'tgach, Hojar oyyu kundan ham go'zalroq o'g'il ko'rди. Muhammad alayhissalomning nuri uning manglayida yarqirab turardi.

Hojarning suvi tugab qoldi. O'qlini yo'rgaklab, suv izlashga tushdi. Shunda Safo tog'idan "Suv bu yerda", degan ovoz eshitildi, bordi, suvni ko'rmadi. Keyin Marva tog'idan ovoz eshitildi, bordi, suvni ko'rmadi. Bu holat yetti bor takror bo'ldi: Safodan marvaga yugurdi, Marvadan safoga. Suv topolmay ojiz bo'ldi. Bu holatda yugurmak bugunga kelib hojilarga sunnat bo'lib qoldi. Shunda Hojar tangriga qarata "Isma' ya ilu!" B Deya xitob qildi. (Ilsuryoning tilida tangrining ismi turar. Ma'nosiB "Tangrim eshitgil!" degani bo'ladi. Shu boisdan Ismoil oti kelib chiqdi). Ismoil yig'lab qoladi, yig'i tovushini eshitgan Hojar yugurib qaytib keldi. Ko'rsaki, Ismoil yuzi Bilan yerga o'girilib olib, ikki oyog'i bilan yerni tepardi. Tepgan joyidan Jabroil alayhissalom qanoti Bilan urib, suv chiqardi. (Zamzam qudug'i o'sha suvdan bino bo'ldi). Suv qaynab chiqa boshladi. Hojar suvning oqayotganini ko'rib juda quvondi, suv tugab qolmasin, deya atrofnı tosh va tuproq bilan o'radi. (Agar o'sha kuni Hojar suv yo'lini to'sib qo'ymaganda edi, hozirda Makkada bir ariq suv oqib yotgan bo'larmidi?)

Bir kuni Banu Jarham nomli savdo karvoni Shomga borayotib, Maka yeridan o'tar bo'ldi. Bu payt uchar Oqushlarni, yugurar qumursqalarni ko'rib shu tomonga qayrildilar. Ular onasi Bilan o'tirgan behad ko'rkam Ismoilni ko'rishdi. Suv borligidan taajublndilar.

- Bu quduq kimnikidir? - so'radilar karvondagilar.

- Bu o'g'lonnikidir, - javob berdi Hojar.

- O'g'lon kimning o'g'lidur?

- Ibrohimnikidir.

- Ibrohim Kim bo'ldi?

- Namrud uning qo'lida halok bo'lgandir.

- Bizning yurtimiz, yerlarmimiz yashashga yaroqsiz, odamlarimiz Uch ming besh yuz uylik aholi Makkaga o'rnashdilar. Uylar qurishdi, bozor barpo qildilar. Yil ohirida mol-mulklarning o'ndan birini ayirdilar. Bu ikki ming qo'y, uch ming tuya, yetti ming sigir bo'ldi. Hammasini Ismoilga berdilar. Bu odat har yili takrorlanaverdi. Ismoilning yilqiyu podasi ziyoda bo'ldi.

Yigirma bir yoshga kirganda Ismoilni Ammora ismli qizga uylant irdilar. Kunlarning birida Ismoil ovga ketgan chog'ida Ibrohim alayhissalom o'g'lini ko'rgani keladi. Sora Ibrohim alayhissalomga shart qo'ygandiki, tuyadan tushmagin, deb. Shu sababdan u kelib Ismoilni uyini so'rab, eshigiga kelganda tuyadan chiqardi.

- Ismoil qaerda? - so'radi kelinidan.

- Ovga ketdi, - dnb javob qildi kelin.

- Qachon keladi?

- Muncha-yam ezma kishi bo'lmasaykin, - dedi og'rinib.

- Ismoil kelsa "shunday ko'rinishli bir kishi kelib, senga salom aytdi, so'ngra eshigi ostonasi yaroqsiz ekan, uni yangilasin", deb aytgin, - Deya tayinlab qaytib ketdi.

- U kishi mening otam edi, yaxshi kutib olmabsan - dedi ismoil ovdan qaytib kelgach, bu gaplarni eshitib. - Uyning ostonasi bu sen eding. Endi seni menga keraging yo'qdir, - deb taloq berdi.

Bir yil o'tgandan kechin u Banu Xarim qabilasi boshlig'ining qizi Sayyida binti Massos al -Xurxumiyning qiziga uylandi. Ismoil ovga g'oyat o'chligi bois uyda kam bo'lardi. Otasi bu gall kelganda ham ovda edi.

- Ovga ketgandi, - dedi Sayyida Ibrohim alayhissalom so'rog'iga javoban, - Tushing, kelgunicha uyda kutib turarsiz, men taom hozirlayin.

- Tushmaslikka va'dam bor, tusholmasman, - dedi Ollohning rasuli, - tayyor - taom bormi?

Sayyida tuya sutidan tayyorlangan ayron olib chiqib berdi.

- Tangrim molu yilqilaringizga barokat bersin, - deb duo qildi u ayronni ichib bo'lib. Duo barokatidan bu yurtida tuyalar ko'p bo'ldi. Payg'ambarimiz Muhammad alayhissalom dedilarki: "O'sha kunda Ismoilning ayoli non berganida edi, bu kun makkada yemish arzon bo'lardi".

- Tuyadan tushing, - soch-soqolingizni yuvib qo'yayin, - dedi Sayyida.

- Tuyadan tushmaslikka va'da berganman, - dedi Ollohning rasuli.

- Bitta oyog'ingizni tosh ustiga qo'ying, soch-soqolingizni yuvib qo'yayin, - dedi kelini.

Ibrohim alayhissalom bir oyog'ini toshni ustiga qo'ydi, ikkinchisi tuya ustida qoldi. Shu holatda soch-soqolini yuvdi, so'ngra narigi oyog'ini tosh ustiga qo'ydi, qolgan qismini ham yuvdi. Shundan keyin Ibrohim alayhissalom:

- Ismoil kelsa aytgil: "Ibrohim senga ko'p duo salom aytdi va yana eshigingni mahkam qilgin, deb tayinladi", deya yetkazib qo'ygin.

Ismoil kelgach, Sayyida bo'lgan voqeani birma-bir bayon qildi.

Shunda Ismoil dedi:

- U kishi mening otam edi, eshik deya seni aytgandi.

Ismoil Alayhissalomning So'yilish Qissasi

Ulamolar o'rtasida ixtilof bor: Ismoil so'yilganmi yo Ishoqmi?

Aarablar Ismoil so'yilgan derlar, chunki arablar Ismoil avlodidirlar. Juhudlar Tavrotida habar berilgankim, Ishoq so'yilgan derlar, negaki juhudlar va xristianlar Ishoq avlodlaridandir. Ba'zilarning aytishicha, har ikkisi ham so'yilgandir. Bir toifa Ismoil edi desa, Yana biri Ishoq edi, deya hujjatlashtirdilar.

Rasul alayhissalom hadisi bu borada oydinlik kiritadi: "Anna ibnu zabahayni". Ma'nosi:B "Ikki qurbonlikning o'g'liman", deganidir. Bundan murod shuki, Ismoil va Ishoqni nazarda tutgandir.

Savol tug'iladi: Muhammad alayhissalom Ismoil dan tug'ilgandir, Ishoq dan emas. Ikki qurbonlikning o'g'liman deganda nimani nazarda tutgandir?

Javob shuki: Ikki qurbonlikdan murod - biri ismoildir, biri esa otasi Abdullohdir.

Habarda kelurki, Muhammad alayhissalomning kata otasi Abdulmutallib davrida Zamzam qudug'i qurib qoladi. Shunda u: "Agar tangri sub bersa bir o'g'limni qurbon qilgayman", deya nazr qiladi. Yana ulamolar ayturlarki, Abdulmutallib shunday nazr qiladi:B "Agar Olloh taolo menga o'n o'g'il bersa, hammasi sog'-salomat ko'z oldimda bo'lsalar, ulardan birini qurbon qilgayman". Bu paytda uning to'qqiz o'g'li bor edi: Xoris,

Abu Lahab, Abbos, Hiyor, Hamza, Muqaddam, Jahl, Zubayr, Abu Tolib. Bular hammasi bir onadan edilar. O'ninchisi Abdulloh boshqa onadan tug'ildi. Abdulmutallib hamma o'g'illaridan ko'ra Abdullohni suyardi. Qurbonlik uchun qur'a solinganda, qur'a Abdulloh nomiga chiqdi. Ota qo'lga pichoqni olib, qurbon qilish uchun Abdullohga yaqinlashganida, uni Abdullohni onasining Temur mahzum ismli qarindoshi to'xtatadi. Negaki, uning so'zi Makkada hammaga o'tguvchi edi. U Shom viloyatidagi folbinni yodga soladi:

- Folbinga odam yuboring, u kelib hukm qilsin, uning aytganini qiling, - deb.

Borib undan maslahat so'radilar. Folbin:

- Abdullohni bir tomonga turg'izib, bir tomonga o'nat tuyani qo'ying, so'ngra qur'a soling. Agar qura' tuya otiga chiqsa, Abdulloh qolsin, tuyalarni qurbon qiling. Bashardi qur'a Abdulloh otiga chiqsa, unda Yana o'nta tuya qo'shingda yangidan qur'a soling. Shu tariqa o'nta-o'nta oshiravering, toki qur'a tuya otiga chiqmaguncha, - dedi.

Shunday qildilar. Tuyalar soni yuztaga yetgandagina qur'a tuya otiga chiqdi. Shunda tuyalarni qurbon qilib, Abdullohni olib qoldilar. Bugunga kelib er kishining bahosi shariatda yuz tuyaga teng bo'ladi. Payg'ambar alayhissalomning "Ikki qurbonlikning o'g'liman", deyishi boisi shundandir.

Javonmardlik Qissasi

Har gal islomiy manbaalarni qo'lga olganimda, har safar ushbu qissani o'qiganimda vujudga titroq kiradi, yurak hapqiradi, fidoiylilik va javonmardlikning oliy namunasi bo'lgan bu tarixiy kechmishdan ruhiy quvvat, ma'naviy qudrat, shuuriy ma'rifat olaman. Men o'zim yaxshi ko'rgan bu qissani sizga ham qilindim. Uni ko'nglim qo'riga yo'g'irib havola etmoqdaman.

\* \* \*

O'zining buyuk Halloqi bilan roz aytishish baxtiga muyassar bo'lgan ulug' zot - Ibrohim halilulloh o'z ayoli Hojar bilan farzanda ismoil alayhissalomni qaqrab yotgan cho'l o'rtasiga tashlab kelgandan keyin navbatidagi hol so'rashni ihtiyor etgan chog'da paydar-pay uch kungacha tush ko'radilar. Ma'lumki, vhiylar ul zotga aksariyat tushlarida kelar edi. Hazrat Ibrohim alayhissalomga tushlarida Olloh taolodan farmon bo'ldi:

- Turgil, qurbon qilg'il!

Tongda turdilar-da yuzta qo'yni keltirib, qurbon qildilar. Ikkinchi kecha tushlarida Yana farmon bo'ldi:

- Ey Ibrohim, tur va qurbonlik qil!

Tong Bilan turib, yuzta tuyani qurbonlik keltirdilar. Uchinchi kecha ko'rgan tushlarida farmon Yana qaytarildi:

- Tur va qurbonlik qil!

Ibrohim alayhissalom so'radilarki:

- Mening qurbonim nimadir, neni qurbon qilayin?

Aytdilar:

- Bizdan boshqa yana kimni sevar bo'lsang o'shani qurbon qilgil!

Ibrohim halilulloh bildilarki, sevgan jigargo'shasi, suyuqli dilbandi Ismoil alayhissalomni qurbon qilish talab etilmoqda edi. Ul zot Ollohga munajat qildilar:

- Ey bori Hudoyo! Nima sababki menga Jabroil alayhissalomni yubormay, lozim bo'lgan bandalikni ravshan bildirmay tushimda ishorat qilursan?

Olloh taolo tarafidan nida keldiki:

- Ey Ibrohim! Sen mening do'stimdirsan. Ikki do'stning o'rastida begonaning vosita bo'lmog'i durust bo'lmas. Shuning uchun Jabroilni nozil qilmasman!



Shunda Ibrohim halilulloh yana murojat qildilarki:

- Hudoyo! O'g'lim Ismoilni ne sababdan so'yarman?

Olloht taolo tarafidan nido keladiki:

- Ey Ibrohim! Menga do'stlikni da'vo qilursanu, lekin o'g'lingni ko'p do'st tutursan! Bir ko'ngilda ikki kishining muhabbati bo'lishi durust emas. Agar meni chin do'st tutar bo'lsang, o'g'lingdan kechgil, mening roziligim uchun uni qurbonlik qilgil!

Ibrohim alayhissalom shundan so'ng Parvardigori amriga itoat etib, qarigan chog'ida ko'rgan yolg'iz frazandini Olloh yo'lida qurbonlik qilishga qaror qildi. Ayollari bibi hojarga shunday dedilar:

- Bir aziz do'stim o'g'limni ko'rishni istaydur. O'g'lim ismoilni boshu kokillarini yuvib, pokiza qil, ozoda libos kiydirgil, unga olib borayin.

Bibi Hojar o'g'illarini yuvintirdilar, ozoda liboslar kiyintirdilar. Shu asnoda ko'ngillariga shubha oraladi-da Yana savol qildilar:

- O'g'limni o'zi qayga olib borursiz?

- Ziyoratga olib borurman, - dedilar.

- Ziyoratga bo'lsa bunchalik pardoz qildirmas edingiz, - dedi bibi Hojar. Bu yerda bir sinoat bordirki, siz uni mendan yashirmoqdasiz. Har ne bo'lganda ham o'g'limni Hudoga topshirdim.

Gumon qilmoqqa hojar onada asos bor edi, chunki ibrohim alayhissalom yashirinchi bir pichoq va arqon olgandi.

Sochu boshlari yuvilgan, tarangan, pokiza liboslar kiygan Ismoil alayhissalom g'oyatda ko'rkli edi. Onalari o'g'lining oydek yuzi-yu, kundek ko'rkiga, qalamdek qoshlari-yu, kamon o'qidek kipriklariga, injudek tishlari-yu, pistadek og'izlariga, qizil yanoqlariga boqib to'ymadi, bo'yinlaridan quchib o'pti-da:

- Ey ko'nglim ovunchog'i! Uzoq o'ynab qolmagin! Yolg'izlikda onaginang bag'rini o'rtamagin! - dedi.

Ota-o'g'il yo'lga tushdilar. Ibrohim halilulloh o'g'illariga "Ortimdan kelgil!" dedilar, ortidan bordilar. Bu hodisotlar Iblis alayhil la'naning sabrini toshirdi. U o'zini odam qiyofasiga solib, Ismoil alayhissalomni vasvasaga solmoqni niyat qildi-da, uning qoshiga keldi:

- Otang seni qaerga elturin bilurmisian?

- Do'stining huzuriga olib borurlar, - dedi.

Iblis rostiga ko'chdi:

- Seni so'ymoq uchun olib ketmoqdadir.

- Qaysi ota o'z o'g'lini so'yibdiki, mening otam meni so'ysalar, - dedi Ismoil alayhissalom.

- "Tangri yorlig'i Bilan qurbon qilaman", deb eltmoqdadir, - dedi iblis gij-gijlashda davom qilib.

- Tangri farmoni bilan bo'lsa, mingta jonim bo'lsa ham fido qildim, - dedilar Ismoil layhissalom.

- Tangri farmon berdi, - dedi Iblis.

- Ey ahmoq! Tangri farmoni bilan bo'lsa mingta jon fido bo'lsin! - dedilar Bibi hojar.

Iblis noumid bo'lib, shalviragancha Yana Ismoil alayhissalomning qoshiga keldi, vasvasaga kirishdi:

- Ismoil alayhissalom otalariga maslahat soldilar:

- Bir odam kelib meni afsusga solmoqchi bo'lar:

- Ul shaytondur, tosh otgin, ketsin! - dedi otalari. O'g'il yetti dona tosh olib shaytonga otdi (Shu joyda tosh otmoqlik hojilarga sunnat bo'lib qoldi). Otalari ham yetti dona tosh olib shaytonga otdilar.

Ibrohim halilulloh o'g'illarini Mino tog'iga olib chiqqach, qo'yinlaridan arqonlarni oldilar. O'g'lining oyoq-qo'lini bog'lamoqqa qasd qilganlarida Ismoil alayhissalom so'radiki:

- Ey ota! Nimaga qasd qilmoqdasiz?

Ibrohim alayhissalom ko'zlari jiqqa yoshga to'lib:

- Ey o'g'lim! Tushimda seni bo'g'izlashim ayon bo'ldi. Do'stimning bu amrini ado qilmoqchiman! - dedilar.

- E - ota! Tangri do'stligini da'vo qilursan. Do'stlikni quruq da'vo qilishning o'zi bo'ladimi? Olloh taolo roziligi yo'lida so'yib, qurbon qilmoqchi ekansiz, bu rizolik yo'lida mingta jonim fido bo'lsin. Beto'xtov qurbon qiling! Inshaolloh, meni sabrli kishilardan ekanligimga ishonch xosil qilarsiz. Tangri rizoligi uchun o'g'lingdan kechgan ekansan, men jonimdan kechdim, - dedilar Ismoil alayhissalom otalari farmoniga, Parvardigorining iymon sinoviga hech ikbilanmasdan rizo bo'lib.

- Ey o'g'lim! Nechku sabr qilgayman? - dedilar otalari.

- Parvardigorim istasa, o'zi meni sobirlardan qilg'usidir, - dedilar Ismoil layhissalom, so'ngra yana savol qildilar. - Otajon! Bu habarni nechku uyda bildirmadingiz, toki men onamning oyog'iga bosh qo'yib uzr so'rardim, suyakli diydorini ko'rib olardim.

Mayli otajon, barcha ishga roziman, faqat uch o'tinchim bor: biri shuki, mening qo'lu oyoqlarimni mahkam bog'langiz, toki jon og'rig'ida talpinib, sizga ozor bermayin, ustingizga qon tegmasin. Ikkinchisi shuki, yuzimni yerga qaratib bo'g'izdang, toki yuzimga boqqanda otalik mehringiz jo'shib, pichoq tortishga qiynalmang. Uchinchisi shuki, qo'ylagimga qonimdan surtib, sochimdan bir qism qirqib, onamning qoshiga olib boring, toki ul mushtipar bolasini sog'inganda, jigarporasini qo'masagnda qonli ko'ylagini bag'riga bosib, kokillarim hidini dimog'iga to'yib, g'amzada ko'ngli taskin olsin.

Ota ko'ngli dar dva mung bilan, ko'zlari alam yoshlari bilan to'lgan holda suyaklisining qo'l-oyog'ini bog'ladi. Ismoil alayhissalom o'z ihtiyorlari Bilan "Bismilloh" deganacha yerga yotdilar.

Ibrohim alayhissalom o'g'illarining yuzini yerga qaratib, pichoq tortdilar, kesmadi. Harchand zo'r berib surtdilar, hargiz kesmadi. Necha hiyla qildi, kesmadi.

Pichoq amri ilohiyga bo'ysungan edi. Aytmishlarki, pichoqni tortar mahalda Ismoil alayhissalom kuldilar. Shunda otalari hayron bo'lib so'radilarki:

- Ne uchun kularsan?

- Pichoq yuzida "Bismillahir rahmanir rahim" bitiklik turganin ko'rarman, - dedi o'g'illari unga javoban. - Ey ota, pichoq uzra tangri oti bitiklik bo'lsa-yu u mening bo'yinimnik yessin!

Aytmishlarki, pichoq Ismoil alayhissalom bo'g'izlariga urilmasadn ilgari Jabroil alayhissalomga farmon bo'ldiki: "Bandamning madadiga borib yet! Pichoqning tig'ini teskari qilgin!" Shunda Jabroil alayhissalom pichoq tig'iga qanotlarini qo'yib qaytardilar.

Ibrohim halilulloh yetti marta pichoq tortidlar, lekin ismoil alayhissalomning bo'yinlariga o'tmadi.

- Ey ota! Pichoqning uchini tiqing, shoyad kechcha, - dedi Ismoil alayhissalom. Pichoq bukilib, qayrilib ketdi hamki kesmadi.

Shunda qahrlari kelib, pichoqni yerga urdilar, pichoqdan sado chiqdi:

- Vo ajayuo! Xalil "kesgin!" B deb amr qilur, Jalil "Kesmagil!" deb amr qilur. Menga Halilning amridin Jalilning amri zarurroqdir,

lekin Halilning itobi menga og'irroqdir. Bilsang agar qiyomat kuni bo'lganda Muhammad alayhissalom ummatlari Do'zahga kirgizilgay, ammo ularni o't kuydirmagay. Shunda do'zax Moliki "Nechun kuydirmassan?" deganlarida o't "Qanday kuydirayinki, Butun mulklar egasi: "Kuydirmagil!" deb tursa" derkan.

Shunda farishtalar murojat qilarkanlar:

- Iloho, Lavh ul-mahfuzda ko'rarmizki, "Oxir zamon payg'ambari Ismoil urug'idan bo'lgay", deyilgan. Ul Muhammadning haqqi-hurmatidin bularga farah bergin!

Havodan nido keldi:

- Ey Ibrohim! Farzandingni so'yishdan to'xtagin! Sen sinovdan o'tding. Parvardigoring amrini bajarishga nechog'li ixlosli va itoatli ekanliging sinaldi. Sen tushni haqiqat qilding, najot topguvchilardan bo'lding! Farzanding evaziga manna bu qo'chqorni qurbonlik qilg'il! O'g'ling salomat qolsin!

Ibrohim alayhissalom taajub Bilan so'radiki:

- Bori Hudoyo! Pichoqning kesmaganligida nima hikmat bordir?

Olloh taolo tarafidan nido keldiki:

- Ey Halil! Pichoq qanday qilib ham kessinki, Bibi Hojar Ismoilni menga topshirib yuborgandi. Bas, agar men ismoilni salomat saqlamasam, uni o'ldirsam, bu mening Hojarga hiyonatim ko'lardi. Mendek Hudodin hiyonat sodir qilmoq durust emas.

Shu payt osmonda ovoz eshitildi:

- Allohu akbar! Allohu akbar!

Ibrohim alayhissalom boshlarini ko'tarib qarab, Jabroil alayhissalomni ko'rdilar, u bir qo'chqorni yetaklab kelayotgan edi. Sevinib ketdilar, bu kalimlar tillarida joriy bo'ldi:

- Laa ilaaha illa-Ilohu Allohu akbar!

So'ngra ko'ngillari quvonchdan yorishib, o'g'illari Ismoil alayhissalomga shunday dedilar:

- Ko'rgil! Olloh taolo meni va seni bu og'ir zahmatdan xaol qildi.

- Allohu akbar! Va lillahil hamd! - dedilar Ismoil alayhissalom yuraklari Yaratganga bo'lgan shukronalarga, ko'zlari sevinch yoshlariga to'lgan holda.

Bilingki, kimda Kim Ushbu takbirni Qurbon hayiti va tashriq kunlarida aytsa, Dabroil aminning, Ibrohim halilulning va Ismoil zabihning shafobatiga muyassar bo'lar ekan.

\* \* \*

Bu go'zal qissa intiho topdi. Har galgiday bu safar ham turli, sanoqsiz mulohazalar qurshab oladi. Ilohiy hikmatlarni anglamoqqa urinmagan. Bu o'rinda aziz farzandida kechgan ota javonmardmi yo shirin jonidan kechgan o'g'ilmi? Agar Ismoil alayhissalom qurbon qilinganda edi u Parvardigoriga yetishardi, otalari esa to umrlari so'ngigacha uning firoqida kuyib o'tardi. Yaxshi-yamki, Ismoil alayhissalom qurbon qilimadi, yo'qsa bu sunnat ish qiyomatga qadar mo'minlarga vojib bo'lardi! Uning bo'g'izlanmagani musulmonlarga rahmat bo'lgan ekan.

Yaratganga beadam shukrki, sizni bizni shunday javonmard zotlar millatidan qilibdi, bunday fidoiylarni bizga meros qilibdi. Bu ibratlardan xulosa chiqarmoq imkonini beribdi.

KA'BA BINOSI QISSASI

Ka'baning o'rnida Odam safiulloh Bayt ul-Ma'murni bino qildi. U Nuh payg'ambar alayhissalom davrigacha turgan. To'fon vaqti kelganda azob suvi tegmasin Deya Olloh farmoni bilan jabroil alayhissalom bu binoni to'tarardi va yettinchi qavat osmonga o'rnashtirdi.

Ibrohim alayhissalomga "Bayt ul-Ma'mur o'rnida Ka'ba bino qilg'il!" degan farmon bo'ldi.

- Iloho, u yerning qaerdaligini bilmasman, - dedi Ibrohim alayhissalom.

Ayturlarki, Tangri taolo shunda Ka'baning o'rnicha bir bulutni yubordi, u bulut yerga soya tashladi, shu soyaning o'rniga Ka'ba qurildi. Nuh payg'ambar kemasining taxtasi Bilan tommini yopdi. Yana aytadilarki, bir ilon u yerga kelib, o'ralib yotdi va uning andozasi bilan Ka'bani barpo qildi. Tag'in ayturlarki, "Ey Ibrohim, besh tog'dan: Tur sino, Tur Zino, Xiro, Lubnon, Jadiyjan tosh keltirib, Ka'bani bino qilg'il!" degan ovoz keladi.

Savol tug'iladi: "Makkaning o'zida toshlar serob edi-ku? Besh tog'dan tosh keltirmoqlikda qanday hikmat bordir?"

Javob shuki: Olloh farmon berdiki, "Kim bu uyga yuz burib besh vaqt namoz o'qisa, yoki unga tavof qilsa, shu ulug' besh tog'larning og'irligicha gunohlari bo'lsa ham kechirgayman".

Bino qurilishida jabroil alayhissalom tosh kesdi, farishtalar yordam berib, tosh yo'nishdi, Ismoil toshlarni tashidi. Jabroil alayhissalom toshni kesgach, farmon Bilan ismoil alayhissalomni tosh ustiga qo'yardi. Tosh esa yo'rg'a o'tdek Ibrohim alayhissalom oldiga yelardi. Qaysi bir tosh yirik yoki yaroqsiz bo'lsa, Ibrohim alayhissalomning qo'lga tushgach, marmardek bejirim bo'lib qolardi. To'rt burchakka to'rt kalima aytib tosh qo'ydi: avvalida "Subhanollohi" dedi, ikkinchisida "Valhamda lillahi" dedi, uchinchisida "Va laa ilaaha illalohu" dedi, to'rtinchisida "Ollahu akbar" dedi.

Payg'ambar alayhissalom dedilarki: "Ikki kalima bor, tilga yengilu, ammo Olloh qoshida tarozida og'ir. Ular shuki, "Subhanollohi va bihamdihi" va "Subhanollohil aziym". Mol-dunyoning ortishi oxirat ulushining kamayishidir, mol-dunyoning kamayishi esa oxirat ulushining ortishidir".

Savol: Tilga yengillik nima-yu, taroziga og'irlik qanday bo'lar?

Javob: Dunyoning holi oxirat ahvoliga tenglashga olmas. Bu Dune og'irligi oxiratning yengilligi va bu dunyoning yengilligi oxiratning og'irligi deyishdan murod shuki, bu dunyoda tasbehu tahlil bilan ko'z ochib yumguncha Arshga yetmoqlik - tilning yengilligidir. Dunyoning og'irligi qadamga berilgandir. Negaki, kun bo'yi yo'l yursan ham ikki yig'ochdan ortiq masofani bosib o'tolmaslik - qadam, bu Dune og'irligidir. Ammo til yordami Bilan ishlar to'g'ri bo'lar, shu bois qadam og'irligini tilga, til yengilligini qadamga berarlar. Oqibatda ko'z ochib yumguncha fursat ichida uch ming yillik yo'l bo'lgan Sirot ko'prigidan o'tdilar. Qadam og'irligi tilga berilganini shundan bilish mumkin: mo'min kishining toat-ibodatini tarozining bir pallasiga, gunohlarini ikkinchi pallasiga qo'yilar, gunohlari og'ir kelar. Shunda yetti qavat osmon va yetti qavat yerni ham bir pallaga qo'yilsa, gunohlar Yana og'ir kelar.

Ka'ba binosi qurilishi nihoyasiga yetgach, Ibrohim alayhissalom dedi:

- "Iloho, Sen bizdan bu ishni qabul qil, albatta, Sen eshitguvchidirsan, bilguvchisan. Iloho, Sen ularga o'zlaridan payg'ambar yuborki, ularga Sening oyatlarini o'qib bersin va ularga Qur'oni karimni, hikmatni o'rgatsin va ularni poklasin. Haqiqatdan faqat

Sen g'olib va hikmatlisan".

Habarda kelurki, Muhammad alayhissalom dedilarki: "Men otam Ibrohimning duosiman, Isoning bashoratiman va onam Ominaning tushiman".

Shundan keyin Jabroil alayhissalom Ushbu farmonni olib keldi:

- Ey Ibrohim, odamlarga haj haqida habar Ber!

- Iloho, qanday habar berayin, haloyiq ko'p, men esa zaifman, - dedi Ibrohim alayhissalom.

"Ka'ba Qissasi"

- habar qilmoqlik sendan, yetkazmoqlik mendan, - degan farmon keldi. Shanda Ibrohim alayhissalom Qubays tog'iga chiqib nido qildi:

- Ey odamlar, darhaqiqat, Oллоh taolo sizlar uchun bir bino qurib qo'yda va uni ziyorat qilib turishni buyurdi, bas, ziyoratga kelinglar!

Odamlar otalari pushtikamarlaridan, onalari rahmidan turib javob aytdilar:

- Labbay, ey hudo, labbay! Labbay, ey sherigi yo' -, labbay! Albatta, haqiqiy maqtoqlar va ne'matu hukmlar faqat Senga xosdir. Senga hech bir sherik yo'qdir!

O'sha kuni javob aytgan bo'lsa, qachon bo'lsa-da haj qilgay. Kimki javob aytmagan bo'lsa, har qancha boy badavlat va quvvatli bo'lsada haj qilolmagay.

Ishoq Alayhissalomning Tug'Ilish Qissasi

Sora hazratlari yuz o'ttiz yoshga kirganlarida Jabroil alayhissalom bashorat olib keldi:

- (Oyat) "Va Biz unga bashorat berdik Ishoq bilan va Ishoqdan keyin Ya'qub bilan".

Negaki, bu paytda yuz o'ttiz yil yashagan Sora farzand ko'rishdan ko'ngil uzgandi. Lut qavmini halok qilish uchun kelgan Jabroil alayhissalom yuqoridagi hushhabarni olib kelgandi. Bu habardan keyin yetti kun o'tgach, Sora ishoqqa yukli bo'ldi. To'qqiz oydan keyin Ishoq tug'ildi. U tug'ilgan kechada osmondan ming yulduz tushib, Ibrohim alayhissalomning uyi atrofiga yig'ildi.

- Iloho, bu qanday alomatdir? - munojot qildi Ibrohim alayhissalom.

- Ey Ibrohim, bu Ishoq ismli o'g'lingdan ming payg'ambar chiqadi, degan alomatdir! - degan nido keldi.

- Ishoqqa bu karomatni berding, Ismoilga nima berursan? - dedi ota Oллоhga shukrona qilarkan.

- Ey Ibrohim, Ismoilni menga topshirgil! Undan Muhammad ismlik bir payg'ambar chiqargayman. Agar shu payg'ambarim bo'lmaganida edi bir yuz yigirma to'rt ming payg'ambarlari sen ham bo'lmagay eding. hammalarini uning muhabbati uchun yaratdim! - degan farmon keldi.

Bu habardan Ibrohim alayhissalomning sevinchlarini to'lib-toshdi, hojarga habar yubordi, Sorani shod etdi, yaratganga shukronalar qildilar. Ibrohim alayhissalom ming qo'y, yuz sigir va yuz tuyani qurbonlik qildi.

Ishoq ulg'aygach, Ilyos o'g'li Batvilning Ruq'a ismli qiziga o'ylandi. Undan ikki o'g'il ko'rdi. Kattasi Iyaz, kichigi Ya'qub edi.

Iyazning tovonini ushlab tug'ilgani uchun otini Ya'qub qo'yidilar. Ishoq payg'ambarning ko'zlari ojiz edi. Iyaz ulg'ayib, ovchilik bilan shug'ullana boshladi. Otasi Iyazni ortiqroq sevardi. Kunlardan birida otasi Iyazga:

- Kiyik go'shti qovurdog'ini ko'ngil tusadi. Keltirsang, senga payg'ambarlik duosini qilarman, - dedi.

Iyaz ovga ketdi. Ya'qubni onasi ko'proq sevar edi. U bu so'zni eshitib, bir qo'yni bo'g'izlari va terisini Ya'qubga kiydirdi. Negaki, sertuk bo'lganidan otasi oldiga borganda Ya'qubni tanib qolmasin, degandi.

- Otang oldiga borgilki, seni tanimasin. Otangdan payg'ambarlik duosini tilagin, - deb tayinladi onasi.

- Ey ota, kiyik go'shti keltirdim, - dedi Ya'qub. Otasi go'shtni yeb bo'lgach, duo tilab kelganini bildirdi.

Ishoq alayhissalom Ya'qubning qo'lini tutib:

- Badaning Iyaznikiga o'hshaydiyu, ovozing Ya'qubnikiga o'hshar, - dedi va duo qildi. - Avlodningdan payg'ambarlar chiqsin, yaxshi solih bandalar ko'paysin.

Bu duo ijobat bo'ldi. Sal o'tmay Iyaz keldi va kiyik go'shti keltirganini aytdi. Duo tiladi.

- Boya kelding, duo qildim-ku? - dedi Ishoq alayhissalom.

- Yo' -, men kelganim yo'q, - dedi Iyaz.

- Ey Iyaz, bu makrni Ya'qub qilibdi, - dedi ota. Keyin Iyazga ezgu duo qildi. Unga payg'ambarlik duosi bo'lmadi. Shu bo'ldi-yu

Iyaz bilan Ya'qub o'rtasida adovat tug'ildi. Ota yana ziddiyatdan cho'chib, Iyazni Rum yurtiga jo'natib yubordi. Shu bois Rum xalqi Iyazning avlodlaridandir. Ya'qub alayhissalom avlodidan payg'ambardg'lik duosi barokati tufayli ko'plab payg'ambarlar dunyoga keldilar.

Ibrohim Payg'ambar Qo'Lida Tirilgan Qushlar Qissasi

Kunlarning birida Ibrohim alayhissalom yo'lda ketayotib eti va suyaklari irigan tuya o'ligini uchratib qoldi. Shunda Namrudning: "Men hayot beraman va o'ldiraman", degan so'zlari yodiga keldi. hayolarB "Ul mal'un mundoq narsalarni qanday ham uddalay olsin!" degan o'yg'a bordi.

- hudoyo, o'liklarni qanday tiriltirishingni ko'rsatgil! - deya xitob qildi.

- Shubhalanurmisan? - xitob keldi.

- Iloho, aslo shubham yo'qdir, ammo ko'nglim taskin topsin derman. Ayturlarki, Oллоh taolo Ibrohim alayhissalomga do'stlik va'da qilgan edi.

- Iloho, o'shal va'da qachon vafo bo'lgay, - so'radi Ibrohim alayhissalom.

- Qachon sening qo'lingda o'liklar tirilganda do'stlik tashrifi boshlanur, - degan xitob keldi. Va'da kechikkani bois payg'ambarning sabri qolmadi.

- Iloho, o'likni qachon tiriltirish payti kelur, - so'radi payg'ambar.

- To'rt qushni tutib, bo'g'izlagil, patlarini yulib, go'shtlarini maydalagil, patlarini shamolga sovurgil, et-ustixonlarining hammasini bir-biriga ralashtirib, to'rt qismga bo'lgil-da, to'rt tog'ning ustiga qo'ygil! - degan xitob keldi.

To'rt qushning biri tovus, biri qarg'a, biri o'rdak, biri tovuq edi. Mufassir saddyning aytishicha, rost yo'ldagi qushlar emas, jinoyat qilgan qushlar o'ldirilsin, degan farmon bo'lgandi.

Savol: Tovusning jinoyati nima edi?



Javob: Tovus jannat ichida Odam va havvoga jinoyat qilgandi, Iblis va Ilonga yordam bergandi.

Savol: Qarg'a nima jinoyat qilgandi?

Javob: Qarg'a Nuh alayhissalom to'fonidan keyin habar olishga jo'natganda ko'plab o'liklarniko'rib, ularni yeyishga tutindi, kechikdi. Qiyomatga qadar o'laksaho'r bo'ldi.

Savol: Tovuqning jinoyati nimada bo'ldi?

Javob: Tovuq sheriklari bilan Ilyos payg'ambarning kiyimini oldi, bir-biriga adovatli bo'ldi.

Savol: o'rdak qanday jinoyatga yo'l qo'ydi?

Javob: Yunus payg'ambar baliq qornidan chiqqanda badani zaif edi. Unga pashsha qo'nib, ozorlamasin deb qovoq daraxti ekildi, o'rdak unga suv tashuvchi bo'ldi. U suv olib kelguncha darxt ildizi qurib qoldi.

Shu sababdan bu to'rt qushni o'ldiring, gunohsizlar esa o'lmasin, degan farmon bo'ldi. Bu to'rt qushning o'lmaganida nima hikmat bor? Tovus hamma qushlardan chiroyli bo'lib, odamga o'xshardi (Oyat) "haqiqatdi biz insonni nihoyatda go'zal bir shaklda yaratdik". Tovuq farishtalarga o'xshar, zikr va tasbeh bilan band edi. Boshqa qushlarga qaraganda zokirroq edi. Qarg'a shaytonga o'hshar, o'rdak esa parilarga o'xshar edi.

Foyda: "Ey, halil, tovusni o'ldirganigda odamzodning o'limini fikr qilgil. Tovuqni o'ldirganigda farishtalarning o'limini fikr qilgil. O'rdakni o'ldirganigda parilarning o'lganini fikr qilgil. Qarg'ani o'ldirganigda shaytonning o'lganini fikr qilgil. Bo' to'rtovining tirilganida to'rt mahluqotni o'ldirib yana tiriltirishimni fikr qilgil. Bilgilki, tiriltirmoqqa qudratim yetar", degan o'git bor edi bu hikmatda.

HIKOYAT. Tovusning bu dunyoga monand bezak-chiroyi bor, tovuqning shaxvati bor, o'rdakning suqligi bor, qarg'aning fikri bordir. Buning ishorati shundaki, mujohada qilichi va shariat hukmi bilan tabiat tanasidan bu to'rt sifat bo'g'izlanscha, mangu barhayotlik bo'lar.

Yana maqsadga qaytsak, bu to'rt qushlarni bo'g'izlashsa, boshlarini qo'lga olishga, qolganlarini bir idishga solib maydalashga, so'ngra aralashtirib, to'rt qismga bo'lishga va to'rt tog'ning ustiga qo'yib, chaqirmoqlikka farmon bo'lgandi.

Ibrohim alayhissalom aytganlarni bekamu ko'st bajarib, qushlarning boshlarini qo'lga olib, chorlanshgandi Olloh farmoni bilan tog' boshiga ko'tarildilar, havoda patlari patlaridan, eti etlaridan, suyagi suyaklaridan birma-bir ajraldi, o'z o'rinlariga keldi va boshlariga ulashdilar. So'ngra Ibrohim alayhissalom qoshida "La ilaha illallohu Muhammadur rasulullohi" deganlaricha ucha boshladilar.

- Ey Ibrohim, bilgilki parvardigoring aziz va hakimdir, - degan xitob keldi.

Savol: Ibrohim alayhissalomga o'liklarni tiriltirmoqligini qushlarda ko'rsatgan bo'lsa, Uzayr alayhissalomga o'z tanasida ko'rsatmagida ne hikmat bor?

Javob: Ibrohim alayhissalom tazarru bilan savol bergandi, Uzayr alayhissalom esa taajub va shak bilan so'ragan edi.

Ibrohim Va Sora (Ularga Ollohning Salomi Bo'Lsin) Vafotlari Qissasi

Sora yuz o'ttiz yilda yashab vafot topdi, Ibrohim alayhissalom uni Kan'on hududida Falastinerlarida dafn etdilar. Sora tirikligida uning haqqini saqladi, boshqa xotin olmadi. U vafot etgandan so'ng Yufturning futur ismli qizini oldi. Undan olti o'g'il - Yavshan, Voshiq, Zamz, Madyan, Mudin, Shux-farzand ko'rdi. Kattalari Ismoil va Ishoq boshqa onadan edilar. Bu sakkiz o'g'ildan tarqalib, olamga yoyildilar, dunyoni to'ldirdilar, ularning kimi musulmon, kimi kofirbo'ldi. (Oyat) "Va barayut berdik Biz bunga va Ishoqqa va har ikkalasining zurriyodlaridan ba'zilari yaxshi ishlar qilguvchi bo'lurlar va o'z nafsigacha ochiqdan-ochiq zulm qilguvchilar ham bo'lur".

Ba'zi ulamolarning aytishicha, ibrohim alayhissalom Soradan keyin ikki yarim yil o'tib vafot qildilar. Ishoq tug'ilganidan keyin yigirma uch yil yashadi va umrining oxirida yigirma beshkun betob bo'ldilar.

- hali vaqt bo'lgani yo'q, - dedi Ibrohim alayhissalom Azroil alayhissalomga jon olgani kelgan chog'.

- Agar hali vaqti yetmagan bo'lsa menga farmon bo'lmas edi, - dedi Azroil alayhissalom. Shunda:

- Ey Ibrohim, soqolinga qachon oq kirdi? - degan xitob keldi.

- Iloho bir yil bo'ldi, - dedi Ibrohim alayhissalom.

- Ey Ibrohim, soqoling oqaruvi o'lim elchisi edi, - deganxitob keldi. Bundan ilgari bironkishining soqoliga oq kirmas edi. Shunda Ibrohim alayhissalom:

- Do'stning jonini olayotgan do'stni hech ko'rganmisan? - dedi. Shu payt Jabroil alayhissalom xitob olib keldi:

- Do'st do'stga qovushmoqni hech istamaydimi?!

- Unday bo'lsa jonimni olgil! - dedi Ibrohim alayhissalom va savol qildilar, - Jon bermakning qattiqligi qandaydir?

- Odamni ming marta chopqi bilan o'rtasidan yorsalar, yana ming marta boshidan qaynoq suvni quysalar, yana ming marta qilich bilan chopsalar, qanchalik mashaqqat azob tortsa, menga ham shunchalik azob bo'lar, - dedi Ibrohim alayhissalomga o'z jonlari.

- Agar jon bermaklikning osonligi shunchalik bo'lsa, qattiqligi qanday bo'larkina! . .

Ibrohim alayhissalom o'zidankeyin Ismoilni hijoz yerlariga, Ishoqni Shom yerlariga halifa qilib qoldirdi. Ismoil alayhissalom otalaridanso'ng qirq yil, Ishoq alayhissalom otalaridan so'ng qirq yil, Ishoq alayhissalom otalaridanso'ng ellik yil umr ko'rdilar.

Ibrohim alayhissalomni Ishoq o'g'illari yuvib, janoza o'qidilar va Sora bilan yonma-yonqabrga qo'yidilar.

Lut Alayhissalom Qissasi

Lut ibn hazar ibn Borih ibn hiron - Ibrohim alayhissalomga ota tomonidan qarindosh bo'lgan kishining o'g'li edi. Ular birgalikda falastin yeriga hijrat qilib keldilar va bir necha fursat birga yashadilar. Keyinroq o'zlari hohlagan yerda yashashga kelishib olib, boshqa-boshqa istiqomat qila boshladilar. Oralari bir kecha-kunduzlik yo'l edi. Lu alayhissalom Urdun degan joyda o'rnamshdi. Bu joyda besh yirik shahar bor edi: Dodumo, Orumo, Sevam, Su'ar. Bu yurtda bog'lar, uzumzorlar ko'p bo'lib, noz-ne'matlar bisyor, dunyoning hamma ne'mati muhayyo edi.

Bu yerlarda bir xalq yashardiki, ularni Qur'onda Olloh taolo noz-ne'mat berilganlar deya yorlaqagandi. Negaki, butiun yer yuzida qanchalik ne'mat bo'lsa, bu yerda ham shunchalik ne'mat bor edi. Yil bo'yi bu yerga Chin-Mochinu boshqa yerlardan odamlar kelar, o'z bog'lariga kirganday ne'matlarga ko'milardilar. Mevalarni yig'ib, qish kelgach, uylariga qaytaredilar. Yoz kelganda odamlar yana kela boshladilar. Urdunliklar:

- Bu yil mevalar yaxshi hosil bermadi, qaytinglar, yanagi yilga ko'proq olarsizlar, - deyishdi. Ammo, odamlar qaytmadilar. Ularni qaytarishga ojizlik qildilar.

Shunda ular podishohalri Sadum ibn Mushdam va vazirlari Kurmuz oldiga arzga kelishdi. Ular butga topinishar, Yabd, Mashur, Qub, Qut nomli butlari bo'lib, ularning eng ulug'i Zevol degan but edi.

- Zevolga boring, sig'ining, zora, sizlarni qutqarsa, yo biron yo'l ko'rsatsa, - dedi podishoh ularni yo'lga solarkan.

Bu paytda Iblis Xasxos degan bir devni olib kelib, Zevolning og'ziga kiritib qo'ydi. Dev yordam so'rab kelganlarga qarata:

- Ey mening qullarim! Necha yillardan berimening so'zimga kirib mehnatu balolarga uchramagan edingiz. Endi buning yo'li shuki, bu yerdan chiqiboq yigitlarni ishga soling, ul kelgindilarni tutsinlar, erkaklarni uyga qamab, ular bilan yaqinlik qilsinlar. Shunda o'zlari qochib qoladilar, - deya yo'l o'rgatdi.

Urduqliklar Zevolning yonidan chiqib, kelgindilarni izlay boshladi. Iblis inosn qiyofasiga kirib, Bohil degan yigitning oldidan chiqdi. Iblis sochlariga oro berib, g'oyat ko'rkli qiyofaga kirgandi, uni ko'rganBohilning ko'nglida mayl uyg'ondi va Iblisning qo'lididan tutib, uy ichiga olib kirdi va fohisha ish bilan shug'ullandi.

HIKOYAT. halifa ma'mun (Olloh uni rahmat qilsin) aytdiki: "Odam alayhissalom hamma mahluqotlarning afzali edi, unga sajda qilishdan orlandingu, ammo Lut payg'ambar qavmiga muxannas (bachcha) bo'lding!" deya Iblis malomat qilindi.

Rivoyat. Iblis o'g'ri suratida bir odlamning bog'iga o'g'rilikka tushadi. bog' egasi uni tutib olib rosa to'pposlaydi. Ikkinchi marta ham o'g'rilikka tushadi, bog' egasi yana kaltaklaydi. Uchinchi gal kirgnada esa qo'rqitmoqchi bo'lib, u bilan fohisha ish qiladi. Shu-shu bo'ldiyu, bu fahsh ishlar ularga yoqib qoladi va hammalari yo'ldan ozib ketadilar.

Aytishlaricha, ularda saqich chaynamoq, qo'chqor urishtirmoq, bachchabozlik, kiymilari orqasini yormoq kabi yaramas ishlari bor ediki, bu yovuz ishlar tufayli xotinariga qaramaydigan bo'ldilar.

Kunlardan birida Iblis nuroniy kampir qiyofasida xotinalari huzuriga keladi. Shunda xotinlar unga zorlana boshladilar:

- Erlarimiz yosh-yosh yigitlar bilan qovushadilar, bizlarga bo'lsa aslo boqmaydilar, maslahat bering, nima qilaylik?

- Sizlarga bir gapni o'rgatayinmi? - deya Iblis ularga hiyla o'rgatdi. U bir yog'ochni olib, erkaklarning andami kabi yo'ndi, silliqldi va beliga bog'lab, xuddi erkaklar kabi ayollarga yotar bo'ldi. Bu ish ayollarga hush kelib, bir-birlari bilan qovusha boshladilar.

Shundan keyin er erkak bilan ayol esa ayol bilan qovushadigan bo'ldi. Bu hol juda uzoq muddat davom etdi.

O'sha vaqtda Lut alayhissalom Quddus yerlarida istiqomat qilardi. Bir kuni Jabroil alayhissalom yigirma yoshli yigit qiyofasida uning huzuriga kirib keldi.

- Sen kim bo'larsan? - so'radi lut alayhissalom.

- Jabroil amin bo'larman, - dedi u.

- Ey Jabroil, nima olib kelding? - dedi Lut.

- Parvardigoring senga salom yo'lladi, so'ngra adashgan qavm huzuriga borib, ularni bachchabozlikdan, ayollarni bir-birlari bilan yaqinlik qilishlaridan qaytargil, ularni "La ilaha illallohi Lutun rasulullohi" deb imon keltirishlikka va butga topinmaslikka da'vt qilmog'ingni buyurdi, -dedi Jabroil alayhissalom. Shunda Lut behad quvonib ketdi.

- Olloh qandoq ham yaxshi ega va qandoq yaxshi madadkor, - deya Ibrohim alayhissalom huzuriga yugirib ketdi.

- Ey amaki, Jabroil keldi, menga payg'ambarlik keltirdi, eng yovuz xalqni imonga da'vat qilishga buyurdi, - dedi Lut Ibrohim alayhissalomga.

- Ular qaysi xalqdir?

- Yo'ldan ozgan qavmi.

- Parvardigoring amriga bo'ysingil, farmonni bajargil! - dedi Ibrohim alayhissalom.

Lut alayhissalomning Voila va Vhila ismli xotinalari hamda Zu'ala, Israma, batqo ismli qizlari, yaga Ra'da otli tuyasi, Dina otli iti bor edi. Lut tuyasiga ko'chlarini ortdi, yo'lga tushdi. Ibrohim alayhissalom uni 5 yig'och masofaga kuzatib bordi va:

- Iloho, bilarsanki, Lut mening qarindoshim, qo'ldoshim edi, uni behad sevardim. Uni o'zingga topshirdim, eson-omon yana salomat holda qaytargil, - deya duo qildi.

Jabroil alayhissalom farmon keltirdi: "Omuro qirg'og'iga o'rnashgil!"B Lut alayhissalom Parvardigoring amriga binoan besh yig'ochlik yo'l yubrgach, belgilangan joyga chodir tikib, o'rnashdi. Yo'ldan ozgan qavmning ikki yigiti behosdan ularga duch keladi va qavmiga borib: "Lut keldi, g'oyat kelishimli yigit ekan, ikki ayoli ham bor", deya habar yetkazdi. Bu gapni eshitgan Omuro xalqi Lutni ko'rgani keldi va uni ushlab olmoqqa qasd qildi. Shunda Lut tuyasi va itiga:B "Bularni daf qiling!" deb buyurdi. Tuya bilan it haloyiqqa tashlandi: oyoq bilan tepdi, tish bilan tashlandi, ko'tarib yerga urdi.

Haloyiq qaytib borib, podishohalriga arz qildilar:

- Bir ko'rkam yuzli odam kelib, tuyasi va iti bilan hujum qilgandi, yuz ming yigitlarimizni qaysi biri o'ldi, qaysi biri qochib qutildi.

- Borgil, u yigitni ko'rgil, so'zlashgil, natijasini menga bildirgil, - dedi podishoh o'zining Karmu degan vaziriga. Vazir besh yuz yigiti bilan Lutning qoshishga yetib keldi. Lutni ko'rdi.

- Oting nimadir? - so'radi vazir.

- Abdulloh, - dedi Lut.

- Nima maqsadda kelding?

- Payg'ambarlik olib keldim.

Shundan keyin vazir qaytib podishohning oldiga bordida, buning habarini yetkazdi. Bir muncha vaqt o'tib, Jabroil alayhissalom farmonkeltirdi:

- Borgil, Sadum xalqiga aytgil, imon keltirsinlar, Meni birligimga, sening payg'ambarim ekanligingga imon keltirsinlar!

Lut alayhissalom yo'lga otlandi, iti va tuyasi hamroh bo'ldi. podishoh saroyiga kelgach, tuyasi o'ng tomoniga it so'l tomoniga turdi.

- Oting nima? - so'radi podishoh.

- Otim Abdulloh, - dedi Lut.

- Abdulloh nima deganidir?

- Tangri quli deganidir.

- Sen kimsan?

- Tangrining rasuliman.

- Rasul degani nimadir?

- Rasul degani shuki, Olloh birdir, men uning payambaridirman.

- Bu so'zni qanday isbot-nishona etarsan?

- Isbotim ushbu tuya bilan itimdior.

- Tuya qanday nishona berar?

- Tuyaning nishonasi Olloh qudrati bilan bo'ladir.
- Ayt, nishona bersin!
- Ey Ra'da, payg'ambarligimga nishona bergil! - dedi Lut alayhissalom Olloh taolo tuyaga zabon berdi. Tuya kalima o'girdi:
- Laa ilaaha illallohi va innaka Lutun rsululloshi (ya'ni: Ollohdan o'zga iloh yo'q, Lut uning rasulidir).
- Yana bir guvohing ham nishona bersinchi?
- Ey Dina, aytgil, - dedi Lut. Shunda it ham yuqoridagiday kalima o'girdi.
- Men hech qachon bunday kalomni eshitganim va bunday voqeani ko'rganim yo'q edi, - dedi podishoh va beklardanso'radi: - Sizlar ne dersizlar?
- Ey podishoh, bu odam sehrgardir, - deyishdi beklari.
- Ey Abdulloh! Sen bu so'zni boylik uchunaytayotgan bo'lsang, biz senga hamma avlodingga yetgulik mo-dunyo beraylik, - dedi podishoh.
- Men sizlardan hech narsa so'ramasman, mening ishimga mukofotni tangrining o'zi berur, - dedi Lut alayhissalom. Sizlar gunohkorsizlar, erkaklar er bilan qovushadiganyo'lsiz qavmdirsizlar.
- Sizlar erkaklar bilan yaqinlik qilasizlar va nasl yo'lini kechg'sib qo'yasizlar.
- Tangri azobi dersan, agar gaping chinbo'lsa, keltirgil o'sha azobni, bir ko'raylik, - deya javob berdi haloyiq.
- Iloho, bu sarkash xalqqa o'z qudratingni ko'rsatgaysan, - duo qildi Lut va yana dedi: - Parvardigoro, bularni qancha undamayin, imonga kelmasalar.
- Yanabir muddat da'vat qilgil!, - degan farmon olib keldi Jabroil alayhissalom. Shundankeyin Lut alayhissalom qirq yil da'vat qildi, ammo biron bir kishi ham imonga kelmadi. Azob vaqti yaqinlashganda Lut yana podishohning oldiga keldi va shunday dedi: - Tangridan qo'rqil, musulmon bo'lgin!
- Ey Lut, sen haliyam o'sha so'zingdan qaytmadingmi?
- Men sening oldingga o'z ihtiyorim bilan emas, balki Tangrif armoni bilan keldim. Agar farmon bo'lmasa, men bu yerga aslo kelmaganbo'lardim, - dedi Lut alayhissalom. So'ngra duo qildi: - Iloho, meni bu zolim haloyiqdan qutqargil.
- Adashgan qavm yig'ilib kelib, podishohiga arz qildi:
- Lutni ahli oilasi va mol-mulki bilan yurtimizdan chiqarib yuboring. Toki, bizga qilayotgan nopok ishlarimiz uchunmalomat toshini otuvchi bo'lshan biron-bir kimsa qolmasin.
- Ibrohim alayhissalom bir kecha tush ko'radi: Lutning so'zi bilan bir kimsa pok bo'ldi. Ertasi kuni yo'l poylab, habar kutdi, kunni kech qilsa hamki, hech nima bilolmadi, hech kim kelmadi. Mehmon kutmoqni Ibrohim alayhissalom o'zi uchun farz qilib olgan edi. Negaki, u mehmonsiz ro'zasini ochishga odatlanmagand. Ertasi kuni ham mehmonkutli, kelmadi. Xullas, o'n kungacha mehmonkelmagach, qayg'uga tushdi: "o'n kundirki mehmon ham yo'q, Lutdan habar ham". O'n birinchi kuni esa munojat qildi: - Iloho, qaysi gunohim uchun meni qiynarsan, mehmon kelmaydir!
- Ey parvardigorim, Olloh senga salom dedi va Lutni saqlagan o'zimmanku, sen faqat mehmon kuratsan, xolos, - Jabroil alayhissalom shunday habar olib kelgandi.
- Iloho, tavba qildim, - dedi Ibrohim alayhissalom.
- O'n birinchi kuni ko'rkam yuzli, navqironyoshli o'n ikki yigit chodiriga kirib keldi. (Oyat) "Ey Ibrohim, senga hurmatli mehmonlarning habarietdimi", deya ular Ibrohimning o'toviga kirdilar, dedilar:B "Salom Ibrohim dedi:" Saolm ey notanish odamlar, Yana dedilar:
- Mehmon kelganidan hursandmisan?
- O'n kun bo'ldiki, ro'zamni ochganim yo' -, - dedi Ibrohim alayhissalom mehmonkelganiga sevinib. So'ngra ikki yarim yoshli qizil qashqa, to'rt muchchasi sog' buzog'ini, garchi uni juda yoqtirsa hamki, bo'g'izladi, qovurdoq qilib mehmonlarga tortiq qildi. (Oyat) "Keyin u Ibrohim o'z ahli tomon buyruq bilano'girildi va tezda bir semiz buzoqni pishirib keltirdi. Keyin u buzoqni mehmonlar oldiga yaqinlashtirib qo'ydi... nega yemaysizlar", dedi.
- Ibrohim alayhissalomning odati shu ediki, mehmon hijolat tortib, taomlana olmay qolmasin, deya tashqari chiqib turardi. Bu gal ham tashqarida turganida Sora eshikdan qarab, mehmonlarning taom yemayotganlarini ko'rdi-di, buning habarini Ibrohim alayhissalomga yetkazdi. Shunda u ichkariga kirib, mehmonlarga yuzlandi:
- Nega taom yemaysizlar?
- Bahosini bilmasdan turib, yemaymiz, - deyishdi mehmonlar.
- Bahosi shuki, yemoqdan ilgari "Bismillohi"B deyish, taom qilgandaB "Alhamdullillohi" deyish shartdir, - dedi Ibrohim alayhissalom.
- Bizlar ovqatlanishga muhtoj emasmiz, - deyishdi ular.
- Keyin Ibrohim dilida ulardan qo'rqinch paydo bo'ldi.
- Qo'rqmagil, - deyishdi ular taskin berib. - Bizlar farishtalarmiz. Senga sevinchli habar keltirdik Soradan o'g'il bo'lar. (Oyat) "Va ular Ibrohimga bir olim bola bashoratini beradilar". (Oyat)B "Sevinchlik habar berdik biz u xotinga (Soraga) Isho- bilan Ishoqning o'g'lini oti Ya'qub bo'lsin".
- Ie, men tug'amanmi? Axir men kampir bo'lsam, erim ham munkillagan chol bo'lsa . . . - dedi Sora bu habarni eshitib, hijolat tortganicha. - shu paytga qadar farzand ko'rmadim, Ibrohim ham qarib qoldi, qaerdan ham o'g'il ko'rarmiz.
- Sen Ollohnig qudratidan taajub qilasanmi? - dedi Jabroil alayhissalom. So'ngra Soraning qo'liga bir quruq yog'ochni berdi. U quruq yog'och Soraning qo'lida jonlandi, yaproq yozdi. Jabroil alayhissalom yana shunday deb qo'shib qo'ydi. - Ey Sora, seni qo'lingda quruq yog'ochni ko'kartirgan Olloh taolo qarigan chog'ingda o'g'il bersa ne ajab?!
- Sizlar kim bo'lasizlar? - so'radi Ibrohim alayhissalom,
- Men Jabroilman, bu Makoil, mana bu o'navlari farishtalardir, - deyishdi.
- Nima yumush bilan keldingiz? - dedi Ibrohim alayhissalom.
- Nopok Lut qavmini halok qilgani keldik, deyishdi ular. - Balodan Lutning xotinidan boshqa hamma ahli oilasi omon qolgusidir.
- Ularning orasida yuzta musulmon odam topilmaydimi?
- Agar ularning ichida yuzta musulmon bo'lganida edi, Olloh taolo bu qavmga balo yubormagan bo'lar edi, - deyishdi.
- hech bo'lmasa o'nta musulmon yo'qmidi?
- O'n musulmonbo'lganida bu balo kelmasdi.
- Loaqal, bir musulmon ham yo'qmidi?



- Bir musulmon bo'lganida ham halok bo'lmasdilar.

Bu gapdan so'ng Ibrohim alayhissalom yig'lashy boshladi. Shunda farishtalar: -

- U yurtda bir xonadondan tashqari musulmon bo'lmadi, u xonadon ham Lut payg'ambarinikidir.

- Ey Jabroil, sizlar u joyda farmonni bajarganlarning chog'da men Lutdan behabar qolarmanku! - dedi Ibrohim alayhissalom.

- Shundan so'ng Jabroil, Makoil alayhissalomlar va o'n farishtalar chodirdan chiqdilar va zum o'tmay Lut yurtiga yetib keldilar. Shunda Ibrohim alayhissalom bilan Lut alayhissalom o'rtaqidagi hamma to'siq pardalar ochildi. Ibrohim alayhissalom bo'layotganbarcha ishlardan habardor qilindi.

Tunning uchdan biri o'tgan edi. O'n ikki farishta yosh va navqiron yigitlar qiyofasida Lutning huzuriga kirib keladilar. Jabroil alayhissalom eshikni qoqdi. Eshikni ochgan Lut alayhissalom kelishgan, yosh yigitlarni ko'rib, gunohkor qavmning mehmonlarga ozor yetkazib qo'yishlari mumkinligidan qo'rqib ketdi. (Oyat) "Vaqtiki, bizning elchilarimiz Lutning qoshiga keldilar, ularning kelishidan u g'amgin bo'ldi va yuragi siqildi".

- Ey Lut, mehmonlarni qarshi olmaysanmi? - dedi Jabroil alayhissalom.

- Taom hozirlang, - dedi Lut ularni uyga kiritar ekan qizlariga qarab. - Mehmonlarni siylaylik, tong otmasdan bu yerdan chiqib ketsinlar, toki bu yovuzlar bilmay qolsin.

Qizlar taom hozirlaguncha Lutning xotini Voila (unga Ollohning la'nati bo'lsin) o'z odatiga ko'ra uyga mehmonlar kelganini yovuz qavmdoshlariga bildirish payida bo'ldi. U uyda mehmonlar borligini kofirlar bilsinlar, deb olov yoqdi. Yana aytishlaricha, u uyma-uy yurib, habar bergan. Bir payt Lutning xonadoni kofirlar bilan to'lib ketdi. (Oyat) "Lutning qavmi uning qoshiga shoshilib keldilar".

- Sizlar uchun mening qizlarim pokizaroqdir, - dedi Lut ular orasida nari-beri yurarkan. - Qizlarimni olingu, mehmonlarimga tegmanglar.

Bundan ish chiqmagach, kofir-yovuzlarning ikki yetkachisi oldiga bordi.

- manavi ikki qizimni xotinlikka olinglar, mayli roziman. Bularni daf etsangiz bo'ldi, - dedi Lut alayhissalom.

- sen yaxshi bilasanmi, bizni sening qizlaring bilan ishimiz yo'q, murodimiz o'zingga ayon, - deyishdi kofirlar.

- hududan qo'rqinglar. Mehmonlar oldida meni sharmanda qilmanglar. Ichlaringda birorta to'g'ri yo'lni topib olgan odam yo'qmi? - dedi Lut.

- Ey Lut, so'zni ko'paytirmaginda, mehmonlaringni bizga bergin. Agar bermasang, biz ularni majburan tortib olamiz, - dedi kofirlar.

Lut yig'lagan kuyi uyga kirdi.

- Nima uchunyig'layapsan, - so'radi Jabroil alayhissalom, ammo Lut alayhissalom ularning maqsadini aytmoqdan hijolat bo'ldi, qiynalid. - Qo'rqmagin, biz Olloh taoloning farishtalarimiz, seni zolimlardan qutqarish uchun kelganmiz. Ular hargiz maqsadlariga yeta olmaydilar.

Jabroil alayhissalom o'rnidan utrdi, bir hovuch tuproq oldi-da, mehmonlarni tutib olmoqchi bo'lib, uy ichiga bostirib kirgan qavm ustiga sohib yubordi. To'rt yuz kishining hammasi ko'r bo'ldi.

- Ey Lut, sehrarlarni olib kelibsan, - deyishdi kofirlar. - Shoshmay turgin, hali ular ketishsin, ko'radiganingni ko'rasan.

hayal o'tmayo el ichida "Lut jodugarlarni chaqrib kelibdi", degan habar yoyildi va katta g'avg'o chiqdi. Lut alayhissalom bundan yanada qo'rqib ketdi.

- Bu ishning oxiri nima bilan tugarkin-a? - dedi lut.

- Biz bularni haolk qilib, seni qutqarmoq uchun kelganmiz, - dedi Jabroil alayhissalom.

- Qachon halok qilursan? - so'radi Lut.

- Tong otar chog'da.

- Qachon tong otadi?

- Tong yaqin qoldi, - dedi Jabroil as.

- Ey Jabroil, yerni teskari qilgil, ostidan chiqqil! - degan farmon bo'ldi. Farmon bajarildi. Na biror er yo xotin uyqudan uyg'onishmadi. Bolalar beshiklaridan ayrilmadilar. ichidagi bir qatra suvi to'kilmagan holda idishlar teskari bo'ldi.

- Ey Jabroil, bularnik o'targan senmi yo menmi?! - deganxitob keldi. Jabroil alayhissalom sajdaga bosh qo'ydi va "Iloho, tavba qildim", dedi. So'ng osmonlarni larzaga keltirib, na'ra tortdi. Ollohning qudrati bilan barchalar kun yorigunicha qolmay halok bo'ldi. (Oyat)B "Ul mamlakatni ostin-ustin qilib yubordik. Ularning ustilaridan sopol toshlarni ustma-ust yog'dirdik. Parvardigor nazarida u toshlar bilan qaysi kofir nishonga olingan edi va bu toshlar zolimlardanuzoq emas edi".

### Ya'qub Alayhissalom Qissasi

Ya'qub Isroilloh ibn Ishoq Safiyulloh ibn Ibrohim halilulloh juda ko'rkam va baquvvat kishi edi, quvvatiga quvonardi. Olloh taolo undan manmanlikniketkazdi. Rivoyat qilishlaricha, bir kecha u qo'y-qo'zilari va mol-hollarini yaylovga olib chiqadi, o'z ishi bilan mashg'ul bo'ldi. Olloh taolo bir farishtani o'g'ri qiyofasida yuboradi. Shunda Ya'qub alayhissalom u bilan yoqalashib qoladi. Farishta uni ko'tarib, yerga uradi. Shunda u "agar Olloh taolo meni bu darddan xalos qilsa, qaysi yemish va ichimlik menga suyimli bo'lsa, o'shani o'ziga harom qilaman", deya nazr qiladi. Olloh taolo shifo ato etadi. Yemishlardan tuya go'shtini,

ichimliklardan tuya sutini hush ko'rardi u. Bu ikkisini nazrga binoan o'ziga harom qildi. Shundan beri uning avlodlari uchun bu ikki ob-ovqatni yemaslik sunnat bo'lib qoldi. Ular o'zlarini ovutmoqchi bo'lib, "Bu narsalar hamma payg'ambarlarga Odamatodan beri harom bo'lib kelgan", dedilar. Olloh taolo ularning bu gaplari yolg'on ekanligini isbotlab, oyat nozil qildi:B "Tavrot nozil qilinmasdan ilgari Isroil farzanlariga o'zlari o'ziga harom qilgan narsalar halol edi".

Savol: Ya'qub alayhissalom nima sababdan Isroil deb ataldi?

Javob: "Isr" so'zining ma'nisi asir deganidir, o'sha paytda shayton asir qilingandi. Bu so'z o'shandan qolgandir.

Hikoyatda kelishicha, Ya'qub alayhissalom Bayt-ul Muqaddasda xizmatda bo'lib, uning olti yuzta chiroqlarini yoqardi. Shayton alayhil-la'na esa har kecha kelib, chiroqlarini o'chirib ketardi. Aytishlaricha, bu hol ko'p davom etdi. Bundan bezor bo'lgan Ya'qub alayhissalom bir kechasi poylab turib, Shayton chiroqlarini o'chirayotgan paytdi bir sakradi-da, uni tutib oldi, bo'yniga zanjir soldi, asirga oldi. Shuning uchun Isroil ataldi.

Yana bir jacob shuki, Isr qul degani, Il esa Tangrining ismidir.

Ya'qub alayhissalomning o'n ikki o'g'li va qizi bor edi. Koifr podsholardan biri qizini so'ratib, odam yubordi. Ya'qub alayhissalom ko'nmadi.

«B» "Qizingni mengabermading, endi sen bilanayovsiz jang qilaman, - dedi podishoh.

Uning qo'shini behisob edi. Shundafarmon keldi:

- Kofirlarni halok qilmog'imni istasang, ularni halok etib, seni g'olib qilayin. Istamasang, o'z odamlaring bilan halok qilgin!

- Qay birini tanlaysiz, - dedi Ya'qub alayhissalom o'g'illariga qarab.

- Bizlarni qolib qilsun, - deyishdi ular.

Ya'qub alayhissalom duo qildi. Oллоh taolo kofirlarning barini yer ostiga ravona qildi, halok etdi.

Yana bir podishoh ham qizini so'rab keldi.

- Mening shariatimda bir sunnat ish bor, - dedi Ya'qub alayhissalom. - Butun qo'shining bilan shu ishni bajarsang, mayli qizimni berayin.

- U sunnat ish qaysidir? - so'radi podishoh.

- U sunnat ish - hatna qilmoqlikdir, - dedi Ya'qub alayhissalom.

Podishoh rozi bo'ldi, o'zini ham, qo'shinlarini ham xatna qildirdi. Ular xatna qilgan holda og'rib yotganlarida Ya'qub alayhissalom o'g'illari bilan ustilariga qilich tortib keldilar va hammasini qirdilar.

Yana ulamolarning aytishlaricha, O'dning Shaddot ismli o'g'li bo'lar edi. Uerning ustida jannat qurdirdi-yu, undan bahramand bo'lish o'ziga nasib etmadi. Shaddotning Imloq ismli o'g'li, Ya'qub alayhissalom bilan zamondosh edi, ming beklargabosh bo'lgan.

- Menga sahra qo'ynida kengbir soz tuproqli tekis yer hozir qiling, dedi u beklarni to'plab.

Beklar ishga kirishdalar. Joy tayyor bo'lgach, Imloq kelib o'lchab ko'rди, keyin o'n ikki yig'och yerni kavlatda va suvga to'latdi. hovuzning o'rtasini tosh bilan ko'tarib chiqib, ustiga qizil toshdan supa qurdilar. Kengligi ham balandligi qirq qari edi.

har birini o'n yigit qo'riqlab yuradigan o'n ming vaziri bo'lar edi. Ularning har birining ihtiyorida o'n ming jangchisi bor edi.

hosil qilingan supaning Qutrum shahristoni deb atadilar va supa ustiga bir saroy barpo etdilar. Saroyning g'ishtlari biri oltindan, biri kumushdan yasaldi. So'ngra supa ustini bo'stonlar, bozorlar bilan to'ldirdilar. Saroyning o'rtasi esa balandligi ikki yuz arshin bo'lgan tomoshagoh qurdirdi.

O'sha shahristonda to'rt eshik qurdirdi. Darvozalar balandligi yigirma to'rt arshinedi. Qurilish nihoya topgach, saroyga ko'chib kirdi va taxtini egalladi.

Qaysi bir yili Kan'on diyorida qahadchilik bo'ldi. "Qutrum shahristonida oshliq sotishyapti", degan habarni eshitgan Ya'qub alayhissalomning o'g'illari yo'lga otlandilar. O'n kunlik yo'lni bosib, Qutrumga kelishdi. Minorasida o'tirgan Imloqi la'in Ya'qub o'g'illarining tuya minib kelayotganini ko'rди. Qarasaki, boshlarida bir parcha oq bulut soya tashlab turardi. U bulutga qaragan imloqi la'inB "Laa ilaaha illallohi Muhammadur rasulullohi" yozuvini ko'rardi. Yigitlarni olib kelmoqlik uchun vazirlarni jo'natdi.

- Podishoh sizlarni chaqirtirmoqda, - deyishdi vazirlar.

- Biz Oллоh payg'ambarining ishini tamom qilmaguncha bormasmiz, - deb javob berardi Yahudo.

Vazirlar bu gupni podishohga yetkazdilar. Imloqning o'zi kelib, bo'ylari, husnlari birdek bo'lgan o'n yigitni ko'rib, hayratlandi.

- Sizlar kimsizlar? - so'radi podishoh.

- Biz o'novimiz qarindoshlarmiz, Ya'qub payg'ambarning o'g'illarimiz. Otamiz ihoq payg'ambar, Yanada ulug' bobomiz Ibrohim alayhissalomdir.

Kan'ondan yegulik olish uchun kelganmiz, - dedi Yaxudo unga javoban.

- Boshqa qarindoshlaringiz ham bormi? - so'radi yana podishoh.

- Yusuf va ibn Yamin degan yana ikki birodarimiz ham bor, - deyishdi.

- Men erkak qarindoshingizni emas, qiz qarindoshingiz bor-yo'qligini so'rayman, - dedi podishoh.

- Bitta qiz singlimiz bor, - deyishdi.

- Unda singillaringizni menga beringlar, otangizni va yana sizlarni ham mol bilan siylagayman, hammadan ko'ra boy qilaman, - dedi podishoh.

- Sizlar nima deysizlar? - deya Yahudo birodarlariga boqdi.

Bu gapdan Sham'un bilan Rubil achchig'landilar. Ya'qub alayhissalom farzandlari achchig'lansalar, o'sha viloyatni harob qilmaguncha jahldan tushmasdilar, qachonki Ibrohim alayhissalom urug'idan kimdirularning orqasini silamaguncha achchig'lari pasaymasdi. Yahudo ko'rдиki, ikki birodari achchig'landi. Shunda u "Qutrum shahristonni vayronqilsalar mashaqqatimiz yengil bo'lmaydi", deb o'yladi-da Rubilning orqasiga qo'lini qo'ydi, jahldan tushdilar.

- Ey podishoh, o'g'ling sen bilan maslahatlashmay turib, qizingni birovga bera oladimi? - so'radi bosliqlik bilan Yahudo.

- Yo'q.

- Bizning ham otamiz hayot. Boraylik, so'zlaringni yetkazaylik, otamiz nima desa shu bo'ladi, - dedi yahudo.

Podishoh bu so'zdan sevindi. O'nta tuyada bug'doy, o'nta tuyada unortib, yana ming kumush tanga, o'n botmon ifor, o'n botmon anbar, o'n botmon kofur in'om etdi.

Bu narsalarni otangizga yetkazing va ushbu so'zlarimni ham ayting: "Men seni otalikka qabul qildim, sen ham meni o'g'illikka qabul qilg'il. So'zimni eshitiboq to'g'ri oldimga kelgil, qizingni menga bergil!" - dedi podishoh.

- Podishoh bizga shuncha molni in'om qildi va yana sen uchun ham bir qanchasini tuhfa qildi, - deyishdi o'g'illari otasi huzuriga qaytib kelib.

- Mendan ilgariga hech bir payg'ambar qizini kofirga bergani yo'q edi, - deya yig'ladi Ya'qub alayhissalom bu so'zlarni eshitib.

- O'zing bilguvchisan, - deyishdi o'g'illari.

Bu so'z bo'lib otgandan bir oy keyin Imloqdan shu mazmunda maktub keldi: "Bu noma buyuklar buyugidan, podishohlar podishohidan, kiborlarkiboridan, ulug' mamlakatlik, ulug' qo'shinlik Imloqdan ul tuban, faqir va haqir Ya'qubga tegsin. Ushbu noma tegishi bilan qizini menga tayyorlab qo'ysin. Agarbunga ko'nmasa, men borib, yurtingni buzarkan. Seni o'g'illaring bilan qo'shib o'ldiorarman, qizingni tortib olaman. Payg'ambarliging senga foyda bermas, chunki yer tangrisi menman (og'zingga tuproq). Osmon tangrisining men bilan nima ishi bor".

Maktub Ya'qub alayhissalomga kelib tekkach, o'g'illarini to'plab, o'qib berdi. O'g'illari o'yga toldilar va:

- Ey ota, o'zingga ham, bizga ham zulm qilmagil, Kan'onni vayroq qilmag'il, qizingni podishohga beraqolgil, - deyishdi.

Bu gapdan Ya'qub alayhissalom hafa bo'ldi va Yahudoga dedi:

- Noma javobini yozgil. "Bismillahir rahmanir rahim. Men Ya'qub Isroilulloh ibn Ishoq Safiyulloh ibn Ibrohim Halilullohdan dunyo va oxirat badbaxti Imloqi la'inga. Bilgilki, hech bir payg'ambar qizini kofirga bergani yo'q, men ham bermasman. Agar "Laa iaaha illallohu Ya'qubi rasulullohi" (Yagona Oллоhdan o'zga ma'bud yo'q va Ya'qub Oллоhning elchisidir) desan u yog'i

Olohgga havola qilingusidir".

Maktub yozilib, muhrlanib Imloqqa jo'natildi. Maktubni6i olgan Imloqning yuzi g'azabdan sarg'ayib ketdi. O'q ikki ming beklariga qaradi.

- Ey podshoh, kuching, qo'shining bor, g'am chekma. Farmon bo'lsa, biz borib, qizni olib kelamiz, - deyishda beklari.

Shundan so'ng qo'shin to'plash boshlandi. Podshoh o'n ikki ming beklari hamrohligida otlandi.

- Nima qilamiz? - deyishdi o'g'lonlar.

Ya'qub alayhissalom yig'lab, Olohd taologa yolvord. Shunda Jabroil alayhissalom farmon keltirdi:

- Ey Ya'qub, Olohd taolo senga salom aytdi va dediki: "O'g'lonlaringga ayt, qo'rqmasinlar, men sizlarga madadkorman. Ey Ya'qub, qizing mening huzurimda azizdir, uni dushmanga bermagayman, kofirni payg'ambarim ustidan hukumronlik qilishiga yo'l qo'ymayman. O'g'illaringga ayt, ertaga kofirlar bilan yuzma-yuz chiqsinlar, jang qilsinlar. Men qudratimni ko'rsaturman".

Bu mujdadan Ya'qub alayhissalom behad shod bo'ldi, o'g'illarini jangga chiqmoqqa amr qildi.

- Ey ota, biz o'novimiz ming-ming kofirlarga qarshi qanday jang qilamiz, - deyishdi o'g'illari.

- Men sizlarga bir qurol bermanki, kim u bilan jang qilsa, tangri dushmanlari ustidan zafar qozongay, - dedi otalari.

- Otajon, amringga itoat etamiz, - deyishdi o'g'illari.

Ya'qub alayhissalom sandig'ini ochdi. Undan Odami safiy choponini olib, Sham'unga berdi. Shis alayhissalom choponini olib, Rubilga berdi. Ibrohim alayhissalom qo'chqorning shoxini olib, Yag'sarga berdi. Muso alayhissalom hassasini olib, Yahudoga berdi. Yahudoni to'qqiz o'g'illariga bosh qildi, ular kunday porlab, oyday nurlanib, maydonga chiqdilar.

- Ya'qub o'g'lonlari nima uchun chiqdilar, bilinglar, - dedi ularni ko'rgan Imloq beklariga buyurib. - Agar tinchlik bilan chiqqan bo'lsa, tegmang, jangga chiqqan bo'lsa, o'nalasining ham boshini kesib, menga olib keling.

- Nima maqsad bilan keldingiz, - deyishdi o'n ming yigitlari bilan yetib kelgan beklar.

- Jang qilgani keldik, - deyishdi. Bundan vazirning jahli chiqdi.

- Yuzma-yuz turing! - buyurdi Yahudo. So'ngra o'zi safning oldiga o'tdi-da, tayog'ini osmonga irg'itib, Yana tutib oldi (bu odat Yahudodan qolgan bizlarga). Keyin nido qildi, to'qqiz ukasi ham unga qo'shildi. Osmondan turib farishtalar ham nidoga qo'shilishdi. Bu hayqiriqlar haybatidan o'n ming dushman askarning yuraklari yorilib o'ldi.

- Nima bo'ldi, qo'shining ovozi eshitilmay qoldi, - so'radi podshoh.

- Ey podshoh, o'n o'g'lon nido qilganda uning dahshatidan o'n ikki ming askarimiz halok bo'ldi, - deyishdi.

Podshoh beklariga yuzlandi. Endi yigirma to'rt ming Askar bilan jangga kirdilar.

- Ey Ma'mun, sening galing keldi, - dedi Yahudo.

Sham'un oldinga chiqdi va "Laa ilaaha illallohi Ya'qubi rasulullohi", dedi. Qo'shnilar Sham'unga tashlangandi, u nido qildi. Shunda osmondan o't tushib yigirma to'rt ming askarni kuydirib yubordi. Buning habarini eshitgan podshoh filiga minib, Yana o'n ikki ming beklari bilan jangga o'tlanib keldi.

- Kelinglar, bir yo'la takbir aytaylik, - dedi Yahudo birodarlariga.

Olohd taoloning farmoni Bilan to'rt saf farishtalar tushdilarki, har bir safda qirq mingta farishta jamlangandi. Ya'qub o'g'lonlari yerda, farishtalar osmonda birgalikda jangga kirdilar. Kofirlar bularni ko'rib, qo'rqib qochib ketdilar. Imloqning bir o'zi qoldi. Bir fursatdan so'ng yetib kelgan payg'ambarzodalar Imloqni Saroy ichida topdilar.

- Ey mal'un, tangri qudratini ko'rding, endi "Laa ilaaha illallohi Ya'qubi rasulullohi", deb takbir aytgin, - deyishdi ular. Imloq unamadi. Shundan Sham'un sog'olidan tortib, taxtdan tushurdi va otasi oldiga keltirdi.

- Tahlil aytgil, - dedi Ya'qub alayhissalom Imloqni ko'rgach.

- Ey Ya'qub, men bu kun sening qo'lingda asirman, hohlaganingni qilgil. Men uchun sendan va sening tangringdan dushmanroq hech Kim yo'q, - dedi imloq.

- Ey Imloq, agar imon keltirganingda edi, Olohd taolo senga yana ziyodi bilan mulk berardi va ertasi kuni jannatdan ham o'rin bergan bo'lardi, - dedi Ya'qub alayhissalom.

- Menga fursat bergil, uyimga borayin. Sening tangring menga davlat beradimi-yo'qmi, ko'rayin, bersa imon keltirayin, - dedi Imloq.

- Ey Ya'qub, tangri taolo farmon qildi, fursat bergil, - dedi Jabroil alayhissalom payg'om keltirib.

- Qancha fursat kerak senga, - so'radi Ya'qub alayhissalom.

- O'n yil.

Imloqni qo'yib yubordilar. U qaytib kelib, taxtiga o'tirdi. Olohd taolo o'n yil ichida unga bir-qancha mulk, davlat berdi, yigirma to'rt ming sarkardalari bo'ldi. Fursat tamom bo'lgach, Jabroil alayhissalom farmon olib keldi:

- Ya'hudoni Imloqning oldiga yuborgil, imon keltirsin!

- Ey mal'un, senga berilgan fursat tamom bo'ldi. Olohd qudratini ko'rding, mulk-davlatli ham bo'lding. Endi imon keltirgil, - dedi Ya'hudo podshoh huzuriga borgach.

- Ey Ya'hudo, sen elchisan. Agar elchilarni podshohlarga or bo'lmaganida edi, boshingni kesib, etlaringi fillar oyog'i ostiga tashlar edim. Otangga borib aytgilki, o'tgan gaplarni unutsin, yaxshilikcha qizini menga yuborsin. Agar ko'nmasa, hozir bo'lib tursin, qo'shin tortib borurman. O'g'illaringni o'ldiraman, xalqingni ot tuyoqlari ostida halok qilaman, qizingni tortib olaman. Ko'rayin qaysi tangri sengma madad qilarkin, - dedi Imloqi la'in.

Yahudodan bu gaplarni eshitgan Ya'qub alayhissalom Olohd taologa munajat qildi. Shunda Jabroil alayhissalom farmon olib keldi:

- Ey Ya'qub, Olohd taolo senga salom yo'llab, dediki: "men halimman, shoshilmasman. Yahudoga aytgil, Yana borsin. Imloqqa Mening birligimni va sen mening payg'ambarim ekanligingni yetkazsin".

- Ey mal'un, bilgilki, Olohd yakkayu-yagonadir, otam Ya'qub uning payg'ambaridir, - dedi Yahudo Imloq huzuriga kelib.

Imloq bundan behad achchiqlandi, qo'shin to'pladi. Qishinning adadi yigirma to'rt mingdan yigirma to'rt guruh bo'ldi. O'zi filga minib, Kan'onga yaqin joyga kelib tushdi. Buning habarini eshitgan Ya'qub alayhissalom yana tashvishlandi, Olohndan madad tiladi. Jabroil alayhissalom "Bu kecha u mal'undan senga yomonlik beraman", degan payg'om keltirdi. Tunda shamolga "Esgil" deb, amr etildi. Tongga borib podshohdan asar qolmadi, uning butun hashamati yer ostiga kirdi. Jabroil alayhissalom Olohd amri BilanB "Qutrum shahristoni"ni yer Bilan qo'shib, ostin-ustin qilib tashladi.

- Ey Ya'qub, Olohd buyurdiki, Imloqning mol-mulkini, oltin-kumushlarini olgin. Qolganlarini esa o'tga yoqqil, - degan farmon keltirdi Jabroil alayhissalom. Ya'qub alayhissalom bu farmonni o'g'lonlari Bilan to'kis ado etdi.



Yusuf Siddiq Alayhissalom Qissasi

Olloh taolo kitobi qadimda, Qur'oni azimi munavvari karimda habar berib yorlaqadiki, (Oyat) "Biz senga bu uzun va axsan (eng yaxshi) qissani bayon qilmoqchimiz".

Savol: "Axsan" demakda nima hikmat bor?

Javob: Qur'on ichidagi hamma qimssalardan kattaroq, foydasi ziyodaroq qissa - Yusuf qissasidir. Shu boisdan ahsan qissa deyiladi. Ikkinchi javob shuki, bu qissa boshidan ohirigacha qirq yil (ba'zi manbalarda sakson yil) davom etgani uchun ham shunday nomlangan. Uchinchi javob shuki, boqa qissalar turli suralarda keldi, ammo Yusuf qissasi to'laligicha bir surada keldi. To'rtinchi javob: boshqa qissalar voqeotlari yod kishilar orasida kechadi. Bu qissa esa ota-ona va birodarlar orasida kechgani tufayli ham eng yaxshi qissa deyiladi. Beshinchi javob: bu qissada rohatda, mashaqqatda, Olloh toatida, haloyiqlar orasidagi ezgu muomala, ozodlikdagi va bandilikdagi holatlar borligi uchun ham yaxshi qissadir. Oltinchi javob: Yusufning qarindoshlari bilan yaxshi muomalada bo'lgani, ularning jafosiga sabr qilgani uchun. Yettinchi javob: bu qissaning avali ham, o'rtasi ham, ohiri ham tush bo'lgani uchun. Sakkizinchi javob: bu qissa ishq bilan tamom bo'lgani bois yaxshi qissa deyiladi. To'qqizinchi javob: Rasul alayhissalom dedilarki, kimki o'n baloga yo'liqsa o'n surani o'qisin: vasvasa mendan ketsin desa "Alhamdu" B surasini, o'g'rilardan omon bo'layin desa "Baqara" surasini, qashshoqlikdan qutilayin desa "Oli Imron" surasini, qayg'ular menga harom bo'lsin desa "Allam nashrax" surasini, kufr va shikrdan yiroq bo'layin desa "Ixlos" surasini, sehr-jodulikdan omonlik istasa "Falaq" va "Nas" suralarini o'qisin. Agarki bu o'n balolar mendan nari bo'lsin desa "Yusuf" surasini o'qisin. Negaki, bu o'n balolar hammasiB "Yusuf" surasida bordir.

Deydilarki, Ya'qub alayhissalomning olti xotini bor edi. Ularning har biridan ikkitadan, jami o'n ikkita o'g'li bo'ldi.

LATIFA. Yuqori osmonda o'n ikki burj mavjud. Bu burjlar quyidagilardir: qo'y (hamal), sigir (savr), egizaklar (javzo), qisqichbaqa (saraton), arslon (asad), boshhoq (sunbula), tarozi (mezon), chayon (aqrab), yoy (qavs), tog' echkisi (jadiy), qovg'a (dalv), baliq (hut). Bu o'n ikki burjda yettita yulduz bo'ladi. Ular qaysilar? Bular: Zuhal (Saturn), Mushtariy (Yupiter), Mirrix (Mars), Shams (Quyosh), Zuhra (Venera), Atorud (Merkuriy), Qamar (Oy).

Quyi osmonda bu yetti yulduzdan o'n ikki burj paydo bo'ldi. Yetti yulduz degani shunga ishoraki, Ya'qub alayhissalom va olti xotini Shavsha, Za'ura, Sunbula, Qamar, Habiba, Rahil bilan yettilikni tashkil qilar. O'n ikki yulduzlar shuki, bular Ya'qub alayhissalomning o'n ikki o'g'illari - Rubil, Loviy, Sham'un, Yahudo, Joda, Don, Yag'sar, Yastoxir, Zabotuq, Qozur, Yusuf, Ibn Yaminga ishoradir.

Yusuf o'n birinchi o'g'il edi. Olloh taolo unga o'n karomatni ato etdi. Bular - chiroy, yaxshi qiliq, uzrhonek (kechirimlilik), payg'ambarlik, tushni ta'birlash, to'g'ri so'zlik, omadlilik, yaxshi oqibat (natija), mushkulotlarni yecha olish, Ibrohim alayhissalom kitoblar sharhini bilmoqlik.

Rivoyat qilishlaricha, Misr xalqi yetti yil qahatchilikka muhtalo bo'ldi. Ular molini, dunyomini, mulkini, asbobini, qulini, ko'nglini Yusufga sotib, yegulik olardilar. Bora-bora omborlarda yegulik narsa qolmadi. Yangi xosil pishishiga esa to'rt oy qolgandi. Shunda odamlar Yusuf alayhissalomning uydan chiqqanligini idrok etardi. Kimki Yusuf alayhissalomga boqsa, huddi ko'zguga qaraganday o'zini ko'rardi. U taomni yutsa, bo'g'izidan to xalqumigacha ko'rinib turardi. Qorong'u kechada u kunday bo'lib ko'rinardi. Manglay nurlaridan "Shoqiyu an-ni'mon deb nomlangan chechak uyalardi.

Yusuf bilan ibn Yamin ismli ayoldan tug'ilgan edilar, kichiklik paytlarida onalari vafot etadi. Ya'qub alayhissalom bular erda yetim qoldilar, Deya aka-ukaga ko'proq shavqat ko'rsatadi. Ammo Yusufni o'zgacha sevar, usiz yura olmas edi.

Yusuf yetti yoshga kirganda bir tush ko'radi: birodarlari bilan sahroga chiqadilar, qo'llaridagi tayoqlarini yerga suqadilar. Shunda hamma tayoqlar ko'karadi, ammo uzoq yashamaydi. Yusufniki esa ko'karadi, gullaydi, bo'yi birinchi osmonga qadar yetadi. Yana aytishlaricha, birodarlarining tayoqlari kelib, Yusufning tayog'iga sajda qiladilar.

Yusuf bu ko'rgan tushini birodariga aytgandi, u borib boshqalariga aytadi. Bu tush ularga yoqmadi. Shunda:

- Ko'rmasanmi, bu Rohilning o'g'li otamizga yana ham sevimli ko'rinmoqni istaydi, - deyishadi.

Ikkinchi kecha yana tush ko'radi: O'n bir yulduz, quyosh va oy yerga tushib, Yusufga sajda qildilar. Yusuf bu tushini ham otasi Ya'qub alayhissalomga so'ylab beradi.

Aytishlaricha, Bo'ston degan juhud payg'ambarimiz Muhammad alayhissalomdan so'rabdi:

- Yusufga sajda qilgan o'n bir yulduzning ota nimadir?

- O'sha yulduzlarning otini aytib bersam, imon keltirarmisan? - dedi payg'ambar alayhissalom.

- Mayli, shundan keyin, - dedi juhud.

- Ul yulduzlar - chizon, toriq, qoyis, handuq faylaq, musabbih, vassob, rayyol, zayyol, zulmudon, zulfara', zulkitofon. Bu o'n bir yulduz quyosh va oy bilan birgalikda osmonning etagida, ko'kdan tushib, sajda qildilar, - dedi payg'ambar alayhissalom.

«B» Ollohga qasamkim, Tavrot ichida shunday deb o'qigan edim, - dedi juhud va imon keltirdi.

O'g'li tushini eshitgan ota shunday maslaxat berdiB :

- Ey yusuf, tushlaring juda hayrli erur, uni birodarlaringga aytmagil, senga dushman bo'lib qoladilar, Shayton odamzot uchun ochiq dushmandir.

Bu so'zlarni Rubilning onasi Qamar eshitib turgandi, borib o'g'liga aytdi, u esa akalariga bildirdi. Bu so'zni eshitgan Ya'qub o'g'onlarining nafrat-hasratdan bo'yin tomirlari bo'rtib chiqdi, terilari jimirlashdi va tuklari tik turdi.

- Rohilning o'g'liga teng emasmizmi, otamiz uni bizdan ortiq suyar, o'ziga yaqin tutar. Bu ham yetmaganday, u o'zini ortiqroq sevdirayin deb tush ko'rganligini yolg'ondan so'zlar. Biz bo'lsak tunu kun sahroda mol-qo'y boqsak, mehnat-mashaqqat cheksak hamki, unga teng bo'lolmasmiz, - Deya o'g'lonlari torindilar. So'ngra kengashdilar - Yo Yusufni o'ldiraylik, yo shahardan uzoqroqqa badarg'a qildiraylik. Shunda otamizning muhabbati bizga xos bo'lsa ajabmas.

Savol: Yusufni o'ldiringlar yoki uzoqroq bir yerga olib borib tashlanglar, degan Kim edi?

Javob: Birodarlari bir-birlariga aytganlar. Yana bir javob shuki, Bu so'zni shayton so'zlagandi. U keksa chol qiyofaida kelib ularga:

- Yusuf sizlarning qullaring bo'lishga loyiq, - dedi.

- Buning uchun nima qilaylik, - deyishdi birodarlari.

- O'ldiring yoki shahardan olisroq yerga yashiring. Uni qo'sh-\*qumrsqalar yesa, otangiz muhabbati sizlar tomon burilgay, - dedi shayton.

- Yusufni o'ldirsak, otamizga va Olloh taolaga osiy bo'lamiz, - deyishdi ular.

- Bu ishni qilgach, tavba etsangiz Olloh taolaga osiy bo'lmagaysiz, (Oyat): "Va shundan keyin yaxshi bir qavm bo'lasizlar", - dedi

shayton va shularni so'zlagach, g'oyib bo'ldi. Bu gapni muhokama qila boshladilar.

- Bu niyatdan qayting, Yusufni o'ldirmang, uni biror tashlandiq quduqqa tashlangalarki, zora yo'lovchilar olib ketsa, - dedi birodarlaridan biri.

Savol: Bu tadbirni o'rgatgan kim edi?

Javob: Aytishlaricha, Rubil edi, chunki u hamalaridan kattarog'i va xolasining o'g'li edi. Yana ba'zilarning aytishlarcha, Yaxudo edi. Ba'zilar Sham'un edi dedilar. So'ngra "Qon to'kmaklik - ulug' gunoh, quduqqa tashlaylik", deb kengashdilar. Maslahat pishgach, otalari qoshiga bordilar.

- Ey ota, kunlar isib qoldi. Bu kun Quyosh otlik sulton Hut degan qishloqdan Hamal degan qishloqqa kirdi. Shu kezda yuksak osmon yig'lar, haqir yer esa kular. Bulutlarning oqizgan ko'z yoshlaridan yer go'yoki onadan Yangi tug'ilgan o'g'lon kabi yashnab, yashil maysalarga burkanar. (Shu joyda Rabzuziyning "Bahoriyot"i berilgan).

Kun hamalga kirdi ersa, keldi olam navro'zi,

Kechdi bahman zamharir qish, keldi olam navro'zi. . .

- Ey ota, bunday safoli kunlarda, suvlar sharqiragan ayyomda Yusufni bizga qo'shgil, gulga burkangan sahraolrni ko'rsin, qo'y-qo'zilarni ko'rib, ko'ngillari yayrasin, qayg'ulardan forig' bo'lsin, - deyishdi o'g'lonlari Ya'g'ub alayhissalomga yolg'on til bilan.

- Ey o'g'lonlarim! Bilasizki, men yusufsiz go'yo suvsiz qolgan baliqman. Bir dam ko'rmasam chidolmasman, sizlarga qo'shib sahroga yuborib qandoq ham chidarman, - dedi otasi.

- Ey ota, bizlarga ishonmaysanmi? Yusufga sen ota bo'lsang, bizlar qarindoshimiz. Sen uni qanchalik sevsang, biz ham uni shunchalik suyarmiz, o'n birodar uchar qushni asraganday asraguvchidirmiz, - deyishdi birodarlari.

(Oyat): "Uni olib ketishlaringiz meni mahzun etar, Men sizlar g'afatda qolib, uni bo'ri yeb ketishidan qo'rqaman", - dedi otalari.

Savol: Ya'qub payg'ambar alayhissalomning "Sizlar ovga borganda Yusufni bo'ri yegay", demoqligiga qanday dalil bor?

Javob: Payg'ambarimiz muhammad alayhissalom deganlarki, "Olloh taolo Ya'qubni Yusuf firoqi bilan yig'latmoqni tilagan chog'da Ya'qubning ko'ngliga havf shahshatini soldi. Bu dahshat vahmidan Ya'qub qirq kecha-kunduz mijja qoqmadi, toat-ibodatdan ayrilmadi, behad azob tortdi. Qirq kecha-kunduz tamom bo'lgach, Ya'qubga uyqu g'alaba qildi, tush ko'rdi: tushida tog' ustida yotganda, Yusuf qo'ynida edi. O'n bo'ri paydo bo'lib, Yusufni qo'ynidan tortib, bo'rilardan birining boshqalarini haydab, Yusufni hujumdan xalos qilganini, so'ngra yer yorilib Yusufning unga tushgani va uch kundan keyin yana chiqqanini ko'rgan edi.

Ya'qubning qo'rqinchiga va yuqoridagi so'zlarni aytmoqligiga sabab shu edi".

Otarlarining Yusufga ijozat bermasliklarini bilgan birodarlari Yusufning oldiga kelib, aldov vam akr-hiyla bilan ko'nglini ovladilar. Yusuf otasi oldiga borib, yalindi, iltimos qildi:

- Meni birodarlarimga qo'shib, sahroga yuborgin, gullagan biyobonni va qo'y-qo'zilarni ko'rayin, ko'nglim ochilsin.

- Ey ko'zimning nuri, belimning quvvati, ko'nglim chirog'i, - dedi yig'lab Ya'qub alayhissalom. - Men seni shunchalik sevarmanki, qarigan chog'imda sensiz qanday chiday olayin.

- Bilamanki, meni ko'p sevarman. Sevmoqlikning alomati shuki, mahbubing tilagiga rozi bo'lishdir. Mening tilagim birodarlarim Bilan borishlikdir, - dedi Yusuf.

- Ey ko'rkam yuzli Yusufim, so'zingni qanday qilib sindirayin! Olloh hukmiga rozi bo'ldim. Ertaga birodarlaring Bilan qo'shib yuborurman, - dedi Ya'qub alayhissalom ruxsat bermakka iloj topolmay. - Bu kecha qo'ynimga olayin, bag'rimga bosayin, ko'rkam yuzlaringga boqib to'yayin.

Ertasi kuni birodarlari kelishdi, Yusufni otalaridan tiladilar.

- Ey o'g'lonlarim, meni Yusufimdan ayrib qo'y-mang. Yusufga yaxshi qarang: ochiqsa ovqat Bering, chanqasa suv bering, toliqsa ko'tarib oling. Yusufni o'z'laringdan yiroq qilmanglar, bo'ri va tulkiga oldirmanglar, yaxshi parvo qilinglar. Sizlarni xudoga topshirdim, - dedi Ya'qub alayhissalom yig'lab turib.

- Ey ota, bu gapni begonalarga aytsang yarashadi, nahotki biz o'z birodarlarimizni ochqatib, chanqatib qo'ysak, - deyishdi birodarlari.

Ya'qub alayhissalom yig'lab yurgan holda Yusufning boshini yuvdi, sochini taradi, yaxshi liboslar kiydirdi, so'ngra duoga qo'l ko'tardi:

- Parvardigoro, Yusufimni senga topshirdim, uni menga tirik qaytargin. Firoq o'tida yondirmagin, - dedi Ya'qub alayhissalom. Shundan keyin Yusufni akalari qo'lga topshirdi. Otalari oldida Yusufni Rubil yelkasiga mindirib oldi. Keyin Yahudo, so'ngra sha'mun, undan Loviy oldi. Ya'qub alayhissalom baland tepa ustiga chiqib, o'g'illarining qorasi ko'rinmay qolguncha termulib, bo'tasidan ayrilgan tuyaday ingranib turdi. Ular ko'rinmay qolgach, bor ovovzida yig'laganicha, uyiga kirib ketdi.

Otalari oldidan uzoqlashgani hamono Yusufni yerga tushirdilar-da:

- Ey rohilning o'g'li, otamizga yaxshi ko'rinish uchun yolg'on tushlar aytganlaring yetmaganday, endi bo'ynimizga minarmisan, o'z oyog'ing bilan yurgil, - deyishdi.

Piyoda holda oldilariga solib, quvladilar. Yo'l qumlik, havo issiq edi. Bechora yusufning oyoqlari kuydi. U qaysi akasi yoniga ko'mak istab kelsa, urib quvladilar, rahm qilmadilar. Shunda horigan, qorinlari ochiqqan, chanqagan Yusuf otalarini shafe' keltirib yolbordi, ammo bunga hech qaysisi quloq solmadi.

- Ey birodarlarim, behad ochiqdim - tamo bering, chanqadim - suv bering, - deya zor-zor yig'ladi Yusuf.

- Borib yolg'on tushingdan so'ragil, senga non-suv bersin, deyishdi. Suv so'rasa - shapati berishdi, non tilasa - musht. Yusuf alayhissalom och-nahor, horib-charchab, qiynalib yurdi, muborak oyoqlari tosh va tikan zahridan yara bo'ldi, yuzu ko'zlari qon va tuproqqa belandi. Akalari oldinroq borib bir tepa ustiga chiqdilar-da, kengasha boshladilar.

- Tosh bilan urib o'ldiraylik, - dedi biri.

- Pichoq bilan so'yib qo'ya qolaylik, - dedi ikkinchisi.

- Borib o'sha yolg'on tushingga ayt, seni qutqarsin! - dedi Rubil yuz o'girib.

Yusuf alayhissalom Rubildan yaxshilik chiqmagach, Sha'munga borib yolvordi, undan ham turtki yedi, yuzi Bilan yerga yiqilib, yanoqlari qumga belandi. Osmonga boqdi - uzoq, yerga boqdi - qattiq. Oh tortdi, endi Yahudo oyog'iga bosh urib yig'ladi:

- Ey Yahudo, bularning hammasidan ko'ra mehribon, oq ko'ngil edinng, zorimga quloq tut, rahm et, - deb qip-qizil yanog'i uzra ko'z yoshlarni anhordek oqizdi Yusuf alayhissalom.

- Ey ukajon, menga yaqinlashmagin, sen bilan so'zlashayotganimni ko'rishsa, meni ham o'ldirgaylar, - dedi mehri tovlana boshlagan Yahudo. So'ngra atrofiga to'plana boshlagan birodarlarini insofga chaqirdi. - Ey qarindoshlarim, kelinglar, otamiz haqqini asraylik, ukamizga yovuzlik qilmaylik, ulug' kunda qanday javob berishimizni o'ylaylik.

Aka-ukalar Yahudoni turli ta'nalar bilan ozorladilar. Buni eshitgan Yusuf alayhissalom yolvorib, zori nola qildi:

- Ey birodarlarim, meni qaysi gunohim uchun o'ldirusiz?!

- Buni o'ldirganimiz bilan yer bizga kengayib qoladimi? Kelinglar, qo'l-oyog'ini bog'lab quduqqa tashlay qolaylik, o'sha joyda o'lib ketadi, - dedi Yahudo.

Shundan keyin maslahatlashib, Yusufni quduqqa tashlamoqqa kelishdilar. (Izoh boshqa manbalarda bu quduq Som ibn nuh qudug'i deb ataladi). Yusufni tutib, quduq tepasiga sudrab olib kelishdi. Shunda u har bir birodarining yuziga bir-bir boqib yolvord:

- Ey birodarlarim, menga rahm qiling. Menga rahmingiz kelmasa, kekxa otamga rahmingiz kelsin. Olloh taolodan qo'rqing!

- Bunday yalinguncha ustingdagi kiyimni yech! - deyishdi unga.

- Ey qarindoshlarim, otam haqqi kiyimlarimni yechib olmanglar. Agar tirik qolsam avratimni o'raydi, o'lib ketsam kafanim bo'ladi. O'tinchim - qo'limni bolamang, toki quduqdagi ilon, chayonlardan o'zimni qo'rigayman, - Deya ko'p zorlandilar, parvo qilishmadi.

- Oy, kunu yana bir yulduzga aytgil kiyim bersin, qo'lingni yechsin, - deyishdi-da, kiyimlarini yechib olishdi, oyoq-qo'lini bog'lashdi. So'ngra belidan arqonga bog'lab quduqqa tashladilar. Quduqning yarmiga yetganlarida arqonni kesib yubordilar. Goh boshlaricha, goh oyoqlaricha, quduq atrofiga urinib-turtinib pastga tushib boraverdilar. Shunda Olloh taolodan Sidrat ul-muntahoda Jabroil alayhissalomga farmon bo'ldi: "Bandamni tutgil!" Jabroil alayhissalom quduq suviga yetmasdan turib tutdilar. Quduq ostida bir oq tosh bor edi. Uni suv ustiga chiqardilar va qanotlari bilan siladilar, tosh muloyim bo'ldi. So'ngra uning ustiga o'tkazdilar, Olloh taolo farmoni bilan jannatdan bir ko'ylak keltirib, kiydirdilar va shunday dedilar:

- Ey Yusuf, Olloh taolo salom yo'lladi va farishtalar durud aytdilar, senga payg'ambarlik keltirdim. Olloh taolo ayturki, mening hikmatimga rozi bo'lib, balolarimga sabr qilsin, najot berib, Misr eliga podshoh qilaman, Yana otasiga qo'shgumdir, - Deya payg'om keltirdi Jabroil alayhissalom va ushbu duoni o'rgatdilar:

"Ey bori Hudoyo! Ey har bir payg'uni ketkazguvchi! Va ey duolar eshitguvchi! Va ey bor mavjudotning ustasi! Va ey har bir siniqni tuzatguvchi! Va ey g'ariblarining hamnishini! Va ey yolg'izlarning munisi! Va ey har bir sirri suhbatning guvohi! Va ey bandaning boshiga tushgan balolardan habardor! Va ey sendan o'zga birorta ma'bud bo'lmagan poko parvardigoro!

Sendan bu tashvishdan chiqish joyinimenga oson va yengil qilishingni so'rayman va mening qalbimga o'z muhabbatini solib qo'yishingni so'raymanki, menda sendan boshqa zikr va qayg'u bo'lmasin va meni o'z hifzu himoyangga olishingni so'rayman va ey mehribonlarning mehribonrog'i, menga rahming kelishini so'rayman".

Jabroil alayhissalom qanoti bilan quduq ichini silagandi bo'ston kabi gullar bilan bezandi. Bu quduq madina bilan misr orasida edi. Kan'onga uch yig'ochlik yo'l edi. Uni Nuh alayhissalomning o'g'li Som qazigandi. Oti "Hubbul-ahyor", ya'ni "Ezgu quduq" demakdir. Quduqning suvi achchiq edi, shirin bo'ldi, qorong'u edi ravshan va muattar bo'ldi. Jabroil alayhissalom Yusuf alayhissalomning qo'l-oyoqlarini bo'shatdi, jannatdan bir tovoqda meva (behi) keltirdi, yedilar, to'ydilar. Quduqning ichida bir so'qir ilon bor edi. Yusuf alayhissalomning ovozi eshitib, bosh ko'targan edi, Jabroil alayhissalom "Ey aziyat berguvchilar, Yusufi siddiq bundan chiqmaguncha bosh ko'tarmang", deb nidro qildi, ilonning qulog'i eshitmaydigan bo'ldi.

RIVOYAT. Shayh Basriy (rahmatullohi alayh) ayturlarki, Yusuf quduqqa kirganda yetti yoshda (ba'zi manbalarda o'n ikki yoshda) edi. Malik qo'lida sakson yil bo'ldi, bir yuz yigirma yoshda vafot etdi. Habarda kelishicha, payg'ambarimiz Muhammad alayhissalom Jabroil alayhissalomdan so'radilar: "Osmondan yerga tushmoqlikda qiyalmasmisan?" B Javob berdi: "Ey Ollohnin rasuli! To'rt marta behad mashaqqat tortganman. Birinchisi, Ibrohim halilullohni manjanikka solib, gulhanga otganlarida Sudrat-ul-muttahodan tushib, qanotlarim bilan o'tga tushmasdin ilgari tutib oldim. Ikkinchisi, Ibrohim Ismoilni qo'rbon qilganda pichoqni tortmasdan oldin "Tutgil!" degan farmon bo'ldi. Shunda sidrat-ul-muntahodan tushib, pichoqni yuzini orqasiga qaytardim.

Uchinchisi, Yusufni birodarlari quduqqa tashlab, arqonni kesganlarida, Sidrat-ul-muntahodan tushib, uni tutdim. To'rtinchisi, Uhud jangida sening muborak tishingga tosh tegib, qon oqqanda "Qon yerga tushmasdan burun tutgil!" degan farmon bo'lganda Sidrat-ul-muntahodan tushib tutdim. Agar qon yerga tushganida qiyomatga qadar unda maysa-giyoh unmagani bo'lardi. Shu tariqa to'rt marta mashaqqat tortganman".

Savol: Yusufni quduqqa solib, Yana chiqarishlikning hikmati nimada?

Javob: Bashi rva Bushro ismi ikki habashiy yigit bor edi. Ular ikkalasi ham Malik Za'r degan podshohga qul edilar. Qirq yil qullik qilganlaridan so'ng Za'r podshoh Misrda Shomga tomon sayohatga chiqar bo'ldi. Olloh qudrati bilan Ka'non viloyatiga kelib qoldilar. Yusuf yotgan quduq boshiga kelganlarida ularning qo'lliklariga qirq yil, Yusufni quduqqa tushganiga to'rt kun bo'lgandi. Bashi rva busharoni quduqdan suv olgani yubordilar. Ular quduqqa chelak tashladilar. Olloh farmoni bilan Yusuf ikki oyog'ini chelakka soldi. Bashir chelakni tortib olib, ko'rsaki, chelak ichida oydan-da, kundan-da chiroyli Yusufni ko'rdi va sherigini chorladi:

- Bushro, suyunchi quduqdan bir yigit chiqdi.

Ya'qub payg'ambar alayhissalomning o'g'illari birodarlari Yusufni quduqqa tashlaganlaridan so'ng bir qo'yni sfo'yib, unitng ko'ylagini o'sha qo'yning qoniga bo'yadilar. Kechki payt ular g'amgin qiyofada, "Oh Yusufim, oh Yusufim" - deya otalari oldiga yig'lagan hollarida kirib keldilar.

- Ey ota, Yusufni narsalar oldida qoldirib ketgan edik, bizlar kelguncha uni bo'ri yeb ketibdi, - deya qonli ko'ylakni otalari oldiga tashladilar.

Bu so'zlarning eshitgan Ya'qub alayhissalom behush bo'lib yiqildilar. Qachon hushiga kelganlarida "Endi Yusufimni qaerdan izlayin", deya faryod chekdilar.

- Qandoq mehribon va rahmdil bo'ri ekanki, ko'ylagini yirtmasdan yebdi. Agar rostdan ham bo'ri yeganida yeko'ylagini yirtgan bo'lardi. Agar ko'ylagi uchun o'ldirganida edi, unda nega ko'ylakni olib ketmabdi, - deb otash-firoqlari ziyoda bo'lardi. Bo'ri yedi deganlarini quloqlari bilan eshitib, qonli ko'ylaklarini ko'zi bilan ko'rib, g'amlari ziyoda bo'ldi, yetti kechayu kundan Kan'on biyobonini zor-zor yig'lab kezib chiqdi. Tilida esa ushbu so'zlar joriy edi.

"Ey suyukligim, ey ko'zimning nuri, ey bag'rimning bir parchasi, ey ko'nglimning mevaasi! Qaysi quduqqa ko'mdilar seni, qaysi djaryoga qarq qildilar seni, qaysi qilich bilan chopdilar seni, qaychsi yerga ko'mdilar seni! Ey Yusufim! Qaysi bo'ri qornida yotursan, ushal yumshoq etlaringni yeyar chog'da qiyalishlarga qandoq sabr qilding. O'shal pokiza suyaklaring qaysi byuyibonda yotur ekan. Koshki, seni yegan bo'rini ko'rsaydim, oyog'i tuprog'ini ko'zimga surtardim, uni oldimdan ketkazmasdim".

Yetti kun ichida uch yuz oltmish marta hushidan ketdilar. Uch kun chida biror luqma taom yemadilar, biror qatra suv ichmadilar. (Izoh: boshqa manbalarda aytilishicha, shu holda farishtala: "Iloho, do'stingni bunchalik betoqatligiga o'zing rahm qil!" B Deya



munojat qildilar. Shunda Jabroil alayhissalomga farmon bo'ldi: "Ya'qub xotiriga tasalli bergil!" Jabroil alayhissalom keldilar va: "Ey Ya'qub, sabr qilgil, o'g'ling bilan topisharsan", dedilar. Shunda Ya'qub alayhissalomning: "Ey birodar Jabroil, Yusufdan habar berarmisan?" degan so'rog'iga Jabroil alayhissalom sukut qildilar. Yusuf alayhissalomning birodarlari o'z g'qilmishlaridan yuz ming pushaymon va nadomatlar chekdilar, sharmandalikdan otalari yuziga boqa olmadilar).

- Birodamiz Yusufni zoy'e qildik, otamizni o'ldirdik-ku! - deya otalariga qo'shilib yig'lashdi ular ham.

- Ey o'g'lonlar, bu ish sizlarning makrlaringizdir, hasaddan bo'lgan ishdur. Endi menga sabrdan o'zga chora yo'qdir, - dedi Ya'qub alayhissalom ko'zlaridan qonli yoshlar oqizib.

- Ey ota, bo'ri yeganiga ishonmayapsan, istasan biz Yusufni yegan bo'rini tutib keltiraylik, zora, uni ko'rib ko'ngling taskin topsa, deyishdi o'g'lonlari.

- Boring, keltiring, - dedi otalari.

Hammalari biyobonga otlandilar. Oldilaridan bir bo'ri chiqib qoldi, uni tutdilar, oyoqlarini bog'ladilar, og'ziga qon surtib, (Izoh: boshqa manbalarda keladiki, bo'ri dedi: "Misrdan bo'laman, bir qarindoshimni yo'qotibman. Bu mamlakatga uni izlab kelganman. Bilishimcha, uni shu mamlakatning podishohi tutib olibdi. Shuni g'amida o'n yetti kun bo'ldiki, taom yeganim yo'q). Ey Ya'ub, bu yolg'onchilar meni tutib, og'zimga qon surtib, senga olib keldilar. Duo qilgilki, uning barokatidan farzandimni topib olsam, - dedi bo'ri.

- Shu bo'ri yedi, demaganmidilaringiz? - so'radi ota o'g'illaridan.

- Boshqa bo'ri yegan ekan, borib topib kelamiz, - deya yana chiqib ketdilar.

- Ey bo'ri, Yusuf haqida hech habaring bormi? - so'radi payg'ambar.

- Ey nabulloh, Jabroildan so'ramadingizmi?

- So'radim, javob bermadilar.

- Agar ul zot sirmi ochmagan bo'lsalar, men ham bu sirmi oshkor qilmasman, ammo uni bo'ri yemagandir.

- Duo qilsam, farzandingni topsang.

- Men ham duo qilayin, Yusufingiz topilsin. Iloho, Ya'qub payg'ambarining o'g'lini salomat yetkazgan, - jeji bo'ri. Ya'qub alayhissalom duosi barokatidan bo'ri shu kuniyoq bolasini topdi vash od-hurram bo'lib Misrga qaytib ketdi. Naql qiladilarki, jannatga besh hayvon - Ya'qub alayhissalomning bo'rilari, Ashobi Qahfning itlari, Solih alayhissalomning tuyalari, Iso alayhissalomning eshhaklari, Ali raziallohu anhunung duldullari kirarkan.

- Bu ish oshkora bo'ladigan ko'rinadi. Endi borib yusufni topaylik, agar o'lmagan bo'lsa, chiqarib o'ldiraylik, boshinik yechib otamizga keltiraylik, shunda zora ko'ngli joyiga tushchsa, - Deya kengashdi o'g'illari sahroga chiqqach.

Shu paytda Yahuda bu kengashdan behabar holda quduq yoniga kelgandi, hol-ahvol so'rab, taom berayotgandi. Qaytayotib birodarlariga duch keladi.

- Borib Yusufni quduqdan chiqaraylik, otamizning oldiga olib boraylik. Sirimizni aytmaslikni tayinlaylik-da "o'g'ri olib ketgandi", deb aytiraylik. Shunda otamizni firoq dardidan qutqaramiz. Bechora otamiz betoqat bo'lib, taom yemay ko'p aziyat chekmoqdalar, - dedi Ya'hudo birodarlariga. Bu gapdan ular behad g'amgin bo'lishdi. So'ngra quduq boshiga ravona bo'ldilar.

- Qayon borursizlar? - so'radi shayton la'in solih odam qiyofasida kelib, birodarlar yo'lini to'sarkan.

- Yusufni chohdan chiqargani borurmiz, - deyishdi birodarlar.

- otangiz oldida yana yolg'onchi bo'lasizlarki? Ilgari bo'ri yedi deb, endi o'g'ri olganda deb borsangiz, gapingizni burdi qoladimi? Otangiz ham, haloyiq ham sizni dushman deb biladilar, - dedi Shayton la'in. (Ushbu gunoh, ya'ni otalarini ranjitganlari sababli ular payg'ambar bo'lmadilar).

Hikoyatda keladiki, payg'ambarimiz Muhammad alayhissalom aytadilar: "malik Za'r Hazoyi degan savdogar bor edi. Uyi Misrda edi. U bir kecha tush ko'rdi6 Quyosh osmondan tushib, qo'yniga kirdi. So'ngra bir parcha oq bulut kelib, undan javohirlar yog'ildi. Muabbirlardan ta'birini so'radi.

- Ey malik, kan'on diyoridan bo'lgan bir qulga ega bo'lasan, mol-mulkin behisob bo'ladi, avlodalarining ham boy bo'ladilar, - dedi muabbir va malikdan munosib tuhfalarni oldi.

Bu ta'birdan hurram va hushg'ol bo'lgan Malik hozirlik ko'rib, Shom safariga chiqdi. Kan'on diyoriga kelgach, bir necha kun turib qoldi. Shomga bordi hamki, ko'rgan tushining ro'yobidan darak bo'lmadi. Shomga qaytar chog'ida ham qulning fikri-yodi xotiridan ketmadi. Qaytar chog'ida karvon ahli yo'lini yo'qotdi. Shunda Jabroil alayhissalom tuyalar boshini tutib, quduqning yoniga olib keldi. Savdogarlar yo'lidan adashganlarini bildilar, haddi va poenii yo'q sahro o'rtasida. To'xtab, suv qidirdilar. Ikki qo'lini (ya'ni, Bashi rva Bushro) suv topib kelishga buyurdilar. Ular suv qidirib yurib, quduqqa duch kelishdi. Charm chelakni quduqqa tashlab, suv tortib oldilar. Uchinchi tortishlarida Yusuf alayhissalom o'zini chelak ichiga soldi. Shu mahalda Jabroil alayhissalom: "Ey Yusuf, esingda bormi, falon paytda o'zingni oynaga solib, bahoingni bilmog'chi bo'lganding, endi o'z bahoingni ko'rgil", dedilar. Qullar chelakni quduqdan torta olmadilar, yordamga uchinchi odamni ham chaqirdilar. Malikni ham chorladilar to'rt kishilashib tortdilar. Shunda Jabroil alayhissalom ko'makka keldi, chelakni tortib olishdi. Ko'rdilarki, chelak ichida bir oy ruhsor o'tirardi.

- Ey bashorat bo'lmish zot, qachondan beri seni ko'yingda yuradim, endi topdim, - dedi Malik. . .

Yusuf alayhissalomni quduqdan chiqarganlarida ul zot qo'llari Bilan ikkila habashiy qulning yuzlarini silanandi, badanlari oppoq bo'ldi. Bundan sevinishib imon keltirdilar va sajdagga bosh qo'ydilar.

- Ey yigitlar, mahluqqa, mahluqqa sajda qilmangalar, bu ravo emas, sizni yaratgan tangriga sajda qiling, - dedi Yusuf alayhissalom.

- Sizni kim yaratgandir? - so'radi Bushro.

- Borliqni yaratgan Ollohdur. Uning mulkiga sherik va zavoli yo'qdir, - dedi Yusuf alayhissalom.

- Bizga imondan saboq bergil, - deyishib, Yusuf alayhissalom ko'magi bilan imon keltirdilar va musulmon bo'ldilar. Yusuf alayhissalomni quduqdan chiqarmoqning hikmati shu edi.\

Savol: Payg'ambar farzandlarini sotmoq joiz emas. Yusufning qul sifatida sotilmog'iga nima hikmat bordir?

Javob: Kunlarning birida Yusuf ko'zguga boqib, o'z aksini ko'radi va hayratlanadi. Shunda uning ko'nglida "Shu chiroy Bilan qul bo'lganimda sotib olishga kimning kuchi yetar edi", deya o'z ko'rkiga quvongandi. Go'zalikka quvonmoqlikning bahosini ko'rgizdilar. Sotilmog'likning hikmati shunda.

Yusuf alayhissalomni quduqdan chiqarib olganlarida birodarlari yetib qoldilar.

- Bu bizning qochib yurgan qulimiz edi, uch kundan beri qidirib yurgandik, agar olmoqchi bo'lsang, sotamiz, - deyishdi. So'ngra Rubil kelib, Ibriy tilida tayinladi: - Biz nimani istasak, sen shunday edi, deb turgil, yo'qsa o'ldiramiz.

- Qulmisan? - so'radi Malik Za'r.  
- Ha, qulman, Ollohning quli, - dedi Yusuf alayhissalom.  
- Bu qul kichikligidan boshlab biz bilan birgadir, shu bois sotishga ko'ngilimiz yo'qdir, agar o'zi hohlasagina soamiz, - deyishdi.  
Ammo, buning uch aybi bor, birinchi aybi - o'g'ridir, ikkinchi aybi - qochoqdir, uchinchi aybi - yig'loqidir.  
- Mayli roziman. Ammo menda aqcha yo'q edi, istasangiz ot, tuya, mol-qo'y berayin, - dedi malik Za'r.  
- Bizga unday narsalar kerak emas, ulardan zerikkanmiz, ozgina bo'lsa ham aqcha bersang bo'ldi, rozimiz, - deyishdi ular bir-birlari bilan obdan kengashib olgach. Negaki, ular mol-qo'y oladigan bo'lsalar, otalari oldida ayblari oshkor bo'lib qolardi.  
- Qnacha beray bo'lmasa, - dedi malik Za'r.  
- O'n sakkiz aqcha bersangiz kifoya, - deyishdi.  
- Mayli, oling, - dedi Malik Za'r va o'rnidan turib aqcha keltirdi. Misr aqchalarini tarozida tortib ko'rdilar, ular Kan'on yarmog'ining yarmiga to'g'ri keldi. Demak, Yusuf alayhissalom to'g'g'iz Ka'on aqchasiga sotildi.  
- O'z qo'lingiz bilan xat qilib berasiz,- dedi Malik Za'r.  
- Xatni shu shart bilan beramizki, qulimizning oyog'iga kishan urasan, qattiq egarga mindirasan, uzoqroq yerga olib borib sotasana, - deyishdi va shurtga Malik Za'r ham rozi bo'ldi.

Xat bitildi, uni Yahudo yozdi:

"Bismillohir rahmonir rahim. Biz Ya'qub alayhissalomning o'nala o'g'lonlari: Birinchi - Rubil, ikkinchi - Sham'un, uchinchi - Yahudo, to'rtinchi - Loviy, beshinchi - Joda, oltinchi - Don, yettinchi - Yag'sar, sakkizinchi - Yastoxir, to'g'g'izinchisi - Zabotuq (ba'zi rivotlarda Riyyolun deyilardi), o'ninchi - Qozur -Yusuf degan qulimizni malik Zo'rga o'n sakkiz aqchaga sotdik hamda uch aybini: o'g'rilik, qochoqlik, yig'loqlik - aytdik va Malik Za'r bilan uch shartga - oyog'iga kishan urmoqlik, qattiq egarga mindirmoqlik, yiroq joyga eltib sotmoqlikka kelishdik, deb bu xatni faoln kun, falon oyda o'z qo'limiz bilan bitdik".

Vaqtiki, birodarlari Yusuf alayhissalomni Malik Za'rga topshirib, o'tovlariga qaytgandan so'ng uylariga ketmay turdilar. Chunki ular ko'nglida "Mobodo Yusuf, otamiz qoshiga qochib borib, bizlarni sharmanda qilmasin", degan hadik bor edi. Kech kirgach, Yusuf alayhissalom Malikdan ruxsat tiladilar:

- Ey Malik, bir kishini hamroh qilsang, birodarlarim bilan vido qilib kelsam. Kichikligimdan beri ular Bilan katta bo'lganman.  
- Ular seni qulimiz deya sotishdi-yu, sen bo'lsang birodarlari deysan, - deya taajublendi. Shundan bo'lsa-da bir odamni hamroh qilib ruxsat berdi. Oyoqlariga kishan urilgan Yusuf alayhissalom yiqila-yiqila ko'rklik yuzlari tuproqqa belanib, yanoqlariga tikanlar sanchilib, yuzu ko'zi qonga belanib, qarindoshlari oldiga keldi. Yusufni bu ahvolda ko'rib, ular ham yig'lashdi, hijolatdan yuziga boqolmadilar.

- Ey birodarlarmi, bunday ishni menga nisbatan qildingiz, boshqalarga hargiz qilmangiz. Qari otamdan ayirdingiz, qiyomat kuni unga qanday javob berarsizlar?! Taqdiri ilohiy shu ekan, rizo bo'lmoqdan o'zga choram yo'q. Otamga mendan salom denglar. Otam men uchun ko'p ta'ziyatlar tutadilar, - dedi Yusuf alayhissalom birodarlarining har qaysisi Bilan alohida-alohida vido qilarkan. Navbat Yahudoga yetganda bo'ynidan quchoqlab olib, ho'ng-ho'ng yig'ladi. - Ey jondan aziz qarindoshim, menga hammadan mehribonroq eding. Qaerda quduq ko'rsang, meni yodingga olgin. Qachonki otam Bilan birga bo'lsang, "Yusuf qaerda ekan, Kim bilan birga yuribdi ekan", deb yodlagin. Ey Yahudo, bugun to'rtinchi kunki, sizlardan ayrilganman. Sizlarsiz g'ariblikda nima qilaman, - dedi Yusuf alayhissalom akalariga qarab.

Yusuf alayhissalom shunday bir holatga tushdiki, butun badani suv bo'lib eridi, iztirobga tushdi-da, betoqatlik bilan "Oh, onam! Oh, onam!" deganicha o'zini tuyadan tashladilar. Qabrni quchoqlab, o'ftobdek ravshan yuzlarini tuproqqa surtib, rosa yig'ladilar. Ul zotning yig'ilaridan osmonda uchgan qushlari, daryoda suzgan baliqlar ham tug'yon va fig'onga keldilar.

- Eyo onam, sizdan ayrilganim yetmasmidi, otamdan ham ayirdilar. Ustiga-ustak qul bo'lib sotildim, qattiq egardan nozik badanlarim yanchildi. Qo'l-oyog'im og'ir zanjirlardan xarob bo'ldi. Mehribonginam, koshki tirik bo'lganingizda holimni so'rgan bo'lardingiz, - Deya nolayu zor qildilar.

- Ey hojam, u qul tuyadan tushib qochibdi, - deya faryod ko'tardi qul Aflih Yusuf alayhissalomni yo'qotib qo'yib.

- Sotgan kishilar qochoq ekan deb to'g'ri aytgan ekanlar, - dedi Malik qidirib topinglar.

Hamma izlashga tushdi. Aflih yetib kelib ko'rdiki, u bir qabrni quchib, yig'lab yotardi.

- Bo'ldi, bas, o'g'ri qul! - deya zolim habash Aflih Yusuf alayhissalomni bir shapatilab urdi va oyoqlaridan sudrab olib bordi.

Shunda Yusuf alayhissalomning ko'zi oldida o't chaqildi, ko'ngli og'rindi, og'iz-burinlariga tuproq to'ldi, girya va nola qildi:

- Iloho, o'zing ko'rib, bilib turibsa! Na bo'lg'ayki, karvon ahliga qudrating Bilan bir tanbeh bersang!

- Iloho, bu yetim bechoraning holiga rahm qil, uning nolasiga toqatimiz qolmadi, - deyishdi farishtalar ham larzaga kelib.

Duo ijobat bo'ldi. Shamol qo'zg'ali, olamni qora bulut bosdi. Shamol zo'rayib, ko'z ochib bo'lmay qoldi. Qorong'ulik kunduzni kechga aylantirdi. Karvon yo'lini yo'qotdi.

- Agar karvonda Ollloh taolaga isyon qilgan kishi bo'lsa, tavba qilsin, - dedi Malik Za'r karvonni to'plab. Shoyad, Ollloh taolo bu baloni bizlardan daf qilsa.

- Bu o'g'lon duo qilgandi, shu voqealar sodir bo'ldi, - dedi Aflih Malik Za'r oldiga borib. Shunda Malik Aflihni olib kelib, Yusuf alayhissalomning oyoqlariga yiqildilar, uzrhohlik qildilar.

- Ey Yusuf, bu Afliq bilmay beadablik va behurmatlik qilibdi. Siz avf etib, gunohini bag'ishlang, shoyad bu balo bizdan daf bo'lsa. Yusuf alayhissalomning ko'ngillari hush bo'ldilar, kuldilar. Shu zamon havo ochildi, olam charog'on bo'ldi. Karvon ahli bu mo'jizani ko'rib, xushg'ol bo'ldilar. Yusuf alayhissalomning oyoqlaridan kishanlarni yechib oldilar, chiroyli kiyimlarni kiydirdilar.

- Ey Yusuf, sen karvonning oldida yurishga loyiqsan, boshqalar hammalari seni orqangdan yursinlar, - deyishdi unga. Ollloh taolo bir parcha bulutga amr qildi. Bu bulut soya qilib, cho'l issig'idan saqlab bordi.

- Ey malik, bu bola Olllohga yaqin o'g'lon ekan. Uning ko'nglini zinhor og'ritmang! - deyishdi karvon ahli bu mo'jizalardan tong qolib.

- Ey Yusuf, tuyadan tushib qolibsana, qochish maqsading bormi? - so'radi malik Za'r.

- Hudo saqlasin, hargiz qochmagayman. U joyda onamning qabri bor edi, u bilan vidolashgani tushgandim, - dedi Yusuf alayhissalom.

Savol: payg'ambarlar haloyiqni duoibad qilmas edilar. Yusufning karvon ahlini duo qilmog'ida ne hikmat bor?

Javob: Yusufning duosi duoibad emas. U xot bu qul meni urdi, gunohkor bo'ldi, qiyomatda azob ko'rgusi. Zora Ollloh qudratini ko'rib, tavba qilsa, gunohidan forig' bo'lsa, do'zax azobidan qutilsa, degan umidda hayrli duo qilgandi.

Alqissa, karvon yo'lga ravona bo'ldi. Misrga yetishga bir kunlik yo'l qolganda Ushvon degan joyda, dengiz qirg'og'ida to'xtadilar.

- Ey o'g'lim, suvga tushib, yuvinib, o'zingni gard-g'uborlardan poklab olgin, ertaga shahar xalqi bilan uchrashurmiz, - dedi malik Za'r.

Yusuf alayhissalom suv bo'yiga keldilar va Ollohga munojat qildilar:

- Iloho, bir pardani karomat qilgil. Badanlarimni kishilar ko'rmasinlar.

Olloh taolo Aynulhiton baliqqa amr qildi. U baliq suv ichidan chiqib, gavdasi biolan Yusuf alayhissalomni to'sdi. Ul zot yechinib, yuvina boshladi.

- Iloho, Yusufning barokatidan shunday karomat bergilki, jamiki baliqlar ichida nomim ezgulikka burkansin, - dedi baliq. Bu duo ijobat bo'ldi. Olloh taolo unga ikkita balo berdiki, ulardan birining qornida Yusuf alayhissalom qirq kun turdi. Yana birining qornida esa Sulaymon alayhissalomning uzuklari qirq kun turib qoldi.

Yusuf alayhissalom yuvinib bo'lganlaridan so'ng Jabroil alayhissalom jannatdan nurdan yaratilgan ko'ylak keltirdi. Malik Za'r unga shohona to'n kiydirdi, boshiga oltin toj, kiydirib gavharlar bilan ziynatilgan kamar bog'ladi. Yasatib, tuya kajavasiga o'tkazgan edi Yusuf alayhissalomning bir husnlari ming bo'ldi, haloyiqning ko'zi hira, aqli tiyra bo'ldi.

Savol: O'sha karvon ichida boshqa joylardan kelganlar ham bor edi. Yusufni aynan Malik Za'r qo'lga tushirilganda qanday hikmat bor?

Javob: Misr shahrida Zulayho degan zaimfa bor edi. Olloh taolo taqdiri azalda bu zaifaga Yusuf alayhissalom qo'lida imon keltirishlikni taqdir qilgandi. Yusufning Malik Za'r sotilish, Misrga keltirilishi va Yana sotilishidan sabab shu edi.

Vaqtiki, malik Za'r Yusuf alayhissalomni Misr yaqiniga olib kelganida shaharda shunday gap yurdi: "Malik osmon oyini yerdan topib olganmish. Kimki uning yuziga boqsa, ko'zi hira bo'larmish. Uning husnu malohati oldida kunu oy hira tortarmish". Bu gapni eshitgna Misr ahli borki, hammasi: yoshu qari, erkaku ayol tomoshaga chiqdilar. Hammasining ko'zi Yusuf alayhissalomda edi, uning boshi uzra bir parcha bulut soya tashlab turardi. Buni ko'rgan odam borki, oshiqu shaydo bo'lardi, Yana bir ko'rsam, deya orzu qilardi, hargiz ajratgilari kelmasdi. Hamma viloyatning beklari kelib, Yusufni sotib olmoq umidida oltin, kumush, mol-qo'y, tovar yig'a boshladi. Ular pullari yetmasa, jonlarini ham berishga tayyor edilar. Dallollar oraga kirib, narhini tinmay oshirish payida edilar. Chiroyli ko'rinishli ayvon qurib, naqshlar bilan bezatdi, shohona gilam va bisotlar bilan oroyish berdi. Oltin taxt qo'yib, zarboplar bilan bezatdi. Juma kuni edi. Misr xalqi kimdir sotib olishga, kimdir tomoshaga yig'ildilar. Jarchi baland ovoz bilan chorlay boshladi:

- Ey Misr xalqi, ko'ringlar, chiroyda hech bir odam bolasi tenglasha olmaydigan bu o'g'lonni kim sotib oladi. Kulcha yuzli, yumaloq boshli, qora sochli, o'ngi so'lida qirq gajaklik, badani kumushdek oppoq, qoshlari kamon bilan chizilgandek kamon, yuzi kundedek ravshan, yanoqlari anor donasidek qizil, kipriklari o'qdek, tishlari gavhardek, og'izlari pistadek, hipcha bellik, shirin so'zlik - suratiyu sifati shunday o'g'lonni sotib olishga kim qodir. (Oyat) "Kim dunyoda o'xshasha bo'lmagan nazofatli, go'zal so'zli g'ulomni Kim sotib oladi?"

- Ey jarchi, - dedi Yusuf alayhissalom boshini quyi solib, ko'zidan qonli yoshlarni oqizib, - sifatlaydigan bo'lsang to'g'risini so'zlagin.

- Qanday aytayin, - dedi jarchi.

- Aytgilki, (Oyat) "Kim dunyoda tengi bo'lmagan qayg'uli, zaif, orqi, bechora bir g'ulomni sotib oladi", deb. Sening aytganlaring urf va odatlarga mos emas, - dedi Yusuf alayhissalom.

- Rstini aytarman, - dedi jarchi.

- Rost so'zlashga ko'ngling moyil bo'lsa aytgilki, (Oyat) "Kim Ollohning do'sti Ibrohimning abirasi, ollohning qurboni Ishoqning nabirasi, Ollohning bandasi Ya'qubning o'g'li, Ollohning rostgo'y bandasi Yusufni qul qilib sotib oladi".

- Shunday desam haloyiqning yuragi yorilmaydimi? - taajjublandi jarchi.

Aytishlaricha, dallollar yig'ilib, Yusuf alayhissalomning narxini oshira boshladilar. Uning qiymatini o'zi og'irligicha oltin, o'zi og'irligicha kumush, o'zi og'irligicha ifor, o'zi og'irligicha shakar, o'zi og'irligicha harir, o'zi og'irligicha anbar, o'zi og'irligicha kofurga tenglashtirdilar. Yana ba'zi rivoyatlarda aytilishicha, Yusuf alayhissalomning o'n yo'sindagi og'irligicha bo'ldi. Qachonki, jarchi Yusuf alayhissalom otalarining nomlarini ayta boshlasa, Malik Za'r ko'zi yoshga to'ldi, ko'nglida o't alanga oldi.

- Ey Yusuf, o'sha kunda quduq boshida bu sirni nega aytmading, sotib olmagan bo'lardim, - dedi Malik Za'r.

- Birodarlarim meni o'ldirib qo'yishlaridan cho'chigandim, - dedi Yusuf alayhissalom. (Oyat) "Tag'in sen kaon tepaliklaridan birida o'tirib olib, "Ey Parvardigorim, dilimning mevasi, qo'zimning qorasi o'g'limni menga qaytarib ber!" deb zor-zor yig'lab turgan g'amgin mo'ysafidning o'g'li bo'lmagin", - dedi Malik Za'r.

- O'sha ko'zi yoshlik, bag'ri kuyuk, firoq o'tida o'rtangan, hasrat dengizida g'arq bo'lgan, o'qday bo'yi yoydek egilgan, oydek ochiq ko'ngilli tutdek to'kilgan Isroilloh o'g'li, Zabihulloh nevarasi, Halilulloh chevarasi bo'lgan Yusuf mendirman, - dedi. Buni eshitgan malik Za'r o'rnidan shartta turdi-da, Yusuf alayhissalomning oyoqlariga yiqildi, behad uzr so'radi.

O'sha paytda misrning podshohi malik Rayyon ibn Navzod, ibn ol-Valid ibn arosht, ibn Miron, ibn Umar, ibn Amloh ibn Lovad ibn Som ibn Nuh alayhissalom edi. O'g'lon ovozasiga unga ham yetdi. U Azizi Misr ismli vazirini jo'natdi6

- Borib ko'rgil, odamlar aytganchalik bo'lsa, sotib olay.

Azizi Misr kelib, Yusuf alayhissalomni taxtu izzatda, toju davlatda, husnu malohatda ko'rib, tanu dili bilan oshufta bo'ldi. Oh deganicha otidan tushdi-yu, hushi boshidan uchdi, so'zlagani holi qolmadi. Malik Za'rga Rayyon Malikning so'zlarini aytganicha iziga qaytdi.

FOYDA. Ko'rarsanki, Quyosh ismli podshoh tunning yarmida baland osmondan malohatli yuzni ko'rmoq uchun qora yerga o'zi tushdi, Yusufga sajda qildi.

Iso alayhissalom ahvolida ham insoniyatga to'siq-parda qo'yildi, u ham bo'lsa otaliq pardasi ediki. haloyiq to qiyomatga qadar fitnada qoldilar, maryamni Ollohning xotini dedilar, Iso alayhissalomni Hudoning o'g'li dedilar. Ammo Yusuf alayhissalomning yuziga niqob tortmadi, suratini hijob ichiga yashirmadi, shuning uchun quyosh va oy uning jamolin ko'rib bir kecha osmondan tushdi, sajda qildi. (Oyat) "Agar Olloh taolo inson ruhini shakllantirib ko'rsatganda edi, uni ko'rgan odam borki, sajda qilgan bo'lardi". Aziz ham shu boisdan oy yuzli o'g'lonniko'rib, oyog'iga bosh urdi.

Xullas, Azizi Misr Yusuf alayhissalomni sotishlarini so'radi.

- Hali shaharga kirganimiz yo'q, bozorni ham ko'rmadik, qulni bozorga solmadik. Ertaga siz nimani istasangiz, o'shani qilarmiz, - dedi Malik Za'r va Aziz Misrni qaytarib yubordi.

Ertasi kuni Malik Za'r Yusufga podshohlar libosini kiydirdi, boshiga toj kiydirdi. Qosh yoylari, kpriq o'qlari, malohat lashkari bilan jonlarni asir etmoqlikka, ellarni talamoqlikka, ko'ngillarni zabt etmoqlikka qasd qilib, shohona kiyimlar kiygan, shohona



otlar mingan holda Misrga kirib bordilar. Yusuf alayhissalomni bir taxt ustiga o'tqizdilar. Jarchilar ishga tushdilar:

- Mana bu latofatli, zarofatli qulni bahosiga yetib kim oladi?
- Mana bu g'arib qulni kim oladi, deb ayting, - dedi Yusuf alayhissalom boshini quyi solib, ko'zidan yoshlarini oqizib.
- Mana bu nodir qulni kim oladi? - dedi jarchi.
- Mana bu haydalgan qulni kim oladi degin, - dedilar Yusuf alayhissalom.
- Mana bu latif qulni kim oladi, - dedi jarchi.
- Mana bu zaif qulni kim oladi degin, - dedi Yusuf alayhissalom.

Jarchi xislatlarini deb tirishardi, Yusuf alayhissalomning esa ko'zidan yoshlar shashqator bo'lardi.

- Ey Yusuf, qayg'urmagil, sabr qilgil. Bugun qul bo'lib stoilsang, ertga podshohlikka yetkazib, Misr xalqini qul qilib berurman. Bugun horlikni tortib, ertaga izzatini ko'rgan. Bugun "Men olayin", degan haridor, ertaga "Men sotayin", deb intizqor bo'lurlar, - Ollohning bu amirini Jabroil alayhissalom olib keldilar. (Oyat)B "Bu mamlakatda Yusufga biz shunday martaba berdik". Rivoyatlarda kelishicha, Vahab ibn Munabbah aytdilar: "Yusufning bahosi to'rt yuz ritl oltin, to'rt yuz ritl, to'rt yuz ritl inju, to'rt yuz ritl gavharga teng bo'ldi". Zulayho eri Azizi Misrga dedi.

- O'sha o'g'lonni sotib oling, bizga qul bo'lsin. (Bilmadiki uning zi qul bo'larini).

Yana bir rivoyatda Zulayho kajavada o'tirib, sayr tamoshadan kelayotganda Yusufga yo'liqdi, ko'ngli buzildi.

- Bu o'qlonni sotib olgin, - dedi Azizi Misrga.

- Bizda buning bahosiga yetgulik molimiz yo'q dedi Aziz.

- Bor molimizni beraylik, yetmaganiga otamdan keltiray, u ham yetmasa bo'ynim va quloqlarimdagi ziyatlarimni ham chaqirib berayin, - dedi Zulayho. Darhaqiqat, qullik ipi bog'langan bo'yniga marjon ne hojat!

- Ey Zulayho, men Yusufni sotib olish uchun podshohdan vakil bo'lib kelganman. Sening nomingdan ham so'zlayin, - dedi Aziz.

- men borib podshohdan ruxsat so'rayin, rozi bo'lsa, Yusufni sotib olayin, - dedi Zulayho. U parvonaday o'zini olovga otda, qul olmoqchi bo'lib, o'zini qullikka sotdi. Yo'li Yusufga, ko'zi go'zalga tushgach, tuzoq qo'yaman deb, o'zi tuzoqa tushdi. Ko'z Bilan ko'rayin deb, ko'nglini oldirdi. Uzoqqa yuguraman deb, qopqonga ilindi. Yo'l ustida to'lin oyni ko'rdi-yu, asir bo'ldi. Xushsiz bo'lib otdan tushdi-yu, chechakday chehrasi so'ldi. O'zga chora topolmay Azizga Yusufni olishni targ'ib qildi. Iloji bo'lmagach, podshohga bordi, iltimos qildi. Ijobat bo'lgach, mol to'pladi, bahosini berib Yusuf alayhissalomni sotib oldi.

Aytadilarki, malik Za'r Yusuf alayhissalomning otalari kimligini bilgach, Halilning nasabidan ekanini bilgach, Isroil urug'idanligini bilgach, savdodan pushaymon bo'ldi, ba'yni buzmoqchi bo'ldi, ammo uddalay olmadi. Yusufni olib Kan'onga eltmog'chi, olganlarini qaytarmoqchi bo'ldi-yu, ko'nmadilar. Nechukki, azalda bu taqdirni malik Zay'r yozmagandi. Taqdirda yozilgan qismadni Za'r o'g'li buza olmasdi. Zulayhoning ko'ngilda tushgan "Uning muhabbatiga mubtalo bo'libdur" B oyati hukmiga Malik Za'rning shifoati foyda bermasdi. B "Anna shunday martaba berdik biz Yusufga o'sha mamlakatda" oyati amriga Abu Zuloma qanday ham ora kirsin, Zulayhoning ko'nglidan ishqni qandayin chiqarsin, Yusufni bu davlatdan nechun mahrum eta olsin. O'sha savdo uzilmagach, bay' buzilmagach, Yusuf alayhissalomga yolvorishga tushdi.

- Ey risolatga erishgan sulola xonadonining a'zosi, payg'ambarlik ildizining mevasi, ey saltanat vorisi, ey saodat muhri, ey aslnasab odamizodlar ulug'! Koshki, o'sha kunda rost aytganingda sotib olmagan bo'lardim. Olsam ham Kan'onga olib borgan bo'lardim. Endi nima qilayinki, erkim qolmadi, qaytarib olmoqqa qo'lim qisqa, yarog'im yo'q, so'zimdan qo'ytmoqqa holim qolmadi.

Imkonim yo'q, nima hiyla qilayin, kimdan kengash so'rayin.

- Boshqa yo'ling qolmagan bo'lsa, hamma bahoimni olmagin, ozod kishilar bahosiga sotmagin, - dedi Yusuf alayhissalom. Malik za'r bu so'zni qabul qildi. Baholarni tushira boshladi.

LATIFA. Oqil kishilarga oyyu kunday ravshanki, kofirlar bu dunyoning chiroyni behad ko'p mol berib sotib oldilar, lekin og'rinmadilar, chunki ular ham mol oldilar, ham jamol. Musulmonman deguvchilar, sizlar oxirat Yusufin (ya'ni go'zal oqibatini) toat-ibodat otlik narx bilan sotib olishda og'rinmang, yo'qsa, ikkisidan ham quruq qolursizlar. Negaki, (Oyat) "Albatta Olloh taolo birovg'a oxiratning hisobiga dunyo beradi".

- Sening so'zlaringni eshitdim, - dedi molik Za'r Yusuf alayhissalom oldiga kelib. - Olgan mollarni Azizi Misrga topshirdim. Endi sendan bir hojatim borki, ijobatidan umidvor haridorman. Molim behad ziyoda-yu ammalarim yo'q. Butoqlari yo'q quruq yog'ochman. Sendan duo bo'lsa, uning ijobatiga haqdan umidim bor. Aytdilarku, o'g'il-qiz go'rg'a nur, ko'zlarga Surur bo'larlar.

Rasul alayhissalom aytadilar: "Farzandlarimiz - yerda yurgan jigarlarimiz".

Bu so'zlarni eshitgan Yusuf alayhissalom ko'kka muidvor tikildi.

Jabroil amin shu lahzada keltirdi:

- Ey Yusuf, bu qulimizning hojatini so'ragin, ijobat eshiklari ochiq.

- Ey risolatga erishgan sulola xonadonining a'zosi, payg'ambarlik ildizining mevasi, ey saltanat vorisi, ey saodat muhri, ey aslnasab odamizodlar ulug'! Koshki, o'sha kunda rost aytganingda sotib olmagan bo'lardim. Olsam ham Kan'onga olib borgan bo'lardim. Endi nima qilayinki, erkim qolmadi, qaytarib olmoqqa qo'lim qisqa, yarog'im yo'q, so'zimdan qo'ytmoqqa holim qolmadi.

Imkonim yo'q, nima hiyla qilayin, kimdan kengash so'rayin.

- Boshqa yo'ling qolmagan bo'lsa, hamma bahoimni olmagin, ozod kishilar bahosiga sotmagin, - dedi Yusuf alayhissalom. Malik za'r bu so'zni qabul qildi. Baholarni tushira boshladi.

LATIFA. Oqil kishilarga oyyu kunday ravshanki, kofirlar bu dunyoning chiroyni behad ko'p mol berib sotib oldilar, lekin og'rinmadilar, chunki ular ham mol oldilar, ham jamol. Musulmonman deguvchilar, sizlar oxirat Yusufin (ya'ni go'zal oqibatini) toat-ibodat otlik narx bilan sotib olishda og'rinmang, yo'qsa, ikkisidan ham quruq qolursizlar. Negaki, (Oyat) "Albatta Olloh taolo birovg'a oxiratning hisobiga dunyo beradi".

- Sening so'zlaringni eshitdim, - dedi molik Za'r Yusuf alayhissalom oldiga kelib. - Olgan mollarni Azizi Misrga topshirdim. Endi sendan bir hojatim borki, ijobatidan umidvor haridorman. Molim behad ziyoda-yu ammalarim yo'q. Butoqlari yo'q quruq yog'ochman. Sendan duo bo'lsa, uning ijobatiga haqdan umidim bor. Aytdilarku, o'g'il-qiz go'rg'a nur, ko'zlarga Surur bo'larlar.

Rasul alayhissalom aytadilar: "Farzandlarimiz - yerda yurgan jigarlarimiz".

Bu so'zlarni eshitgan Yusuf alayhissalom ko'kka muidvor tikildi.

Jabroil amin shu lahzada keltirdi:

- Ey Yusuf, bu qulimizning hojatini so'ragin, ijobat eshiklari ochiq.

- Qanday duo qilayin. Ishorat va ibodatni o'rgatgil, ey Jabroil, - dedi Yusuf alayhissalom.

- Aytgilki: "Ey birovni azizu, birovni hor qilg'uvchi Zot! Ey birovning martabasini balandu, birovnikini past qilg'uvchi Zot! Ey

birovga berguvchiyu, birovni mahrum qiluvchi Zot! Ey har narsaga qodir Zot, mana bu bo'ysafidga o'g'il farzandlar ato etgil!" - dedi Jabroil amin.

Tanbeh. O'e o'g'il-qizi bo'lmaganlar, murodi hosil bo'lmaganlar! Qalblaringizni poklang, e'tiqodingizni mustahkamlang, bu kalimalarni tilda joriy qiling. Yusuf alayhissalom duosi barokati tufayli Oллоh taolo barcha tilaklaringizga yetishtirgay. Inshoollohu taolo!

Siddiqning bu duosi ijobat bo'ldi. Abdulloh ibn Abbos r.a.ning rivoyatiga ko'ra, "Yusuf alayhissalomning Molik Za'rga qilgan duosi ijobat bo'ldi. Molikning o'n ikki cho'rilari bor edi. Ul kecha hammalari Bilan qovushdi. Ularning har qaysisi egiz farzandga homilador bo'ldilar. To'qqiz oydan so'ng yigirma to'rt o'g'il tug'ib berdilar".

Savol: Yusuf alayhissalomning Oллоhga shunchalik yaqin holati bo'lsa-yu, bunchalik mashaqqat tortmog'iga ne sabab?

Javob: Payg'ambarimiz Muhammad mustafo alayhissalom deydilarki: "Haqiqatda balolarning eng kattasi payg'ambarlarga tushadi, ulardan keyin avliyolarga, undan keyin ulardan quyilarga va undan keyin shu tartibda. Oллоh taolo dargohida avliyo qullar misoli igna kabi bo'ladilar. Hamma choponlar igna bilan tikiladi-yu ammo o'zi yalang'och qoladi. Yoki ba'misoli chiroq: o'zi yonaru, o'zgalarga yorug'lik berar".

Ammoriy qissalarda kelishicha, Yusuf alayhissalomni savdolashib, sotib olinayotgan paytida tuya minggan ko'chmanchi arabni ko'rishibdi. Ul tuya bu oy yuzlik zotni ko'rib tilga kiribdi: "Yaratganning taqdirida nima hikmat bor bilmaskan". Buni eshitgan hamma haloyiq lol qoldilar. Aytishlaricha, tuya uch kunlik masofadan Yusuf alayhissalomning hidini sezdi, ko'rmoqqa mushtiq bo'ldi, uch kungacha na o't yedi, maqsadiga yetgach, so'zlab yubordi. Ishorat. Yusuf alayhissalom tufayli munglik va bezabon tuyaning holi shu bo'lgach, bechora Zulayho qandoq sabr qilsin.

Aytishlariga ko'ra, Zulayho Azizi Misrning xotini edi. Azizi Misr qibtiy edi, Rayyon Malikning etikdo'zi edi, mo'min edi, imon keltirganini Rayyon malik ham bilar edi. Unga "Sening yumushlaringni ado qilayin, meni imondan qo'ytarmagil", deb o'tinch qilgan edi.

Oллоh taolo Yusuf alayhissalomning ko'rkidan olib, Zulayhoga ham bergan edi. Aytishlaricha, o'sha kunda Yusuf alayhissalom o'n uch yoshda, Zulayho esa o'n sakkizda edi. Azizi Misr Yusuf alayhissalomni sotib olib, uyiga keltirdi.

- Bunga yaxshiliklar qilgin, boshqalardan ortiqroq qaragin, totli taomlar, yumshoq kiyimlar kiydirgin, uni g'oyatda izzatli tutgin, - dedi u Zulayhoga tayinlab. - Bizlarga foydasi tekkusidir, Sotsak, undan ko'p foyda olarmiz, sotmasak, uy ichida ishlatarmiz, shoyad foydasi tegsa. Ma'lum tushsa, ozod qilib, o'g'il tutinarmiz.

Hadis. Ibn Ma'sud r.a. rivoyat qiladiki: eng rostgo'y va farosatli odam uchurat - birinchisi, Azizi Misr va uning "Shoyad bizga foydasi tegsa yoki o'g'il qilib olamiz" degan so'zi; ikkinchisi - Shuayb alayhissalomning qizi.

haligi ko'chmanchi arab yana keldi.

- Ey yigit, nimaga yig'larsan, - dedi u.

- Nechun yig'lamayinki, otamdan ham onamdan ayrildim, qul qilib sotildim, - dedi Yusuf alayqissalom. - Sen qaysi yurtdan kelding, ey arabiy

- Kan'ondan keldim, - dedi.

- Ya'qub alayhissalomni bilarmisan? - dedi Yusuf alayhissalom.

- Nega ham bilmayin, payg'ambarimiz - Ya'qubdir, - dedi u.

- Ya'qub oilasidan qanday xabar berarsan? - dedi Yusuf alayhissalom.

- Ya'qubning Yusuf degan o'g'li bor edi. Birodarlari uni biyobonga ovga olib borib, "Bo'ri yedi"B deb qaytib keldilar. Yig'lay-yig'lay Ya'qubning ko'zlari ko'rmas bo'ldi. Yo'l boshida "Bayt ul-ahzon" ("?amlar uyi") degan uy qurib, o'shanda ibodat bilan yig'lab turar, - dedi u. Bu gapni eshitgan Yusuf alayhissalom hushidan ayrildi. Hushiga kelgach dedi:

- Ey arabiy, Ya'qub payg'ambarining Yusuf degan o'g'li menman, qarindoshlarim qul qilib sotdilar. Kan'onga borsang, Ya'qub payg'ambarga mening salomimni yetkazgil va Yana degilki: "Ey otam, men uchun yig'lay-yig'lay ko'zlaring ko'r bo'libdur, buni eshitib zaif tanimga taom singmaydirgan bo'ldi, yorug' jahon ko'zimga tangu tor bo'ldi, qoraydi", - degach Yusuf alayhissalom duo qildi. Uning tuyasi o'rnidan turdi, yo'lga tushdi, Yusuf esa yig'lagan holda uyga kirdi.

Ko'chmanchi arab kan'onga keelib, Ya'qub payg'ambarning eshigini qoqdi. Shunda Yusuf alayhissalomning Zayna ismli qiz qarindoshi eshikni ochdi.

- Kim bo'larsan, qanday odamsan? - so'rdai Zayna.

- Ya'qub payg'ambariga gapim bor, uni boshqalarga aytmasman, - javob qildi arabiy.

- Ya'qubning bugun oldingga chiqqulik holi yo'qdir. Bugun u Yusufning qonli ko'ylagini qo'lga olgandir. U Odam alayhissalom ridosini kiydi, Shis alayhissalom tojini boshiga qo'ydi, Nuh alayhissalom xassasini qo'lga oldi, Ibrohim alayhissalom ko'ylagini egniga ildi, Ismoil alayhissalom belbog'ini beliga bog'ladi. Arzini behojat podishohiga "Iloho, Yusufning o'lik yo tirikligini menga bildirgin!" - Deya arzi hol qildi Zayna.

- Duosi ijobat bo'ldi, men Yusufning oldidan keldim, - dedi arabiy. Zayna kirib bu so'zlarni aytgandi, Ya'qub payg'ambar uni huzuriga chorladi. A'robiy Yusuf salomini topshirgach, ota oh-dodi-yu xushidan ayrildi. Xushiga kelgach:

- Ey arabiy, tushmisan? - deb so'radi.

- Tushmasman, Yusufning oldidan keldim, - dedi u. Shunda Ya'qub payg'ambar o'rnidan turdi-da, arabiy quchib, ikki ko'zini o'rtasidan o'parkan:

- Ey arabiy, Yusufimni shu ko'zlaring bilan ko'rdingmi? - deb so'radi.

- Ko'rdim, - dedi arabiy.

- Ey arabiy, meni shunchalik sevintirdingki, ne hojating bo'lsa aytgil, Oллоhdan so'rab berayin, sen ham sevinchga to'lgil!

- Ey Oллоhning rasuli, menga mol-dunyo kerakmas, yeguligim, kiyguligim bor. O'ttiz qizim boru o'g'lim yo'q. Duo qilgin, Oллоh taolo menga o'g'il ato etsin, - dedi arabiy. Ya'qub alayhissalomning duosi ijobat bo'lib, arabiyga oltmishga o'g'ilning karomati qildi.

Yusuf alayhissalom balog'atga yetgach, Oллоh taolo unga ilmi hikmat, ya'ni tushlar ta'birini evaz qilib berish bilan yorlaqadi. (Oyat) "Vaqtiki, u kamolga yetganda Biz unga hikmatni va ilmni berdik. Yaxshi amal qilguvchilarni Bizga anna shunday mukofotlaymiz".

(Aytishlaricha, balog'at yoshi o'n sakkizda, Yana aytarlar yigirmada, yana yigirma beshda derlar, tag'in o'ttiz, o'ttiz uch, qirq va yana oltmishda derlar).

Zulayhoning sabri qolmadi. Bir kuni Yusufni bo'stonga kiritib:

- Ey Yusuf, ko'nglida bir sir borki, uni hech kimsaga aytmasman, bu qanday sirligini bilurmisan? -dedi.

- Ey Zulayho, sening ko'nglingda nima borligin qayoqdan bilay, - dedi Yusuf.

- Mening ko'nglimda sening muhabbating bor, seni behad sevarman.

- Meni sevguncha o'z eringni sevgil.

- Ortiq sabr qilolmasman, ne iloj qilay?

- Sabrdan ortiq iloj yo'qdir, mening yuzimga boqmagin.

- Tirikligim boisi senga sabr qilmoqdir. Yana jonimning halovati sening yuzingdir. Yana ko'ziming nuri sening diydoringdir, - dedi Zulayho. Bu so'zlarni eshitgan Yusuf alayhissalom Zulayhodan o'zini yiroq tuta boshladi. Shu kuni qaytib ko'rinmadi. Ertasiga Zulayho uning oldiga keldi.

- Ey Yusuf, bo'stonimiz yana go'zallashmish, turfa chechaklar ochilmish, ne'matlardan bahramand bo'lish vaqti yetmish. Turgil, bo'stonga borgil, ne'matlardan yegil, chechaklarni hidlagil, tomosha qilgil, - dedi Zulayho.

- Ey Zulayho, mening bo'stonim Kan'onda qoldi, o'zga bo'stonning keragi yo'qdir, - dedi Yusuf alayhissalom unga javoban.

- Boshqa bir bo'stonda chechaklar suvsiz qolib so'lmish, unga suv bergil, - dedi Zulayho.

- So'lgan chechakka suv berish bo'ston egasiga munosibdir.

- Ey Yusuf, sening muhabbatingdan ko'zim yoshlarga g'arq bo'ldi. Koshki, seni ko'rmagan bo'lsam edi, - dedi Zulayho. Sen mening qulim bo'laturib, nega bo'ysunmassan?

- Men tangrining quliman.

- Ey Yusuf, yaqinroq kelgin, kimdan qo'rqasan?

- Ikki haqni saqlarman: biri yaratgan Oллоh haqqi, ikkinchisi meni sotib olgan Aziz haqqidan qo'rqaman.

- Osmonlar tangrisidan qo'rqar bo'lsang, hazinamdagi molu, oltinu-kumush, yoqut va gavharlarimni yo'qsillarga berib, sening gunohlargidan kechirayin. Agar erimdan qo'rqar bo'lsang, hoziroq og'u berib o'ldiraman-da, tavba qilaman, - dedi Zulayho.

- Gunoh qilmagin, tavba g'amiga botmagil, - dedi Yusuf alayhissalom.

Bu gaplardan achchig'i chiqqan Zulayho tarbiyachi enagasi oldiga borib, o'z holini unga bayon etdi. Enagasi unga ko'p nasihatlar qildi. Ammo Zulayhoga bu o'g'itlar yoqmadi. Qayg'u cheka-cheka, o'lar holatga yetganda kampar enaga yig'lab shunday dedi:

- Ey Zulayho, menga ko'p mol bergilki, men ularni shunday harj qilayin, maqsadingga yetkazayin.

Zulayho enagasiga ming oltin, ming misqol ifor, ming misqol kofur va qimmatbaho ichchi chopon berdi. Kampir bu mollarni sarflab, shishadan (ba'zilar aytishlari marmardan) bir uy bino qildirdi. Bu uyni oynadan yorug' qildirdi, naqshlar Bilan ziynatlatdi. Devorlari va shiftiga Zulayho va Yusufning suratlarini chizdirdi. Yashil, ko'k, qizil, sariq chechaklar bilan bezatilgan xonani kofiru guloblar va turli tilsimlar bilan to'ldirdi. (Aytishlaricha, begona kampirni uyga kiritmaslik lozim. Agar qaysi uyga kirsam buzmayin chiqmas).

Uy bitgach, Zulayho badanlari ko'rinib turadigan harir kiyimlar kiygan holda bu uyga kirib o'tirdi. Yusufni ham chaqirib, uyga kiritdilar. Bu uyning yettita eshigi bo'lib, har biriga zanjirlar solingandi. Yusuf alayhissalom qaysi bir eshikdan o'tgan zahoti u eshikni mahkam berkitdilar. U Zulayho o'tirgan xonaga kirganda Zulayhoni harir kiyimlar kiygan, bezangan va oroyish berilgan holda ko'rdi. Zulayho o'zini Yusufga bag'ishladi. Yusuf alayhissalom esa uni ko'rgach, lozimi bog'ichlariga tugun sola boshladi. Buni ko'rgan Zulayho u bog'ichlarini yechayotir, Deya umid qila boshladi.

- Ey Yusuf, yuing muncha ham go'zal, - deya gap qotdi Zulayho.

- Parvardigorim meni shunday yaratmish.

- Sochlaring namuncha chiroyli?

- Qabrimda hammadan oldin to'kiladigan mana shu sochlirimidir.

- Ko'zlaring bunchalar go'zal?

- Qabrda qurt-qumirsqalar avval ularni yerlar.

- Ey Yusuf, menga bir boqqil, - nozlandi Zulayho.

- Umrin so'ngida qorong'ulikdan (ko'r bo'lib qolishdin) qo'rqarman.

- Qo'lingni siynamga qo'ygin.

- Do'zaxdagi zanjirlardan qo'rqaman.

- Men kabi go'zallarni ko'ngling istamaydimi?

- Istaydi, ammo Oллоhdan qo'rqaman.

- Men seni sevaman.

- Men Oллоhni sevarman.

- Men bilan yotoqxonaga kirgin, - chorladi Zulayho.

- Jannatdagi o'rnimdan mahrum bo'lib qolishdan qo'rqarman.

- Sen mening sotib olgan qulimsanu, nega bo'ysunmaysan?

- Meni sotgan odamlar birodarlarim edi.

- Mega mendan qochrasan?

- Ikki zotning haqqi uchun: biri - yeru osmonlarning Ilohining haqqiki, undan qo'rqarman; ikkinchisi - sotib olgach, "Buni g'oyatda izzatda tut" degan odamning haqqidan qo'rqarman, - dedi Yusuf alayhissalom.

- Mol-dunyoim behad ko'pdir, sadaqa qilsam, ko'k tangrisi gunohingni kechirgay, erimdan qo'rqasang, zahar berib o'ldirayin, - Deya Zulayho necha bor talpindi, ammo maqsudi hosil bo'lmadi, hafsalasi pir bo'ldi.

- Oллоh taolodan panoh tilayman, - dedi unga javoban Yusuf alayhissalom. - Azizi Misr sotib olib, menga ezgulik qildi. Shu bois unga yovuzlik istamayman. Agar shunday qilsam, o'zimga zulm qilgayman. Zolimlarning tangri taolo azobidan omon topishga imkonlari yo'q. (Oyat) Yusuf dedi: "Hudodan panoh tilayman. Albatta, U mening parvardigorim, U mening darajasini chiroylik qildi. Albatta, zolimlar va to'g'ri ish qilmaganlar hargiz najot topmaslar".

Savol: Yusuf haqida Zulayhoning ezgu niyatlari ko'p edi, ammo u Azizni yaxshiladi. Buning hikmati nimada edi?

Javob: Zulayhoning ehsoni kibr-havo Bilan bulg'alangandi, shu bois uni yaxshi demadi. Azizi misriyning ehsoni kibrdan holi edi, shu tufayli Yusuf uni yod etdi.

Zulayho talpinganida Yusuf alayhissalom uni ko'rmayin, deya ortiga o'grilganida, o'zining suratinik o'rdi. Zulayho Bilan birlashib turgani rasmga solingandi. O'ngga, so'lga, osti-yu ustiga boqdi, shu manzaraga takror-takror ko'zi tushaverdi. Shundan so'ng Zulayhoga boqdi, bir suratiga qaradi, behad go'zal edi. Aytishlaricha, Havvo onadan keyin ayollar ichida Zulayhodan ko'rkami



yo'q edi, ko'nglida mayl uyg'ondi.

Savol: Zulayho Yusufga qasd qildi, ammo Yusuf Zulayhoga nega qasd qilmadi?

Javob: Zulayho kofira bo'lganidan zinoga qasd qildi. Yana aytishlaricha, o'sha vaziyatda mayl qilishlik erlik nishoni Bilan emas. Negaki, barcha payg'ambarlar butun ayblardan holidir. Erkakning er emaslik aybi hamma ayblardan og'irroqdir. Boshqa kichik ayblar payg'ambarlarda bo'lmas ekan, nega endi ulug' ayb Yusuf alayhissalomga ravo bo'lsin.

"Ehson al-bayon" degan tavsirda kelishicha, Madina shahrida Sulaymon ibn Yasar ismli go'zal va ko'rkam bir yigit bor edi. Madina ayollari uning ishq Bilan mast bo'lib, erlariga ko'ngilsiz bo'ldilar. Sulaymon ibn Yasar bundan habar topgach, baloga yo'liqmayin, Deya madinadan qochib borib, Shomga o'rtnashdi. . . Yettish yildan so'ng Yusuf alayhissalomni tushida ko'radi. Undan "Ey Yusuf, xotinlarga mayl qilib, qasd qilgan senmisan?", deb so'radi. Shunda Yusuf alayhissalom B "Agar parvardigorimning mo'jizalarini ko'rmaganimda edi, malomating o'rinli bo'lardi. Ayt-chi, ayollarga qasd qilmasdan ulardan qochgan senmisan?" deya javob beribdi. Ushbu dalil Bilan ma'lum bo'ladiki, Zulayho qasd qilganida Ollohning mo'jizasini ko'rgan Yusuf alayhissalom obro'yi bilan o'zini saqladi.

Payg'ambarimiz muhammad mustafo s.a.v. debdurlarki: "Menga dunyodagi uch narsa suyuqli bo'ldi: biri xushbo'y narsalar, ikkinchisi xotin zoti va uchinchisi namozda ko'zimning yorug' bo'lishi".

Ishorat: Agar Yusuf Zulayhoga qasd qilmaganida edi, (Oyat) "Biz shundoq qildik, undan yomonlikni va behayolikni qaytarmoq uchun" B deyilmagan bo'lardi. Yusuf alayhissalom qasd qildi, ammo Olloh taolodan qo'rqdi va shariat haqqini saqladi. Olloh taolo marhamat qiladiki: B "Kimki bizshga Yusuf singari sig'insa, uni Yusufni qutqargandan qutqazurmiz".

Hikoyat. Bir ayol imom Muhamma ibn hasan Shayboniyga oshiq bo'lib qoadi. U yo'l bo'yida poylab o'tirib, imom Muhammad kelganida dedi:

- Ey mo'minlarning imomi, sendan bir masalalni so'ramoqchi edim. Uyga kirgil, so'rayin.

Imom uyga kirishi bilan ayol ortidan eshikni berkitdi-da, unga tashlandi. Imom unga qancha nasihat qilmasin, qabul qilmadi.

- Mening xirsim kuchlidir. Jon achchig'idan xirs achchig'i qattiq deyishadi. Meni ko'rgil, hojatimni ushatib olayin, undan keyin sening murodingni hosil qilayin, - dedi imom.

Ayol bunga ko'ndi. Imom tashqariga chiqib, o'zining vujudidan chiqqan najosatini yuziga, bo'yniga surtgan holda qaytib kirdi.

Buni ko'rgan ayolning ko'ngli sovidi.

- Erkak kishi ham shunday bo'ladimi, bor ketgil! - deya uyidan chiqarib yubordi. Imom Muhammad uyiga borgach, ming oltinni sadaqa qildi va Olloh taologa shukrona keltirdi. Deydilarki, odamzotdan ikki narsa qolar: ezgulik va yomonlik.

Ko'rgilki, Zulayhoning o'tganiga necha yillar bo'lsa ham uning yaroqsiz ishini hamon barcha imomlar mehrobda, hamma olimlar minbarda, barcha qorilar anjumanlarda, hamma farzandlar maktablarda o'qib keladilar. Shuning barobarida Yusuf ham dunyodan o'tganida qancha yillar bo'lsa-da, uning ezgu nomi qoldi va uni Olloh kalomi ichida (Oyat) "Haqiqatda u Bizning muxlik qilgan bandalarimizdar", deya qiroat qilinmoqda.

Qachonki, Zulayho Yusufni uyga kiritganidan keyin eshiklarni temir zanjirlar bilan berkitganida Yusuf alayhissalom ko'ngli noxushlikni sezib, ishtoni bog'ichini tuga boshladi. Buni ko'rgan zulayho Yusuf ishtoni bog'ichlari yechmoqda, deb o'ylab, sevinganidan uyning to'rida turgan but ustini chodir Bilan yopib qo'ydi.

- Ustini yopganing nima edi? - so'radi Yusuf alayhissalom.

- Topinadigan butim o'shadir, undan uyalurman, - dedi Zulayho.

- Sen bir sanamdan uyalganingda men nega Ollohdan andisha qilmayin, - dedi Yusuf alayhissalom.

Ba'zilar aytadilarkki, Yusuf bu ishni qilayinmi, Deya ikbilanib qoldi. Qulning o'z murodi ustidan erki bo'lmasdi, ammo Yusufni o'zi ko'rgan dalillar to'xtatib qolgandi. O'sha dalillar nima edi?

Biri shuki, Yusuf "Qanoti yulingan qushday bo'lishni istaysan-mi? Boshqa qushlar ko'kka uchsa, sen yerda qolursan", degan ovozni eshitgandi.

Yana biri shuki, uy shiftida Ya'qub alayhissalomni ko'rganda va u "Ey Yusuf, payg'ambarlardan ekanligingni unutib, ahmoqlar ishini qilasanmi?" degan edi.

Yana biri shuki, uyning shiftida "Ey Yusuf, zino qilmagin!" degan yozuvni ko'rgandi.

Yana biri shuki, Azizi Misrni ko'rgandi. Yana aytishlaricha, Zulayhoning yuziga boqqanda, ko'ziga ko'rksiz ko'rindi: yuzi yong'oq kabi qavargandek, lablari habashiylar lablaridek, ko'zlari chaqir, burun teshiklari keng holda namoyon bo'ldi. Bu holatni ko'rgan Yusuf alayhissalom yuzini o'girdi.

- Ey Yusuf, bittagina so'zim qoldi, sabr qilgin aytib olayin, - dedi zulayho.

Ammo Yusuf alayhissalom ortiga burildi, Zulayhodan kechmoqqa tushdi. Zulayho Yusufni tutmoqchi bo'lib o'rnidan turdi, biri qochdi, ikkinchisi quvladi. Yusuf alayhissalom qaysi eshikka yetgani hamoni Olloh qudrati bilan eshikning temir zanjirlari o'z-o'zidan ochildirdi. Bir-birlarin qocha-quva yettinchi eshikka yetganlarida Zulayho Yusuf alayhissaloming etagidan tutib oldi, tortganida etak yirtilib, bir parchasi qo'lida qoldi. (Oyat) "Ular har ikkalasi darvoza tomon yugirdilar va u Xotin Yusufning orqa etagidan yirtib oldi hamda darvoza oldida ul xotinning erini uchratib qoldilar". Eshik oldida o'z erini ko'rgan Zulayho aybni Yusuf alayhissalomga ag'dardi:

- Seni uyningda xotining yomonlik qilgan, taomingga qo'l cho'zgan odamning jazosi nimadir? - dedi Zulayho o'zini oqlamoqchi bo'lib.

- Mening ayolimga kim yomonlik qildi, kim qo'lini cho'zdi? - dedi eri.

- Uyda yotgan edim, Yusuf kirib qoldi, yolg'izligimni ko'rib, menga qo'l cho'zгани qasd qildi. Achchig'imdan uni quvib chiqqanimda, sen duch kelding, - dedi zulayho.

Latifa. Zulayho kofira edi, o'z ayblarini Yusufga ag'dardi. Zulayho bir soat ichida uchta makr tuzdi. Avvalo aybini o'z zimmasidan Yusufga ag'dardi; keyin uni o'ldirib qo'yadilar deb qo'rqdi-da, zindonga solishni talab qildi; Yana zindonga soldirganim uchun menga nisbatan adovat uyg'onadi deb o'yladi-da, qattiq azobga solishini tiladi.

- Men seni sotib olgandim, ishonchli va ixlosli deb bilgandim, o'g'il tutingandim. Bularning evaziga shunday javob qildingmi? - dedi aziz Zulayhoning iddaslarini eshitgach, Yusufga qarab.

- Men pokman, gunohim yo'q, - dedi Yusuf alayhissalom o'zini himoya qilarman. - Zulayhoning o'zi qasd qildi, quvladi, qochib chiqdim.

- Sen unday deysan, bu esa bunday deydi. Qaysi birlaringgizning so'zlaringiz yolg'on ekanligini bilmay qoldim, - dedi Aziz bu gaplardan ojiz qolib, hayolga cho'markan.

- Bu ishga shoshilmagin, yaxshi o'ylab olgil, - dedi Yusuf alayhissalom.

- Pokligingga qanday guvohlik keltirasan? - So'radi aziz. Shunda Yusuf alayhissalom Zulayhoning Talhon ismli xizmatkorining beshikda yotgan to'rt oylik chaqalog'ini ko'rsatdi.

- Ey Yusuf, gunoh qilganing, yolg'on so'zlaganing yetmasmidi, yana mening ustimdan kularsan? To'rt oylik bola qanday qilib so'zlasin? - dedi Aziz ginaxonlik qilib.

- Menga yaqin kelgin, so'zlarimdan hursandchilik va farq toparsan, - dedi chaqaloq shunda azizga qarab. Aziz bolaning oldiga keldi. - Ey Aziz, Yusufning ko'ylagini oldi tomonidan yirtilgan bo'lsa, Zulayho rostgsho'ylardan bo'lar, Yusuf yolg'onchilardan bo'lar. Agar ko'ylakning orqa tomondan yirtilgan bo'lsa, Yusuf rostgo'ylardan bo'lar, Zulayho yolg'onchilardan bo'lar.

Savol: Chaqaloq Zulayho yolg'on aytdi, Yusuf to'g'ri so'zladi, Deya aniq-ravshan nishorna bermasdan, ishorat bilan gapirdi. Buning boisi nimada?

Javob: mahluq (yaratilmish)larning gunohliklari ikki narchadan biriga nishona beradi: yo poklaydi, yo ravo qiladi. Ammo bu bola Olloh taolo dargohidan so'z so'zladi. Shu sababdan yolg'on so'zlash ravo emasdi, rost gap aytilsa rasvolik bo'lardi. Rasvo qilmoq Yaratganga ravo emas, shu jihatdan Zulayhoning pardasini ochmadi, balki ibrat Bilan emas, ishorat bilan bildirdi.

Foyda. Ey mo'v'bin, o'z gunohingni o'zgalarga yuklamagin, yuklaguday bo'lsang, Olloh uning pokligini albatta bildirib, seni rasvo qilgay. Zinhor biror kimsaga dushmanlik qilmagilki, u ham senga dushmanlik qilmasin. Birodiring aybini odamlar oldida ochmagin. Negaki, Yusuf alayhissalom ham zarurat bo'lmaguncha o'zini oqlashga intilmadi.

Chaqaloq bergan nishona ravshan bo'lmasa ham Azizi misr mulohaza Bilan angladi. U Yusufning etagiga qarab, orqasi yirtilganini ko'rdi.

- Bu siz ayollarning hiylangiz ekan, - dedi Aziz Zulayhoga tanbeh nazari bilan boqarkan. - O'zingizni oqlash uchungunohingizni boshqalarga ag'darib qutilmoqchi bo'lasiz. Ayollar makri-hiylasiga chek-chegara yo'q ekan.

Aytishlaricha, ayollarning makri shahvat Bilan birga bo'lganidan ulug' turadi, ammo shaytonning makri kichikdir, chunki u Olloh zikri bilan zaiflashdi. Zero. Olloh taolo ham Qur'onda Azizdan habar berarkan "Haqiqatda sizlarning makr-hiylalaringiz ulug'dir" B dedi, Shaytonlar haqida esa B "Haqiqatda shaytonning makri zaifdir, hech narsa emasdir" deya marhamat qilgandir.

Savol: Ayollar hiylasi nimadan ulug' bo'ladi-yu, shaytonning hiylasi nimadan zaif bo'ladi?

Javob: Shaytonning hiylasi yashirin bo'lganidan zaifdir. Ayollar hiylasi ochiqligidan ulug' bo'ur.

Yana bir javob: Ollohning nomini eshita shayton qochib ketadi, ammo ayollar ming oyat o'qilsa ham qochmaydi.

Yana bir javob: Shayton hiyla qilgan chog'da yolg'iz bo'ladi, ayollar esa makr boshlasalar ularga shayton quldosh bo'lur. Shu tufayli shaytonniki zaif, ayollarniki ulug'dir.

Manbalarda hikoya qilinishicha, bu gaplarni aytgach, Aziz Misr achchiqlanib chiqib ketadi. Shunda Zulayho Yusuf alayhissalomga malomat boshlaydi:

- Ey Yusuf, sen qochmaganingda men bu holga tushmagan bo'lardim. Endi men senga shundoq azoblar qilayinki, ularni hali dunyo ko'rmagan.

- Ey Zulayho, sharm qilmading, gunohdan parhez tutmading. Menga qanday zo'zlar aytilganini o'zing ham eshitding. Hudodan qo'rqmading, bandalardan uyalmading. Qo'lingdan kelganini qilsang, mayli, roziman, - dedi Yusuf alayhissalom.

- Ey Yusuf, menga shunday zaharning zahrini torttirdingki, men hargiz bu og'uning totini senga ham torttirmayin qo'ymasman, - dedi Zulayho.

Shunda Olloh taolodan adab keldi:

- Ey Yusuf, baloga uchrading, endi sabr qilgin! Elda yaxshilik Bilan noming chiqsin! Ey Zulayho, erksiz holda ko'nglingni oldirding, endi tavba qilgin, gunohingni Olloh kechirsin! Ey Yusuf, Zulayhoning sirlarini boshqa ochmagin, dushman bo'lib qolmasin! Ey Zulayho, o'z gunohingni birovlariga ag'darmagil, mening haqqimni saqlagil!

Shundan so'ng zulayhoning kundun-kunga holi zabun bo'lib, kechasi uyqusi, kunduzi oromi qochib, Yusuf alayhissalomga muhabbatlari behad oshib boraverdi. Bo'lib o'tgan voqealar Misrning besh-olti ayoliga eshilib, ular "Zulayho bir qulga oshiq bo'lib qolib, uni o'ziga moyil qilmoqchi bo'lib, hamisha quvlarmish, quli esa qocharmish", deya malomat qila boshladilar.

Ulamolarning aytishlaricha, malomatchi xotinlar olti kishi edi: vazirning, soqiyning, bakovulning, yasovulning, qozining, hojibning xotinlari edi. Azizi Misrdan so'ng bu xotinlarning erlari podishohga yaqinroq va ulug'roq edi. Xotinlarning g'oyibona malomatlarini eshitgan Zulayho ulardan o'zini torta boshladi.

- Ey Yusuf, sen tufayli malomat o'qiga nishon bo'ldim. Bir qancha ayollar g'oyibona malomat qilmoqdalar. Maqsadim shuki, ularni mehmondorchilikka chaqiraman. O'sha vaqtda sen oftobda va dastsho'y olib kirgin, - Deya tayinladi Zulayho Yusuf alayhissalomni chaqirib, u zot rozi bo'ldilar.

Zulayho ularni mehmondorchilikka chorladi. Tansiq taomlar pishirtirdi, hammalarining o'tirar o'rinlarini belgilab chiqdi. (Oyat) "Vaqtiki u (Zulayho) ularning hiylalarini eshitdi, ularga odam yubordi va ular uchun chiroyli bir majlis hozirlab qo'ydi".

Ayollarning o'rinlari belgilangach, har birining oldiga bir tovoqda go'sht, yoniga pichoq va qovun qo'ydirib chiqdi. O'sha olti Xotin bilan yana boshqa ayollarni ham, jami qirq xotinni mehmonga chorladilar.

- Ey mening dugonalarim, qo'ldoshlarim, shuncha yilki, do'stlashdik, bordi-keldimiz bor, taomu ne'matlardan bahramand bo'ldingiz. Bugun sizlardan bir tilagim bor, o'sha tilagimni bajo qilmisiz? - dedi zulayho mehmonlari kelib o'tirgach.

- Ey Zulayho, nima tilaging bo'lsa, aytgil, hozirmiz, - deyishdi xotinlar ta'zim bajo qilib.

Chodirlaringizni kiysangiz, yuzlaringizni o'rasangiz, pichoqlarni qo'lingizga olsangiz. Do'stim Yusuf kelganida mening ko'nglim uchun oldingizda go'sht va qovunlardan kechib, Yusufning og'ziga qarab otavering. Kim ko'proq tirishsa, kattaroq bo'lakni kesib, Yusufning og'ziga qaratib o'tsa, unga kattaroq mukofot in'om etaman, - dedi Zulayho.

Hammalari rozi bo'lishgach, Yusuf alayhissalomga odam yubortirib, chorlatdi. Ul zot ham Zulayhoning so'zi sinmasin, Deya chiqib keldilar. (Oyat) "Vaqtiki, u xotinlar Yusufni ko'rdilar, g'oyatda hayratda qoldilar. Va u xotinlar bamisoli kunduz kuni chiqqan quyoshni ko'rdilar".

Payg'ambar alayhissalom dedilar: "Me'roj tunida Yusufni ko'rdim, u to'lin oyga o'xshardi. Kimki Yusufning yuiza boqsa, u aksini unda ko'radi. Misli ko'zguna ko'rganday. Yuzi ko'rklik, sochlari zun kokil, qadlari uzun bo'ylik, oq yuzlik, shaxlo ko'zlik, ingichka bellik, yo'g'on bilaklik, dumaloq boshlik edi. Kulsa tishlaridan nur taralar edi".

Yusuf alayhissalomni ko'rgach, ayollar shoshganlaridan pichoq Bilan go'shtni kesib, "Yusufning og'ziga tekkizayin", deyach ota boshladilar. Ko'zlari Yusuf alayhissalomga bog'lanib qolgandi. Bir ko'z bilan ikki ishni bitirib bo'lmas ekan. Ko'zlari Yusufni ko'rar, tillari Yusufning nomini tilga olar edi-yu, go'shtning o'rniga barmoqlari va qo'llarini kesdilar. Va tillaridaB "Menga kelaqol,

chunki men dugonalarimdan ko'ra go'zalroqman!" Deya chorlaganicha, Yusuf alayhissalomning ko'rkiga mahliyo bo'lib, qo'llarini to'g'raganlarini ham, kiyimlari qip-qizil qonga bo'yalganini ham sezmasdilar. Qatoda rahmatulloh aytadilar: "Qo'llarini bilaklariga qadar kesdilar. Negaki, ko'zlari va ko'ngillari bilan Yusufning jamolini ko'rib, og'riqni sezmadilar".

Vahab ibn Munahhab aytadilar: "Ular qirq xotin edilar, ularning to'qqiz ayoli o'ldilar".

- Subhanolloh! Bu odam bolasi emas, farishtaning yerdagi aksidir deyishdi xotinlar. - Oллоh taolo o'zining jamolini ko'rsatish maqsadida uni yerga jo'natdilar.

Zulayho ko'rdiki, xotinlar go'sht to'g'radilarmi yo qo'llarini to'g'radilarmi, bilmas edilar. Bu manzaradan Zulayho kuldi-da, Yusufga "Uyga kirgil!" dedi.

- Qo'llaringizga boqing, - dedi Zulayho xotinlarga qarab. Ko'rsalar hammalarining barmoqlari, bilaklari bo'g'in-bo'g'inlaridan kechilmish, kiyimlari qip-qizil qonga bo'yallmish. - Sizlar bir martagina ko'rib, qo'llaringizni to'g'radingizlar. Erta-yu kech uni ko'rib turgan holda men qandayin ham sabr qilayin?! Qandayin ham oshiq bo'lmayin?! Malomat qilishlikka arzirmikan yo yo'q? Xotinlar hijolatdan boshlarini qo'yi soldilar. So'zlagudek hollari qolmadi. Zulayho tahsinlar aytib, ko'p uzrlar so'rashdi. Zulayho qilgan ishiga iqrор bo'ldi. Aytдилarki, chiroqni ko'rib, o'zini o'tga urgan parvonani malomat qiladilaru, ertasi o'zlari ham parvona kabi chiroqqa kelib quyiladilar.

- O'z qulingga oshiq bo'lding, Deya malomat qildinglar, bundan tonmayin, - aybini tan oldi Zulayho. - Yusufni huzurimga chaqirib, eshiklarni berkitdim, ko'ylagi etagini ham men yirtdim. Ammo, Yusuf o'zini saqladi, menga bo'ysunmadi. Bilinglarki, bu Yusuf ko'hlikdir, pokizadir, ham zohid va olimdir. Men uning ko'ngliga ma'qul tushmadim, rasvo bo'ldim, El malomatiga uchrادم, sharmanda bo'ldim. Agar u mening buyrug'imga itoat qilmasa, albatta zindonga tashlaturman.

- Bu ishingdan qaytgин, - deyishdi xotinlar. - Bu ishni bizlarga qo'yib bergin, uni zindon Bilan qo'rqitib, senga moyil qilib beraylik. - Ey Yusuf, Zulayhoni nima uchun qabul qilmading, - dedilar xotinlar Yusuf alayhissalom chaqirtirib o'rta olishgach. Ammo har qaysisining ko'nglida uni o'zlariga moyil qilish orzusi bor edi. - U seni qancha miqdorda mol berib, sotib olgan-ku! U seni o'ldirsa ham, har qancha azob bersa ham haqlidir.

ВЪ”Iloho, avvaliga Zulayho yolg'iz edi. Endi unga olti Xotin qo'shildi. Yettoviga qarshi men ne qilay? Holim ne kechar?

Bularning yo'lga yurgandan ko'ra zindon yaxshiroqdir.

Rasul alayhissalom aytibdurlar: "Oллоh taolo birodarim Yusuf alayhissalomga rahm qilsin. O'sha kunda Yusuf alayhissalomning o'rnida men bo'lganimda zindonga tashlanishga ko'nmagay edim. "Iloho, meni zindondan va xotinlar balosidan o'zing asragin", der edim".

Deyдилarki, ul xotunlarning Yusuf alayhissalomni zindonga soldirmoqlikdan niyatlari shu Ediki, "Yusuf zindonband etilsa, Zulayhodan uzoq bo'ladi, biz ham har doim borib ko'rishga, go'zal yuziga to'yib termulishga muyassar bo'lgaymiz" degan.

Savol: Yusuf alayhissalom uchun qiynoqlar va jazolar ko'p edi. Nega Zulayho bilan Azizning ko'ngliga zindondan boshqa azob berish kelmadi, buning hikmati nimada edi?

Javob: Oллоh taolo bir avliyo qulini zindonga kiritgandi. U zotning ko'nglida Yusuf alayhissalomning muhabbati bor edi. U "Hudoyo, menga Yusufning jamolini ko'rgazgil!"B deb duo qilgandi. Tangri taolo uning duosini ijobat qildi. Shu bois Zulayho bilan Azizning ko'ngliga solindiki, ular Yusuf alayhissalomni zindonga soldirdilar. O'sha avliyoning murodi hosil bo'ldi.

Aytishlaricha, Yusuf alayhissalomni zindonband qildirmoqlikdan Zulayhoning maqsadi shu Ediki, B "Men El ichida ovoza bo'ldim, Yusufni ilgari gidek ko'rgim ham yo'q. Men ko'rsam, o'zgalar ham ko'rmasinlar" deb.

Aytдилarki, Aziz ham, Zulayho ham Yusuf alayhissalomdan boshqalardan ko'rmagan narsalarni: etakni yirtmog'ini, chaqaloqning guvohini, qo'llarning kesilganini, xotinlarning "Bu odamzotning farzandi emas", degan iqrорlarini, Yusufni pokizaligini ko'rdilar.

Zindonga solinmog'iga sabab ham manna shunda edi.

Deyдилarki, Yusuf alayhissalomni zindonga olib kelishganda zindonbon "Yusufning kiyimlarini almashtiraylik", deganda bunga Zulayho ko'nmadi: B "Buning zindonga kirguday gunohlari yo'q. Biz uni odamlardan asramoq uchun zindonga kiritdik", dedi.

Shundan so'ng zindonni tozaladilar, hushbo'y qildirdilar, bisotlar to'shadilar, taxt qo'ydirdilar.

Yusuf alayhissalom zindonga "Bismillahir rahmanir rahim", deb kirdilar va so'ngra "Assalomu alaykum, ey ahli zindon!" dedilar.

Zindoniylar ham B "Va alaykum assalom va rahmatullohi va barakotuhu", deb javob qildilar. Yusuf alayhissalom borib taxtga o'tirdilar, u zot kirgach, zindon yorishib ketdi, bundan zindoniylarning sevinchlarini oshdi.

Bir vaqtdan so'ng asr namozi vaqti kirdi. Namoz o'qidilar, so'ngra yig'ladilar, zindoniylar ham qo'shilib yig'lashdi. Oллоh taolo shundan so'ng zindonda Yusuf alayhissalom namoz o'qib turganida Oллоh taolo Jabroil alayhissalomni yubordi. U zot uzumga o'xshash mevani keltirib, Yusuf alayhissalomning og'ziga soldilar, meva eridi va hamma tomirlariga yoyildi, tushlar ta'biri shu orqali singidi.

Msir xalqi turli taomlar olib, Yusuf alayhissalomni ko'rgani kelar edilar. Qo'li kesilgan xotinlar ham tansiq taom pishirib, zindonga keltirar edilar. Yusuf alayhissalom bu taomlarni zindon ahliga tarqatardi.

- Ey yusuf, bizlar seni behad sevarmiz, - dedilar zindoniylar.

- Oллоh o'zi asrasin! - dedi Yusuf alayhissalom bunga javoban va qattiq yig'ladi. - Otam jondan azizroq tutgandi, - quduqqa tushdim, ozod edim, qul bo'ldim. Zulayho jonidan ortiq ko'rgandi - zindonga tushdim. Endi sizlar suyar bo'lsangiz, boshimga Yana ne mashaqqatlar tushar ekan.

Ertasi kuni namozni ado etgach, mehrobda turib, zindoniylarga ilm o'rgatayotgan chog'da ikki yigitni zindonga olib keldilar.

Ularning biri Rayyon podshohning bakovuli, Yana biri esa podshohning soqiysi edi. Bakovulni Malso, soqiyni Sanvo derdilar.

Savol: U ikki ovning zindongakirmog'ligiga nima sabab bo'lgan?

Javob: Abdulloh ibn abbos ayturki: "Rum podshohi Misr podshohi bilan xusumatli edi. Negaki, Rum podshohi misrga elchi yuborib tayinladi. Misrliklar bizga hiroj bersin va nomimizga pul zarb qilsin!", bu amr bajarilmagach, xusumat paydo bo'ldi.

- Rayyon podshohni qanday qilib daf qilarmiz, - dedi rum podshohi vazirlarini mashvaratga chorlarkan.

- Rayyonning ikki ishonchli odam bor: biri bakovul va biri soqiy, - dedi vazirlardan biri. Ularga ko'p mol bersak, soqiy sharob bilan bakovul taom bilan zahar berib o'ldiradilar. Murodimiz hosil bo'ladi.

Bu gap podshohga ma'qul tushadi. Ikki odamga ko'pdan-ko'p mol-dunyo, zer-zavarlar va shirin va'dalar berib, Misrga jo'natdi.

Elchilar misrga kelganlarida kun kech bo'lib qoladi. Tunashga uy qidirib yurib, bir kampirga duch kelishdi.

- Qo'noq kerakmi? - deyishdi elchilar eshigi ostonasida o'tirgan kampirga.

- Menday kampirmi istasanglar, tushaveringiz, - dedi kampir.



Tunagani tushdilar, ammo otlarini boylashga joy topmadilar. Bundan kampirning jahli chiqdi:

- Podshohimizga tangri o'lim bersin!

- Podshohni qarg'amoq - yomon ishdir, - deyishdi elchilar.

- Otamdan uy bilan yer qolgan edi. Endiga kelib uni mendan tortib oldilar. Bugun mehmonlarning otini boylashga joy topolmasman, - dedi kampir, zarda bilan.

- Biz ikkovimiz bir bo'lib, podshohga zahar bersak bo'larmikan? - deyishdi elchilar kampirning podshohdan norizo bo'lganini fahmlab.

- Podshohning soqiysi va bakovuli bor. Ular ikkovi meni ona o'rnida ko'radilar, - dedi kampir. - Ular mening oldimga kelib turadilar. Kelganlarida ularga mol-dunyo bersang, ishingni bitirib berarl.

Kampir elchilarni bakovul bilan soqiyning uyiga olib borib, tanishtirdi, do'st tutindilar. Elchilarning gapiga ko'ndilar.

- Rayyon podshoh bizlarga ishonib, o'ziga xos qildi. Uning tufayli ko'plab mol-dunyo egasi bo'ldik. Agar elchilarning aytganini bajarsak, podshohga ko'rnamaklik qilgan bo'lamiz. Men bundan ishni qilishni or deb bilaman, - deya andishaga bordi soqiy.

- Ey soqiy, Rayyon senga ishonch bildirib, o'ziga yaqin qildi, uning yaxshi otini mingding, yaxshi to'nlarni kiyding. Endi bir dushmanning yolg'on va'dalariga ishonib, ko'rnamaklik qilasanmi, hiyonatga qo'l urasanmi? - dedi kampir uning o'ylanib qolganini ko'rib.

- Men ham shunday andishaga borgandim, sening fikrlaring menga quvvat bo'ldi, - dedi soqiy va bundan qarori qat'iylashdi, so'ngra rayyonga borib aytdi: - Ey podshohi olampanoh, men bakovulning hatti-harakatida shubha sezyapman. U biror shumlik boshlab qo'ymasin, degan havotirdaman, habardor bo'lib tursangiz undan.

- Men soqiy bilan birgalikda sendan yoman shubha-gumonlarga bordik, - dedi podshoh bakovulini chorlatib.

- Menda hech shubhalanadigan ish bo'lgani yo'qdi, - dedi bakovul o'zini oqlab. - Ammo soqiydan men ham gumondaman.

Rayyon so'zlardan so'ng har ikkisini ham gumon qilib, Azizi misrga maslahat soldi.

- Odam o'ldirish oson ish, - maslahat qildi aziz, - tiriltirmoq mushkul. Yaxshisi bularni zindonga solgan ma'qul.

Podshohga bu maslahat ma'qul kelib, ikkalalarini zindonga yuborganda Yusuf alayhissalom zindoniylarga nasihat qilib, ularning tushlarini ta'birlab turgan edi. Ikkiovlarik yengashdilar.

- Bu kecha tush ko'ribman, - dedi soqiy Yusuf alayhissalomni sinamoqchi bo'lib. - Tushimda bir tup tokni ko'rdim, uch bosh uzumi bor edi. Ularni siqib, suvini qadahga solib, falakka qadah tutar emishman.

- men esa tushimda uchta tandirni ko'rdim: biri oq, biri qora, biri qizil. Uchovida ham non pishirib, boshimga qo'yib, podshoha olib boray deganimda havodan qushlar kelib, talashib olib ketdilar, - dedi bakovul ul ko'rgan tushini bayon qilib.

Ular tushlarini aytib tugatgach, ta'birini so'radilar. Yusuf alayhissalom ko'rsalarki, birining tushi hayrli, biriniki esa hayrsiz edi.

Ko'ngliga keldiki, "Bularni imonga da'vt qilayin, tushlari hayrsiz ro'yobga chiqsa ham mo'min bo'lib o'lsinlar", deya.

- yomon oqibat sodir bo'lmasdan burun sizlarga ta'birini aytib berayin. Qani aytinglar-chi, uzum oqmidi yo qizilmidi, achchiqmidi yo chuchukmidi? Nonlari qanday edi-yu, idishlari qay tarzda edi? Hammasini so'zlab bering, - dedi Yusuf alayhissalom ulardan so'rarkan. Va bu belgi-alomatlarni ham o'zlari aytib berdilar.

- Idish ham bizniki edi, taom ham bizniki edi. Sen qaerdan bilasan ularni? - taajublanishdi ikkovlari ham.

Rayyon so'zlardan so'ng har ikkisini ham gumon qilib, Azizi misrga maslahat soldi.

- Odam o'ldirish oson ish, - maslahat qildi aziz, - tiriltirmoq mushkul. Yaxshisi bularni zindonga solgan ma'qul.

Podshohga bu maslahat ma'qul kelib, ikkalalarini zindonga yuborganda Yusuf alayhissalom zindoniylarga nasihat qilib, ularning tushlarini ta'birlab turgan edi. Ikkiovlarik yengashdilar.

- Bu kecha tush ko'ribman, - dedi soqiy Yusuf alayhissalomni sinamoqchi bo'lib. - Tushimda bir tup tokni ko'rdim, uch bosh uzumi bor edi. Ularni siqib, suvini qadahga solib, falakka qadah tutar emishman.

- men esa tushimda uchta tandirni ko'rdim: biri oq, biri qora, biri qizil. Uchovida ham non pishirib, boshimga qo'yib, podshoha olib boray deganimda havodan qushlar kelib, talashib olib ketdilar, - dedi bakovul ul ko'rgan tushini bayon qilib.

Ular tushlarini aytib tugatgach, ta'birini so'radilar. Yusuf alayhissalom ko'rsalarki, birining tushi hayrli, biriniki esa hayrsiz edi.

Ko'ngliga keldiki, "Bularni imonga da'vt qilayin, tushlari hayrsiz ro'yobga chiqsa ham mo'min bo'lib o'lsinlar", deya.

- yomon oqibat sodir bo'lmasdan burun sizlarga ta'birini aytib berayin. Qani aytinglar-chi, uzum oqmidi yo qizilmidi, achchiqmidi yo chuchukmidi? Nonlari qanday edi-yu, idishlari qay tarzda edi? Hammasini so'zlab bering, - dedi Yusuf alayhissalom ulardan so'rarkan. Va bu belgi-alomatlarni ham o'zlari aytib berdilar.

- Idish ham bizniki edi, taom ham bizniki edi. Sen qaerdan bilasan ularni? - taajublanishdi ikkovlari ham.

- (Oyat) "Har kuni rizqlanib turgan taomlaringiz kelmay turib, men sizlarga tushlaringiz ta'birini aytib berman. Bu narsa esa menga parvardigorimning ta'lim bergan narsalaridandir, - dedi Yusuf alayhissalom".

- Bu karomatni qanday topding?

- (Oyat) "Haqiqatda men Ollhga imon keltirmaydigan qavmlarni tark etdim. Kofirlardan uzoq bo'ldim".

- Bu yo'lni tark qilgan bo'lsang, qaysi yo'ldan yurursan?

- (Oyat) "Men otalamri Ibrohim va Ishoq hamda Ya'qublarning tutgan yo'llariga ergashdim".

- Otalaring bu yo'lni nimadan topdilar.

- Olloh taologa hech kimni sherik qilmadilar, - dedi Yusuf alayhissalom. - (Oyat) "Bu esa Ollohning bizlarga va boshqa inoslarga bergan fazlu-karamidir, lekin odamlarning ko'pchiligi bunga shukur qilmaydilar.

Ey mening zindoniylar ikki qo'ldoshim, yaratilgan ilohlar yaxshiroqmi yo Yaratuvchi Olloh yaxshiroqmi? Siz o'zingiz butlar yasaysizu uni iloh deb aytasiz. Vaholanki (Oyat) "Olloh taolo ular uchun hech bir dalil tushurmaganidir". Taqdir hukmi ham, hamma amriyrosi ham Ollohdandir. Ey soqiy, tushingning ta'biri shuki, uch kundan keyin seni zindondan ozod qiladilar. So'zingning rostligi ma'lum bo'lib, senga sarupolar berib, uzrlar aytib, mansabingga qaytarurlar, izzat-hurmatning oldingidan ham ziyoda bo'lur. Soqiy bu ta'birdan behad sevindi. Bakovul ham ko'rgan tushining ta'birini istagandi, Yusuf alayhissalom "Ta'biri yo'q", deya aytmadilar. Bakovul ko'p qistovga oldi.

- Seni zam uch kundan keyin zindondan chiqarurlar. Maydonga olib chiqib, . . . osarlar, qush-qumrsqalar kelib, go'shtlaringni tortishib yerlar, - dedi Yusuf alayhissalom.

- Men tush ko'rganim yo'q, yolg'on aytgandim, - dedi bakovul.

- Ayt dingiz, ta'bir qildim, hxlasangiz ham, hoxlamasangiz ham bu ishlar Olloh tomonidan hukm qilib bo'lingan, taqdirda shunday yozilgan, hukm o'zgarmaydi, - dedi Yusuf alayhissalom.

Uch kundan so'ng ikkisini ham zindondan chiqardilar. Biri mukofotga, biri jazoga giriftor bo'ldi, birining martabasi ko'tarildi, brining esa oyog'i yerdan ko'tarildi, osildi.

- Podshohga yaqin bo'lganingda meni esingga olgin, meni bu yerdan ozod qilsin, - dedi Yusuf alayhissalom soqiy zindondan chiqayotgan chog'ida.

Bu so'zlar Olloh dargohida xush kelmadi, negaki bu fikrni uning diliga shayton solgandi. Jabroil alayhissalomga farmon bo'ldi.

- Ey Yusuf, seni otang bilan qovushtirgan kim? - so'radi jabroil alayhissalom.

- Olloh taolo, - dedi Yusuf alayhissalom.

- Birodarlaring qo'lidan seni kim qutqardi?

- Olloh taolo.

- Ayollar makridan seni Kim saqladi?

- Olloh taolo.

- Olloh taolo senga shuncha ezguliklar qiladi-yu, sen nega Ollohni qo'yib, boshqalardan haloslik istaysan, bandalarni rabbim deyursan? Izzatu jalolim haqqi-hurmati seni soqiyga unuttirgayman, Yana yillar davomida zindon ichida qoldirgayman, - degan farmonni yetkazdi jabroil alayhissalom.

Keyin Shayton soqiyga Yusuf haqida podshohga aytishlikni ununntirdi, yetti yil Yana zindon ichida qolib ketdi.

Savol: Olloh taoloning soqiyga shayton tufayli unuttirmog'ida ne hikmat bor edi?

Javob: Agar soqiy unutmaganda, podshohga aytganida Yusuf alayhissalomni zindondan chiqarsalar edi, podshoh "uni men chiqardim", deya minnat qilgan bo'lardi. Olloh talo ularning minnatini Yusuf alayhissalomga ravo ko'rmadi, o'z fazli-karami Bilan chiqardi, minnat Olloh taolodan bo'ldi.

Bir kuni jabroil alayhissalom kelib, Ushbu duoni o'rgatdilar: "Rahmli va mehribon Olloh nomi Bilan boshlayman. Ey barcha ulag'larning ulug'i. Na sherigi, na o'xshashi bor va har narsaga qodir zot! Quyosh va yorug' oyni yaratguvchisi, yosh go'dakka rizq berguvchi va ulug' yoshli mo'ysafidga rahm qilguvchi va o'liklarni tiriltirguvi zot!

Daryodan yettida sigir chiqdi: sariq tusli, yuzlari oq, yelinlaridan sut oqib turardi. Keyin yana yetti sigir chiqdi: oriq, tishlari to'ng'iznikidaya, burni filnikiday. Oriq yetti sigir yetti sigirni yedi, qorni to'ymadi. Bundan tashqari yetti tup bug'doyni ko'rdim: poyasi sabza, donlari to'la edi. Oriq sigirlar u donlarni yegani qasd qildi. Ammo yeb ulurmasan Yana yetti tup bug'doy paydo bo'ldi: quruq, kamdon edi. U quruq bug'doy, serdon bug'doyga chirmashib, uni quritdi. Shu payt bir qattiq shamol paydo bo'ldi va yetti oriq sigirni, yetti tup kamdon bug'doyni yo'q qildi. Bundan qo'rqib uyg'onib ketdim. Ey muabbirlar, bu tushimning ta'birini aytinglar!"

Muabbirlar tush ta'birini topa bilmadilar, uch kun maslahat so'radilar. Uch kundan so'ng qo'rqanlaridan "Bu tush parishon va bo'lg'anch tushdir. Uning ta'biri yo'q", deyishdi.

Aytishlaricha, o'sha kecha Yusuf alayhissalom ham tush ko'rdilar. Bir kishi osmondan tushib, Misr boyliklarini keltirib, Yusuf alayhissalomning qo'yniga solardi. Yusuf alayhissalom bo'lsa ularning hammasini qaytarib berardilar. Uyqudan uyg'ongach, o'z tushlariga ta'bir qilgach, zindon ahlini xushnud qildi:

- Ey do'stlar, sizlarga sevinchli bo'lsin, hammalaringiz zindondan qutilib chiqqaysiz. Misr xalqi sizga qul bo'lur, ular och, siz esa to'q bo'larsiz.

Aytishlaricha, shu kecha Zulayho ham tush ko'rdi. Tushlarida Yusuf alayhissalom taxt ustida o'tirgan emish, boshlarida toj. Zulayho uning oyoqlariga yiqiladi, ammo Yusuf alayhissalom uni oyoqlari bilan itarib tashlaydi. Zulayho lolu hayron bo'lib uyg'onadi, oh urib "tushimda ham meni ho'rlar, bo'ysunmas!" deb yig'lardi.

Xullas, muabbirlar podshohning tushiga ta'bir topolmay ojiz qoldilar.

- Shunchi yildan beri meni nonu tuzimni yedinglar. Uyalmasdan mening tushimni parishon va bulg'anch dersizlar, - dedi podshoh g'azablanib va kattalarini o'ldirtirdi, bir nechasini yurtdan chiqarib, quvib yubordi.

Shu payt zindondan qutilib chiqqan soqiy Yusuf alayhissalomni yodga oldi. Yusuf alayhissalomni Zulayho ham, Misr xalqi ham yetti yilgacha unutmagan edi.

- Bu tushning ta'birini bilguvchi oldiga men boraman, uning oldiga yuborgil, - dedi soqiy Riyonga.

- U kimdir? - so'radi podshoh.

- Go'zal suratli bir dono va rostgo'y yigitdir, - dedi soqiy.

- U yigit qaerda?

- U yigit zindondadir.

Rayyon soqiyni zindonga yubordi. Soqiy Yusuf alayhissalom oldiga kelgach, so'zining ustidan chiqmagani, Yusuf alayhissalomni podshohga eslatib qo'ymagani uchun hijolat tortib, ko'p uzrlar so'radi:

- Sizni faromush qilibman, gunohimdan o'tsangiz, - dedi soqiy. - Ey to'g'ri so'zlik, dono yigit ma'zur tuting.

Aytishlaricha, ular kfoir edilar, shu bois Yusuf alayhissalomni donno deya e'zozladilar. Kofirlar kofirlik hollarida ham uni olim deb hurmatladilar. Kimki olimni hurmatlasa, farishtalar qatorida bo'lar, kimki olimni ho'rlassa, Iblis qatorida bo'lar.

- Ey Siddiq, bir mushkul tushki, uning ta'birini bilishga kelibman. Rayyon podshoh tush ko'ribdi: yetti oriq sigir yetti semiz sigirni yer. Yetti tup quruq bug'doy yetti tup sabza bug'doyga chirmashib quritidir. "Bu tushimizni ta'birlasin", deya meni oldingizga yubordi, - dedi soqiy.

- Yetti semiz sigirning ma'nosi - yetti yil ma'murchilik bo'lgay. Yetti tup sabza bug'doy ma'nosi shuki, yetti yil hosil mo'l bo'lib, taom serob bo'lgay. Yetti oriq sigir - yetti yil qahadchilik bo'lishidan darak. Yetti quruq bug'doy - yetti yil qurg'oqchilikdan shohidlik berar, yetti yil yomg'ir yog'mas, ocharchilik bo'lar. Odamlar non deb jon bergaylar. Ota o'g'lidan, ona qizidan qochgay, - dedilar Yusuf alayhissalom tush ta'birini bayon qilarkan.

Rasuli akram s.a.v. dedilarki: "Birodarmi Yusufga rahmat! Shuncha yil zindonda yotib ham, tush ta'birini o'zim borib podshohga aytaman, demadi, shu bahonada zindondan chiqmoqni ihtiyor etmadi. Agar men bo'lsam shu bahonada zindondan chiqar edim. Olloh taolo fazlu karami bilan salomat asrabdi, g'am zindonida ko'nglini shodu hurram saqlabdi. Olloh bir bahona tufayli bir podshohni uning huzuriga yuborib, yuz ming izzatu hurmat bilan zindondan chiqarur".

Soqiy Yusuf alayhissalomdan eshitga ta'birlarini borib, podshohga bayon qilibdi. Podshoh hayronu lol qolibdi.

- Borib uning ta'birini ham so'rab kelgin, - buyurdi podshoh soqiyga.

- Yetti yil bug'doyu tariqni ko'p ektirsin, yemishlariga yarashasini yanchib, qolganini omborlarga joylasin, - dedi Yusuf alayhissalom ta'bir so'rab kelgan soqiyga. - Yetti yildan so'ng yana yetti yil kelgayki, unda osmondan yomg'ir yog'aydi, yerdan

giyoh unmaydi. Oldin yetti yilda to'plangan oziqlarni keyinggi yetti yilda yeydilar. Keyin yana farovonlik bo'lgay.

Soqiydan bu gaplarni eshitgan podshoh farosatli yigitning aqliga qoyil qolib, hayolga cho'mdi.

- Borib, tush ta'birini aytgshan yigitni bu yerga olib kelgin, - buyurdi podshoh. - Bu ishning ta'birini eshitib, ko'nglim taskin topsin.

- Podshoh seni huzuriga chorlaydi, - dedi soqiy zindonga qaytib kelib.

- Zindondan chiqmasman.

- Nima uchun?

- gunohim bormi, yo'qmi, zindonga tushdim. Buning sababini podshoh qo'li kesilgan ayollardan so'rasin, ular nima uchun qo'llarini kesdilar, egnilarini ne sababdan qonga bo'yadilar, murodlari nima edi? Shularni so'rab bilsin, mening gunohsizligimga ishonch hosil qilsin. Ungacha zindondan aslo chiqmasman, - dedi Yusuf alayhissalom.

Aytishlaricha, uning maqsudi shu ediki, "Ayollarning so'zlari podshohga ayon bo'lmay turib chiqsam, Malik Rayyon nima sababdan zindonga tushganimni so'rab qolsa, xotinlar holini so'zlab bersam, Rayyon ko'ngliga bu yoqadimi, yo'qmi, menga dushmanlik kayfiyati uyg'ongay. Yaxshisi o'zi so'rab bilsin, begunohligimni aniqlasin, so'ngra chiqayin", degan hayolga borgandi. Payg'ambar alayhissalom aytibdilarki, B "agar o'shanda men birodarim yusufning o'rni bo'lganimda edi, darhol zindondan chiqqan bo'lardim. Ammo u bu ishni yaxshi qildi, Malikning ko'ngli sof va ravshan bo'lsin, dedi".

Soqiy kelib bo'lgan gaplarni podshohga yetkazdi. Podshoh o'sha xotinlarni va Zulayhoni chaqirdi, Yusuf alayhissalom va Zulayho mojarosini so'rab-surishtirdi. Xotinlar bu mojaroni podshoh bilan utrib bizlardan so'ramoqda, deb gumon qildilar-da, bo'lgan voqeani birma-bir bayon qildilar.

- Ey podshoh, Yusuf pokiza va begunohdir, unga biz tuxmat qilib, zindonga tashlagandik. Biz o'zimizni unga bag'ishlagan edik, ammo u bizlarga qiyo ham boqmadik. Biz unda hech bir ayb ishni ko'rmadik, - deyishda ayollar ayblariga iqror bo'lishib.

- Yusuf mendan shikoyat qilib, hech yomonladimi? - so'radi parda ichida o'tirgan Zulayho soqiyga murojat qilib.

- Sen haqingda bir og'iz ham yomon gap aytmadi, - dedi soqiy.

- Ofarin! Qanday yaxshi er kishiki, qandayin yaxshi olim va obid, qandayin yaxshi taqvodor zotki, mening tuhmatimdan o'n ikki yil zindonda yotsa hamki, sirimni fosh etmadi, aybdor qilmadi, - dedi Zulayho. So'ngra chodirdan chiqib keldi-da, podshoh qoshiga turib aytdi: - Ey podshoh, hozirga qadar muhabbatim majoziy edi, endiga kelib haqiqat zohir bo'ldi, haqiqiy muhabbatga erishdim, shu bois haqiqatni aytish poziti keldi. Hamma gunoh menda, gunohni unga yuklagan ham men, oshiq bo'lgan ham men, uyga chaqirgan ham men, quvlab, etagini yirtgan ham men, yolg'on so'zlagan ham men, gunohkor ham mendirman. U pok gunohsizdir, - dedi Zulayho.

Ayturlarki, Zulayho Azizi Misr va rayyon oldida uch so'zni rost aytgandi: birinchisi - haqiqat zohir bo'ldi; uchinchisi - men uni o'zimga moyil qilmoq uchun harakat qilgandim; uchinchisi - haqaqtda u rostgo'ylardandir. Bu uch so'zni karomatidan uch karomat topdi: kofira edi - imon topdi, xo'r edi - aziz bo'ldi, qari edi - yosh bo'ldi, Yusuf alayhissalomga juft bo'ldi.

- Ey podshoh, - dedi Zulayho iqroriga davom qilarkan, - agar Yusuf bu davrgacha zindonda turmaganida edi, uning ishqida o'zimni halok qilgan bo'lardim. Muhabbatim avvalgidan ham ziyoda bo'ldi.

Hikoyat. Zulayho Yusuf alayhissalomni zindonga soldirgandan keyin hpam zindonga borib turardi.

- Borgil, Yusufni bog'lagil, ayamay tayoq bilan savalagil, toki uning faryodini eshitib turayin, - der edi zindonbonga tayinlab.

Ammo bu gap zindonbonga xush kelmay Yusuf alayhissalomga borib aytardi.

- Zulayhoning tilagini bajo qil, meni urgali! - dedi Yusuf alayhissalom unga javoban.

- sen bir nido qilgil! - dedi zindonbon bunga unamasdan va zulayhodan qo'rqqanidan bir tayoqni olib kirib yerga tashlarkan. Yusuf alayhissalom zindonbonning ko'ngli uchun nido qilardi, Zulayho buni eshitib, saroyga qaytar edi.

Savol: Zulayho Yusufni sevardi-ku, tayoq Bilan urdirishda nima hikmat bor edi?

Javob: Zulayho oshiq edi. U "Yusufning yuzini yaqindan ko'rolmasman, hech yo'qdir uzoqdan bo'lsa-da ovozi eshitayin, ko'nglim ovusin", der edi. Shu kabi mo'min bandaga ham do'zah ko'rsatilgay. Ollohning do'sti bo'lgan mo'min qullar do'zah qo'rqinchidan o't ichida turib nola qilgaylar. Shunda Olloh taolo (Oyat) "Gunohkor bandalarimning gunohlarini eslab, mendan qo'rqim ingrashi-rostgo'y bandalarimning baqirib kulgan duosidan mahbubroqdir". Olloh taolo mo'minlarni suygani tufayli kofirlarga ko'rsatib, B "Hayoti dunyoda meni yod qilgan qullarim bor edi. Ularni bu kun do'zaxga tashlagandim, ular o't ichida turib ham meni yod etarlar", der ekan.

Soqiy zindonga borib, ayollar va Zulayhoning so'zlarini yetkazdi.

- Sening nafsing o'z xohinlarida haddan oshdi, uning yo'lidan ozdirishlaridan omonda bo'la olmaysan, chunki nafs yetmishda shaytondan ham yomonroqdir, - dedi jabroil alayhissalom.

Aytishlaricha, Yusuf alayhissalom yetti yil zindonda yotdilar. Soqiyga umid bog'lagani uchun Yana olti yil zindonda qoldirildi. U zot zindonda uch yumush bilan mashg'ul bo'ldilar: duo qildi, xalqdan umiz uzdi va sabr qildi. Shu tufayli Olloh taolo unga farah berdi.

Aytadilarki, Yusuf alayhissalomning so'zlarini yetkazganlaridan podshohning ishtiyoqi ortib ketdi va zindonga shohona liboslar Bilan odam yubordi.

- Yusufni meng olib kelinglar. Uni o'zimga xos qilayin, mamlakat ishlarini unga topshirayin, - dedi.

- Ey sodiq zot, turgil, seni podshoh chorlaydir. Pokliging aniq bo'ldi, gunoh va hiyonat boshqalardan chiqdi, - dedi podshoh elchilari.

Yusuf alayhissalom hushnud bo'lib, zindon eshigiga kelib boshlarini yuvdilar, sochlarini taradilar, shohona liboslar kiyib, boshlariga toj qo'ndirdilar.

- Ey yusuf, bu zindonda ko'p yillar beri bizga esh edingiz, oshu nonlar berib, ko'p yaxshiliklar qildingiz. Endi bizlar sizdan ayrilib, qandoq tura olamiz, - deyishdi zindoniylar hammalari yig'ilishib.

- Podshohga borib, Yusuf ko'p yillar zindon ahli bilan ulfat bo'lib edim. Endi men bu yerdan chiqib ketadigan bo'lsam, bularning bag'ri biryon, ko'zi giryon bo'lib qoladi. Inoyat qilib, bularni ham ozod qilsin, gunohlaridan o'tsin, yo'0qsa meni bulardan ayirmasin deb aytdi degin. - Yusuf alayhissalom shu so'zlar bilan soqiyini qaytarib yubordi. Soqiydan bu gaplarni eshitgan podshoh zindoniylarning barchasisni ozod qildi, yaxshi liboslar qiydirdi.

Bashorat. Bu kun yer podshohi Yusuf alayhissalomning sharofatlari Bilan zindoniylarni ozod qilib yubordi. Erta kelar kunda Olamlar podshohi muhamma alayhissalomning sharofatlari Bilan barcha osiy ummatlarni do'zaxdan ozod qilsa ne ajab!

Yusuf alayhissalom hamma zindoniylar bilan zindondan chiqqanlarida, eshik oldida oltin aravani ko'rdilar. O'sha davrda podshoh kimga izzat ko'rsatsa, uni oltin aravaga mindirar eldi. Yusuf alayhissalom oltin aravaga o'tirarkan, qog'oz va qalam so'radilar va



unga shu so'zlarni bitib, zindon eshigiga yopishtirgizdilar: "Bu do'zax-tiriklarga go'rdir, do'stlarga riyozat joyidir, dushmanlarga malomat va ozor joyidir".

Yusuf alayhissalomni oltin aravaga mindirib, izzat-ikrom Bilan Misrga olib kirdilar.

- O'n ikki yil oldin qo'lga zanjir, oyog'iga kishan urilgan, eshakka mingdirib, zindonga olib borilgan o'g'lon shumi?! Qarang, bugun bundayin shohona izzat-ikromga musharraf bo'libdi-ya! - deyishda shahar ahli bir-birlariga. - Iloho, o'sha ho'rlik nimaga edi-yu, bu izzatlar nimaga bo'lur.

- Ul zot kimni istasa aziz qilur, kimni istasa hor qilur. Men uning hukmiga roziman! - dedi Yusuf alayhissalom.

Vaqtiki, Yusuf alayhissalom podshoh huzuriga kirganida:

- Assalomu alaykum, marhamatli fuqarolar! - Deya salom berdi.

Yusuf alayhissalom kirib kelganlarida podshoh uni o'rnidan turib qarshi oldi va yonidan joy berdi. Aytishlaricha, podshoh Yusuf alayhissalomga yetmish til Bilan so'z so'zladi, ul zot ham hamma tillarda javob qildi. Mujodala so'ngida Yusuf alayhissalom ibroniy tilida podshohni duo qildilar.

- Bu nechuk tildir? - so'radi podshoh.

- Bu mening otalarim Ibrohim, Ishoq va Ya'qub alayhissalomlar tilidur, - javob qildi u zot.

Yusuf alayhissalomning javoblari podshohga yoqdi, tush ta'birini so'radi.

- Bu kun qadr-qammatingiz ma'lum bo'ldi. O'z tasarrufimdagi hamma narsalarni senga ishondim, senga vazirdikni berayin, - dedi.

- Vazirlik Azizi Misrning haqqidir. Mening zimmamda uning ko'p haqlari bor. U tirik ekan, vazirlikni olmasman, - dedi Yusuf alayhissalom.

- Ey Yusuf, jamiki podshohlik senga munosibdir, qaysinis kerak bo'lsa olgil.

- Ey podshoh, boshqa narsani istamasman, menga faqat yer hazinasini yetti yilga topshirsangiz bas, boshqa mansab menga munosib emas, dehqonchilikni yaxshi bilarkan, - dedi Yusuf alayhissalom.

- Ey Yusuf, mening davlatimda istaganingni qil, faqat ikki ishdan o'zingni saqlagil: xonadanimdagi xotinlarim va kanizlarim bilan so'zlashmagin, - dedi podshoh.

- Bizning shariatimizda bunday ishlar harom hisoblanur, mening ham bunday ishlarga hoxishim yo'qdir.

- Ikkinchisi shuki, mening Bilan bir tavoqda taom yemaysan, men ham sen bilan ovqatlanmasman, - dedi podshoh.

- Sen bilan birga ovqatlanmoq men uchun ham or hisoblanur.

- Nima uchun? - taadjudlandi podshoh.

- Men Ya'qub payg'ambarining o'g'li, ishoq payg'ambarining nabirasi, Ibrohim payg'ambarining avlodidanman. Shunday bo'lgach, sen Bilan qandayin ham birga ovqatlanay, - dedi Yusuf alayhissalom.

Podshoh Yusuf alayhissalomga qasri oliy hozirlatdi. Yusuf alayhissalom yetti yil g'alla ektirdilar. Ularni somoni bilan omborga qmadailar. Tog'larda suqurlar qazdirib, ularni ham donlar bilan to'ldirdilar.

Aytishlaricha, o'sha zamonda podshoh fuqaroning yarim hosilini olar edi. Yusuf alayhissalom esa aholiga adolatli hukm yuritdi.

Yurt obod bo'ldi. Uch yil o'tganidan keyin Azizi Misr o'ldi va uning o'rni Yusuf alayhissalomga berildi hamda uning boshchiligida yetti yilda yetishtirilgan hosil omborlarga joylandi. Ma'murchilik va arzonchilik yillari tamom bo'lgach, qahatchilik davri boshlandi, yetti yilgacha yog'in yog'madi, yerda giyoh unmad. Haloyiq bundan tashvishga tushdi. Bir botmon arpa bir oldiga teng bo'ldi.

Yana aytishlaricha, qahat kelar kechasi yetishganda Yusuf alayhissalom hizmatkorlagiga buyurdi:

- Arpa noni pishirib qo'yinglar, shu kecha sahar vaqtida menga keltirib berasizlar.

Aytganidek qildilar. Sahar vaqti bo'lganda podshoh "qornim och", deb uyqudan uyg'ondi.

- Ey Yusuf, umrimda bunday shirin yeganim yo'q edi, - dedi podshoh Yusuf alayhissalom keltirib bergan nonni yeb ko'rgach.

- Ey podshoh, bu arpa nonidir, arpa esa ot va sigirlar ho'ragidir. Arpa nonining shirin, totimlir0qligi qahatchilikning boshlanishidan darakdir, - dedi Yusuf alayhissalom.

Shundan keyin aholiga o'lchov bilan oshlik tarqata boshladilar. Bechora va faqirlarga sadaqa qilindi, boylarga esa sotildi va tushgan pulni hazinaga topshirdilar. Yetti yil ichida hazina to'lib ketdi. Yusuf alayhissalom ushbu vazifaga tayinlanayotgan chog'da besh yillik hosil podshoh ihtiyoriga, ikki yilligi esa unga beriladigan bo'lgandi. Yusuf alayhissalomning hosilni olish navbati kelganda bir botmon urug'i o'nta eshakka yuk bo'larli miqdorda hosil berdi. Yusuf alayhissalom bug'doylarni kuya tushmasin, deb yanchmasdan omborga joylattirdi.

Yusuf alayhissalomning qirq darvozavoni va qirq ming hizmatkorlari bor edi. Bora-bora Misr xalqi ham unga tobe bo'ldilar.

Birinchi yili haloyiqlar oltin-kumushlarni, ikkinchi yili ot, tuya va sigirlarni berib yemish oldilar. Uchinchi yili qul va cho'rilarini sotdilar. To'rtinchi yili yer-joylarini, beshinchi yili esa ro'zg'or asboblarini bug'doyga almashtirdilar. Oltinchi yili o'g'il-qizlarini, yettinchi yili esa o'zlarini sotdilar.

Yettinchi yilda haloyiqda hech vaqo qolmadi, ularning hammasi Yusufning quliga aylandilar. Negaki, ochiqqan xalq bolalarini va o'zlarini sotib don olib yegandilar. Yil taomo bo'lishiga qirq kun (ba'zilar to'rt oy deyishadi) qolganda omborlar bo'shab qoldi. Bug'doy pishishiga yetolmaganxalq oshlik so'rab kelganida Yusuf alayhissalomning boshi qotdi. Shunda Jabroil alayhissalom Olloh taoloning farmonini olib keldi:

- Ey Yusuf, biyobonga chiqqil, och haloyiqqa yuzingni ko'rsatgil!

Yusuf alayhissalom biyobonga chiqib, taxt ustiga o'tirdi va yuzidan pardagni ko'tardi. Yusuf alayhissalomning jamolini ko'rgan haloyiq Oshu taomni unutdilar. Qirq kun (ba'zilarning aytishlaricha, to'rt oy) odamlar hech narsa yemadilar, Yusufning jamoli bilan kun kechirdilar, oziq-ovqatga muhtoj bo'lmadilar.

- Ey yusuf, biz seni qullikka solmaganimizda edi, bugun qullik qadrini qaerdan bilarding? Qullar qadrini bilaning uchun endi bugun misr xalqini ozod qilgaysan! - deya Ollohdan farmon keldi. Shundan so'ng jar chaqirtirib, Misr xalqini yig'dilar.

- Ey Misr xalqi, eru xotin barchangiz mening qulimmisih? - so'radi Yusuf alayhissalom.

- Ho', qulingizimiz, - deyishdi ular.

- Olloh taoloning hushnudligi uchun barchangizni ozod qildim, - dedi Yusuf alayhissalom jarchilarga buyurib.

Rivoyat qiladilarki, Yusuf alayhissalomning Kan'ondan chiqqaniga yigirma yetti yil bo'lganida, ochorchilik va qahatchilik yillarining beshinchi yilida Ya'qub alayhissalom o'g'illariga dedi:

- Misrda oziq-ovqat bor deyishlarlar, sizlar borib don-dun keltiringlar.

Payg'ambarzodalarning har biri ikkitadan tuyaga yog', qurut, poshloq, jun ortib, Misrga yo'l oldilar. Yusuf alayhissalom bilardiki,

boshqa yurtlarda don-dun yo'q, qarindoshlari qachondir oziq qidirib keladilar. Shu maqsadda yo'llarga to'qsol (qorovul)Lar qo'yirdi.

- Qachonki, uzun bo'yli, ko'rkam yuzli yigitlar kelsa, mening oldimga olib kelinglar, -\* deb tayinladi qorovullarga.

Ya'qub alayhissalomning qaddi-qomatlari birdek, bir hil kiyim kiygan o'n o'g'loni shaharga kirib kelishdi. Bu habarni eshitgan Yusuf alayhissalom ularning o'z birodarlari ekanligini bildi. Deydilarki, yigirma yetti yil mobaynida Yusuf alayhissalom birodarlariga boqib, yuzlari yo'lning gardu g'uborlariga bulg'anganini, kiyimlari kir bo'lib ketganini ko'rgach, bu niyatdan qaytganiga yana bir bor hursand bo'ldi va "Mening ulug'ligimni bilsinlar, ularni hursand qilib yuboray", degan qarorga keldi.

- Qaydin kelursizlar, - so'radi Yusuf alayhissalom. - Kimning farzandlari bo'lursiz?

- Kan'ondan kelurmiz, - deyigdi ular. - Ya'qub payg'ambarining o'g'illari bo'larmiz.

- Otangiz tirikmilar?

- Tirikdurlar.

- Nima ish qilalar?

- Payg'ambardirlar, Olloh taolaga toat va ibodat qilalar.

- Kimdan kimga payg'ambardirlar?

- Haqdan xalqqa payg'ambardirlar.

- Payg'ambar bo'lsalar, nega misr eliga kelmas, uning xalqiga payg'ambarlik qilmaslar?

- Kan'onga va uning atrofidagi xalqlarga payg'ambardiralr. Buning ustiga ko'zlari ojiz bo'lib qolganlar.

- Ko'zlari nima sababdan ko'rmaytsdigan bo'lib qoldilar?

- Yusuf degan o'g'li bor edi, uni behad yaxshi ko'rardi. O'sha o'g'il g'oyib bo'lgach, uning firoqidan yig'layverganlaridan ko'zlari ko'r bo'ldi.

Rivoyat qilishlaricha, bu paytda harir kiyimlar kiygan holda taxt ustida o'tirgandi. O'ng tomonlarida ming g'ulombacha oltindan kamar bog'lagan holda, chap tomonlarida ming g'ulombacha kumushdan kamar bog'lagan holda turardilar. Saroylarning eshigida esa yuz kishi qora kiyimda qo'llariga oltin aso tutganicha, yana yuxz kishi esa kumush aso tutganicha turardi.

- Hammangizlar bir otadan bo'lasizlarmi? - so'radi Yusuf alayhissalom.

- Shunday, - deyishdi aka-ukalari.

- Yana boshqa aka-ukalaringiz bormi?

- O'n bir birodarmiz, birimiz uyda qolib, otamiz hizmatini qilyapti.

- Qanday ajoyib hushro'y, hushsu'rat va hushqad yigitlar ekan-a?! - dedi Yusuf alayhissalom huzurida turgan beklariga qarab.

«B»B ?oyib bo'lgan ukamiz bizlardan ko'ra hushmu'rat edi, - deyishdi.

- Qay yo'sinda g'oyib bo'lgan u?

- Bo'ri yedi, - dedi biri.

- O'g'ri o'ldirdi, - dedi ikkinchisi.

- Biyobondan ko'ylagini qonga belgangan holda topdik, - dedi uchinchisi.

- Bular josusdirlar. Negaki, so'zlari bir-biriga muvofiq kelmayotir, - dedi Yusuf alayhissalom ularning so'zlarini ayri chiqqaninik o'rib.

- Bizlar payg'abarzodalarmiz, bizlardan o'g'rilik sodir bo'lmas, haqaqtan ham yo'qolgan inimizning o'lik-tirigini bilmasmiz, - deyishdi.

- Menda bir jom bor. har nimaniki so'rasam javob qilur, - dedi Yusuf alayhissalom va o'sha jomni qo'liga olib qoqdilar, bir voz chiqdi. Bu jom ingizni tirik deydir.

Yusuf alayhissalom ularni uch kun bir uyda saqladilar, so'ng amr qildi:

- Bularning har biriga yuir tuyadan bug'doy bering, keltirgan yog'lari, qurultlari va yunglarini ham bildirmasdan qoplariga solib qo'ying. Shunday qilingki, ular qoplarini ochmasinlar.

So'ngra birodarlariga yuzlanib so'radi:

- Otangizga va ukangizga bir tuyadan bug'ldoy bersam, olib ketasizlarkim? - Ular ko'vngachs, ikkita tuyada bug'doy berdi va yana ta'kidladi. Yegulieklaringiz tugasa, yana kelinglar. Faqat bir shartim bor: uyda qolgan birodaringizni ham olib kelasiz. Bo'lmasa bug'oy bermayman.

- Bu podshoh Yusufga o'xshar ekan, - dedi Yahudo o'z tillarida.

- Qayoqdagi gaplarni aytasan-a? Bu mamlakat, bu podshohlik qaerda-yu, Yusuf qaerda? - deyishdi boshqalari. - U shuncha qo'shinni qayoqdan olsin?! Agar tirik bo'lganida daragi chiqqan bo'lardi, otasini so'rardi, bungun esa bizga yaxshilik qilmagan bo'lardi, o'ch olardi!

«B»Ibn Yaminni keltiring, deganidan bildimki, bu yusuf! - dedi Yahudo.

- Bu gapni qo'ygil, - deyishdi va tashqariga chiqishdi. Yusuf alayhissalom ularning so'zlarini eshitib, parda ichida tabassum qilar edi.

Xullas, birodarlar yuklarini olib, kan'onga qaytdilar. Otalariga salom keltirdilar. Ya'qub alayhissalom hursand bo'lib, farzandlaridan holu ahvol so'radilar.

- Misr podshohi bizlarga ko'p yaxshiliklar qildi: hammamizga bir tuyadan bug'doy berdi, senga va Ibn Yaminga ham bir tuyadan bug'doy tuhfa qildi, yana bizlar olib borgan narsalarni o'zimizga ibldirmasdan qoplarimizga solib qo'yibdi. U Yana aytdiki:

"Uydagi ukangizni olib kelsangiz, Yana g'alla beraman. Agar olib kelmasangiz oshlik bermasman", dedi (Oyat)B "Bizlar uni albatta, muhofaza qilarmiz", - deyishdi o'g'lonalr.

- Yusufni oldib borib yo'qotib keldinglar. Endi buni ham yo'qotib kelmoqchimisizlar? - Sizlarga boshqa ishona olmayman, - dedi Ya'qub alayhissalom.

- Ey ota, bizlardan bir xatolik o'tib, beparvo qoldik. Endi buni yaxshi saqlaymiz. Hudo hoxlasa, salomat keltiramiz, - deyishdi.

- Ibn Ya'minga yomonlik qilmaymiz, deb Ollosh taolaga ahd qilib, bir xat beringlar, - dedi otalari. - (Oyat) "Men uni sizlar Bilan hargiz yubormasman, to sizlar Olloshh talolo tarafidan bir ahdi-paymon keltirmaguningizcha".

Hammalari ahd qilib, xat berdilar. Ya'qub alayhissalom o'ziga berilgan ulushning yarmini Kan'on xalqiga ulashdi. Inb Yaminni olib, Misrga boradigan bo'ldilar. Katta karvon yig'ildi.

- Ey ota, bizlarga nasihat qilsangiz, shunga qarab ish tutsak, - deyishdi o'g'lonlari.

- Avvalgi so'zim shuki, qoplargizdan chiqqan narsalarni qaytarib olibborasizlar. Negaki, ular bizlarga haromdir. Yo yodlaridan

chiqqan, yo sizlarni sinomaoqchi bo'lgan. Ikkichisi shuki, Misrga borganida hammingiz bir darvozadan emas boshqa-boshqa darvozalardan kiring, toki xalqning ko'zi tegmasin.

Hadis. Payg'ambar alayhissalom deydilar: "Yomon ko'z erni go'rga kirgizar, tuyani qozonga".

Hikoyatda kelishicha, arablarning bir qabilasi bor edi, ko'z ovchiligi bilan mashg'ul bo'lgaendi. Ular qachon go'sht yegilarik yelib qolsa, xotinlari qozon ostirib, o'zlari ko'chaga chiqib o'tirar ekanlar.

Yo'ldan o'tayotganlarga qarab: "qanday chiroyli oting, yo sigiring, yo tuyang bor-a!" deyisharkan. Shunda o'sha hayvonlar o'lar va go'shlarini sotgani olib kelishar ekan.

Hikoyat. Quraysh kofirlari Muhammad alayhissalomga zarar yetkazishga qasd qilib, o'sha qabiladan bir kishiga "Muhammadga ko'z tekkiz, u halok bo'lsin!"B - deyishadi. U badbaxt payg'ambar alayhissalomga ko'z tekkizishga ahd qilib, yo'lga tushganda, Jabroil alayhissalom mana bu oyatni keltirdi: "Albatta, kofirlar Qur'oni karimni eshitganlarida seni yomon ko'zlar Bilan to'ydirishlariga oz qoldi. Va ular "albatta bu majnun bo'lsa kerak", deyishdi. Vaholanki, bu Qur'oni karim butun olam uchun faqat bir nasihatdir". O'sha kimsa keldib, payg'ambar alayhissalomga ko'z solunga qadar Rasul alayhissalom bu oyatni o'qib, uning o'ziga dam soldi. Shu zahoti u badbaht kimsaning ikki ko'zi oqib ketdi.

Yana bir hikoyatda kelishicha, bir kampir payg'ambar alayhissalomning oldilariga kelib shunday dedi:

- Yo rasululloh, ahvolimiz yaxshilanarmikan deb biz sahroda mol-qo'y boqarmizu, lekin holimiz yaxshi bo'lmayapdi.

- Mol-qo'yni soting, odamlar orasiga kirib, ekin eking, ekinzorlaringizga qo'riqchilar o'rnatib, - dedilar payg'qambar alayhissalom. Shunday qilingan edilar, ahvollari yaxshilandi.

Savol: Ekinzorga qo'riqchi o'rnatishdan nima foyda bor?

Javob: Foydasi shuki, agar yomon ko'zli biror kimsa nazar tashlasa, ekinlar quriydi, qo'riqchi o'rnatilgan bo'lsa, ko'z nazari ekinga emas, qo'riqchiga tushadi. Negaki, ekindan azizroq turar. Shu bois oldin unga tegar, ekinga keyin tegar, ammo zarar qilmas.

Savol: Oldin nazar tushganiga zarar qilib, keyingisiga ziyon yetmasligining hikmati nimada?

Javob: Ko'zning zarari oldingi boqishd bo'lar. Qaysi narsa azizroq bo'lsa, o'shanga tegib, keyingisiga ziyon yetmas.

Savol: Ko'z tegishida nima hikmat bor?

Javob: Hikmat shuki, Oллоh taolo mo'minlarini suydi hamda o'zini va mo'minlarini "Seving!"B dedi (Oyat) "Oллоh ularni yaxshi ko'radi va ular Oллоhni yaxshi ko'radilar". qachonki, mo'min odam biror narsaga suyuq ko'zi bilan qarasa, Oллоh taoloning rashki kelar. "Mendan boshqaga suyuq ko'zi Bilan qaramasin", deya o'sha narsani halok qilar. Rasul alayhissalom debdilarki:B "men rashkchiman, sa'd ham rashkchi, ammo Oллоh har ikkialamizdan ham arshkchiroqdir".

Savol: qo'riqchining ko'z zararini qaytarishda qanday qudrati bor?

Javob: qo'riqchining hech qanday qudrati yo'q, misoli butlarning odamlarni yo'ldan ozdirishda qudrati bo'lmagani, lekin bunga sababchi bo'lgani kabidir.

Ya'qub alayhissalomning o'g'illari Misrga kelganlarida otalari buyurganidek, har qaysilari boshqa-boshqa darvozadan kirdilar.

Yahudo Bilan Ibn Yamin bir darvozadan kirib, barchlg'alaridan oldinroq Yusuf alayhissalom saroylari eshigiga kelib turdilar.

Boshqalari ham yetib kelib, salom va duoni ado qilgach, saroyga kirdilar. Otalari berib yuborgan Ibrohim alayhissalomdan qolgan meros sallani Yusuf alayhissalomning oldiga qo'yishdi.

- Otamiz "Bu sala menga Ibrohim alayhissalomdan meros qolgan edi. Uni senga yuboryapman", dedilar - deyishdi. Yusuf alayhissalom bundan behad sevinib ketdi, negaki bu salla kimga tegsa, u payg'ambar bo'lar edi.

- Bu narsalar yuklarimiz ichidan chiqdi, yanglishib qo'yilgandir, deya qaytarib olib keldik, - deyishdi yuklari ichidan chiqqan narsalarni Yusuf alayhissalomning oldiga qo'yar ekanlar.

- Olib kelib yaxshi qilibsizlar, ammo bu narsalarga muhtoj emasmiz. Sizlarga berdik, olib yo'l harji qilinglar, - dedi Yusuf alayhissalom va bu narsalarni otasi qaytarib yuborganini fahmladi.

- Bu ish bizlarga davlat va saodat bo'lar, - deyishdi hammalari o'rinlaridan turib ta'zimu tavoze qilganlaricha.

Ibn Yaminni chodirga kiritib, taxt ustiga o'tkizdirdilar va oldiga bir tovoqda osh qo'ydilar. Yusuf alayhissalom niqobini ko'tarib, yuzlarini ukasiga ko'rsatdi. Ibn Yamin oh urib, behush bo'lib yiqildi. Gulob sepib, o'ziga keltirdilar.

- Nima darding bor, tutqanoqmisan? - so'radi Yusuf alayhissalom.

- Payg'ambarzodadirman. Menda tutqanoq kasali bo'lmas. Yuzingizni ko'rgandim, g'oyib bo'lgan akamning yuiza o'xsharkan, shuning uchun hushimdan ketdim, - dedi Ibn Yamin.

- Qayg'urmagil, o'sha g'oyib bo'lgan akang menman, - dedi Yusuf alayhissalom va shundan keyin Ibn Yamin yana hushidank yetdi. Yana gulob sepib, o'vziga keltirdilar.

- Otamning ahvoli qalay, shundan gapir, - dedi Yusuf alayhissalom.

- Sening g'amingda "Bayt ul-ahzon"ga kirib yig'lay-yig'lay ikki ko'zlari ko'r bo'ldi, - dedi Ibn Yamin. Bundan Yusuf alayhissalom ko'p yig'ladi.

- Ey uka, sen oshingni yegin, men sarguzashtlarimni aytayin, - dedi Yusuf alayhissalom. Avval meni quduqqa soldilar. Quduqdan chiqib, qul deb sotdilar. Keyin zindonga tushim va ko'p yillar u yerda yotdim. Oллоh taolo fazli Bilan zindondan chiqib, bu mulku davlatga ega bo'ldim. Bu so'zlarni sen ulraga aytmagin. Oллоh taolodan ruhsat yo'q.

- Men sizdan ayrilib qandoq toqat qilurman, - dedi Ibn Yamin.

- Men seni bir bahona bilan olib qolurman.

Ketar vaqti bo'lganda Yusuf alayhissalom omborchiga buyurdi:

- kan'oniyarning har biriga bir tuyadan bug'doy bergil, Ibn Yaminning qopiga paymona (qadah)ni hech kimga bildirmasdan solib qo'ygin.

Deydilarki, bu idish kumushdan edi. U Qur'onda "siqoya"B deyilgan. Siqoya arab tilida suv idishi deganidir. Yana bir joyidaB "savog'" deyilgan. Savog' arabchada tarozi degani bo'ladi. U tarozi to'rt oyog'i bor edi, ularning har biri turli-turli gavharlardan yasalgandi. Ichida uch yuz oltimishda mehroq qilingandi. Har bir mehroqda bir shariat sohibining surati aks ettirilgandi.

Hammalri Yusuf alayhissalomni duo qilib, yo'lga tushdilar. Yo'lda kelayotib Ayn ush-Shams degan yerda to'xtadilar. Endi ovqatlanib bo'lganlarida Yusuf alayhissalom to'rt ming yigiti bilan yetib keldi.

- Ey karvon ahli, biz sizlar yemish olgani kelgan savdogarlar, deb o'ylagan edi, ammo sizlar beshak o'g'ri ekansizlar, - deya jar chaqirtirdi.

- Foyda. Deydilarki, o'g'rilar to'rt turli bo'ladi: mol o'g'risi, namoz o'g'risi, so'z o'g'risi, tarozi o'g'risi. Mol o'g'risining qo'linik



yesarlar, so'z o'g'risini o'tda kuydirarlar, namoz o'g'risining yuzidan un'r olingay,, tarozi o'g'risini esa olib qolib, mukofotlar berishgay.

Yana deydilarki, dunyoda o'g'ri degan ortiqroq yovuz nom yo'q. O'g'riga beriladigan jazodan ortiqroq jazo yo'q. Uning jazosi sog' qo'lini kesish azobidir. Negaki, o'sha kesilgan sog' qo'l bilan o'g'rilik qilarlar, o'sha qo'l bilan taom yerlar, u bilan tahorat qilarlar, yaxshilikni ham o'sha qo'l bilan qilarlar. Manna shunday ishlarga qodir bo'lgan qo'lning kesilishidan ortiqroq jazo, undan-da ortiqroq azob bormi?! Shunday aziz inson a'zosi bir yoki yarim oltin uchun kesilur!

Ya'qub alayhissalom o'g'lonlari o'g'rilik so'zini eshitib, qo'rqib ketdilar, ranglari og'arib, oyoqlaridan mador ketdi.

- Nima yo'qotdingiz? Kimni o'g'ri qilmoqchisiz? - tashvishlanishdi ular.

- Podshohning tarozisini yo'qtdik. Kim topib bersa, bir tuyada bug'oy mukofoti berilur, - javob qildi jarchi.

Savol: Suyunchiga boshqa narsa tayin etmay, bug'doy beramiz, deyshlikda nima hikmat bor?

Javob: Qahatchilik va ocharchilik paytida hech nima bug'doydan ortiq bo'lmaydi. Bu bois (Oyat) "Kimki uni topib bersa, unga bir tuya oshliq berilgay va men bi va'daning ustidan chiqishga kafildirman", deya jar chaqirtirildi.

Aysh-Shams muzofotining eru ayol ahli tomoshaga chiqdilar. Shu paytda to'rt ming askari bilan Yusuf alayhissalom ham yetib keldi.

- Tarozini topa olmadik, - deyshdi jarchilar.

- Ey yigitlar, bizlar sizlarni g'allaga kelgan savdogarlar, desak o'g'ri ekansizlar, - dedi Yusuf alayhissalom birodarlariga.

- Biz bu elga yomon niyatda kelmaganmiz, biz payg'ambarzodamiz, o'g'ri emasmiz, - deyshdi birodarlar. - Yuklarimiz ichidan chiqqan narsalarni Kan'ondan Misrga qaytib olib kelgan bizlar qandayin ham tarozi o'g'risi bo'laylik. Hattoki Kan'ondan chiqqach, begona mulkda ungan o'tlarni yeb qo'ymasin, kofirlar daraxtidan barg tishlab uzmasin, deya tualaimiz og'izlarini bog'lagan odamlarmiz. Misrdan chiqqandan keyin ham shunday qildik. O'zlarini bunday ehtiyotlagan odamlar bug'doy tuhfa qilgan, taomlar bilan siylagan podshohning saroyidan tarozi o'g'irlashi mumkinmi?

- Ahtarsak, mabodo sizlardan chiqsa nima bo'lar? - so'radi Yusuf alayhissalom. - Topsak, o'g'rining qo'lini kesarmiz, zindonga tashlarmiz.

- Ahtaring, agar bizlarning oramizdan kimning yuki ichidan chiqsa, o'sha odam mol egasiga qo'l bo'lsin, bizning shariatimizda shunday, deyshdi birodarlar. - Ihtiyor sizda, Xohlang bizning yo'limizda hukm qiling, xohlang o'z yo'lingizda.

- Yuklaringizni ochinglar! - dedi Yusuf alayhissalom.

Avval hamrohlarining yuklarini ochib ko'rdilar. "Ishqilib, o'shalar yukidan chiqsin-da, biz payg'ambar o'g'lonlarining yuzi yorug' bo'lardi", deya sevindilar. Ammo, navbat o'n oqa-inining yuklariga keldi. Axtardilar, ulardan ham chiqmadi. Yusuf alayhissalom uzr aytib, qaytmoqchi bo'lgandi, Rubil uni qaytardi:

- Manavi bittamizning yukimizni qaramadingiz, uni ham ko'ring.

Ibn Yaminning yukini ochib ko'rgandilar, tarozi uning chidan chiqdi. Hammalari qayg'uga botib, boshlarini egdilar.

- Ey Rohilning o'g'li, onaning ikki o'g'il tug'g'andi, ikkovingiz ham o'g'ri chiqdingizlar. Biringizda qutilgan Edik, endi sen qoluvmiding. Buning onasi ham yomon6 edi o'zi! - deyshdi birodarlari malomat toshlari yog'dirib.

- Ey birodarlarmi, men o'g'ri emasman, Hudo haqqi men o'g'irlamadim, - deya nola qila boshladi Ibn Yamin.

- Zoru nola qilguncha, ko'nglingni tiysang nima qilardi! - deyshdi uni yana tanbehga ko'mishib.

Savol: Ibn Yamin tarozini o'g'irlamagan edi. Yusuf alayhissalomning (Oyat) "Sizlar, albatta, o'g'ridirsizlar", deyshligi nima uchun ravo bo'ldi.

Javob: Oллоh taoloning "Qarindoshingni shu asnoda olib qolgin!"B degan farmoniga binoan edi. Bu bahona birodarlarga mushkl holatda qo'l kelib,B "bir tug'ishgan akasi ham oldin o'g'irlik qilgan edi", deya qutilib qolmoqchi bo'ldilar.

Savol: Yusuf alayhissalomni o'g'irlik qilgan deyshlariga, o'g'irlikka qo'l urmagan holda malomatga nishon bo'lishlariga nima sabab edi?

Javob: Onalari rohil ukasi Yaminni tug'ish payti vafot etgandi. Ibn Yaminni enagaga topshirdilar. Kichikna Yusufni esa holalari tarbiyasiga berishdi. Ya'qub alayhissalomning ikohida bo'lgan bu xolasi uni behad sevardi. Besh yoshga kirganda otalari olib ketgani kelganda, xolasi Yusufning ko'ylaklari chiga Ishaq alayhissalomdan qolgan kamarbandni bog'lab qo'ydi. So'ngra "Kamarim yo'qolib qoldi", degan bahona bilan orqalaridan borib, uni yusufning belidan topib olganday bo'ldi.B "Bu bola endi meniki bo'ldi", degan talabi oldida Ya'qub alayhissalom noiloj bo'lib qoldiyu Xolasi yusufni o'zi bilan birga olib ketdi.

Og'alarining o'g'ri bdeyshlari shu sababdan edi.

Xullas, Yusuf alayhissalom darg'azabnamo bo'lib, mil bilan jamni qoqdilar. So'ng so'radi:

- Jom nima deydi?

- Bilmasmiz, - dedilar.

- Jom ayturki, birodarlari Yusufni makr-hiyla bilan otalaridan so'rab olib, turfa azoblar bilan quduqqa soldilar, so'n "qulimizning uch aybi bor", deya uch shart bilan sotdilar.B "Bo'ri yedi" deganlari yolg'ondir, - dedi Bilmasmiz, - dedilar. Birodarlar hayron qoldilar.

- Jom nima deydi? - yana jomni qoqib so'radi Bilmasmiz, - dedilar.

- Bilmasmiz, - dedilar.

- Jom ayturki, yo'qolgan birodarlari tirikdur, ammo hozir uzoqqda, yaqin fursatda topishadilar. Birodarlari podshohga rost gapni aytdilar, keyin otalari Bilan ham topishadilar, so'ngra Oллоh taolo ularning gunohlarini kechirgay, - dedi Bilmasmiz, - dedilar.

- Jom nima deydi? - so'radi Bilmasmiz, - dedilar jomni yana qoqib.

- Bilmasmiz, - deyshdi ular.

- Jom ayturki, Yusufni quduqqa solib, qo'yni so'yib, uning qoniga ko'yilagini botirib, otalariga olib bordilar, yolg'on so'zladilpar.

Undan keyin o'n sakkiz chaqa pulga sotib, hudiy tilida xat yozib, muhr bosib sotib olgan kishiga berganlar. Shu so'zi rostmi? - so'radi Bilmasmiz, - dedilar.

- Bo'ri yegani rostdir. Sotdi deganlari yoldg'on, - deyshdi ular tonib.

- Jom ayturki, - dedi bilmasmiz, - dedilar jomni yana bir bor qoqib, - Bularning orasida bir yigit bor: g'azabi kelsa, badanlaridagi mo'ylari kiyimlarini teshib chiqar ekan. U qaysi biringizdir?

- Mendirman, - dedi Yahudo o'rnidan turib.

- Shunchalik bahodir bo'la turib, Yusufni bo'riga yedirib qo'yishlikdan sharm qilmadingmi? - so'radi Yusuf alayhissalom.

Yahudo hijolatdan qizarib ketdi. Yusuf alayhissalom yana domni qoqib so'radilar:

54 Kitoblar Olami | Sever.UZ | Uzsmart.UZ

- Jom ayturki, bularning orasida bir yigit bor: g'azabi kelganida toshni changaliga olib siqsa, un kabi maydalanib ketar emish. U kimdir?

- Mendirman, - dedi Rubil turarkan.

- Shunchalik quvvating bor ekan, ukang Yusufni nima uchun bo'riga yedirдинг? -s o'radi Yusuf alayhissalom.

- Jom nima deydi? - yana so'radi jomni qoqarkan.

- Bilmasmiz, - dedilar.

- nima deydir? - so'radi yana jomni qoqib.

- Bilmasmiz, - deyishdi.

- Ayturki, bularning orasida bir yigit bor: agar sherga yuzma-yuz kelsa, ushlab og'zini yirtib tashlar emish. U kimdir?

- Men, - dedi Kozuro o'rnidan utrib.

- Sherga kuching yetgan, bo'riga yetmasmidi?

- Nima deydir? - o'radi yana jomni qoqib.

- Bilmasmiz, - dedilar.

- Ayturki, - dedi Yusuf alayhissalom, - Melik Za'rga berilgan xat podshohning hazinasida, deydir.

Buyurdilar. Borib hazinadan o'sha xatni olib keldilar. Yusuf alayhissalom ul xatni birodarlariga ko'rsatdi.

- Bunday xatdan bizning habarimiz yo'q, - deyishdi ular xatni ko'rgach.

- Bu xat yol'gonmi? - so'radi Yusuf alayhissalom IMbn Yamindan.

- Bu birodarlarining xatidir. Jom rost aytadir, - dedi u. - Ey podshohi olam, bu jom Yusufni tirik, tez fursatda otasi bilan topishadi, dedi. Otamizga bir noma yuborsak, behad ho'rsand bo'lar edilar.

- Otamizning shu vaqtgacha tortgan mehnatu mashaqqatlari ozmidi? - deyishdi birodarlari. - Uning ustiga xat yuborib, dardu firoqlarini yana ziyoda qilmoqchimisan, yangidan o'tga solay dermisan? Hudo hohlasa, sendan ham qutilgaymiz. Sen podshohning tarozisini o'g'irlab, bizlarni ham hijolatga qo'yding!

Latifa: Qiyomat qoyib bo'lganda Olloh hamma bandalaridan hisob oladi. Bandalar gunoh ishlarni inokr qilarkanlar. Shunda ularning nomai a'molini (ya'ni qilgan amallarining kitobini) keltirarkanlar. Oyu kun, kechayu kunduz, jamiki yulduzlar guvohlik berarkanlar. Shunda farishtalar: "Endi nrima deysan?"B deyishganda ul bandalar:B "Bularning hammasi odam farzandiga dushmandirlar. Guvohliklariga ishonib bo'lmaydi", derkanlar. Shundan keyin osmonu yer guvohlik berarkan, ammo u ham qabul qilinmaydi. Anna shunda u bandaning jamiki tana a'zolari alohida-alohida guvohlik berarkan. Bu guvohlikdan so'ng u do'zahga haydalarkan.

Alqissa, birodarlarning oqatlari toq bo'lib, iltijo qildilar:

- Ey podshoh, bizga ortiq ozor bermang. Mol olsangiz mayli, oling, ammo ukamizni olib qolmang. Agar zarur bo'lsa, bizlardan xohlaganingizni olib qoling. Uning qari otasi bor, unga rahm qiling, - deyishdi ular.

Otangizning haqqi-hurmatini saqlamaganimda sizlarga, albatta, jazo bergan bo'lardim. Nima qilayki, payg'ambarzodasizlar, - dedi Yusuf alayhissalom.

Savol: Nega otalarining payg'ambarliklarini emas, qariliklarini shafe' keltirdilar? Buning hikmati nimada edi?

Javob: Ular misr mamlakatini qaysi dinda ekanligini bilmasdilar. Payg'ambarlikni musulmonlargina hurmatlar, kofirlar esa ahamiyat qilmasdilar. Shu sababdan payg'ambar emas, qarilikni vaj qildilar.

Birodarlar ko'p zoru tarozu qilib, otalarini shafe keltirib, tavallo qildilar, bo'lmadi. Yusuf alayhissalom Ibn Yaminni zindonga buyurdi. Maqsadi - uni shu bahona bilan olib qolmoqlik edi.

- Tarozim kimdan chiqqan bo'lsa, o'shani olib qolaman. Boshqa birovni olib qolar bo'lsam, unga zulm qilgan bo'laman, bundan Ollohning o'zi saqlasin! - dedi Yusuf alayhissalom.

Iltimoslari ijobat bo'lmagach, birodarlar nochor va noumid bo'ldilar. Shundan keyn ular kengashdilar.

- Ey birodarlar, - dedi Yahudo. - Uyatli ish bo'ldi, endi otamiz yoniga qaysi yuz bilan boramiz. Birodarimizni qanday bo'lmasin ajratib olishimiz kerak. Sizlar podshohning qo'shiniga bas kelsangiz, men podshoh bilan olishayin. Agar sizlar podshohga bas kelsangiz, me uning qo'shini Bilan bellashayin. Men borib, zindon yoqasiga o'tirayin. Ibn Yaminni olib kelishganida bir na'ra tortay. Shunda sizlar to'planib kelib, shamshir tortasiz, Misr xalqi o'liklardan tepa yasaylik.

Yusuf alayhissalom bularning kengashlarini bildi va Ibrohim alayhissalomning sallalarini boshiga bog'ladi. Birodarlar har tomonga borib turdilar. Yahudo zindon boshida turdi. Agar uning g'azabi kelsa, ko'zi qonga to'lib, badanidagi tuklari kiyimlaridan teshib chiqardi. Buni yaxshi bilan Yusuf kichik o'g'li ga tayinladi:

- Agar Yahudo na'ra tortsa, odamlar behush bo'lib yiqiladi, homilador ayollarni bolalari tushib qoladi. Sen borib orqasidan silagin, gapirsa, aslo so'z qotmagan.

- Mendan uzoqroq turing, bularga bir ko'rsatib qo'yayin, - dedi Yahudo xozlanib. Shunda Yusuf alayhissalom o'g'liga ishorat qilgandi, u borib Yahudoning orqasini siypadi. Yahudo na'ra tortayin, deb qasd qilgandi, g'azabi pasayib, ovozi chiqmay qoldi. Bir payt hammalari yig'ilib kelib, Yahudoga qarab taajublандilar.

- Nima uchun na'ra tortmading? - so'rashdi undan.

- Bu yerda Ya'qub alayhissalom urug'idan kimdir bor ekan. Bir o'g'il bola kelib, orqamni silagan edi, g'azabim pasayib qoldi. Na'ra torta olmadim, - birodarlarining hangu-mang bo'lganlarinik o'rib so'zida davom etdi Yahudo. - Bo'lgan voqealarni borib otamga aytipngalr, Ibn Yaminni zindonga tushganini ham aytinglar. Toki, otam ijozat bermas ekan, bu yerdan aslo qimirlamasman.

- Ey uarvon ahli, hamma kuch-qudrat bizdagina bor, boqalarda yo'q deb o'ylaysizmi? Tarozini o'g'irlaganda, uni so'raganlar Bilan jang qiling. Bu qanday ish bo'ldi?! - dedi Yusuf alayhissalom va Ibn Yaminni olib qaytib ketdi. Ular Aysh-Shams muzofotida qolib ketdilar.

- Ey birodarlar, otamiz bizdan xat olgan, biz esa Ibn Yaminni salomat topshirishlikka ahd qilganmiz. Bundan oldin Yusuf tufayli yo'lsiz qolgandik, endi Ibn Yaminni bu yerda qoldirib Ka'ononga borolmayman. Otam yuziga qanday boqaman. Yo otambdan ijozat bo'lmaguncha, yo Olloh taolodan biror hukm bo'lmaguncha shu yerda qolaman, yo birodarimni olib ketaman. Shu uch ishdan biri bo'lmaguncha bir qadam ham jilmasman, - dedi Yahudo qaiyyat bilan.

Yusuf alayhissalom Ibn Yaminni olib ketgach, hayronlikda qoldilar. Yuklarini o'sha yerda omonatda qoldirib, yig'langanlaricha Misrga qaytdilar. Misrga kelatyotganlarida kengashdilarki, "Har birimizning qanday kuch-qudratimiz bor, urushib ukamizni olamiz", deyishdi. Ular yog'ochlar kesdilar, sobqonlar uchun toshlab yig'dilar. Har birimiz ish-hunar ko'rsataylik, deb maslahatlashdilar.

Yusuf alayhissalom ulardan habardaor bo'lib turishlik uchun soqchilar qo'ygan edi. Soqchilar "Ular Yusuf bilan urushamiz deyishayotganlarining habarini berdi. Yusuf alayhissalom qirq ming yarog'lik askar yig'dirdi. Bu ishdan habar topgan Rayyon podshoh "Men ham otlanayin", degandi Yusuf alayhissalom mening o'zim kifoya qilaman", deb unamadi.

Ertasi kuni har biri bir darvozdan kirib kelishdi. Yahudo qattiq na'ra tortgan edi, Misr xalqining barchasi behush bo'ldilar, homilador ayollarning homilasi tushdi. Sha'mun Yana bir darvozadan kirgan edi, uni ko'rgan odamlar qo'rqib qochdilar. U bir toshni ko'tarib Yusuf alayhissalom saroyiga otgandi, yemirilib ketdi. Ularga hech qanday kuch qarshi turolmasligini bilan Yusuf alayhissalom Ibrohim alayhissalom sallalarini olib chiqib ro'baro' tutdilar. Shunda ularning ovozi chiqmay qoldi. Ularning barchasini ushlab tutdilar. Yahudoning na'rasidan qo'rqib yotoqxonasiga berkinib olgan Rayyon podshoh ham ularning tutilganini eshitib, yashiringan joyidan chiqib keldi. Misr eli yig'ladi.

- Dunyoda bizdan zo'ri yo'q Deya maqtanur edingiz. Manna sizdan boshqa mardlar ham bor ekanligini ko'rdingizmi? - dedi Yusuf alayhissalom birodarlariga qarata. - O'tgan gunohlaringizni kechirdim, ozod bo'ldingizlar, endi bu yerda bosh olib chiqib ketasizlar.

- Men bormayman, sizlar otamizga borib, o'g'ling o'g'rilik qildi, deb aytinglar, - dedi Yahudo.

To'g'g'iz oqa-ini kan'onga keldilar. Ya'qub alayhissalomga bo'lgan voqeani bayon qildilar.

- Oldin birini olib borib yo'qotgan edingiz. Endi esa Yana birini yo'qotib kelib, o'g'rilik qildi, deya bahona qilarmisiz? Bu yolg'ondir, - dedi Ya'qub alayhissalom ikki o'g'lini kam ko'rgach.

- Bizga ishonmasangiz, o'sha muzofotda bo'lgan karvon ahlidan so'rang, - deyishdi o'g'illari.

- Menga endi sabrdan boshqa chora qolmadi, - dedi Ya'qub alayhissalom, (Oyat) "Endi sabr qilmoq yaxshidir. Shoyad, Olloh ularni hammasini birgalikda menga qaytarsa. U haqiqatda ilm-hikmatlik zotidir".

Behad ko'p yig'ladi. So'ng dovot, qalam olib xat bitdi: Misr xalqiga, podshohiga!

Bu xat Ibrohim halilulloh nabirasi, Ishaq zabuhulloh o'g'li Ya'qub isroilullohdan Fir'avn avlodi - Misr podshohiga tegsun.

Bilingki, bizlar payg'ambarlar avlodidanmiz. O'talamrimiz balo-musibatga muhtalo edilar: Ulug' otam Ibrohim alayhissalom Namrud oloviga otildi, otam Ishaq alayhissalom Olloh farmoni bilan bo'g'izlandi, men esa ikki o'g'il qayg'usiga muhtalo bo'ldim. Birisini bo'ri yedi dedilar, Yana birisini o'g'irlik qildi, deb sen olib qolbsan. Bizda o'g'irlik qiladigan odam bo'lmaydi. Men bir zaif, qayg'u-hasratlik, ko'zi ojiz qariyaman. Yoshim ulg'aydi, suyaklarim mo'rtlashdi, soch-choqolim oqardi, beli qayg'u-hasratda bukildi. Ko'zimning nuri bo'lgan o'g'limni bag'ringa qaytargn. Senga ezgu duolar qilayin. Bu jahonda ezgulik ko'rgil, u dunyoda azoblardan emin bo'lgin. Bizning ko'nglimizni og'ritmagin, so'zimizni zoe' qilmagil, senga yaxshi bo'lmaydi bu ish. Agar yubormaydigan bo'lsang, ertaga sehr o'qini sening ustigga yuborgayman. O'zing, mamlakating va elling kunfayakun bo'lgaysizlar. Vassalom.

Savol: Yusuf Firavn avlodidan emasdi. Nega bunday deb yozdi?

Javob: Misr podshohlarining hammasi namrud avlodidan edilar. Ular Firavn deb atalar edi. Bu podshohni ham o'shalar avlodidan deb o'ylagan.

Farzandlarimni yuborgin, bo'lmasa, duo bilan mulku-davlatningni nobud qilman, debsiz. Mening javobim shuki, ota-bobolaringiz balolarga qanday sabr qilgan bo'lsalar, siz ham shunday sabr qiling. Ular qanday najot topgan bo'lsalar, siz ham shunday najot topgaysiz. Sabr qilmoq payg'ambarlarga merosdir. Zinhor bizni duoibad qilmagaysiz. Shoyat Olloh taolo o'g'lingizni tez kunda siz Bilan g'ovushtirsa. Vassalom".

- Bu noma kofirlarning maktubi emas, - dedi Ya'qub alayhissalom Yusuf alayhissalomning xatini o'qib chiqqach. - Bu noma payg'ambarlar yoki siddiqlar maktubidir. Bu Yusufning maktubi bo'lib chiqqay.

Aytishlaricha, o'sha holatda Ya'qub alayhissalomni uyqu bosdi. Tushida Azroil alayhissalomni ko'rdi. So'radiki: "Ey o'lim farishtasi, Yusufimni jonini oldingizmi?" B Azroil alayhissalom: B "Yusuf tirik, uning jonini olganim yo'q. Olloh senga Yusufni qovushtirgay, sevingaysan", dedi. Bundan Ya'qub alayhissalom sevinib uyg'ondi.

- Vo darig', Yusufimning holi qanday ekan? - dedi uyqudan uyg'onib.

- Ey Ya'qub, nimaga yig'laysan? Olloh taolo Yusufni senga qovushtirgayman, - degan farmonni keltirdi Jabroil alayhissalom.

Ya'qub alayhissalom sevinganidan boshini sajdaga qo'ydi. Olloh taologa shukur qildi. O'g'li Yusuf uchun qirq yil, ba'zi manbalarda sakson yil yig'ladi, oqibatda ko'zlarik o'rmas bo'ldi.

Savol: Odam alayhissalom uch yuz yil yig'ladi larki ko'zlari oqarmadi. Ya'qub alayhissalom qirq yil yig'ladi-yu ko'zlari oqardi. Buning hikmati nimada?

Javob: Odam alayhissalomning guryalari Olloh taoloning qo'rquvidan edi. Negaki, u ta'qiqni buzib, bug'doyni yedi, gunohiga yig'lagandi. Ammo Ya'qub alayhissalomning yig'ilari esa o'g'li uchun edi. Hikoyatda kelurki, Dovud alayhissalom qirq yil yig'ladilar. Atrofidagi qirq qari joyda masalar undiki, ularning orasida o'zlari ham ko'rinmay qoldilar. Bir kuni havodan bir qush uchib kelib, Dovud alayhis salomning ko'z yoshlaridan ichdi. "Ajiyu xushta'm, shirin suv ekan", dedi. Buni eshitib "Menga qushlar ham ta'na qilarlar", deya yana ham ko'proq yig'ladilar. Shunda Ollohdan "Ey Dovud, nimaga yig'larsan?" degan xitob keldi. Dovud alahissalom B "Iloho, shunday holga tushdimki, menga hatto qushlar ham ta'na qilarlar".

Xitob keldiki: "Ey Dovud, ul jonivor rost ayur. Gunohi uchun yoig'laganlarning ko'z yoshi shirin bo'lar. Dunyoda gunohkorlarning ko'z yoshidan totliroq hech narsa yaratmadim". Dovud alayhissalom bu so'zlarni eshitib, Yana ham qattiqroq yig'ladi. Hikoyatda kelishicha, Shayh Zunnuni Misriy bir kecha uyning tomiga chiqib ibodat qilar edi. Shuncha ko'p yig'ladiki, ko'z yoshlari tarnovdan oqib tushdi. Tarnovdan oqayotgan ko'z yoshlari tom tagidan o'tib borayotgan bir kishining ustiga tushdi. U odam: "Tarnovdan oqayotgan bu suv tozami yoki iflosmi?" dedi. Buni eshitgan Zunnun: B "Ey mo'min, kiyimlaringni yuvib, poklagin. Oqayotgan suv bir gunohkor bandaning ko'z yoshlaridir", dedi.

Ya'qub alayhissalom yig'lab turganlarida Jabroil alayhissalom odam qiyofasiga kirgan holda oldilariga keldi.

- Ey Ya'qub, ko'zingni nima oqartirdi, belingni nima bukchaytirdi, yuzingni nima ochdi? - dedi jabroil alayhissalom.

- Yusuf usun yig'laganimdan ko'zim oqardi, Ibn Yamin qayg'usi belimni bukchaytirdi. Yahudo sog'inchi yuzimni ochdi, - dedi Ya'qub alayhissalom.

- Ey Ya'qub, seni Yusuf yaratganmi? - so'radi Jabroil alayhissalom.

- Yo'q, - dedi Ya'qub alayhissalom.

- Senga Ibn Yamin rizq berarmi?

- Yo'q.

- Unda nima uchun tangridan shikoyat qilursan? - dedi va o'sha lahzadayoq ko'zdan g'oyib bo'ldi. Ya'qub alayhissalom bildiki, bu



kelgan odam Jabroil ekan.

- (Oyat) "Agar bu qamchin Bilan meni oldinroq urganingda edi, men Yusufo'ni eslab, umrimni zo'e qilmagan bo'lardim", - dedi Ya'qub alayhissalom.

Otalarining zorugiriyalarini ko'rgan o'g'il-qizlari: (Oyat) "Hudo haqqi sen doyib Yusufni eslaysan, o'zingni juda ham ziyoda qiynaysanki, yo halok bo'lguvchilardan bo'lrasanmi?" B deyiylardi. Bunda Ya'qub alayhissalomning qayg'usi ortardi-da: (Oyat) "Haqiqat shuki, men o'z betoqatligimni va hafaligimni Hudogagina arz qilmoqdaman", derdi. Qachon toat va ibodatdan forig' bo'lsa shunday duo qilardi: "Ey hayr-ehsoni ko'p zot, ey yaxshiligi doimiy bo'lgan zot! To o'zing bilan uchrashmagunimcha islomda mahkam qil!" Yana bu duoni ham aytar edi: B "Ey boriHudoyo, gulu rayhonimni o'zinga qaytarib Ber, keyin xohlaganingni qilgil!"

Rivoyat. Abdulloh ibn Abbos r.a. rivoyat qilarki, Ya'qub alayhissalom tangriga yolvordi, dilxushlik tilab, yuqoridagi duoni qayta-qayta aytavergani bois bir kuni Azroil alayhissalom odam qiyofasida oldiga keldi.

U zot dediki: "Mening izzat va jalolim haqqi Yusuf Bilan ibn Yamin agar o'lgan bo'lsalar ham tiriltirgan va yana senga qovushtirgan bo'lardim. Ular ikkisi tirikdir. Qandayin ham qovushtirmayin".

Buni eshitgan Ya'qub alayhissalom o'g'illariga dedi:

- Misrga borib, Yusuf bilan Ibn Yaminni izlanglar.

- Ey ota, bo'ri yegan yusufo'ni qanday topamiz, - deyiylhdi o'g'illari.

- Ollh taoloning karamidan noumid bo'lmanglar, - dedi Ya'qub alayhissalom. - Yusufni bo'ri yemagan, Ibn Yamin o'g'rilik qilmagan.

- Tirik ekanini bilar ekansan, qachon qovushtirishini bilmaysanmi?

- Qovushtirishini bilaman, ammo qachonligini bilmaskan, shuning uchun yig'layman, - dedi otalari.

Shunday qilib, Ya'qub alayhissalom o'g'lonlari yemish izlab, yana Misrga borar bo'ldilar. Payg'ambarzodalarning Misrga kirib kelganliklarini habari yetganda Yusuf alayhissalom o'n ming oltin dubulg'ali yigitlarni ularni qarshi olmoqqa yubordi, yana yuz ming dubulg'ali yigitlarni o'z qavatiga turg'azdi.

Deydilarki, Yusuf alayhissalomning yetti qavatli saroyi bor edi. Ularning shifllari oltin va kumushlar bilan bezatilgandi, yog'ochlari aqaqdan edi. O'sha yetti qavat saroylarni turli-tuman narsalar Bilan bezatdi - ilk qavat saroyga ipak kiyimlar kiygan Misr ulug'larini o'tkazdi; ikkinchisini yashil bezaklar bilan ziyatlab, beklarni o'tkazdi; uchinchisi qizil bezak bilan oroyish berib, bahodirlarni o'tkazdi; to'rtinchisini oq bezak bilan jilolab, oqsoqollarni o'tkazdi; beshinchisini lolalar bilan bezatib, munajjimlarni o'tkazdi; oltinchisini ifforlar bilan orolab, donishmandlarni o'tkazdi; yettinchisini esa chechaklar bilan ko'rkamlab, oltin taxt o'rnatdi. Taxtning o'ng tomonidan oltin dubulg'ali ming yigit qo'llarida oltin gurzi bilan, chop tomonida esa kumush dubulg'ali ming yigit kumush yoy-o'q bilan turardilar. Taxtning orqasida tanasi oltindan, shoxlari kumushdan, barglari injudan, mevalari yoqutdan yasalgan bir tup daraxt o'rnatilgan.

Birodarlari eshik oldiga kelganlarida bu hashamat va dabdabani ko'rib yuraklari orqaga tortib ketdi, ular "podshohning bizga bunday dalillarini ko'rstaishdan maqsadi o'ch olish bo'lsa kerak", degan o'ydan qo'rqa boshladilar. Saroyga kirgach, ularning har birini alohida taxtlarga o'tirgizdi, Yusuf alayhissalom esa Ibn Yamin bilan bir taxtda o'tirdi.

Bu payg'ambarzodalarning uchinchi bor kelishlari edi. Qahatchilik shu darajaga yetgandiki, bir eshak yuik bug'doy to'rt oltinga sotilardi. Bu safar pulsiz kelgandilar. Tovar, to'rva, mushk xaltasi, arqon olib kelgandilar xolos. Ularni ortmoqlab, yolvorib yig'lagan holda kirib kelgandilar.

- Ey podshoh, bizga va farzandalrimizga qiyin bo'ldi, ochlikdan toqatimiz sob bo'ldi. Hazinaga arzirlik biror narsa keltirolmadik. Olib kelgan narsalarimiz bug'doy bahosiga yetmaydi. Shunday bo'lsa-da ularni olgin-da qo'limizni qaytarmagil, - deya yolborishdi birodarlar. - Bizlarga rahm qilmasang, qari otamizga rahim qilgin.

Yusuf Bilan Ibn Yamin ko'zlaridan shashqator bo'lganicha taxtdan tushib, o'zlarini ichkariga olishdi va behad ko'p yig'lashdi.

- Ey podshohim, to'rt yilki hamma odamlar zori nolon qilarlar, ularning holiga yig'lamaskan, bularning holiga yig'laysiz? Nima bo'ldi? - so'rashdi atrofda gilar.

- Jim bo'ling! Bular mening qarindoshlarimdir. Qari otamga va birodarlarmiga og'ir kunlar kelibdi, mashaqqatlarda muftalo bo'lishibdi. Bunga nechun yig'lamayin, - dedi Yusuf alayhissalom.

Aytadilarki, odam farzandlari uchun ming xil balo qila olmagan ishni bir soatlik ochlik qila olur. Yana bir soatlik to'g'lik qila olgan ishni shayton ham qila olmas. Yana ayturlarki, Ollh taolo insonlarning nafslarini yaratganida nido qildi: "Men kimmanu, sen kimsan?" B Shunda nafs: "Sen sensan, men menman!" deb javob qildi. U buni to'g' holatda aytgan edi. Shundan keyin Ollh taolo uni ochlik Bilan qiynadi, so'ngra nafs: "hudoyo, Sen Ollhsan, men qulman!" dedi. Yana deydilarki, Ollh taolo amri Bilan jannatiylar jannatda turgan hollarida do'zahiylarga ko'rinar ekanlar, ularni do'zahiylar ko'rgach, hamma azoblarga chidar ekanlari ammo ochlik va tashnalik azobiga chidayolmasdan faryod qilar ekanlar. (Oyat) "Do'zahiylar jannat ahliga nido qilib yolborar ekanlar: "Bizlarga suvdan yoki Ollh taoloning ne'matlaridan biroz tashlanganlar", deb. Shunda jannatiylar: "Bizlar ichib va yeb turgan taomlarni Ollh taolo sizlarga harom qilgandir" degaylar. Hamma azobalrdan ochlik azobi qattiq ekanligiga manna bu oyat ham dalildir: B "Ollh u ikki ne'matni kofirlarga harom qilgandir".

Homid nasafiydan rivoyat qilishicha, Yusuf alayhissalomning nonushtasiga qirq ming oltin harj bo'larkan. Kechki taomiga ham shunchalik. Yana har kuni qirq ming oltinni sadaqa qilarkan.

- Bilmaysizmi, bir tarozi bug'doyning narhi qirq oldin bo'ldi. Sizlarning keltirganingiz hech vaqoga arzimaydi, - dedi Yusuf alayhissalom.

- Ey podshoh, sening butun olamni yoritib turgan tantiliging, biz g'aribalarga ham biroz nur sochsa ne bo'lar. Keksa otamiz bor. O'g'li Ibn Yamin uchun g'on yig'layotgan shu otamizga rahm qil! Ibn Yaminni bizga sadaqa qilsang edi, ajrini Ollh taolo berardi, - deyiylhdi birodarlar.

Abdulloh ibn Horis ibn Navfal r.a. rivoyat qiladiki, Payg'ambarzodalar Yusuf alayhissalomdan iltimoslariga ijobat ololmagach, Ibn Yaminni ko'rmagach so'radilar:

- Ey aziz, o'g'ri deb ushlagan birodarimiz qani?

- Uni sotib, maktubga almashdim, - dedi Yusuf alayhissalom. Manna o'sha maktub, ammo bu maktub yahudiy tilida bo'lgani uchun o'qiy olmadik. Bu sizlarning tilingiz, shundaymi, o'qing eshitaylik.

Yahudo hijolatlik Bilan maktubni Rubilga berdi, Rubil esa Sham'unga, Sham'un Loviyga uzatdi, qo'ldan-qo'lga o'tkazdilaru o'qimadilar. "Bu maktubni o'qiy olmasmiz", dedilar.

- O'z tilingizni ham bilmaysizmi, bu qanday hol? O'qinglar! Har qanday jazo bo'lsa, tortayligu makutbni o'qish mashaqqatidan xalos qilgin. O'z tilimizda yozilgan maktubni o'qiy olmasmiz, - deyishdi birodarlar.

Qiyomat qoyim bo'lganda ham shu kabi holat yuz berarkn. O'shanda hapr bandaning qilmishlarini bir kitob qilib qo'lga berilar va o'qigini deyilar ekan. Bandalar ko'rsalarki, kitoblardagi yozuvlarning barchasi o'zlarining gunohu mavsiyatlarini ekan, ularni o'qiy olmaydilar. "O'qingiz!" degan farmon kelganida, faryod qilib: "B kitobimiz shu bo'lsa, o'rnimiz aniq do'zaxdir. Hijolatpazlikning zo'ridan bu kitobni o'qiy olmasmiz", deyishar ekanlar.

- hech qanday bahona sig'mas, o'qing! - dedi Yusuf alayhissalom. Va maktubni Yahudoga berdi. Yahudo xatni olib o'qidi. Unda Malik Za'rning Ya'qub payg'ambar alayhissalomning o'g'illaridan biri - Yusuf degan go'zal suratli o'g'lonni olganini bildirilar edi.

- Biz unga bir o'g'lonni qul qilib sotgan edik, - deyishdi payg'ambarzodalar Malik Za'r ismini eshitgach.

- Shu paytgacha qadar uni bo'ri yedi, deya'ytgan edingiz-ku, endiga kelib uni qul qilib sotdik, demoqdasiz. Yana uni qarindoshimiz deysiz, qarindoshni qul qilib sotish ravo bo'lmadi-ku?! Ushlang bularni, - deb amr qildi Yusuf alayhissalom.

Ularni ushladilar. Misrning hamma urug'lari yig'dirildi. "Bularni nima qilaylik?" deya maslahat solindi ulrga.

- Qo'llarini kesing! - deyishdi bazilari.

- Dorga osing! - dedi boshqalari.

- Bularni shunday azoblangki, qiynoqlar ostida o'lsinlar, toki bu o'zgalarga ham ibrat bo'lsin, qarindoshlarini sotmasinlar! - dedi Yusuf alayhissalom. Kishanlab, bozorga olib bormoqchi bo'lgandilar, birodarlar faryod qila boshladilar:

- Ey Aziz, bugun nima qilsang ham hadding sig'ar, shunga loyiqmiz. Sendan birgina tilagimiz bor: bizni o'ldirganingdan so'ng beqadr mol-tovorlarimiz bilan suyaklarimizni otamizga yuboring!

- otamiz Ya'qub payg'ambar shu kunga qadar bir o'g'li uchun yig'layverib, kzlaridan ajralgandi. Endi o'n o'g'ildan judo bo'lgach, ne ko'yg'a tusharkin! - dedi yig'lagan holda Yahudo.

- Yemish so'rab, sadaqa qil, degandik undan kehdik, Ibn Yamin birodarimizni sadaqa qil, degandik undan ham kehdik. Endi boshqa narsani so'raymiz - quruq boshimizni sadaqa qilgin! - deyishdi birodarlar zor-zor yig'lashib. Ularning bu holini ko'rib Misr elining barchasi yig'ladi.

Shu paytda jabroil alayhissalom farmon olib keldi: "Ey Yusuf, Olloh taolo amr qildi. Kelturganlaringni olmading, va'da qilgan bug'doyni bermading, Yana o'ldiraman deb qo'rqitarsan. Ularga bunchalik mashaqqat yuklamagin!"

- Kelturganlaringizni qabul qildim, oshliq beraman, berganda ham oshiribroq beraman. Qolgan ishlaringizni ertaga bitiraman, - deya birodarlarini behad sevintirdi Yusuf alayhissalom.

Qiyomat kunida ham Olloh taolo hamma bandalarini do'zax o'ti bilan qo'rqitar. Azobini ko'rgandan keyin, ularni o'z fazli bilan jannatga kiritar ekan. Hikoyatda kelishicha, Olloh do'stlaridan biri vafot etadi. So'ngra uni tushida ko'rib, "Olloh taolo sen bilan qanday muomala qildi?" deb so'raydilar. U shunday javob berdi: (Oyat)B "meni mahkam qilib hibsga oldilar va so'roq qildilar, so'ng yaxshilik qilib, ozod etdilar".

Aytishlaricha, birodarlar "bu xatni o'qimaymiz", deya bosh tortishdi. Shunda Yusuf alayhissalom o'z kotibiga berdi, u o'qidi.

- Ey podshoh, bu bizning xatimizdir. Yusuf degan qulimizni sotgan edik, - dedi Yahudo xat o'qib bo'lingach.

- Bu voqeani qanday bo'lgandi, aytib bering, - dedi Yusuf alayhissalom.

- Inimiz bilan ovga chiqqan edik. Biz ov bilan mashg'ul bo'lib qolganimizda uni bo'ri yeb ketdi, - dedi Yahudo.

- Bu so'zing menga ma'qul emas. Menda bir tarozi pallasini bor. Undan nimani so'ramayin rostini so'zlaydi, - dedi Yusuf alayhissalom va tarozi pallasini qo'lga olib, uni qoqqan edi, undan sado chiqdi.

- Ey yigitlar, sizlarning orangizda bir yigit bor ekan. Agar uning jahli chiqib, oyog'i bilan yerni tepsa, tizzasigacha kirib ketarmish. Agar u toshni qo'lga olib ezg'ilasa, undek maydalanib ketarmish. Achchig'lansa, tuklari kiymidan teshib chiqarmish. Agar na'ra tortsa, ovozi bir yig'och masofaga yetib borar va shu deparadagi homilador ayollarning bolasi tusharmish. U kimdir? - so'radi Yusuf alayhissalom.

- O'sha mendirman, - dedi Yahudo.

- menman degani andisha qilmaysanmi? Shunchalik quvvating bor ekan, Yusufni nega bo'riga yedirib qo'yding? - dedi Yusuf alayhissalom va yana tarozini qoqdi. Tarozi ayturki, sizlarning orangizda bir yigit bor. U soyasida ming qo'y yota oladigan daraxtni bir qo'li bilan sug'irarmish. Agar jangga kirsan, yigirma ming yigitga bas kelarmish. U kimdir?

- U mendirman, - dedi Sham'un.

- Shuncha quvvating bo'la turib Yusufni bo'riga yedirgani uyalmadingmi? - dedi Yusuf alayhissalom va tarozini yana bir bor qoqdi.

- Tarozi ayturki, bularning orasida bir yigit bor. U tuyani boshidan oshirib, dast ko'tarib tashlarmish. U kimdir?

- Menman, - dedi Loviy.

- Shunchalik qudrat bilan Yusufni qanday qilib bo'riga oldirding? - dedi Yusuf alayhissalom va shu tariqa o'n bor torozni qoqib, har biriga itob qildi. Yana bir bor tarozini qoqib davom qildi. - Bu tarozi ayturki, sizlar Yusufni o'ldirishga jahd qildingiz. Yana quduqqa soldingiz. Quduqdan chiqarib, qul qilib sotdingiz. Yana quduqqa soldingiz. Quduqdan chiqarib qul qilib sotdingiz.

"Oyog'iga kishanlar urgil, qattiq egarga mindirgil, uzoq yerlarga olib borib sotgil, uch aybi bor: qochoq, yig'loq, o'g'ridir", dedingiz. Bugun shunday kun keldiki, endi qo'llaringizni kesib, Misr elining eshiklariga ostiraman.

- Kelinglar, bunday sharmandalarcha azoblardan o'lgandan ko'ra, mardonaligimizni ko'rsatib, erlarcha ko'z yumaylik, - ular o'z tillarida maslahatlasha boshladilar.

Ba'zilarining aytishlaricha, bu so'zlarni eshitgan Yahudo sapchib o'rnidan turdi-da:

- Ey birodarlar, shu paytgacha qadar bu so'zlarni hech kimga aytganimiz yo'q edi, hattoki otamizu o'g'il-\*qizlarmiiz ham bilmas edilar. Buning ustiga otamiz "Boring undan Yusufni va Ibn Yaminni so'rang", deb tayinladi. Shunga ko'ra Ibrohim payg'ambar, Ishoq payg'ambar, Ya'qub payg'ambar alayhissalomlar haqqi-hurmatidan aytamanki, bu podshoh Yusufning o'zidir, - dedi.

- Ey podshoh, agar Yusuf bo'lsang, bizni ortiq qiynamagin, qari otamizni yana qayg'uga solib azoblanamagin, - deyishdi ular.

- Men o'sha Yusufman, - dedi Yusuf alayhissalom va yuzidan pardani ko'tardi, boshidagi nishonasi ko'rsatdi. - mana bu Ibn Yamin mening tug'ishgan qarindoshimdir.

Savol: Ibn Yaminning Yusufga qarindoshligini hamma bilan edi, "bu mening qarindoshim", deyishda nima hikmat bor edi?

Javob: Tarozi uning qopidan chiqib, o'g'ri degan nomni oldi, qul deb atalib olib qolindi. Qul nomni eshitganda ko'p qayg'urgani bois bugun ko'ngli o'ssin, sevinsin, degan ma'noda qilindi. Bundan ko'rinadiki, har bir qayg'aning so'ngida sevinch, har bir mashaqqatning ohirida ne'mat bor ekan.

- Ey Yusuf, biz seni qul deb sotdik, g'ariblikka soldik, ammo sen bu podshohlikka qanday erishding? - deb so'rashdi birodarlari.

- Olloh taolo bergan davlatdir. (Oyat) "Haqiqatda Olloh taolo bizga katta yaxshilik qildi. Kimda-kim yomonlikdan saqlansa va sabr qilsa, uning ajri Ollohnig o'zidir, chunki Olloh yaxshi amal qilnguvchilarning ajrini zoe' qilmaydi". Men Olloh taoloning hukmiga sabr qildim, Misr ayollarining balosidan o'zimni saqladim. Shularning barokatidan podshohlikka yetishdim, - dedi Yusuf alayhissalom. Shundan so'ng birodarlari uzr so'radilar, Yusuf alayhissalom esa ular uzrini qabul qildi, birodarlarini qayg'udan xalos qildi. - (Oyat)B "Ey birodarlarim, sizlar meni quduqqa tashlamadingizlar, balki meni taxtga o'tirdingizlar. Ey birodarlarim, sizlar meni g'urbatga tashlamadingizlar, balki meni podshoh qildingizlar".

- hudo haqqi (Oyat) "Olloh seni aziz tutib, bizdan yuqori g'ilibdi va bizlar aniq hato qilnguvchilardan dirmizlar", - deyishdi ular.

- (Oyat) "Sizlarga bugun hech bir itob yo'qdir", dedi Yusuf alayhissalom. -B "Olloh sizlarni mag'firat qiladi, chunki u rahmidillarning rahimidilrog'idir".

Shundan keyin ular o'rinaridan turib, bir-birlari bilan quchoqlasha ketdilar. Yusuf alayhissalom o'g'li afrohimni qarindoshlari bilan tanishtirdi. Misr xalqi bilan ham uzrxonliklar bo'ldi.

- O'shanda qonli ko'ylakni men olib borgan, otamizni qayg'uga botirgan edim, - dedi Rubil Yahudoning oyog'iga bosh urgudek bo'lib. - Qayg'u mendan bo'lgandi, sevinch ham medan bo'lsin.

- O'shanda ko'ylakni ham olib borgan bo'lsa, bu safar ham o'sha eltsin, -dedi Yusuf alayhissalom har biri bu ishga da'vogar bo'lib turgan birodarlarini murosaga keltirib. Rubil boradigan bo'ldi.

Savol: Ya'qub va Yusuf alayhissalomning ayriliqlariga sabab nimada edi?

Javob: Yusuf yosh chog'ida Ya'qub alayhissalomning Mubashshara ismli xizmatkori bor edi, uning Bashir degan o'g'li bo'lar edi. Bir kuni o'ynab yurgan chog'da Bashir Yusufga bir shapati uradi. Shunda Yusuf yig'lab otasi oldiga kelganida, Ya'qub alayhissalom bashirni sotib yuboraman, deya qasam ichadi. Va ohir-oqibatda uni onasidan ayirib, sotib yuboradi. Mubashshara yig'laganicha qoladi. Shunda Olloh taolo: "Ey Ya'qub, Sen Bashirni onasidan ayirib sotding, men ham Yusufni sendan ayirib sotgayman. Hamma odamlar bilsinlarki, etni tirnoqdan ayirish kerak emas!"B Deya tag'qdir etgandi. Aytishlaricha, mubashshara o'g'li Bashirning qayg'usida yig'lay-yig'lay ko'zlarik o'r bo'ldi, Ya'qub alayhissalomda ham bu hol takror bo'ldi. Mubashshara zor yig'lab Ya'qub alayhissalom oldiga keladi. Shunda u zot Olloh taologa murojat qiladi: "Iloho, mubashshara o'g'li bilan qovushadimi? Mening o'g'lim ham men bilan qovushadimi?" Xitob keldi: "Ey Ya'qub, Mubashsharaning o'g'li bilan qovushtirmaguncha, seni o'g'ling bilan qovushtirmayman. Taqdir shudir". Ya'qub alayhissalom bu sevinchli habarni aytganida Mubashshara dilida ishonch va quvon uy'g'ondi. Kak'on yo'lining boshiga kepa tikib, o'tira boshladi. O'g'li Bashir Misrda qul edi. Yusufning habaridan ogoh tapgach,B "Bu Sevinch habarni Ya'qub payg'ambarga yetkazib, sevintirayin", deya yo'lga tushdi. Bashir ilgari rubil ortidan Kan'onga borapr edilar. Kano'nga yetganda Bashir onasi o'tiragn kapachaga borib suv so'radi. Onasi suv berdi.

- Qaydin kelib, qayga borursan, - so'radi kampir.

- Misrdan kelarman, Kan'onga borarman. Ya'qub payg'ambarga o'g'li sevinchisini aytgani keturman, - dedi Bashir.

- Yolg'on gapirma, - dedi kampir.

- Ey kampir, bunday diyishingning boisi nima?

- mening o'g'lim ham mendan ayriliqda. Ya'qub payg'ambarining duosi bilan Olloh taolo habar berganki: "Mubashsharani o'g'li bilan qovushtirmaguncha, Yusufni otasiga qovushtirmagayman", deb. hali menga o'g'limning sevinchisi kelgani yo'q. Shunday ekan Ya'qubga Yusufning sevinchi qandayin ham kelsin.

- Oting nimadir, ey ona?

- Mubashshara.

- O'g'lingning oti nimadir?

- Bashir, - dedi kampir. Buni eshitgan o'g'il tuyadan sapchib tushdida onasining oyog'iga tashlanib "O'g'ling menman!", dedi.

O'g'lini bag'riga bosib quchoqlagan onaning ko'zlari ochildi.

Aytishlaricha, rubil Misrdan chiqib, yo'lining yarmiga yetganida Ya'qub alayhissalom Kan'onda turib, Yusuf alayhissalom ko'ylagining hidini sezdi. U zot faryod qilib aytdiki: (Oyat) "Men Yusufning hidini sezyapman. Men aqldan ozgan, Deya ta'na qilmanglar".

- Yusuf qayg'usida qariding. Hamon eski so'zingni davom ettirmoqdasan, - deyishdi uydagi qizlari.

O'sha kuni Bashir onasi bilan kirib kelib, Ya'qub alayhissalomga sevinchlik habarni yetkazdilar. Keyin Rubil kirib kelib, ko'ylakni otasi oldiga qo'ydi. Ko'ylakni ko'zlariga surtgan Ya'qub alayhissalomning ko'zlari ko'ra boshladi. Rubilni quchoqladi, Yusufni darakladi. Rubil o'tgan voqealarni birma-bir so'zlab berdi. Ertasi kuni qolgan o'g'illari kirib keldilar, Yusuf alayhissalomning xizmatkorlari ham yetib kelishdi.

Savol: Ko'ylakni surtish bilan Ya'qub alayhissalomning ko'zlari ochildi. Buning hikmati nimada edi?

Javob: Aytishlaricha, Yusuf alayhissalomning ikki mo'v'ijjalari bor edi. Biri tarozu edi - qaysi savolni so'rasa, javob berar edi. Ikkinchisi ko'ylak edi - qachonki, Namrud alayhil la'na o'tga otganida, Jabroil alayhissalom Olloh taolo farmoni bilan jannatdan bir ko'ylak keltiririb, uni Ibrohim alayhissalomga kiydirgandi, o't uni kuydirmagandi. Bu o'sha ko'ylak edi. Yusuf alayhissalomga meros edi.

Alqissa, Yusuf alayhissalom ko'ylakni yuborib, ertasi birodarlariga: "Sizlar ham boringlar, bola-chaqalaringizni olib kelinglar", deb ruxsat berdilar. Ibn Yamin "Kan'ondan necha kishi keladi?" deb so'ragandilar katta-kichik yetmish jon (yana bir rivoyatda to'rt yuz kishi) deb javob beradi. Yusuf alayhissalom kishi boshiga yuz misqol oltin, yuz misqol kumush, yuz misqol anbar, yuz misqol mushk berib yubordi. Yuklarni ot, tuya, mol-qo'ylar bilan Ibn Yaminga berib, noma yozdilarki:B "Xizmatlariga o'zim borayin, degandim farmoni ilohiy bo'lmadi. Hammalaringizni bu yerga kelishingizga amr bo'ldi. Bu zaru zevalarni yo'l harjlariga sarflarsizlar", deb.

- Ey ota, bizlar badkirdorlarmiz. Olloh taolodan gunohlarimizga mag'firat tilang, ularni kechirsin, - deyishdi birodarlar otalariga.

- Gunohlaringizni parvardigorimdan tilarman, - dedi Ya'qub alayhissalom.

Rivoyatlarga ko'ra, Ya'qub alayhissalom Yusuf alayhissalomning daraklarini eshitgach, ikki rakaat shukrona namozini ado qildilar. Jamiki nevara va evaralariga kelgan hadyalarni ulashib berdilar. Yo'l tadorigini ko'rib, Misrga qarab yo'lga tushdilar. Rubil Yusuf alayhissalomga habar yetkazish uchun oldinroq yo'lga tushdi. Hammalari to'da-to'da va to'p-to'p bo'lib, Misr yo'lga tushdilar.

Rubildan xushhabar olgan Yusuf alayhissalom o'g'li Afrohimni uch ming kishi bilan ularni kutib olgani yubordi. Misrga uch kunlik yo'l qolgan joyda Afrohim bobosini uchratdi, otdan tushib, salom qildi.

- Bu kimning o'g'li bo'ldi? Ko'nglimga biram yoqdiki, Yusufga o'xshab ketarkan, - dedi Ya'qub alayhissalom.

- Ha, bu Yusufning o'g'lidir, - deishdi. Ya'qub alayhissalom o'g'lonni bag'riga bosib, mahkam quchoqladi.



Yusuf alayhissalom "Kimki meni hurmat qilsa, otamni qarshi olgani chiqsin", deya jar chaqirtirdi. To'rt ming kishi otlandi.

Karnay-surnay, nog'oralar chalib, otasiga peshvoz chiqdi. Uning qizil oltindan yasalgan, inju yoqutlar bilan bezatilgan, yulduzlar o'rnatilgan alvon bayrog'i bor edi. O'sha bayroqni ko'rsatsalar, osmon larzaga kelardi, buni eshitgan haloyiq behush bo'lardi. Yusuf alayhissalom o'sha bayroqni olganicha otasiga peshvoz yurdi.

Ya'qub alayhissalom dastlabki odamlar to'piga yetdilar. Ular to'rt ming kishi edilar.

- Yusuf bormi, bularning ichida? - so'radi Ya'qub alayhissalom.

- Yo'q, bular Yusufning chavandozlaridir, - dedi Ibn Yamin.

Sipohlar otdan tushib, ta'zim bajo qildilar. Keyin yana to'rt ming bezatilgan tuyalar to'dasiga duch keldilar. Har bir tuyaning ustida ikkitadan kanizak o'tirardi.

- Bular kimlar bo'ldilar? -so'radilar Ya'qub alayhissalom.

- Akamning kanizaklaridir, - javob qildi Ibn Yamin.

Yana bir to'da peshvoz keldi. O'n ming kishi kelib, payg'ambar otining o'zangisini o'pdilar.

- Bular kimlar bo'ladilar?

- Og'amning kechayu kunduz xizmatlarida turadigan g'ulomlardir.

Ulardan keyin to'rt ming oq kiyimli, oq sallali, oq otli oqsoqollar keldilar.

- Bular kimlar? - so'radi Ya'qub alayhissalom.

- Bular og'am sizdan o'z gunohini so'rash uchun yuborgan olim va fuzalolardir, - dedi Ibn Yamin.

- Nima gunoh qilgan ekan?

- "Ko'rgan tushingni og'alaringga aytmagin", deganingizda unga quloq tutmay birodarlariga aytgan ekan. Shu gunohini so'raydilar, - dedi Ibn Yamin.

Ya'qub alayhissalom darhol avf etdilar. Shundan so'ng o'n ming odami bilan Yusuf alayhissalom paydo bo'ldilar.

- Bular kimdir? - so'radi Ya'qub alayhissalom.

- Og'am Yusuf xos lashkari bilan kelayotir, - dedi Ibn Yamin.

Ya'qub alayhissalom tuyadan tushib, piyoda bo'lib oldilar. Yusuf alayhissalom esa uchrashuv ishtiyoqi bilan piyoda bo'lmoqlikni faromiush qildi va otasini ot ustida turib quchoqladi.

Savol: Yusuf alayhissalom nima uchun otasi bilan otdan tushib ko'rishmadi?

Javob: Rayyon podshoh "Otdan tushmagin!" B degan edi. Yusuf alayhissalom mulohazaga berildi: "Agar otdan tushsam, podshohning ko'ngli og'riydi. Agar tushmasam, otam ko'nglini ozorlagan bo'laman". Namoz o'qidi, sajdada tush ko'rди, tushida: B "Oy Yusuf, otdan tushmagin. Podshoh mahluqdir, seni kechirmaydi. Olloh taolo karam sohibidir, seni kchirgay!", degan gapga rioya qildi. Shu sababdan otdan tushmadi. Buning oqibatida Yusuf alayhissalomning farzandlariga payg'ambarlik tegmadi. Boshqa rivoyatda aytishlaricha, hazrat Jabroil alayhissalom ogohlantirdilar. Darhol otdan tushib, piyoda bo'ldi va otasi istiqboliga yugurdi. Buni ko'rgan hamma odamlar piyoda bo'ldilar. Ikki g'amzada qalb ishtiyoq va mashaqqat otashida, ayriliq alagansida qovrulib, bir-birlariga ulandilar. Muborak qo'llar bo'yinlarga chirmashdi, goh xushlaridan ketar, goh xushlariga kelar edilar. Yusuf alayhissalom otasini o'n ming ot qo'shilgan oltin aravaga chiqardi, otlarning barchasi oltin va kumush jihozlar bilan ziynatlangan edi. Aravani to'rt ming oltin dubulg'ali yigitlar qurshab borardilar. Misrga shunday dabdaba bilan kirib bordilar. Saroyda ular uchun alohida tayyorgarlik ko'rilgan edi. Bu paytda Yusuf alayhissalomning holalari Ya'qub alayhissalomning nikohlarida edi. Otasi va xolasini taxtga chiqardi. Shunda otasi va xolasi hamda o'n bir birodarlari Yusuf alayhissalomga sajda qildilar.

- Ey ota, Kan'ondalik paytimda o'n bir yulduz bilan oy va quyosh sajda qildi, degan tushim bugun o'ngidan keldi, - dedi shunda Yusuf alayhissalom.

Savol: Mahluqqa sajda ravo bo'lmasdi. Ya'qub alayhissalomning hamma o'g'lonlari bilan sajda qilmoqliklariga sabab nimada edi?

Javob: Sajda to'rt qismdir: Sajdai ibodat, sajdai savh, sajdai tilovat, sajdai tahiyat. Sajdai ibodat - Ollohdan boshqaga ravo emas. Shundan so'ng Ya'qub alayhissalom o'g'illaridan bo'lib o'tgan voqealarni so'radilar. Yusuf alayhissalom hamma sarguzashtlarini birma-bir bayon qildilar, lekin birodarlarining kirdikorlarini "Toki otamning ulardan ko'ngillari sovimasin", degan mulohaza tufayli aytmadilar.

Savol: Yusuf alayhissalom tushining ta'biri ro'yobga chiqquncha necha yil vaqt kerak bo'ldi?

Javob: Hasan va katoda so'zicha, sakson yil o'tgan edi. Sulaymonning so'zicha, qirq yil o'tgandi. Sa'di ibn Habir so'zicha, o'ttiz olti yil va yana bir rivoyatga ko'ra yigirma ikki yil hamda Muhammad ibn Ishoq so'zicha, o'n sakkiz yil vaqt o'tgan edi.

Alqissa, Ya'qub alayhissalom Misrga kirganda ko'rdilarki, ko'chalar oynavandli qiliniydi, har qaysi supalarda bulbullar sayrab, xushovoz hofizlar kuylab turardi. Misrning hamma ahli jome' masjidiga to'planib, Ya'qub alayhissalomni mehmon qildilar.

- Ey Misr xalqi, - dedi Yusuf alayhissalom taomdan forig' bo'lganlaridan so'ng. - Sizlar ko'msizlaru men kimdirman?

- Ey podshohi olam, siz bizlarning ko'nglimiz sururisiz. Bizlar kattayu kichik, erkaga ayol barchamiz sizning qulingizimiz, - deydishi ular jo'razov bo'lib.

- Ey haloyiq, - baland ovozda murojat qildi Yusuf alayhissalom, - bilinlar va ogoh bo'linglarki, bu payg'ambari zamon mening otam bo'ladilar. Uning farzandlari bo'lgan mana bu yigitlar mening birodarlarim bo'ladilar. Bularning haqqi-hurmatidan hammalaringizni qullikdan ozod qildim.

Shu bilan birga mulku davlatlari ham qaytarib berildi. Shunda Misr xalqi Ya'qub alayhissalomning shunday ulug' zot ekanligiga amin bo'lib, "Laa ilaha illallohu Ya'quba nabiulloh", deya imon keltirib, musulmon bo'ldilar.

Qiyomat vaqti kelganda xuddi shunga o'hshash voqea yuz berarkan. Qiyomat qoyim bo'lib, hamma odamlar mahsharga jam bo'lganda, payg'ambarimiz Muhammad (s.a.v)ni o'ngt qo'llaridan Jabroil alayhissalom, chap qo'llaridan Mekoil alayhissalom maqomi mahmud (munosib joy)ga eltishar ekanlar. U joyga bir minbar qo'ydilar, payg'ambar alayhissalom unga chiqar ekanlar. Shu payt Olloh taolo tarafidan nido kelar ekan: "Ey mahshar ahli, sizlar kimsizlaru Men kimdirman?" B Shunda: "Iloho, sen bizning parvardigorimiz va hojamizdiansan! Bizlar sening osiy va gunohor bandalaringizimiz!" der ekanlar. Shunda Olloh taolodan yana nido kelarkan: B "Men habibim Muhammadning xushnudligi uchun sizlarning hammangizni do'zaxdan ozod qildim!" degan.

Inshoolloh, yo rabbil b'holamiyn!

Xullas, ertasi kuni Rayyon podshoh Misrning butun ulug'lari kelib, Ya'qub alayhissalomga salom qildilar va huzurlirida hammalari musulmon bo'ldilar.

Rivoyat qiladilarki, Yusuf alayhissalom Rayyon podshohning huzuriga kelganida, uning saroyi oldida har biri besh ming

botmondan bo'lgan yettita tegirmon tosh bor edi. Podshoh Yusufo alayhissalom bilan ko'rishgani borayotganda, uning ko'rku jamoliga mahliyo bo'lib, shu toshlarga oyog'ini urib oladi. Shunda Yusuf alayhissalom u toshlarni dast ko'tarib, chetga olib qo'ygan va bu kuch-qudratni ko'rgan podshoh hayron qolgan edi. Vaqtiki, podshoh Yusuf alayhissalomning birodarlarini ko'rganida shu voqea yodiga tushadi. Va ularning ham qudratlarini ko'rmoqchi bo'ladi.

- Og'alarizingiz shijoat sohiblarimi? - so'radi podshoh.

- Imtihon qilib ko'rsangiz bo'lar, - dhedi Yusuf alayhissalom.

Shundan keyin podshoh ularni ovga taklif qildi. Sha'mun bir arslonni tutib, podshohning oyog'i ostiga keltirib tashladi. Rubil bir sherni tosh bilan urib o'ldirdi. Loviya bir botmon toshni bir qo'li bilan havoga irg'itib, yana bir qo'li bilan tutib oldi. Shu tariqa har birlari bir zo'rlik namoyish qilib, podshohning tahsiniga sazovor bo'ldilar.

Podshoh Yusuf alayhissalom qoshiga kelib:

- Og'alarizingizga ayting, menga bir viloyat olib bersinlar, - dedi.

Yusuf alayhissalomdan bu so'zni eshitgan birodarlari otalari qoshiga borib, undan ijozat oldilar. So'ng har qaysilari ming kishidan o'n ming qo'shin olib rumga bordilar. Shom Bilan Rum oralig'idagi o'n bir qo'rg'onning hammasini zabt etib qaytdilar.

- Yana qaysi tarafda dushmaning bo'lsa, ayt, yo'q qilaylik, - deyishdi birodarlar podshoh qoshiga kelib.

- Endi menga viloyat kerakmas, qaridim, olgan yurtlaringni o'zingizga berdim, - dedi podshoh ularga. Birodarlarning har biri bir yurtga hokim bo'ldilar. Bani isroil ularning avlodlari bo'ldi.

Aliqssi, Rayyon podshohning Muz'af ismli o'g'li bor edi. To'qqiz yoshli bu bolani Yusuf alayhissalom tarbiyasiga topshirdilar.

Podshoh esa musulmon bo'lganidan so'ng uch yilu sakkiz oy umr ko'rib, vafot etdi. Ya'qub alayhissalom bo'lsa, Misrga kelgach, yigirma to'rt yil umrguzaronlik qildilar, hamma haloyiq unga imon keltirib, musulmon bo'ldilar. U zot vafot topgach, jasadlarini Kan'onga eltib, dafn qildilar. Yusuf alayhissalom otalari vafotidan so'ng payg'ambarlikni qabul qilib, yigirma yetti yil yashadilar. Vafotlari misrda bo'ldi va shu yerda dafn qilindi. Muso alayhissalom zamoniga kelganda, uning suyaklarini Kan'onga eltib, otasi yoniga dafn qildilar.

Xadis. Payg'ambarimiz Muhammad mustafo (s.a.v.) deydilarki: "Payg'ambarlarning eti yerga haromdir, chirimaydir. Ammo Zulayho Yusuf alayhissalomni uyga qamab, o'ziga tortgan paytda iltifotni ko'rmaganida degan edi:

- Ey Yusuf, ko'zlaring muncha-yam ko'rklidir?

- Ertaga bu ko'zlar qabrda so'lg'uvsi, tuproqqa aylanguvsidir, - dedi unga javoban Yusuf alayhissalom.

- Qanday go'zal sochlaring bor-a?

- Ertaga qabr ichida birin-birin chiriguvsidir.

- Behad chiroyli tishlaring bor-a?

- Ertaga go'r ichida hammasi to'kilguvsidir.

Zulayhoning so'rovlariga Yusuf alayhissalom uning ko'ngli sovisin deb shu tariqa javob qilgan edilar. Olloh taolo Yusuf alayhissalomning shu so'zlari rostga chiqsin, deb etlarini chiritdi, suyaklarni ushatdi".

Yusuf Alayhissalomning Zulayhoga Qovushganlari

Azizi Misr vafot etib, Zulayho tul qolgach, o'n sakkiz yil umidvorlik Bilan kutdi, uni so'ragan Misr ulug'lariga unamadi. Ko'nglida kundan-kun Yusuf alayhissalom muhabbati ortgandan-ortib, firoqda zor-zor yig'lar edi. Borliq boyligini sarf qildi: kimki Yusuf nomini aytsa, unga bir oltin berdi; kimki Yusuf so'zini aytsa, unga bir oltin berd iva oqibatda dunyosi tugadi, faqira bo'ldi, qashshoqlashdi. Yusuf alayhissalom firoqida Ya'qub alayhissalom kabi zor-zor yig'lay-yig'lay ko'zlari ko'r bo'ldi. U qachon och qolsa, "Oh Yusuf" B der, - qorni to'yardi, qachon chanqasa B "Oh Yusuf" der, - chanqog'i qonardi. O'n sakkiz yillik hayoti shu tahlitda o'tdi.

Kunlarning birida Zulayho Yusuf alayhissalomning ovga otlanganini eshitib qoldi.

- Qo'limdan tutib, Yusufning kelar yo'liga olib borgin, - dedi u o'zi bilan qolgan yolg'iz kanizagiga. U kanizak Zulayhoni yo'l bo'yiga olib bordi va bir uy soyasida o'tirdilar. Yusuf alayhissalom lashkari bilan paydo bo'lganida kanizak Zulayhoga ma'lum qildi.

- (Oyat) "Hamdu sano Ollohga bo'sinki, U qulni sabr barokatidan podshoh qilibdur, podshohni esa shahvat falokatidan qul qilibdur", - dedi tayoqqa tayanib o'rnidan turgan holda Zulayho baland ovoz bilan. Ammo uning ovozini Yusuf alayhissalom qo'shinlarining shovqini bosib ketdi va u eshitmadi. Shunda Ollohning amri bilan shamol Zulayhoning ovozini Yusuf alayhissalom quloqlariga yetkazdi. Zulayho ovozini eshitgan Yusuf alayhissalom otning jilovni tortdi-daB "Ey Zulayho!" dedi. Yori ovozini eshitgan Zulayho sevinchidan oh urib, xushidan ketdi. Yusuf alayhissalom Zulayhoning ahvolini ko'rib, yig'ladilar.

- Yoshliging, husnu amoling qani? - so'radi Yusuf alayhissalom Zulayho xushiga kelgach.

- Ishqingda barbod bo'ldim, - dedi Zulayho.

- Molu davlating qani?

- Sening habaringni keltirganga fido qildim.

- Ko'zlaring nima uchun ko'r bo'ldi?

- Firoqingda ko'p yig'lamoqlikdan.

- Nimani tilarsan?

- Jamolingni bir ko'rmoqlikni.

- Buni saroyga olib boringlar, qaytganimda yonimga olib kelasizlar, - dedi Yusuf alayhissalom.

Zulayhoni Yusuf alayhissalom saroylariga olib kelganlarida Ya'qub alayhissalom hayot edilar. Bo'lib o'tgan qissalardan bohobar bo'lgan Ya'qub alayhissalom kechmishlarni Zulayhoning o'zidan eshitmoqlik niyatida boshidan o'tganlarini so'zlab berishini so'radilar. Zulayho esa barcha ishlarni rostgo'ylik Bilan bayon qilib berdi.

- Ey Zulayho, Yusufning muhabbati hanuz ko'nglingda bormi? - deb so'radi Ya'qub alayhissalom.

- Muhabbatim avvalgidan ham ziyodaroqdir, - dedi Zulayho.

Yusuf alayhissalom ovdan qaytganida Ya'qub alayhissalom Zulayhoni uning huzuriga olib keldi. Yusuf alayhissalomning qo'lida dastasi oltindan yasali, la'l, yoqut, zumraddan ziynatlangan qamchi bor edi.

- Ey Yusuf, qamchingingizni uchini menga bering, - dedi Zulayho.

Yusuf alayhissalom qamchinging uchini og'ziga tutganida Zulayho bir oh uradi, shunda uning og'zidan o't chiqib, qamchiga tushadi va qamchi erib, oqib ketadi.

This is not registered version of TotalDocConverter

- Ey Yusuf, qandaydir qiyomatga berib kelingan yasalgan bir buting bo'lardi, uni nima qilding?

- Bir kuni o'sha butga borib shunday dedim: "Sakson yil bo'ldiki, senga topinaman. Manna qaridim, kampirga aylandim. Bugun sendan uch hojatim bor, shularni ravo qilishingni so'rayman: avvalo-yoshligimni qaytarib bergin, ikkinchi-husnu jamolimni qaytargin, uchinchi - ko'zimni ochgin!" Necha bor zoru tavallo qilsam-da, hech javob bermadi. Achchig'landim, tosh bilan urib, pora-pora qildim, keyin o'tga yoqdim. Endi seni oldingga keldim. To'rt hojatim bor, Olloh taolodan so'rab bergil, ravo qilsa, imon keltirayin.

- Aytgil, - dedi Yusuf alayhissalom.

- Meni o'z nikohingga olgin, - dedi Zulayho.

- Haligacha bu so'zingdan qaytmadingmi? - achchig'landi Yusuf alayhissalom. - Buni olib chiqinglar!

- Ey Ya'qub, Yusufga aytgil, va'dasini bajarsin, Zulayhoning hojatini chiqarib, uni o'z nikohiga olsin! - deya Olloh amirini olib keldi Jabroil alayhissalom.

Ya'qub alayhissalom Olloh taoloning bu amrini Yusuf alayhissalomga yetkazgandi, u darhol qabul etdi. To'y asboblarini hozir qildilar. Olloh farmoni Bilan kelgan Jabroil alayhissalom ularni nikohladilar, Odam layhissalom Bilan Havvo onamizning nikohlariga o'qilgan xutbani o'qidilar. Misr xalqi sevinchlarga to'ldi, Ya'qub alayhissalom tangriga shukrona keltirdi. Aytishlaricha, Olloh taolo Zulayhoning ko'nglidagi muhabbatni olib Yusufning diliga soldi va o'rniga o'z muhabbaini soldi. Shundan so'ng Zulayho kechayu kunduz toat-ibodatga yuzlandi, Yusuf alayhissalomni esa unutdi. Qachon Yusuf alayhissalom mayl qilsa, Zulayho undan qochar edi.

- Ey Zulayho, ilgari men sendan qochar edim, sen ortimdan quvarding. Endi bo'lsa, sen mendan qochasan, men bo'lsa ortingdan quvarman, bu ne hol bo'ldi? - taajubga tushda Yusuf alayhissalom.

- Men o'sha mahalda husnni ko'rib, ko'zimni oldirgandim. Endi latif bo'ldim, o'ziga sig'indim, - javob qildi Zulayho. Ul kunda izzat ko'rdim, ko'ngil berdim, aziz bo'lib, o'ziga bog'landim.

Aytishlaricha, bir kuni Zulayho kechki ibodatga boray deb hozirlanganda Yusuf alayhissalom uni tutib qolmoqchi bo'ldi, Zulayho qochadi. Yusuf alayhissalom ortidan yuguradi, tutmoqchi bo'lib, qo'l uzatgandi, Zulayhoning orqa etagi yirtildi. Shu payt bir farishta keldi-da:

- Ey Yusuf, endi bir-biringizda haqlaringiz qolmadi. Zulayho sening firoqingda etak yirtgandi, sen ham Zulayhoning firoqida etak yirtiding, - dedi.

- Ey Yusuf, men sizni sevdim, ammo rahm qilmadingiz, yo'lingizda molu dunyoimni sarf qildim, hech iltifot etmadingiz. Ohirida yaratgan Parvardigorim dargohiga yuzlandim, alhamdulillah, murodimga yetdim. Endi kechayu kunduz uning ibodatiga mashg'ul bo'dayin, - dedi Zulayho.

Bundan sevingan Misr xalqi hadyalar keltirdilar, mol-dunyo nisor etdilar, ammo Zulayho ularning hammasini Yusuf alayhissalomning qarindoshlariga berdi.

Aytishlaricha, Zulayhoni Yusuf alayhissalomga nikoh qilganlaridan so'ng ikkovlari hilvatga kirganlarida Zulayho shunday dedi:

- Ey Yusuf, men seni shunchaki sevgan emasman. Ikki sababdan sevdim: biri - seni ko'rking uchun sevdim, zero go'zallikni sevmog' ayb emas. Ikkinchidan - erim Azizi Misr menga yaramas edi, agar mayl qilib qolsa, faryod urib qochar. O'n sakkiz yoshda unga tekkan bo'lsam, shu kunga qadar er bilan qovushmog' lazzatini ko'rmadim, onadan tug'ilgandek bokiraman. U qachon mayl qilsa, faryod urib qochar. Sababini so'rasam, "Seni ortingda ikki arslon paydo bo'ladi va menga hamla qiladi, ulardan qocharman", derdi.

- Ey Zulayho, u ikkisi arslon emas, farishtalar edi, Olloh taolo farmoni bilan seni kofirdan men uchun saqlagan edi, - dedi Yusuf alayhissalom. Yusuf alayhissalom Zulayho bilan qo'shilganlarida u onadan tug'ilgandek bokira edi.

- Umrin davomida hech bir er bilan suhbat qilmaganim, o'zga kishini ko'nglim tilamaganim barobarida Azizning sirini hech kimga oshkor qilmadim, Ollohga beaded shukurki, murodimga yetkazdi, - dedi Zulayho.

Aytishlaricha, Yusuf alayhissalom Zulayho bilan birgalikda o'n sakkiz yil ro'zg'or qildilar, besh o'g'il, ikki qiz farzand ko'rdilar. Shundan so'ng vafot etdi. Yusuf alayhissalom umrlari oxiriga yetganda shunday menojot qildilar:

- Iloho meng' mulk berding, tush ta'birini ko'rsatding, shariat hukmlarini bildirding, beaded shukr. Ilohi, meni va yeru osmonni yaratgan O'zingsan, meni quduqdan chiqargan, qullikdan xalos etib, podshoh qilgan o'zingsan. Iloho, Dune va ohiratda saylaganim o'zingsan. Iloho, dunyoda azizu mukarram qilding, ohiratga borarimda meni imon va islom bilan huzuringga olgin!

Aytadilarki, Olloh taolo payg'ambarlariga qaysi ayolni taqdir qilsa, u ayolni huddi Zulayhoni Yusuf alayhissalom uchun saqlagandek saqlar ekan.

Savol: Payg'ambarimiz Muhammad mustafo (s.a.v.) Xadicha onamizni yuzi ochiq olmadimi?

Javob: Olloh taolo o'z payg'ambarlari ayollarning avvalgi erlarini Azizi Misr kabi biror illatga muhtalo qiladiki, xotinlari Bilan qovusha olmaydilar.

Savol: Yusuf alayhissalom aytgan mulk qaysi edi?

Bunga yetti javob bordir. Avvalgi javob shuki - Yusufga hasad qildilar, uning uchun qayg'uli bo'ldilar.

Ikkinch javob: xusni chiroy mulki edi.

Uchinchi javob: ko'ngil mulki edi. Ko'rganlar Yusufni sevib qolardilar, ko'rmaganlar eshitib suyib qolardilar.

To'rtinchi javob: sahovat mulki edi. Ochlik yillarida hech kim Yusuf alayhissalomchalik sahovatli bo'lmagandi.

Beshinchi javob: payg'ambarlik mulki edi. O'n sakkiz yoshida payg'ambarlikka munosib ko'rildi.

Oltinchi javob: Olloh taolo qazosiga rozi edi.

Yettinchi javob: hammasidan aniqrog'i Misr mulki edi. . .

Bu qissa ko'ngil ko'zi ochiq, basirat sohibi (zehni o'tkirlar) uchun ibratdir.

Vallohi taolo a'lam bissavob.

Izoh: Qo'lyozmaning shu yerida "Yusuf va Zulayho" dostoni uzilib, keyingi sahifadan boshqa rivoyat boshlanadi. U rivoyat Muso alayhissalom qissalarining boshlanishidir. Rivoyatning boshlanish qismi qo'lyozmada yo'q.

Kitobda berilgan ushbu izohni keltirish bilan "Rabg'uziy qissalari" kitobining birinchi qismi tarjimasini tugallaymiz. Va ushbu hayrli ishga muayassar etgani uchun Olloh subhanahu va taologa beaded hamdu sanolar aytamiz.